Devid Snou: “Strategik tushunchalar, tahdidlar va xavfsizlik modeli – bu empirik real voqelik emas, balki ijtimoiy-madaniy interpretatsiyalar natijasidir. Harbiy tadqiqotchi esa ushbu interpretatsiyalar o’rtasida epistemik farqlash qobiliyatiga ega bo’lishi kerak”[8;402]. Germaniya xavfsizlik akademiyasi olimi A.Yunker: “Zamonaviy harbiy strategik tadqiqotlar hanuzgacha texnosentrik yondashuvda qolmoqda. Bu esa ijtimoiy noravshanliklar, semantik beqarorlik va siyosiy dinamikani to’la inobatga olmaslik xavfini tug’diradi. Yechim esa — konseptual fanlararo paradigmalarning joriy etilishidadir”[9;109]. Amerikalik harbiy strategik epistemolog T.Farrell: “Harbiy tadqiqotchilar murakkab tahdidlar strukturasi anglashda ko’p fanli tafakkurni o’zlashtirmas ekanlar, ularning strategik tahlili real operatsion muhit bilan uyg’unlashmaydi. Harbiy fan bugun fanlararo konstruksiyaga aylanmoqda”[10;73]. Ispan harbiy strategiya olimi Xosep Bakes: “Kiberstrategiyalar, axborotiy dominatsiya, ijtimoiy manipulyatsiya, iqlim inqirozi – bularning barchasi harbiy nazariyaning axborot nazariyasi, ekologiya, siyosatshunoslik va psixologiya bilan integratsiyasini talab qiladi. Strategik qarorlar endi sof harbiy aql emas, balki hibrid intellekt mahsuli bo’lmoqda”[11;118]. Nemis siyosiy-ijtimoiy tizimlar tahlilchisi Dirk Messner: “Fanlararo yondashuvlar hozircha ko’proq deklarativ tusga ega. Harbiy tadqiqotchilarning ko’pchiligi fanlararo konsepsiyalarni o’zlashtirmaydi, balki ularni muqobil tilda takrorlaydi. Natijada metodologik sintez emas, konseptual bifurkatsiya yuzaga keladi”[12;39]. Yapon harbiy-kognitiv tadqiqotchisi Nakamoto Hideo: “Harbiy tadqiqotchi endi universal bilim ishlab chiqaruvchi intellektga aylanishi kerak. Bu esa faqat texnologik emas, balki aksiologik, etnopsixologik va semiotik ko’nikmalarni o’zlashtirish orqali amalga oshadi. Harbiy bilim — bu diskursiv kompleksdir”[13;91]. Norvegiyalik harbiy-falsafiy tahlilchi Tomas Halvorsen: “Zamonaviy xavfsizlik tahdidlari faqat qurol-yarog’ orqali emas, balki ong, semantika va bilim tarmog’i orqali yuzaga chiqmoqda. Harbiy tadqiqotchi esa ushbu tarmoqlarni faqat fanlararo metodologiyalar asosida anglay oladi”[14;59]. Britaniyalik strateg olim M.Dillon: “Zamonaviy harbiy tadqiqotlar faqat metodologik o’zaro ta’sir doirasida emas, balki yangi bilimlar ontologiyasini yaratishda boshqa fanlar bilan konseptual hamkorlik qilishga majbur. Har qanday strategik model – bu epistema, ya’ni bilishning ijtimoiy-g’oyaviy refleksidir”[15;146]. Gollandiyalik harbiy ilmiy tadqiqot metodologi Jan van der Meylen: “Harbiy fanlar boshqa fanlar bilan o’zaro aloqada bo’lishi mumkin, ammo bu aloqalar ko’p hollarda yuzaki va fragmentar bo’lib qolmoqda. To’liq integratsiyalashgan bilimlar tizimi shakllanishi uchun metodologik refleksiya yetishmaydi”[16;57]. Yaponiya mudofaa universiteti tadqiqotchisi Koichiro Tanaka: “Zamonaviy harbiy muammolarni tahlil qilish uchun faqat strategik fikrlash yetarli emas. Harbiy tadqiqotchi kognitiv fanlar, sotsiologiya, siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyalari bilan doimiy epistemik aloqada bo’lishi zarur. Fanlararo yondashuv strategik tafakkur uchun metodologik resurs emas, balki konseptual zaruratdir”[17;64]. Niderlandiyalik harbiy sotsiolog Vilfrid van de Donk: “Ko’pgina harbiy tadqiqotchilar fanlararo yondashuvlarni faqat metaforik darajada qabul qiladilar. Ular konsepsiyalarni bir-biriga mexanik ravishda ulaydilar, biroq bilimlararo refleksiya, epistemik izchillik va metodologik uyg’unlik yetishmaydi. Bu esa ilmiy chuqurlikni yuzakilik bilan almashtiradi”[18;102].

Ispan harbiy metodologi Karlos Blanco: “Harbiy tadqiqotchining zamonaviy roli – bu axborot, ideologiya, texnologiya va madaniyat o’rtasidagi murakkab o’zaro ta’sirlarni integratsiyalab, strategik tafakkur ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun esa sotsiogumanitar


bilimlar majmuasini tahlil qilishda faqat metod emas, balki intellektual madaniyat darajasi ham zarur"[19;134].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy harbiy tadqiqotchi faoliyati murakkab, ko'p qatlamli strategik, texnologik va ijtimoiy muammolar bilan yuzlashgan sharoitda yangi ilmiy bilimlarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida fanlararo yondashuvlar zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda. Harbiy bilimlarning klassik paradigmasi, ya'ni faqat texnikaviy, taktik yoki operativ yondashuvlar doirasidagi tahlil bugungi gibril urushlar, axborotiy manipulyatsiyalar, sun'iy intellekt asosidagi qarorlar va kognitiv intervensiyalar sharoitida yetarli bo'lmay qolmoqda. Bu holat harbiy tadqiqotchini faqat texnikani o'rganuvchi emas, balki inson ongi, sotsial tizimlar, siyosiy dinamikalar va axloqiy oqibatlar o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni anglaydigan intellektual subyekt sifatida qayta pozitsiyalashni talab qiladi. Zamonaviy harbiy tadqiqotchining faoliyati oddiy empirik ma'lumotlar yig'ish va ularni funksional tarzda tahlil qilish bilan cheklanmaydi; aksincha, u chuqur nazariy refleksiya, konseptual sintez va ko'p fanli bilimlar konvergentsiyasi asosida yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, strategik bashorat, harbiy xavfsizlikni kompleks baholash, gibril urushlar va sun'iy intellekt muhitidagi xavf tahlili singari dolzarb yo'nalishlar fanlararo yondashuvsiz samarali izohlanmaydi. Chunki zamonaviy tahdidlar – bu texnik, psixologik, siyosiy, axborotiy va ijtimoiy jihatlarining o'zaro chirmashgan tizimidir. Shu bois harbiy tadqiqotchi yangi ilmiy bilimni faqat bir fan doirasida emas, balki kross-intellektual integratsiyada yaratmog'i lozim. Zamonaviy harbiy tadqiqotchining ilmiy faoliyati, ayniqsa gibril tahdidlar, sun'iy intellekt vositalarining harbiylashtirilishi, kognitiv operatsiyalar, iqlim xavfsizligi va axborot urushlari sharoitida, an'anaviy bilim paradigmalari doirasida emas, balki fanlararo sintez asosida shakllanadigan kompleks bilish yondashuvlarini talab etadi. Chunki harbiy masalalar endilikda texnik yoki taktik doirada hal etilmaydi — ular madaniy, ijtimoiy, siyosiy va axborotiy kontekstlarda o'z ifodasini topadi. Aynan shu sababli, harbiy tadqiqotlar faqat texnologik innovatsiyalarni o'rganish bilan emas, balki sotsiogumanitar bilimlarni chuqur integratsiya qilish orqali yangi ilmiy bilimlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tahlil va natijalar. Fanlararo integratsiya — bu harbiy ilmiy tafakkurning falsafiy negizini tashkil etuvchi, bilish obyekti va subyekti o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi ijodiy jarayondir. Shu sababli, harbiy tadqiqotchi nafaqat muayyan fan doirasida kompetent bo'lishi, balki ko'p fanli muhitda ham harakatlanadigan, bilishning chegaralarini kengaytirishga qodir refleksiv subyekt bo'lishi zarur. Ana shundagina harbiy sohada insoniyat xavfsizligi va barqarorligi yo'lida amaliy natijalarga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Fanlararo(multiditsiplinar) yondashuv- bu turli ilmiy fanlarning usullari va vositalari, bilimlar tizimidan foydalangan holda obyektini o'rganish yoki muammoni hal qilish usulidir. Muammoga bitta tor ixtisoslik nuqtai nazaridan qarash o'rniga fanlararo yondashuv turli nuqtai nazarlarni birlashtirish imkonini beradi, bu esa muammoni to'liqroq va chuqurroq tushunishga va natijada samaraliroq yechim topishga olib keladi.

Transdisiplinar yondashuv — bu alohida fanlardan tadqiqot doirasidan chiqadigan, murakkab muammolarni hal qilish uchun turli sohalardagi bilim va usullarni birlashtiradigan metodologiya. Bu shunchaki fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni (fanlararo yondashuvda bo'lgani kabi) o'z ichiga olmaydi, balki bilim va yondashuvlarning yangi, yaxlit tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.



Strategik tafakkur – bu multiditsiplinar refleksiya, harbiy tadqiqot esa shu refleksiyaning empirik maydonidir. Tanqidiy pozitsiyadan yondashganda, ko'plab harbiy tadqiqotlar hanuzgacha o'zini texnikaviy-instrumental paradigmadagi saqlamoqda. Bu esa, mavjud xavf-xatarlar tizimini soddalashtirib, real operatsion muhitdagi murakkab axborotlar, ijtimoiy faktorlar va kognitiv o'zgarishlarni inobatga olmaslikka olib kelmoqda. Harbiy tadqiqotchi faoliyatida fanlararo yondashuvlardan foydalanish zaruratini mavzusida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda quyidagi natijalar qayd etildi.

1-Rasm.

Yuqoridagi murakkab rangli diagramma harbiy tadqiqotchi faoliyatida fanlararo yondashuvlardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar harbiy tadqiqotlarda qanday fanlarning nechog'li ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilishga imkon beradi. Diagrammadagi asosiy elementlar quyidagicha izohlanadi:

Harbiy strategiya (9 ball): Harbiy tadqiqotning markaziy obyekti bo'lib, boshqa barcha fanlar aynan ushbu sohada muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt (9 ball) va Axborot texnologiyalari (8 ball): Bu sohalar zamonaviy harbiy texnologiyalarni yaratishda muhim bo'lib, axborot urushlari, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli xavfsizlikda asosiy rol o'ynaydi.

Kognitiv fanlar (8 ball) va Psixologiya (7 ball): Harbiy xatti-harakatlarni prognoz qilish, askarlarning psixologik tayyorgarligi va stressga chidamliligini o'rganishda zarur.

Falsafa (7 ball): Bilimlar birligini tushunish, harbiy qarorlarning aksiologik va etik asoslarini aniqlashda ahamiyatli.

Sotsiologiya (6 ball): Jamiyat-harbiy munosabatlar, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy holatini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Ekologiya (5 ball): Harbiy harakatlar oqibatida yuzaga keladigan ekologik xavf va ularni oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Bu tahlildan ko'rinadiki, harbiy tadqiqotchi nafaqat o'zining tor sohasida, balki boshqa fanlar bilimlaridan ham faol foydalanishi zarur. Fanlararo yondashuv shunchaki qo'shimcha emas, balki harbiy ilmiy bilimlar shakllanishining asosiy falsafiy-metodologik shartidir.

Xulosa va takliflar. Fanlararo yondashuvlar harbiy tadqiqotda faqat nazariy refleksiya vositasi emas, balki amaliy qarorlar qabul qilishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy harbiy tadqiqotchining epistemik salohiyati yakka fanga asoslangan bilimlar doirasida emas, balki ko'p fanli integratsion yondashuvlar orqali shakllanadigan ilmiy uyg'ovlik va nazariy refleksiya asosida rivoj topadi. XXI asr harbiy-siyosiy voqeligida yuzaga kelayotgan kibexavfsizlik, axborot manipulyatsiyasi, kognitiv operatsiyalar, ekologik tahdidlar, sun'iy intellekt va neyropsixologik intervensiyalar harbiy ilm-fan sohasini tor doiradagi texnologik determinizm chegarasidan chiqarib, uni ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstlar bilan uzviy bog'langan kompleks bilish tizimiga aylantirishni taqozo etmoqda. Shu bois, harbiy tadqiqotchi faoliyati yangi ilmiy bilimlarni shakllantirishda metodologik adaptatsiyaga emas, balki epistema darajasida fanlararo uyg'unlikka asoslangan ongli konstruksiya talab qiladi.

Zamonaviy harbiy tadqiqotchi faoliyati yangi ilmiy bilimlarni shakllantirishda faqat harbiy-texnik tafakkur bilan emas, balki ijtimoiy, axborotiy, madaniy va falsafiy bilish maydonlari bilan uzviy integratsiya orqali rivojlanmoqda. Gibrud urushlar, kibexavfsizlik, sun'iy intellekt asosidagi operatsiyalar, neyropsixologik aralashuvlar va ekologik xavflar zamonaviy tahdidlarning ko'p qatlamli va tizimli xarakterini belgilab bermoqda. Bu holat harbiy tadqiqotchining faqat tor ixtisoslashgan sohalar doirasida emas, balki fanlararo metodologik sintezga asoslangan nazariy refleksiya orqali ilmiy pozitsiyasini mustahkamlashini taqozo etadi. Shunday epistemik zarurat sharoitida fanlararo yondashuv — harbiy ilmiy bilishning empirik emas, balki konseptual tayanchiga aylanmoqda.

Harbiy tadqiqotchi faoliyatining zamonaviy bosqichida yangi ilmiy bilimlarni shakllantirish nafaqat mavzuning murakkabligi, balki uni tahlil qilishda metodologik yondashuvlarning ko'lamiga bog'liqdir. An'anaviy tarzda harbiy soha texnik va taktik aspektlarga asoslangan bo'lsa-da, XXI asrning xavfsizlik muammolari ko'p o'lchamli, sotsiokognitiv, axborotiy va madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat harbiy ilmiy faoliyatni fanlararo yondashuvlar asosida qayta konseptualizatsiya qilish zaruratini tug'dirmoqda. Yangi ilmiy bilimlar endilikda mustaqil tarmoqlarning ichki dinamikasidan emas, balki turli intellektual sohalar kesishmasida yuzaga kelayotgan gibrud tafakkurdan ozuqa olmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019.
2. Liu Xiaoqing. Complexity and Military Innovation. – Beijing: PLA National Defense University Press, 2020.
3. March G.E. Exploration and Exploitation in Organizational Learning. – Stanford: Stanford University Press, 1991.
4. Meier H. Hybrid Warfare and the Limits of Military Knowledge. – Berlin: BW Press, 2016.
5. Stirling A. Keep it Complex: Strategies for Uncertainty and Innovation. – London: Demos, 2015.
6. Morin E. La Méthode: La connaissance de la connaissance. – Paris: Seuil, 1986.
7. Kaldor M. New and Old Wars: Organized Violence in a Global Era. – Cambridge: Polity Press, 2006.
8. Snow D.A. Framing and Social Movements. – Annual Review of Sociology, 2004.
9. Junker A. Rethinking Strategic Studies in the Digital Age. – Berlin: Sicherheitsakademie, 2020.
10. Farrell T. The Sources of Military Change: Culture, Politics, Technology. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 2002.

11. Baques J. La guerra que viene: Nuevas amenazas y el futuro de la defensa. – Madrid: Ediciones B, 2015.
12. Messner D. Interdisciplinarity in Global Security Research. – Berlin: Wissenschaftszentrum Berlin (WZB), 2017.
13. Nakamoto H. Military Cognition in Hybrid Conflicts. – Tokyo: JDF Institute, 2019.
14. Halvorsen T. Postmodern Military Epistemologies. – Oslo: NUPI Press, 2014.
15. Dillon M. The Liberal Way of War. – London: Routledge, 2008.
16. van der Meulen J. Military Sociology: A Multidisciplinary Approach. – Amsterdam: VU Press, 2010.
17. Tanaka K. Strategic Cognition and Interdisciplinary Approaches. –Tokyo:NIDS Press,2018.
18. Vilfrid van de Donk W. Crossing Boundaries in Security Studies. – Amsterdam: IOS Press, 2011.
19. Blanco C. La mente del estratega. – Madrid: Ediciones Complutense, 2016.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL STUDY OF VIEWS ON THE PERSON IN WESTERN PHILOSOPHY

Majitov Maxmud

First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work of Termez State University of Engineering and Agrotechnology,
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD), Associate Professor

Abstract. This article analyzes the historical and philosophical development of ideas about the concept of the person in Western philosophy. It explores various approaches of philosophical schools and thinkers to issues such as the essence of the individual, freedom, consciousness, and the relationship with society — from ancient times to contemporary Western thought. Special attention is given to existentialism, personalism, and perspectives within classical and post-classical philosophy.

Keywords: Western philosophy, person, freedom, consciousness, existentialism, personalism, society, philosophical thought.

G'ARB FALSAFASIDA SHAXS HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR TADQIQI

Majitov Maxmud

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
E-mail: mazhitov1981@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada G'arb falsafasida shaxs tushunchasiga doir qarashlarning tarixiy-falsafiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Antik davrdan to zamonaviy g'arb falsafasigacha bo'lgan davrda shaxsning mohiyati, erkinligi, ong va jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarga turli falsafiy maktab va mutafakkirlar tomonidan berilgan yondashuvlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada ayniqsa, ekzistensializm, personalizm, klassik va post-klassik falsafa doirasidagi qarashlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: G'arb falsafasi, shaxs, erkinlik, ong, ekzistensializm, personalizm, jamiyat, falsafiy tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N08>

Kirish. Inson borlig'i bilan bog'liq falsafiy muammolar asrlar davomida mutafakkirlar, olimu-fuzalolarning diqqat markazida bo'lib kelgani bizga ma'lum. Bu muammolar turkumida uning ijtimoiy mohiyatiga doir masalalar alohida o'rin tutgan. Shu munosabat bilan falsafa tarixida inson va jamiyatning o'zaro aloqadorligi, ular o'rtasidagi munosabatlar, insonning jamiyatdagi o'rnini haqidagi turli g'oyalar ilgari surib kelindi. Ilmiy mulohazalar falsafiy antropologiyani shaxs haqidagi nazariy bilimlar bilan boyitdi. Biroq o'tgan asrning ikkinchi yarmi va yangi asrning boshlarida kishilik jamiyatida yuz bergan tub o'zgarishlar, xususan ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy va salbiy jihatlari, fan va texnika rivoji, inson intellektual salohiyatining yuksalishi shaxs muammosiga e'tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Shaxs muammosi ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida eng dolzarb muammo sifatida falsafiy tafakkurning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Ijtimoiy taraqqiyotdagi jiddiy o'zgarishlar va unga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tendensiyalar ta'sirida "shaxs" har bir tarixiy davrning e'tiboridagi o'ziga xos muammo bo'lgan. Bu o'z navbatida insonshunoslikda shaxs muammosini ijtimoiy taraqqiyot subyekti va obyekt sifatida ijtimoiy-falsafiy, diniy-psixologik jihatdan tadqiq etuvchi falsafiy ta'limot va yo'nalishlarning shakllanishiga asos bo'ldi. Shunday ekan, dastlab, "shaxs" tushuncha va unga yondosh tushunchalar bilan qiyosiy tahliliga e'tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yevropa tillarida mazkur tushunchaning muqobili sifatida lotincha "persona" so'zidan olingan person (ingl.), die Person (nem.), personne (frans.), persona (ital.) so'zlari ishlatiladi. Lotin tilida bu so'z kishilar turli marosimlar chog'ida taqadigan niqobni anglatgan. Keyinchalik esa teatr aktyorlarining biror rol ijrosi davomida ishlatgan niqobi ham shunday atala boshlandi.[1] Shu tarzda Yevropa tillarida insonning o'ziga xosligini, uni boshqalardan ajratib turgan xislat va fazilatlarini anglatuvchi tushuncha yuzaga keldi. Rim yurisprudensiyasidagi ma'lum ijtimoiy maqomga ega bo'lgan kishini ifodalovchi "persona" tushunchasi etimologiyasi ham lotin tiliga borib taqaladi.

"Shaxs" tushunchasining rus tilidagi muqobili - "lichnost" etimologiyasi "lichina" so'zi bilan bog'liq. Lichina qadimgi rus jangchilarining himoya vositasi bo'lgan shlemning yuz qismini ifodalagan. Har bir jangchi lichinasining turlicha bo'lgani ularni bir-biridan ajratish imkonini bergan. Shu boisdan ko'chma ma'noda "lichina" deganda o'z qiyofasiga ega kishilar tushunilgan. Keyinchalik bu ma'noda "lichnost" so'zi qo'llanila boshlandi, "lichina" esa unga taqlid qiluvchi kishini anglata boshlagan. Shuning uchun ham S. Ojegov va N.Shvedovalarning "Rus tilining izohli lug'atida" "lichina" so'zining ma'nolaridan biri "ikkiyuzlamachilik xulqi, yolg'on da'vo" ekanligi ta'kidlanadi.[2]

"Shaxs" va uning o'ziga tillardagi muqobillari etimologiyasi tushuncha mazmunini to'liq ifodalab bermaydi, albatta. Lekin ular shaxs mazmuni, tarkibi, tiplari, shakllanishi jarayoni hamda rivojlanish determinatsiyalari haqidagi ilmiy mulohazalar uchun dastlabki nuqta vazifasini o'tashi mumkin.

Shaxs tipologiyasi haqidagi falsafiy qarashlar xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha ular inson tabiati va uning jamiyat va madaniyat bilan aloqasi haqidagi tushunchalarga asoslanadi.

Masalan, antik falsafada Aristotel shaxsiyatning to'rt turini ajratib ko'rsatdi: xolerik, flegmatik, melanxolik va sangvenik. U har bir turning o'ziga xos xususiyatlari va moyilliklari borligiga ishongan, bu uning xatti-harakati va boshqalar bilan munosabatlarini belgilaydi.

O'rta asr falsafasida shaxs tipologiyasi diniy e'tiqodlar va gunoh tushunchasi bilan bog'liq edi. Masalan, Foma Akvinskiy ettita katta gunohni ajratib ko'rsatdi va har bir insonning o'ziga xos bo'lgan gunohlari bor, bu uning fe'l-atvori va xatti-harakatlarini aniqlay oladi, deb hisoblaydi.

Hozirgi zamonda shaxs tipologiyasi ilmiy izlanishlar va psixologik nazariyalar bilan bog'lanib qoldi. Masalan, Karl Yung uning xulq-atvori va boshqalar bilan munosabatlarini belgilaydigan turli xil shaxsiyat arxetiplarini aniqladi. U har bir insonning shaxsiyat turiga bog'liq bo'lgan o'ziga xos rivojlanish va o'zini o'zi anglash yo'li borligiga ishondi.

Shaxs tipologiyasining zamonaviy nazariyalari ham ilmiy tadqiqotlar va psixologik nazariyalarga asoslanadi. Masalan, Katta beshlik nazariyasi shaxsiyatning beshta asosiy

xususiyatini aniqlaydi: ekstraversiya, nevrotiklik, vijdonlilik, jozibadorlik va tajribaga ochiqlik. Bu xususiyatlar insonning turli vaziyatlardagi xulq-atvori va munosabatlarini aniqlay oladi.

Muhokama. Shaxs tipologiyasiga oid zamonaviy falsafiy qarashlar inson shaxsining xususiyatlarini aniqroq aniqlash imkonini beruvchi ilmiy tadqiqotlar va psixologik nazariyalarga asoslanadi.

Masalan, ekzistensializm falsafasi shaxsning asosiy xususiyatlari sifatida individuallik va tanlash erkinligini ajratib ko'rsatadi. Ekzistensialistlarning fikricha, har bir insonning o'ziga xos rivojlanish va o'zini o'zi anglash yo'li bor, bu uning tanlash erkinligi va o'z harakatlari uchun javobgarligiga bog'liq.

Postmodernizm falsafasi ham shaxs tipologiyasiga hissa qo'shib, shaxs shakllanishida madaniyat va ijtimoiy me'yorlarning rolini yoritib beradi. Postmodernistlarning fikricha, shaxs nafaqat individual tajriba, balki madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham shakllanadi.

G'arb falsafasi ham ko'p yillar davomida shakllangan shaxs tipologiyasiga o'z qarashiga ega. G'arb falsafasida shaxs tipologiyasiga eng mashhur yondashuvlardan biri Karl Yung nazariyasidir.

Yung shaxsiyatning to'rtta asosiy turini aniqladi: ekstrovert, introvert, hissiyot va intuitiv. Shuningdek, u shaxsning erkak va ayol tomonlarini aks ettiruvchi "anima" va "animus" tushunchalarini ishlab chiqdi. Shaxs tipologiyasining yana bir mashhur yondashuvi "Katta beshlik" nazariyasi bo'lib, u beshta asosiy shaxsiy xususiyatni belgilaydi: ekstraversiya, nevrotiklik, vijdonlilik, vijdonlilik va tajribaga ochiqlik.

G'arb falsafasidagi shaxs tipologiyasiga har ikkala yondashuv ham individual shaxs xususiyatlarini va xulq-atvor va qaror qabul qilishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlarni hisobga oladi. Biroq Sharq falsafasidan farqli o'laroq, G'arb falsafasi shaxsning ma'naviy va kosmik jihatlariga unchalik ahamiyat bermaydi.

Shunday qilib, shaxs tipologiyasi haqidagi zamonaviy falsafiy qarashlar shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan individual va ijtimoiy omillarni hisobga oladi. Shuningdek, ular shaxsning xususiyatlarini, uning jamiyat va madaniyatdagi rolini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Shaxs tipologiyasi haqidagi falsafiy qarashlar xilma-xil bo'lishi va ma'lum bir falsafiy maktab yoki nazariyaga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, ularning barchasi inson tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini, uning jamiyat va madaniyat bilan aloqasini tushuntirishga harakat qiladi.

Shaxs haqidagi falsafiy fikrlar rivoji G'arbda turlicha xarakterga ega bo'ldi. G'arb falsafasida inson shaxsining ijtimoiy mohiyatini ifodalab berishga, uning asosiy xususiyatlarini aniqlashga intilindi. Masalan, Seneka shaxsning (personaning) to'rt asosiy xususiyatga egaligini ta'kidlaydi: u odam deb atalmish mavjudotga xos sifatlarni o'zida mujassam qiladi, muayyan xarakter tipiga moyil bo'ladi, aniq bir muhit ta'sirida istiqomat qiladi va o'z kasbi hamda turmush tarziga ega bo'ladi.[3:400]

G'arb falsafasida shaxs murakkab tushuncha bo'lib, odatda individuallik, o'z-o'zini anglash va iroda erkinligi bilan bog'liq. Shunday xususiyatlar bilan shaxsiyat G'arb talqiniga ko'ra, bizni boshqa odamlardan ajratib turadi va hayotimizni noyob qiladi.

Shaxs muammosi bilan birinchi bo'lib shug'ullangan faylasuflardan biri Suqrotidir. Uning ta'kidlashicha, shaxsiyat insonni noyob qiladi va har bir insonning o'ziga xos qiymati bor. Bundan tashqari, Sokrat shaxsiyat axloqiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar bilan bog'liq deb hisoblagan.

O'rta asrlarda individ bilan shaxs o'rtasida ma'lum tafovut mavjudligiga e'tibor berila boshlandi. Har bir inson individdir, biroq o'z sha'niga, qilmishlari uchun mas'uliyatga ega bo'lgan subyektgina shaxs darajasiga ko'tariladi. Jumladan, Foma Akvinskiy shaxsni butun tabiatdagi eng mukammal mavjudot deb ataydi. Uning fikriga ko'ra, o'zgaralar tomonidan harakatga keltirilgan emas, o'z sa'y-harakatlarining xo'jayini bo'lgan kishigina shaxsdir.[4:37]

Qadimgi Rimda paydo bo'lgan "shaxs – siyosiy arbobdir", — degan xulosa o'rta asrlarda ayniqsa keng tarqaldi. Bu davrda shaxsni hokimiyatga ega bo'lgan siyosiy arboblardan bilan qiyoslash, ularni ulug'lash, aslo xato qilmaydigan zot, deb hisoblash urf bo'ldi. (Bugungi kundagi "boshliq doimo haq" degan iboraning ildizi ham shu yerda bo'lsa kerak). Hatto Immanuel Kant ham o'z maqsadlariga erishish yo'llarini bilgan insongina shaxs bo'lib shakllanadi, deb hisoblar edi.

Renessans davrida shaxs haqidagi teosentrik qarashlar o'rnini antroposentrik talqin egalladi. Dante Alighieri, Franchesko Petrarka, Piko della Mirandola kabi mutafakkirlarning asarlarida yorqin individuallikka ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan shaxs ulug'landi. Bu davrda o'ziga xos qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka intilgan kishigina shaxs sifatida e'tirof etildi.

Yangi zamon falsafasida R.Dekart ta'limotining ta'siri o'laroq inson shaxsini ong bilan bog'lab tushuntirish urf bo'ldi. Masalan, G.Leybnis insonni vijdon shaxs darajasiga ko'taradi, deb hisoblasa,[5:89] J.Lokk o'zini anglab yetgan kishinigina shaxs deb biladi.[6] Shaxs haqidagi shunga o'xshash nuqtai nazarni I.Fixte, G.Gegel va nemis klassik falsafasining ko'plab boshqa namoyondalari qarashlarida ko'rish mumkin.Faqat K.Marksgina, ulardan farqli o'laroq, shaxsni ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida talqin qildi.[7] Shaxs muammosi bilan shug'ullangan faylasuf Rene Dekart fikricha shaxsiyat — bu bizning ongimizda biladigan narsa, deb hisoblagan. Dekartning ta'kidlashicha, inson tanadan mustaqil va o'limdan keyin ham mavjud bo'lishi mumkin.

Natijalar. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida shaxs haqidagi falsafiy konsepsiya yangi g'oyalar bilan boyidi. Bu davrda maydonga chiqqan qator ta'limotlar o'zlarining shaxs haqidagi original mulohazalarini ilgari sura boshladilar. Masalan, pragmatizm tarafdorlari shaxsni insonning faqat o'ziga tegishli bo'lgan narsalarning (nafaqat o'z jismi va ruhiyati, balki uy-joyi, bolalari, do'stu-birodarlari, mulki, bankdagi hisobi va hokazolar) umumiy yakunini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qila boshladilar. Uning asoschilaridan biri Uilyam Jeyms shaxsni uch tarkibiy qismdan (jismoniy shaxs, ijtimoiy shaxs, ma'naviy shaxs) iborat, deb ta'kidladi.[8]

Neotomizm inson hayotining mazmunini Xudo bilan aloqadan izladi. Inson, deyiladi unda, iroda, ixtiyor va o'zga muhim fazilatlariga egaki, ular yordamida Xudoga o'xshashga intiladi. Neotomist Jak Mariten shaxsni aql bilan anglab bo'lmas sir, deb ataydi. Shaxs, deydi u, ruh kabi ilohiylikka ega substansiyadir. Shaxs – shunday bir olamki, uning sirlarini hatto farishtalarning g'ayritabiiy qudrati bilan ham bilib bo'lmaydi.[9]

Personalistlar klassik falsafadagi "gnoseologik subyektni" faol subyekt bilan almashtirish lozim, deb uqtirdilar. Yagona reallik – shaxsdir, ushbu asosiy ontologik kategoriyalarning negizni cheksiz ibtido – Xudodan izlamoq lozim. Ijtimoiy taraqqiyot esa turli kuchlar o'yinidan o'zga narsa emas. Shaxs va jamiyat hamisha bir birlariga nisbatan urush holatida turadilar, deyishadi personalistlar.[10]

Shaxs muammosi ayniqsa o'tgan asrning ikkinchi yarmida jahon falsafasida alohida o'rin tutgan ta'limot - ekzistensializm keng tahlil etildi. Inson qadri, uning takrorlanmasligi ekzistensialistlarning diqqat markazida turdi. Mazkur yo'nalishning yirik namoyondalari K.Yaspers, G.O.Marsel, J.P.Sartr asarlarida shaxs erkinligi va ixtiyori bilan bog'liq masalalar tadqiq qilindi. Shuningdek, Ekzistensializm va fenomenologiya kabi falsafiy ta'limotlarda shaxs ilmiy usullar bilan tushuntirib bo'lmaydigan mohiyat sifatida qaraladi. Bu borada izlanishlar olib borgan faylasuflar shaxsiyat bizni inson qiladigan narsa va u bizning his-tuyg'ularimiz, his-tuyg'ularimiz va hayotiy tajribalarimiz bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Yuqorida tilga olingan maktab va yo'nalishlar bilan bir qatorda o'tgan asrning o'nlab yirik mutafakkirlari ham shaxs nazariyasini yaratishga beqiyos hissa qo'shdilar. Ulardan biri — Zigmund Freyd shaxs mohiyatini ongsiz ravishda asoslangan instinktlardan izladi. Inson faoliyatining motivlarini aynan ana shu ongsizlikdan izlamoq lozim, deb ta'kidladi buyuk nemis olimi.[11]

Hozirgi zamonda shaxsning psixoanalitik konsepsiyasi rivojida Zigmund Freyd(1856-1939)ning xizmatlari ham beqiyosdir. Z.Freyd inson shaxsi tarkibining asosiy komponentlari, elementlarini aniqlab berishga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelishi sabablari, individ turmush tarzi prinsiplarining hosil bo'lishini tushuntirishga harakat qilgan.

Freydning psixoanaliz metodiga muvofiq, inson shaxsi uchta asosiy komponentdan:ug, ego, superegodan tashkil topadi. Ular birlashib bir butun inson shaxsini vujudga keltiradi.[12]

- ug-kishi tug'ilgan paytda mavjud bo'lgan barcha psixologik holatlar, instinkt(tug'ma his-tuyg'u)lar yig'indisidir. Shuning uchun ham ug-inson shaxsi tarkibidagi markaziy komponent sifatida inson tanasining ichki ehtiyojidan kelib chiqadi.

Inson shaxsi tarkibidagi eng muhim ikkinchi komponent- ego bilan ug birgalikda rivoji natijasida, inson asta-sekin o'zini taniy boshlaydi. Ego shaxsni jismoniy va ma'naviy sog'lomligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Shaxs tarkibidagi uchinchi muhim komponent-superego esa ego zaminida vujudga keladi. Ushbu komponent shaxs faoliyati va fikr-mulohazasining hakami, nazoratchisi sifatida shaxsdagi barcha axloqiy normalar, konstruksiyalar, xulq-atvor talablarini o'zida mujassamlashtiradi va ma'naviy-axloqiy taqiqlar qatlamini hosil qiladi.

Freyd fikriga ko'ra, superego uchta muhim funksiyalarni bajaradi. Bular vijdon, o'zini-o'zi kuzatish va turli ideallarni shakllantirishdir.

Avstriyalik psixiatr Alfred Adler esa shaxs faolligining asosini o'zgalardan ustun bo'lish uchun kurash tashkil etadi, deydi.[12] Shaxsning psixoanalitik konsepsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Alfred Adlarning shaxs nazariyasiga ko'ra, inson bisotida hamisha zo'rlikka moyillik kayfiyati mavjud bo'ladi. Xuddi shu kayfiyat shaxsni boshqa kishilardan ustun bo'lishga da'vat etadi.

Karl Yungning fikriga ko'ra, inson psixologiyasida individual ongsizlik bilan bir qatorda jamoaviy ongsizlik ham mavjud bo'lib, uning mazmunini boyitish — shaxs shakllanishi jarayonining maqsadini tashkil etadi.[14] Shaxsning psixoanalitik konsepsiyasini shakllantirishga munosib hissa qo'shgan mutafakkirlardan yana biri-Karl Yungdir. Yungning fikriga ko'ra inson shaxsining eng muhim xususiyati-uning butun diqqat-e'tibori tashqi va ichki olam bilan bo'lgan aloqadorlikni mustahkamlashga intilishidir. Yungning tushuntirishicha, har bir kishining psixologiyasi to'rt asosiy funksiyalarni bajaradi. Bular- fikrlash, sezish, his qilish, intuitsiyadir.

Insonning o'zi o'zligini anglashi — kishi bisotida mavjud bo'lgan barcha qobiliyatlari, iste'dodlari, malakalaridan, ya'ni unda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan to'laroq foydalanish yo'llarini izlab topishga yordam beradi. A.Maslou "Inson tabiatining eng oliy intilishlari"(1971) asarida shaxsning o'zligini anglashga qaratilgan sakkizta yo'lini, ushbu murakkab jarayon tomon olib boruvchi inson xulq-atvorining sakkiz tipini aniqlab berdi. A.Maslou fikricha, o'zlikni anglash jarayonining eng muhim joyi-inson o'zining xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni doimo his qilib turishidir.

Ikkinchi yondashuvni Dj. Feydimen va R.Freyger "inson imkoniyatlari harakati" deb atashadi.[12] Kaliforniyadagi Isalen instituti, Mayndagi milliy o'quv laboratoriyalari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bu harakat XX asr davomida shaxs strukturasi o'rganishda ayniqsa katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Zigmund Freydning individual psixologiyasi, Vilgelm Rayxning tan psixologiyasi, Frederik Perlosning geshtalterapiyasi, Berros Fredrik Skinnerning radikal bixeviorizmi, Abraxam Maslouning o'z-o'zini faollashtirish ruhiyati shundan dalolat beradi.[10]

Insonning hayotdagi burchi va mas'uliyatini oshirish yo'llari, uslublarini izlab topish yordamida inson hayotining ma'nosi va mazmunini takomillashtirish g'oyasi haqidagi fikr-mulohazalar avstriyalik tadqiqotchi V.Frankl asarlarida uchraydi[11].

Amerikalik faylasuf olim, pragmatizm asoschilaridan biri Uilyam Djeyms(1842-1910) fikriga ko'ra, shaxs-inson ongliligi tavsifidir. Inson ongliligi esa ikki muhim: bilingan va bilinishi zarur bo'lgan elementlardan tashkil topadi. Onglilikdagi bilib olingan element-"Shaxs", bilinishi zarur bo'lgan element-"Men"dir. Xuddi shuning uchun ham "Shaxs" va "Men" o'rtasidagi aloqadorlik mexanizmini bilib olish insonshunoslikning eng muhim muammolaridan biridir[18].

Djeyms inson shaxsi deganda uning bisotidagi barcha o'ziniki deb hisoblangan narsalarning umumiy yig'indisini tushunadi[19:16-43].

U.Djeyms "shaxs"ni keng ma'noda tahlil qilganda uni uch xil munosabatlar prizmasidan o'tkazib o'rganish zarur deydi. Bular:

- shaxsni vujudga keltirgan elementlar
- shaxs tufayli hosil bo'lgan his-tuyg'ular(o'zining o'ziga bergan bahosi)
- shaxs tufayli vujudga kelgan xatti-harakatlar(o'zi haqida, o'zini saqlab qolish haqida qayg'urish).

U.Djeyms fikricha, shaxs tarkibini vujudga keltirgan elementlarni uch turkumga bo'lish lozim:

- jismoniy shaxs;
- ijtimoiy shaxs;
- ma'naviy shaxs;

Jismoniy shaxs-inson tanasi, o'sha tanaga kiydirilgan turli kiyim-kechak, oilaviy holati(otasi, onasi, xotini, bolalari, uy-joyi)ni tushunadi. Xuddi shu komponentlar yordamida insonda his-tuyg'u, o'ziga xos mehnat qilish xususiyatlari hosil bo'ladi.

Kishida mavjud bo'lgan fazilatlarni odam degan mavjudotning boshqa vakillari tomonidan tan olinishi-insonning ijtimoiy shaxs darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Bu darajaga ko'tarilish boshqalar ko'z o'ngida sodir bo'lib, shaxsdagi ijtimoiy fazilatlar atrof-muhitning unga ko'rsatgan ta'siriga bog'liq bo'ladi.

“Ma’naviy shaxs” tushunchasi U.Dжеймс fikriga ko’ra inson ongliligining holatini aniqlash maqsadida ishlatiladi. Bunday shaxs inson ongining ayrim tomonlarini, xususan ma’naviy qobiliyatlar va xususiyatlarni o’zida mujassamlashtiradi.

Xulosa. Shunday qilib, G’arb falsafasida shaxs individuallik, o’z-o’zini anglash va iroda erkinligi bilan bog’liq bo’lgan murakkab tushuncha sifatida qaraladi. G’arb falsafasiga ko’ra, shaxsiyat bizni noyob qiladi va bizni boshqa odamlardan ajratib turadi. Bu axloqiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar, shuningdek, bizning his-tuyg’ularimiz, his-tuyg’ularimiz va hayotiy tajribalarimiz bilan ham bog’liq.

Biroq, shu bilan bir qatorda G’arb falsafasida shaxsga ijtimoiy muhit, irsiy omillar va madaniy me’yorlar kabi obyektiv determinantlar ta’sir qilishi mumkin degan tushuncha ham mavjud.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Новая философская энциклопедия. В 4-томах./ Под ред. В.Степина и Г.Семигина. Том 2.- М.: Мысл, 2010.– С.400.
2. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: А ТЕМП, 2006.
3. Жеребцов С. Переживания личности в эпоху средневековья.// Психологический журнал, 2010, №2, 37 с.
4. Лейбнис Г. Опыты теодиции о благодати Божией, свободе человека и начале зла.// Сочинения в 4-х томах.Том 4.- М.: Мысл, 1989. – С.89.
5. Локк Ж. Опыт о человеческом разумении.// Сочинения в 3-х томах. Том 1. – М.: Мысл, 1985.
6. Маркс К. Тезисы о Феембахе.// Маркс К., Энгелс Ф. Сочинения. Том 42. – М.: Изд.Пол.лит., 1974.
7. Джеймс У. Психология. – М.: Академический проект, 2011.
8. Fecher Ch.A. The philosophy of S. Maritan. –New York,1969.
9. Проблема человека в современной философии.- М.: Наука, 1969. – С. 374.
10. Фрейд З. Психология бессознательного. – Спб.: Питер, 2010.
11. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. – М.: Прогресс, 1995.
12. Юнг К. Аналитическая психология. – М.: Клуб Касталия, 2016.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

SOCIAL FOUNDATIONS AND IMPLEMENTATION FORMS OF COMBATING CORRUPTION IN SOCIETY

Latipov Sardor Shavkatovich

Navoi Region Department of Internal Affairs

Head of the Zarafshan City Department of Internal Affairs

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the social and legal mechanisms used to combat corruption in modern society. It focuses on the development of anti-corruption culture, increased civic engagement, the role of mass media and the education system, as well as the significance of national and international legal frameworks. The article also includes proposals and recommendations based on best international practices.

Keywords: corruption, civil society, legal culture, prevention, social mechanisms, legal mechanisms.

JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOY ASOSLARI VA AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

Latipov Sardor Shavkatovich

Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Zarafshon shahar Ichki ishlar bo'limi boshlig'i

E-mail: sardorlatipov086@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar chuqur tahlil qilinadi. Unda korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimining o'rnini, shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy asoslar muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, profilaktika, ijtimoiy mexanizmlar, huquqiy mexanizmlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N09>

KIRISH

Zamonaviy global dunyoda korrupsiya muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Bu mamlakatlarning modernizatsiyasiga, ularning iqtisodiyotlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va oxir oqibat butun dunyo hamjamiyatining hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Naumov ta'kidlaganidek, har qanday hodisaning mazmuni uning mavjudligining ma'lum turlari va shakllarida ifodalanadi. Shuning uchun korrupsiyaning mohiyatini o'rganish bilan bir qatorda uning namoyon bo'lish turlari va shakllari alohida ko'rib chiqilishi kerak [1, b. 39]. Shu sababli ham korrupsiya turlarini tahlil qilish korrupsiya kabi ijtimoiy hodisani yaxshiroq tushunishga, to'liq tushunishga imkon beradi.

Korrupsiyaning haddan tashqari ko'p qirraliligi ushbu hodisaning tasnifini, shu jumladan uslubiy sabablarni keltirib chiqarish zarurligiga olib keladi. Ko'rsatilgan xatti-

harakatlar strategiyalari har doim u yoki bu darajada mavjud bo‘lib, ularning shakllari yoki, aytaylik, o‘lchamlari farq qilishi mumkin. Ikkala strategiya ham resurslarga egalik qilish uchun kurashning umumiy strategiyasining tomonlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, birinchi va ikkinchi strategiyalar, agar ular soyali yoki noqonuniy vositalar yordamida amalga oshirilsa, korrupsiya sifatida ko‘rib chiqilishi kerak degan fikrdamiz.

Hozirgi vaqtda korrupsiya tipologiyasiga tasniflash asosiga qarab turli xil yondashuvlar kuzatilmoqda: obyektlar, subyektlar, hokimiyat darajasi bo‘yicha. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani tasniflashning turli xil yondashuvlari mavjud.

Masalan, S. Rouz-Akkerman korrupsiyani ikki asosda ajratishni taklif qiladi:

- pora oluvchilarning turiga ko‘ra-siyosiy va ma‘muriy, bu yerda birinchisi qonunlarning qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, pora oluvchilarning asosiy turi hukumat va davlat rahbarlarining vakillari, ikkinchisi – davlat qonunlardan foydalangan holda;
- pora bozori turiga ko‘ra: markazlashtirilgan (korrupsiya takliflari uchun nisbatan kichik bozor mavjud) va markazlashtirilmagan korrupsiya (pora bilan xizmatlar uchun to‘lov hamma joyda sodir bo‘ladi) [2, b. 150].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Korrupsiyani alohida aktlar asosida tasniflagan S. Rottenberg esa uning uchta turini tadqiq qilgandir. Uning ta’kidlashicha, korrupsiyaning birinchi turi korrupsiya to‘lovi bunday xizmat uchun olinadigan holatlar mavjudligini anglatadi, ular mavjud bo‘lmasdan amalga oshirilishi kerak. Ikkinchisi, aksincha, qoidalar va normalarga rioya qilishni talab qiladigan narsalarni bajarmaganlik uchun haq olishni o‘z ichiga oladi. Korrupsiyaning uchinchi turi ma‘lum bir harakatni to‘lash qonunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzishni o‘z ichiga olgan vaziyatda yuzaga keladi [3, b. 49].

Ingliz olimi J. Skott esa quyidagi ikki turdagi korrupsiyani asosiy korrupsiya turi sifatida tasniflagan:

- organik, bu tizim bo‘lib, unda hokimiyat vakillarining marhamati qarindoshlik yoki do‘stona munosabatlar bilan belgilanadi;
- hokimiyat, imtiyozlar, imtiyozlar mansabdor shaxsga eng katta to‘lovni taklif qila oladiganlar tomonidan olinadigan bozor [4, b. 88].

Faoliyat sohasiga qarab, turli mualliflar, shu jumladan S.M. Proyava, davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya, parlament korrupsiyasi, korxonlardagi korrupsiya, saylovlar paytida korrupsiya kabi korrupsiya turlarini ajratib ko‘rsatgan [6, b. 32].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu tasnif doirasida korrupsiyaning birinchi turi davlat xizmatchisining davlat resurslarini tasarruf etish va davlat va jamiyat manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, balki o‘z manfaatiga qarab qaror qabul qilish imkoniyati bilan bog‘liq.

Parlament korrupsiyasi, aslida, muayyan ijtimoiy, juda tor guruhlarning manfaatlarini lobbi qilishning turli shakllari bo‘lib, normalarni o‘z ichiga olgan qonunlarni qabul qilishdan iborat bo‘lib, ular ma‘lum bir guruhga ma‘lum imtiyozli mavqeni tayinlashni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tashkilot xodimi, shuningdek mansabdor shaxs unga tegishli bo‘lmagan resurslarni tasarruf etishi mumkinligi sababli, uning tashkiloti manfaatlarini

buzadigan harakat yoki harakatsizlik bilan ifodalangan korrupsiya munosabati paydo bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlatlarda ko'pincha, saylov paytida saylovchilarning ovozlari sotib olish korrupsiyaning alohida turiga aylanadi. Ko'pgina davlatlarning qonunchiligiga binoan, xalq va uning bir qismi sifatida alohida saylovchi, hokimiyat sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan manbaga ega. U ushbu vakolatlarni ovoz berish jarayonida saylangan shaxslarga topshiradi. Saylovchi o'z mulohazalari, qiziqishlari, ehtiyojlari asosida ma'lum bir qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, saylov jarayonining yetarliligiga, shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ishonmaslik sharoitida saylovchi ba'zan saylanayotgan kishi bilan kelishuvga erishadi, bunda birinchisi pul yoki boshqa imtiyozlarni oladi, ikkinchisi esa hokimiyat resursini olishga umid qiladi.

I.Ahmedov tomonidan taklif qilingan korrupsiyani tasniflash uchun asos mansabdor shaxsning tashkilot tomonidan foyda olishda ishtirok etish darajasi hisoblanadi, shu munosabat bilan u progressiv korrupsiyani asosiy korrupsiya turi sifatida ta'kidlaydi [7, b. 14]. Bu esa mansabdor shaxs tomonidan imtiyozlar va imkoniyatlar berish natijasida olingan tadbirkorlar tomonidan foydani ko'paytirishni va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda muayyan to'siqlarni yaratishga qaratilgan korrupsiyani o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, korrupsiyaning bir qator xorijiy tadqiqotchilari korrupsiyaning o'zaro ta'siri subyektlarining xatti-harakatlarining faollik darajasiga qarab:

- faol korrupsiya, manfaatdor shaxs tomonidan milliy yoki xorijiy mansabdor shaxsga faol pora berish yoki mansabdor shaxslar tomonidan ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda noqonuniy ish haqini tovlamachilik sifatida qaraladi;
- passiv korrupsiya, passiv poraxo'rlik deb tushuniladi, ya'ni xizmatdagi qonuniy xatti-harakatlar uchun mansabdor shaxs tomonidan noqonuniy haq olinishi [8, b. 118].

Shuningdek, korrupsiyani ijtimoiy — iqtisodiy munosabatlar turlari bo'yicha ajratish kerak, buning asosida g'arbiy va Sharqiy korrupsiyani ajratish mumkin.

G'arb korrupsiyasida bu hodisa "korrupsiya xizmatlarining o'ziga xos bozori vazifasini bajaradi, unda tomonlar vaqtincha bir martalik oldi-sotdi munosabatlariga kirishadi".

Sharqiy korrupsiya holatida korrupsiya asta-sekin ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida boshqa ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan qarindoshlik, korporativ, professional munosabatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ma'lum bir davlatdagi korrupsiyani tizimli omilga aylantiradi.

Bir qator tadqiqotchilar, shu jumladan Yu.G.Naumov korrupsiyani subyektlar faoliyatining maqsadlariga qarab tasnifladi [9, b. 44]. Shunday qilib, iqtisodiy va siyosiy korrupsiyaga bo'linish taklif etiladi.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyani quyidagi asoslarga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir: korrupsiya munosabatlari subyektlarining holati, subyektlar darajasi, hududiy qamrov ko'lami, korrupsiya munosabatlarining takrorlanish darajasi bo'yicha ajratish mumkin.

Shunday qilib, subyektlarning maqomiga ko'ra, korrupsiyani davlat va xususiyga bo'lish mumkin.

Korrupsiyaning davlat turi – bu davlat organining vakolatlari doirasida korrupsiya harakatlarining sodir etilishi. Ehtimol, korrupsiyaning bu turi eng katta tahdiddir, chunki davlat

hokimiyati odamlarning alohida guruhlari tomonidan faqat shaxsiy maqsadlar va manfaatlar uchun ishlatiladi, aslida jamiyat nazorati ostida bo'lmaydi.

Shuningdek, korrupsiya jarayonlarini ichki (korrupsiya subyekti maqomidan qat'iy nazar, bir mamlakat hududida korrupsiya harakatlari sodir etiladigan vaziyat) va xalqaro korrupsiyani (xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarini korrupsiyaga solishga qaratilgan harakatlar yoki bir nechta davlatlar fuqarolari va mansabdor shaxslarining birgalikdagi korrupsiya faoliyati) ajratib, hududiy qamrov ko'lami bo'yicha ajratish tavsiya etiladi.

Bizning fikrimizcha, korrupsiya amaliyotlarining aksariyati quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: tanish bilishchilik, poraxo'rlik, mijoz-homiylik aloqalari (yoki kliyetalizm) va lobbizm. Shu bilan birga, biz turli xil korrupsiya amaliyotlarini ushbu to'rttaga qisqartirish mumkin emasligini tushunamiz, ammo biz ularni asosiy, eng keng tarqalgan deb ajratamiz.

Poraxo'rlik deganda esa bizning fikrimizcha mansabdor shaxsning xatti-harakatlariga o'z foydasiga ta'sir qilish uchun ixtiyoriy taklif, va'da, berish, qabul qilish, ma'lum miqdordagi pulni olishga rozilik mavjud bo'lgan bunday korrupsion vaziyatni tushunish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, korrupsiya murakkab, ko'p qirrali va ijtimoiy hayotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan hodisa ekani anglashiladi. Turli olimlar tomonidan taklif etilgan tasniflash yondashuvlari korrupsiyani chuqurroq anglash, uning shakllarini aniqlash va samarali kurash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyani subyektlarning maqomi, faoliyat sohasi, hududiy qamrovi va takrorlanish darajasiga qarab tasniflash uni tizimli tushunishga zamin yaratadi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektorlar hamda xalqaro miqyosdagi korrupsion harakatlarni ajratib ko'rsatish, ularning jamiyat hayotiga ta'sirini baholashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, korrupsiyaning keng tarqalgan shakllari tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, mijoz-homiylik va lobbizm kabi amaliyotlarni ajratib ko'rsatish, unga qarshi kompleks yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu boisdan, korrupsiyaga qarshi kurashda uning turlarini aniqlash ilmiy va amaliy muammolar yechimi uchun asosiy omildir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Наумов Ю.Г. Коррупция и общество: теоретико-экономическое и прикладное исследование: монография. Владимир. 2007. С. 39.
2. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы. М. 2003. С.150.
3. Rottenberg S. Comment // The Journal of Law and Economics. 1975. Vol. 18.
4. Scott J.C. Comparative Political Corruption. N.Y. 1972. P. 88.
5. Musheshe N. NGO and Mobilization against Corruption / Africa Leadership forum. Corruption, Democracy and Human rights in East and Central Africa. Entebbe, Republic of Uganda. 12-14 December 1994. Ibadan. P. 133-134.
6. Проява С.М. Экономизация коррупции. Механизм противодействия: монография. М. 2008. С. 32-33.
7. Ахмедов И. Коррупционный беспредел // Монитор. 10 апреля 2003 г. № 14.
8. Бекен Т.В. Европейский взгляд на российский проект Федерального закона «Об основах антикоррупционной полигики» // Государство и право. 2002. № 6. С.118.
9. Лунеев В.В. Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы: сб материалов Международной научно-практической конференции 9-10 сент. 1999 г. М. 2001 г.

10. Кабанов П. А., Райков Г.И., Чирков Д.К. Политическая коррупция в условиях реформирования российской государственности на рубеже веков: монография. М.: 2008. С. 78.
11. Гегель Г.В.Ф. Энциклопедия философских наук. Т. 3. М. 1977. С. 298.
12. Sobirovich, T. B., & Elmuratovna, Y. A. (2025). Strengthening National Spiritual Immunity and Combating Destructive Ideologies in New Uzbekistan. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 7(2), 101-108.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

SOCIAL NECESSITY OF FORMING ETHICAL CULTURE OF LAWYER

Ibrakhimova Dilorom Saloydinovna

Teacher of the Department of "General Sciences and Culture" of the TSUL

Email: diloromibrakhimova@gmail.com

Abstract. The article analyzes the social necessity of forming the moral culture of a lawyer from a philosophical point of view. The assessment of the moral culture of a lawyer as an important factor in protecting the rights and freedoms of citizens, ensuring legality and the formation of a state governed by the rule of law is substantiated. The structural elements of the moral culture of a lawyer are also analyzed and their importance in professional activity is noted.

Keywords: moral culture of a lawyer, moral consciousness, moral behavior, moral relations, etiquette, etiquette.

HUQUQSHUNOS AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYI ZARURIYATI

Ibraximova Dilorom Saloydinovna

TDYU "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada huquqshunos axloqiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy zaruriyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Unda yurist axloqiy madaniyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda huquqiy davlatni barpo etishda muhim omil sifatida baholanishi asoslab berilgan. Shuningdek, huquqshunos axloqiy madaniyatining tarkibiy elementlari tahlil qilinib, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqshunos axloqiy madaniyati, axloqiy ong, axloqiy xulq-atvor, axloqiy munosabatlar, muomala odobi, etiket.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N10>

Zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sharoitida huquqshunos kadrlarning nafaqat yuksak kasbiy bilim va malakaga, balki chuqur axloqiy madaniyatga ega bo'lishi dolzarb ijtimoiy zaruriyatga aylangan. Huquqshunos faoliyatining bevosita insonlar taqdiri, adolat, qonuniylik, ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq ekanligini inobatga olsak, bu kasb vakillarining axloqiy saviyasi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishini anglash mumkin.

Huquqshunos axloqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishdan avval, "axloqiy madaniyat" tushunchasining mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Axloqiy madaniyat — bu insonning ijtimoiy hayotdagi xulq-atvori, kasbiy odo-axloq me'yorlariga rioya qilishi, axloqiy qarorlar qabul qilishdagi mas'uliyat va tamoyillarni anglash darajasidir.

Turli mutaxassislar tomonidan axloqiy madaniyat "alohida individ, ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan axloqiy kamolot me'yorlarini o'zlashtirish orqali axloqiy kamolotga erishish darajasi, shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi"[1], "shaxs axloqiy fazilatlarining maqsadli va ichki izchil tizimi"[2] yoki "jamiyatda insonlarni to'g'ri va noto'g'ri ajratishga yo'naltiruvchi,

axloqiy qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi, ijtimoiy me‘yorlarni shakllantiruvchi va xulq-atvorga ta‘sir etuvchi axloqiy qadriyatlar, tamoyillar, me‘yorlar majmuasi”[3] sifatida talqin etiladi.

Huquqshunos axloqiy madaniyatini takomillashtirish ijtimoiy zaruriyat darajasiga ko‘tarilishi bir qancha omillarga bog‘liq. Avvalo, huquqshunoslar jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi asosiy kuchlardan biri bo‘lganligi sababli, ularning axloqiy qadriyatlari ham jamiyatning umumiy huquqiy ongiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Aholining huquqqa bo‘lgan ishonchini mustahkamlash uchun huquqshunoslar yuqori axloqiy mezonlarga amal qilishi zarur.

Ikkinchidan, yangi bosqichdagi islohotlar, jumladan, sud-huquq tizimining ochiqligi, adolatli va halol xizmat ko‘rsatishga asoslangan boshqaruv modeli huquqshunoslarning professional axloqini takomillashtirishni talab qiladi.

Uchinchidan, korrupsiya huquq tizimi vakillari ishtirokida yuz berayotgan eng jiddiy muammolardan biridir. Bu illatga qarshi samarali kurashish uchun huquqshunoslar orasida axloqiy poklik, vijdonlilik, halollik va xizmat burchiga sadoqatni kuchaytirish ijtimoiy zaruriyatga aylanadi.

Huquqshunos kasbining jamiyatdagi nufuzini saqlab qolish va oshirish, fuqarolar orasida unga bo‘lgan hurmatni mustahkamlash uchun axloqiy me‘yorlarga qat‘iy rioya etish muhimdir. Aks holda, kasb obro‘sining pasayishi huquq tizimiga bo‘lgan ishonchni yemiradi. Kasbiy faoliyatning murakkablashuvi globalizatsiya va zamonaviy huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida huquqshunoslardan nafaqat chuqur bilim, balki yuqori axloqiy mas‘uliyat ham talab etiladi. Har bir vaziyatda adolat, betaraflik va qonun ustuvorligiga sodiq qolish zarur. Shuningdek, yangi avlod huquqshunoslarini tarbiyalashda ustozlarning axloqiy namunasining ahamiyati juda katta. Shuning uchun amaldagi huquqshunoslar o‘z odobi, madaniyati va kasbiy mas‘uliyati bilan yoshlarga ijobiy namuna bo‘lishi talab etiladi.

Axloqiy madaniyatini takomillashtirish jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, adolatli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish va inson huquqlarini himoya qilish uchun muhim va zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon esa nafaqat shaxsiy, balki institutsional darajada ham qo‘llab-quvvatlanmog‘i lozim.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan mazkur jamiyat a‘zosi bo‘lgan hamda huquqiy islohotlarni amalga oshirishda katta rol o‘ynovchi professional huquqshunoslarning axloqiy madaniyati darajasiga bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, huquqshunoslarning axloqiy tamoyillarga qat‘iy rioya qilishi nafaqat qonunchilikning barqarorligini, balki jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishini ham ta‘minlaydi[4].

Huquqshunos axloqiy madaniyatini ijtimoiy zaruriyat sifatida tahlil qilganda, avvalo bu madaniyatning tarkibiy tuzilmasi, uni tashkil etuvchi asosiy elementlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi, ya‘ni dialektik munosabatlari masalasiga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Axloqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi borasida turlicha qarashlar, yondashuvlar mavjud. Taniqli o‘zbek axloqshunos olimi Abdulla Sherning talqiniga ko‘ra, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o‘z ichiga oladi. Eng muhim tarkibiy unsurlar sifatida esa muomala odobi, etiket, kasbiy odob va axloqiy tarbiya ko‘rsatib o‘tilgan[5].

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar axloqiy madaniyat tushunchasiga turlicha yondashuvlarni taklif qilganlar. Misol uchun axloqiy madaniyatning ichki tuzilishini nemis

klassik faylasufi Immanuel Kant (1724-1804) ning deontologik axloqiy yondashuvi hamda ingliz faylasufi, siyosatchisi J. Styuart Mill (1806-1873) ning utilitaristik yondashuvi asosida axloqiy ong (tafakkur), axloqiy tamoyillar (qat'iy yoki moslashuvchan), axloqiy majburiyat, ichki axloqiy nazorat (vijdon), axloqiy xatti-harakatlar kabi elementlardan iborat deb hisoblash mumkin.

Professional huquqshunosning axloqiy madaniyati bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan ukrain olimasi Galina Yavorska yurist axloqiy madaniyatining murakkab tarkibiy tuzilishini qayd etgan holatda, quyidagi uch qismga ajratishni taklif etadi:

- axloqiy ong;
- axloqiy xulq-atvor;
- axloqiy munosabatlar[6].

Olimaning fikriga ko'ra, yurist axloqiy madaniyatning tarkibiy tuzilmasini quyidagicha izohlash mumkin: axloqiy his-tuyg'ular, bilimlar va ehtiyojlarning mavjudligi hamda ularning axloqiy e'tiqodlarga aylanishi va boshqalar xatti-harakatlarini aynan mazkur e'tiqodlar tizimi prizmasida tahlil qilish ko'nikmasi; axloqiy xatti-harakatga tayyorlik, axloqiy bilimlar va e'tiqodlarni qo'llash qobiliyati ya'ni boshqalarga nisbatan adolatli va halol munosabatda bo'lish[7]. Aynan mana shu xususiyatlar huquqshunos axloqiy madaniyatining tarkibiy elementlari sifatida tahlil etiladi.

Axloqiy ong — bu yuristning axloqiy me'yor va qadriyatlarni anglash darajasi, ularning mohiyatini tushunish, baholash va o'z kasbiy faoliyatida ularga asoslanishidir. Bu komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Axloqiy bilim: yurist kasbida qo'llaniladigan axloqiy normalarni bilish;
- Axloqiy tafakkur: ma'naviy mezonlarga tayangan holda mustaqil fikr yuritish;
- Axloqiy o'zini baholash: o'z xatti-harakatlarini axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilish.

Axloqiy ong yuristning kasbiy qarorlarida adolat, halollik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi qadriyatlarga sodiq qolishini ta'minlaydi.

Axloqiy xulq-atvor — bu yuristning real hayotdagi axloqiy qarashlari asosida amalga oshiradigan amaliy harakatlari va xatti-harakatlaridir.

- U quyidagilar bilan ifodalanadi:
- Kasbiy faoliyatda halollik va poklik;
- Fuqarolar bilan muomalada odo va hurmat;
- Qonun ustuvorligini amalda qo'llashda prinsipiiallik;
- Tashqi madaniyat (kiyinishi, nutqi, muomala uslubi).

Yurist qancha bilimdon bo'lmasin, agar uning amaliy faoliyati axloqiy me'yorlarga zid bo'lsa, u holda u jamiyat ishonchini yo'qotadi.

Axloqiy munosabatlar — bu yuristning boshqa insonlar, jamiyat, davlat va kasbiy hamkorlari bilan o'rnatgan munosabatlaridagi axloqiy tamoyillarning namoyon bo'lishidir.

- U quyidagi ko'rinishlarda yuzaga chiqadi:
- Hamkasblar bilan hurmat asosidagi hamkorlik;
- Sud, tergov va boshqa huquqiy institutlar bilan to'g'ri munosabatlar;
- Fuqarolar bilan empatiya va xolislik asosidagi muloqot;
- Jamiyat manfaatiga sodiqlik.

Bu komponent yuristning kasbiy axloq me'yorlariga rioya qilgan holda, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini to'g'ri belgilashiga yordam beradi.

Galina Yavorskaning taklif qilgan bu uch komponenti yurist axloqiy madaniyatining chuqur va kompleks tuzilishini aks ettiradi. Ularning har biri o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birgalikda yuristning nafaqat kasbiy malakasini, balki ijtimoiy mas‘uliyatini, ishonchliligini va shaxsiy madaniyatini shakllantiradi. Axloqiy ong yuristning ichki qarashlarini belgilasa, axloqiy xulq-atvor bu qarashlarning amaliyotdagi ifodasidir, axloqiy munosabatlar esa uning ijtimoiy muhitda qanday qabul qilinishini belgilaydi.

Yurist axloqiy madaniyatining yana bir muhim elementi hisoblangan muomala odobi — bu yuristning xizmat faoliyati davomida boshqalar bilan olib boradigan muloqotida axloqiy va estetik me‘yorlarga rioya qilishi, insonlar bilan hurmat, xushmuomalalik, xolislik va samimiyat asosida munosabat o‘rnatishida ko‘rinadi. Muomala odobi yuristning nutq madaniyatida, tinglay bilish qobiliyatida, ziddiyatli vaziyatlarda o‘zini tutishida namoyon bo‘ladi. Yuristning og‘zaki va yozma nutqi aniq, ravon, tushunarli, huquqiy normalarga mos bo‘lishi, ayniqsa, sud jarayonlarida, tergov davomida yoki mijozlar bilan suhbatda nutqdagi ohangi muhim ahamiyatga ega. Yurist nafaqat so‘zlashi, balki odamlarni diqqat bilan tinglashi, ularning fikriga hurmat bilan yondashishi lozim. Bu uning odobi, e‘tiborli va mas‘uliyatli shaxs ekanini ko‘rsatadi. Muomala odobi yuristning axloqiy madaniyatini amalda namoyon etuvchi eng muhim ko‘rinishlardan biridir. U yuristning jamiyatdagi imidjini shakllantiradi, insonlar bilan ishonchli va ijobiy aloqalarni o‘rnatishiga yordam beradi hamda uning kasbiy muvaffaqiyatida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Yurist axloqiy madaniyatining yana bir muhim tashqi elementi – etiket hisoblanadi. Yuridik faoliyatdagi etiket – bu huquqshunoslik kasbidagi xatti-harakatlar va o‘zaro munosabatlarni boshqaradigan rasmiy va norasmiy qoidalar, me‘yorlar hamda amaliyotlar majmuasidir [8]. Etiket tarkibiga kiyinish, muloqot, turli vaziyatlarda (masalan, ovqatlanish, salomlashish, sud jarayoni va boshqalarda) o‘zini tutish bilan bog‘liq qat‘iy tartibga solingan normalarni kiritish mumkin. U huquqshunosning nafaqat kasbiy faoliyatidagi, balki ijtimoiy hayotdagi tutumini belgilovchi, madaniyat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan muomala shakllarini o‘z ichiga oladi. Etiket yuristning o‘z kasbiga bo‘lgan hurmati, jamiyatga, mijozlarga, hamkasblarga, sud va tergov organlariga, shuningdek, davlat va jamoat institutlariga bo‘lgan munosabatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Huquqshunos axloqiy madaniyatining tarkibiy tuzilishini tahlil qilish orqali mazkur elementlarning kasbiy faoliyatda qay darajada aks etishi, amaliyotda qanday qo‘llanilishiga qarab yurist axloqiy madaniyatining bir nechta darajalarini ajratib olish mumkin.

-Shaxsiy darajadagi yuridik axloqiy madaniyat.

Bu darajada yurist axloqiy qadriyatlarni shaxsiy hayotida va ichki e‘tiqodi darajasida amal qiladi. Insonning axloqiy jihatdan kamolot darajasi uning huquqiy kontekstdagi qarorlariga ta‘sir qilar ekan [9], yuristning individual axloqiy madaniyati ham jamiyatning huquqiy taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatadi.

-Kasbiy-axloqiy darajadagi axloqiy madaniyat.

Bu daraja yuristning kasbiy faoliyati doirasida axloqiy normalarga amal qilishi bilan bog‘liq. Mijozlar, hamkasblar, sud va tergov organlari bilan muomala madaniyatiga, professional etik qoidalarni puxta bilishi va ularga amal qilishida namoyon bo‘ladi.

- institutsional darajadagi yuridik axloqiy madaniyat.

Mazkur daraja konkret tashkilot emas, balki yuridik faoliyatning ma'lum bir qismini qamrab olgan sohaviy yo'nalishlar, ijtimoiy institutlardagi yuridik axloqiy madaniyatni o'zida jamlaydi.

- milliy darajada amal qiluvchi yuridik axloqiy madaniyat. Bu jamiyatdagi barcha fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari tomonidan qonunlarga hurmat bilan yondashish, ularni ongli ravishda bajarish va axloqiy normalarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish tizimidir. Bunday madaniyat jamiyat barqarorligi, huquqiy davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.
- global darajadagi yuridik axloqiy madaniyat. Bu turli mamlakatlar va xalqlar o'rtasida umumiy insoniy qadriyatlar, xalqaro huquq me'yorlari va axloqiy tamoyillarga asoslangan o'zaro hurmat, hamkorlik va adolatga intilish tamoyillarini mujassam etgan tushunchadir. Bu madaniyat dunyo miqyosida tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro adolatni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurist axloqiy madaniyati — bu faqatgina kasbiy ko'nikmalarning majmui emas, balki yuristning ichki dunyosi, ijtimoiy mas'uliyati va shaxsiy fazilatlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. U axloqiy ong, axloqiy xulq-atvor, axloqiy munosabatlar hamda muomala odobi va yuridik etiket kabi asosiy komponentlardan iborat bo'lib, huquqshunoslik kasbining insonparvarlik, adolat va halollik tamoyillariga tayanuvchi mohiyatini belgilaydi.

Zamonaviy huquqiy jamiyatda yurist axloqiy madaniyatining yuksak bo'lishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda huquqiy davlatni barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham yuristlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish nafaqat shaxsiy, balki keng ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralishi lozim. Yuristlar jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy kasb egalari bo'lib, ularning axloqiy madaniyati nafaqat huquqiy amaliyot sifatini, balki odil sudlovga bo'lgan ishonch darajasini ham belgilaydi. Axloqiy tamoyillarga sodiq yurist — bu qonunni faqat quruq matn sifatida emas, balki adolat, vijdon va insonparvarlik bilan uyg'unlashtirib qo'llay oladigan mutaxassisdir.

Xulosa qilib aytganda, yuristlarning axloqiy madaniyati — bu faqat shaxsiy fazilat emas, balki huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi strategik omildir. Axloqiy barkamollik va kasbiy fidoyilik yuksak darajada bo'lgan yuristlargina haqiqiy adolat posboniga aylanishi mumkin. Bu boradagi maqsadli tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, axloq me'yorlarga qat'iy rioya qilish va yosh huquqshunoslar uchun namunali muhit yaratish yuristik faoliyatining sifatini oshirish bilan birga, jamiyatda adolat va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2010. – B. 234.
2. Хачикян Е.И., Заборина М.А., Шамарин И.К. Формирование профессионально-нравственной культуры будущих учителей //Проблемы современного педагогического образования. – 2023. – №. 81-1. – С. 257-259.
3. Nucci, L., & Krettenauer, T. (Eds.). Handbook of Moral and Character Education (1st ed.). Routledge, 2008. – p. 249-267.
4. Kozhevnikov V. To the problem of the theory of legal responsibility // Tomsk State University Journal Of Law. - Issue28, 2018.- P. 5-19

5. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2010. – B. 304-314.
6. Yavorska, G.H. Ethical culture of lawyer: concept and structure // SCIENCE AND EDUCATION, Issue 6, 2011.
7. Yavorska H. LAWYER'S ETHICAL CULTURE IN PROFESSIONAL ACTIVITY // Науковий вісник Південноукраїнського національного педагогічного університету імені К. Д. Ушинського, 117(4), 2017. – P. 109-112. <https://europub.co.uk/articles/-A-417200>
8. <https://www.britannica.com/topic/etiquette>
9. Kohlberg, L. Essays on Moral Development: Volume I. The Philosophy of Moral Development. - San Francisco: Harper & Row, 1981. – p. 488

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

EDUCATIONAL SYSTEM AND PEDAGOGICAL HERITAGE OF NEW SCHOOLS

Kholmiraev Nodirjon Nizomjonovich

Kokand University

Ph.D. (DSc), professor, acting

Abstract. The article discusses the history of modern schools, their opening, teaching and examination system, the creation and use of literature, as well as the attitude of the Tsar's government to them.

Keywords: diligence, method Savtiya, Muzaffaria, teacher first, "Turkestanskije vedomosti" newspaper, educational inspectorate.

JADID MAKTABLARINING O'QITISH TIZIMI VA PEDAGOGIK MEROSI

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich

Qo'qon universiteti

F.f. d.(DSc), professor v.b.

Email: nodirjon89.86@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jadid maktablarining paydo bo'lish tarixi, ularning ochilishi, o'qitish va imtihon tizimi, adabiyotlarning yaratilishi va foydalanishi, shuningdek Chor hukumatining ularga bo'lgan munosabatlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, usuli savtiya, Muzaffariya, ustoz avval, "Туркестанские ведомости" gazetasi, o'quv inspeksiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N11>

KIRISH

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi ostidagi musulmon dunyosini ma'naviy taraqqiyotga erishish yo'li orqali ozodlikka olib chiqish g'oyasini dastlab Ismoil Gasprinskiy ilgari surdi. Uning turkiy xalqlar taqdiridan tashvishlanib: "Bir kishining fojiasidan larzaga tushamiz, yordamga shoshilamiz, lekin millionlarning fojiasiga, butun bir xalqning ko'z o'ngimizda yo'q bo'lib ketayotganligiga befarqmiz" [6, 24-b.] — degan fikrlari alohida e'tiborga molik. Ismoil Gaspirinskiy o'z maqsadlarini amalga oshirish, ya'ni insonlarni ma'rifatli qilish uchun ta'lim berishga e'tibor qaratdi. Gaspirinskiy avval Qrimda yangi usul maktabi ochdi va 12 bolani savodini chiqardi. So'ngra u O'rta Osiyoda ham o'z harakatini yoyishga bel bog'ladi.

METODLAR

Maqolada analiz va sintez, kontent tahlil, tarixiy tahlil, induksiya va deduksiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

1892-yil 5-iyun kuni Ismoil Gasprinskiy Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiyga maktab va madrasalarni tubdan isloh qilishga doir mazmunda murojaat bilan

chiqdi. U xatida mahalliy maktablardagi ta'lim tartibini soddalashtirish, odatda olti yilda beriladigan ibtidoiy bilimlarni ikki yil ichida o'rgatish, tejab qolingan vaqt esa musulmonlar turmush tarziga aralashmagan holda rus tilini o'rgatishga yo'naltirilishini taklif etdi.

Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy xatni o'rganib chiqishni o'lkadagi maorif "fidoiylari" N.Ostroumov va V.Nalivkinga topshirgan. Masalani o'rganib chiqqan N.Ostroumov va V.Nalivkin Ismoil Gasprinskiy takliflarini qat'iy rad etganlar. Ular fikriga ko'ra, Rossiyada rus bo'lmagan xalqlar maorifi masalasida maorif vazirligining ko'rsatmalari ko'proq foydali bo'lib, agarda Gaspinskiy takliflariga rozi bo'lingan taqdirda hukumat bu qarordan bir kun kelib qattiq pushaymon bo'lishi mumkin edi.

General-gubernator A.B.Vrevskiy bilan yozishmalardan naf chiqmagach, Ismoil Gasprinskiy Turkiston safariga o'tlanadi. U Turkistonga ikki marta safar qilgan bo'lib, birinchisi 1893-yilda, ikkinchisi esa 1908-yilda amalga oshirildi. [5, 156-b.] Mahmudxo'ja Behbudiy o'z xotiralarida yozishicha, Ismoil Gasprinskiy bilan 1893-yili Samarqandda, 1900-yili Istanbulda uchrashib, suhbatlashgan. [2, 79-81-b.] Ismoil Gasprinskiyning Turkiston va Buxoroda bo'lishi milliy taraqqiyparvarlarga yangi kuch va ruh bergan edi. [1, 82-b.]

Ismoil Gasprinskiy g'oyalariga qiziqish bilan qaragan amir Abdulahadxon Ismoil Gasprinskiyni Buxoroga taklif etgan. 1893-yili Ismoil Gasprinskiy Toshkent va Samarqandga sayohatidan so'ng Buxoroga tashrif buyurgan. Buxoroda Ismoil Gasprinskiy sa'y-harakati bilan Abdulahadxonning otasi sharafiga "Muzaffariya" deb atalgan jadid maktabi ochilgan. [4, 39-b.]

1893-yil iyul oyida Ismoil Gasprinskiyning Samarqandga tashrifi aholi tomonidan ko'tarinki ruhda qabul qilingan. Samarqandda istiqomat qiluvchi mashhur tatar savdogari Abdug'ani Husainov Ismoil Gasprinskiydan jadid maktabi ochishni iltimos qilib, uni tashkil etish bo'yicha barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olgan. Shu tariqa Turkiston o'lkasida birinchi jadid maktabiga asos solingan. Ismoil Gasprinskiy iltimosiga ko'ra, unga hamrohlik qilgan Sulton Majid G'anizoda Samarqandda qirq kun qolib, o'qitish usullarini o'rgatgan. Bu maktab mahalliy aholi o'rtasida bolalarning tez savod chiqarganligi sababli "mashinali maktab" nomi bilan mashhur bo'lgan. [3, 33-35-b.]

"Turkestanskije vedomosti" gazetasining 1893-yil 5-sentyabrdagi sonida mazkur yangi usul maktabi haqida xabar bosilgan. Unda qayd etilishicha, Ismoil Gasprinskiy g'oyasi va Abdug'ani Husainov mablag'i hisobiga ochilgan yangi usul maktabi mahalliy aholi tomonidan xursandchilik bilan kutib olingan. Chunki mahalliy eski usul maktabida yillar davomida qo'lga kiritilgan natijaga yangi usul maktabi o'quvchilari bir necha hafta davomida erishganlar.

Ismoil Gasprinskiy 1898-yili jadid maktablarining qonun-qoidalari, o'quv rejasi, darsxonaning holati, yillik imtihon o'tkazish tartibi, namunali dars jadvali haqida ma'lumot beruvchi "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" nomli uslubiy asarini yaratdi. [3, 31-b.] Shuningdek, Ismoil Gasprinskiy yangi usul maktablari uchun "Xo'jai sibyon" ("Bolalar muallimi") nomli birinchi darsligi yozdi. [6, 27-b.]

1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Turkiston jadidlari o'zlarining dastlabki faoliyatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda unga yetishuv iloji yo'q edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislar tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e'tiborni mahalliy xalq bolalaridan ilg'or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga qaratganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishni va yosh avlod ta'lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai-nazaridan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar. [5, 157-b.] Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

Turkiston bosib olingach, bu yerda mustamlakachilar o'zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini podsho ma'murlari ham yaxshi anglar edilar.

MUNOZARALAR

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyoli va ulamolari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo'lgan holda tarqalganlar.

Mustamlaka ma'murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo'naltirilganligiga ham e'tiborni qaratib borganlar. O'quv inspeksiyasi tomonidan ushbu maktablar qattiq nazorat ostiga olingan. [4, 42-b.] Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o'z zimmalariga oldilar. Turkiston taraqqiyparvalaridan Said Rasul Azizov, Munavvar qori, M.Behbudiy, A. Ibodiy, A. Zohiriy va boshqalar maktablar uchun darsliklar yozdilar. Masalan, A.Zohiriy 1916 yili «Imlo» kitobini yozdi va kitobni Qo'qondagi «G'ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr ettirdi. H.H. Niyoziy esa, maktablar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblarni yozadi.

Yangi usul maktablaridagi o'qituvchilarning ko'pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo'lib, ba'zilar esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o'quv jadvali asosida, senzura ko'rigidan o'tgan darsliklar bo'yicha olib borilgan.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. Turkiston taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e'tiborni boshlang'ich ta'lim islohiga qaratdilar. Ularning ma'rifatparvarlik harakatlari zoye ketmadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jadidlar tomonidan ochilgan yangi usul maktablarida tahsil olgan o'quvchilardan keyinchalik fan, texnika, adabiyot hamda ijtimoiy hayotning turli sohalarida mashhur bo'lgan shaxslar yetishib chiqdi. Bu maktablar jadid ma'rifatchiligining dastlabki shakli bo'lishi bilan birga, taraqqiyparvarlik harakati to'liq siyosiy tus olmaguncha ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Bunday muvaffaqiyatga yangi usul maktablarida yaratilgan noyob ta'lim tizimi, ilg'or pedagogika va betakror adabiyotlar sabab bo'ldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmedov S. Jadidchilik va istiqloq // Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash. – T.: Ma'naviyat, 2001.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1997.
3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari... – B.
4. Isokboev A.A. Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fan. nomz. ... diss. – Namangan, 2008.
5. Сабирова Н. К опыты возникновения новометодных школ в национальных окраинах Российской империи // Восток-Запад: аспекты взаимодействия. Материалы научной конференции. – Т. 2006.
6. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF MAN AND FAMILY IN THE WORK OF ZAKHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR "BABURNAMA"

Muslimov Sherzod Akbarovich

Independent researcher

Samakand State Institute of Foreign Languages

E-mail: muslimov.sherzod@gmail.com

Abstract. This article examines the problem of man and family in the work of Zakhiriddin Muhammad Babur "Babur-name" from a scientific and theoretical point of view. The work examines the author's personal life, family relationships, family ties, respect for parents, raising children and the role of the institution of family in society. During the study, family values, mutual kindness, loyalty, moral norms and their importance for social stability are revealed through the prism of historical events and personal memories in the work "Babur-name". The article also scientifically substantiates the inextricable link between human development and family education in Babur's worldview, the interpretation of the family as a decisive factor in the spiritual development of the individual. The analysis is carried out from the standpoint of historical, literary and cultural studies and helps to identify the historical and philosophical roots of the theme of family and man in the Uzbek literary heritage.

Keywords: Zakhiriddin Muhammad Babur, "Baburnama", family values, human development, moral education, spirituality, historical memory, literary heritage.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA INSON VA OILA MUAMMOSI

Muslimov Sherzod Akbarovich

Mustaqil tadqiqotchi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida inson va oila muammosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda muallifning shaxsiy hayoti, oilaviy munosabatlari, qarindoshlik rishtalari, ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi hamda jamiyatdagi oila institutining o'rnini yoritilgan. Tadqiqot davomida "Boburnoma" dagi tarixiy voqealar va shaxsiy xotiralar orqali oila qadriyatlarini, o'zaro mehr-oqibat, sadoqat, axloqiy me'yorlar va ularning ijtimoiy barqarorlikdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada shuningdek, Bobur dunyoqarashida inson kamoloti va oilaviy tarbiya o'zaro uzviy bog'liqligi, shaxsning ma'naviy yuksalishida oilaning hal qiluvchi omil sifatida talqin qilinishi ilmiy asoslanadi. Ushbu tahlillar tarixshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lib, o'zbek adabiy merosida oila va inson mavzusining tarixiy-falsafiy ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", oila qadriyatlarini, inson kamoloti, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, tarixiy xotira, adabiy meros.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N12>

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur — o'zbek va jahon adabiyoti tarixida betakror iz qoldirgan, buyuk shoir, davlat arbobi, sarkarda va tarixchi sifatida e'tirof etilgan siymodir. Uning "Boburnoma" asari nafaqat XV–XVI asrlar Movarounnahr, Hindiston va boshqa mintaqalarning siyosiy-ijtimoiy tarixini aks ettiruvchi noyob manba, balki o'z davrining

ma'naviy, madaniy va axloqiy hayotini yorituvchi bebaho adabiy yodgorlikdir. Ushbu asar muallifning shaxsiy hayoti, oilaviy tajribalari, qarindosh-urug' munosabatlari hamda insoniy fazilatlar haqidagi qarashlari bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson va oila muammosi har qanday jamiyat taraqqiyotida doimiy dolzarblik kasb etib kelgan. Bobur yashagan davrda oila nafaqat shaxsiy hayotning markazida, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikning ham asosiy poydevori sifatida qaralgan. "Boburnoma"dagi oila haqidagi kuzatishlar va hikoyalar, muallifning shaxsiy hayotidagi sinovlar hamda o'z davrining ijtimoiy an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular orqali o'sha davr oilaviy qadriyatlari va ma'naviy me'yorlari tiklanadi. Bobur oilaga nafaqat shaxsiy baxt va ruhiy tayanch manbai sifatida, balki jamiyatning axloqiy me'yorlarini shakllantiruvchi muhim institut sifatida yondashgan.

Maqolada "Boburnoma" asarida inson va oila mavzusining yoritilishiga kompleks ilmiy yondashuv qo'llanadi. Bunda tarixshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik metodlari uyg'unlashtirilgan bo'lib, asarda uchraydigan oila haqidagi epizodlar zamonaviy ilmiy tahlil mezonlari asosida o'rganiladi. Ushbu tadqiqot nafaqat Bobur ijodining ma'naviy-falsafiy qirralarini ochishga, balki o'zbek adabiy merosida oila va inson muammosining tarixiy ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oila institutining tarixiy tajribasini zamonaviy ijtimoiy hayotga tatbiq etish imkoniyatlari ham muhokama qilinadi[1; 7-8-b].

Aynan shunday yondashuv "Boburnoma"dagi oila va inson haqidagi qarashlarni nafaqat adabiy yodgorlik sifatida, balki ma'naviy-tarbiyaviy dastur sifatida ham baholash imkonini beradi. Shu tariqa, mazkur maqola o'zbek adabiyoti va tarixshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur merosini yanada chuqurroq o'rganishga hissa qo'shadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari, avvalo, muallifning o'z davri voqealariga bevosita guvoh sifatidagi kuzatuvlari va shaxsiy hayot tajribalariga asoslanadi. Ushbu asar o'zbek adabiy merosida tarixiy-memuar janrining eng yirik namunasi bo'lib, unda siyosiy voqealar qatori insoniy fazilatlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy hayotning ma'naviy qirralari keng yoritilgan. Asar matnida muallifning oilaga bo'lgan yondashuvi ikki qatlamda namoyon bo'ladi: birinchisi — shaxsiy hayotidagi voqealar, ikkinchisi — o'z davrida jamiyatning oila institutiga bergan bahosi[2; 25-b].

Boburning hayoti siyosiy kurashlar, hududiy nizolar va davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, u oilani doimo shaxsiy hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rgan. "Boburnoma"da uning ota-onasi, qarindoshlari, farzandlari va boshqa yaqinlariga bo'lgan samimiy munosabati yorqin aks etadi. Masalan, Bobur onasining nasihatlariga quloq tutishi, unga nisbatan hurmat-ehtiromini izhor etishi, yoki farzandlariga berayotgan tarbiyasi orqali oila muhitida shakllangan axloqiy qadriyatlarni namoyon etadi. Bu jihatlar o'sha davr turkiy xalqlarining oilaga oid an'alarini tiklashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi [3; 54-55-b].

Bobur oilani nafaqat shaxsiy baxt manbai, balki siyosiy barqarorlik omili sifatida ham talqin etadi. U hukmdor sifatida o'z qarindoshlarini birlashtirish, ularning o'zaro totuvligini saqlash orqali davlat mustahkamligini ta'minlashga intilgan. Bu holat, ayniqsa, Movarounnahr va Hindiston tarixida sulolaviy kurashlar kuchaygan davrda alohida ahamiyat kasb etgan.

Asarda oila qadriyatlari bir necha asosiy yo'nalishda aks etadi:

Mehr-oqibat va sadoqat: Bobur yaqinlariga bo'lgan sadoqatini doimo ta'kidlaydi. U uchun oila a'zolarining o'zaro mehr-muhabbati eng katta boyliklardan biri bo'lib, bu jihat shaxsiy hayotida ham, davlat boshqaruvida ham muhim ahamiyat kasb etgan[4; 11-12-b].

Axloqiy me'yorlar: Ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan aloqalarni mustahkamlash Bobur dunyoqarashida asosiy axloqiy mezon sifatida ko'riladi.

An'anaviy marosimlar va udumlar: Nikoh, motam, mehmondorchilik kabi oilaviy an'analar "Boburnoma" sahifalarida bevosita yoki bilvosita tilga olinadi va bu marosimlar o'sha davrning madaniy manzarasini to'ldiradi.

Bobur qarashlariga ko'ra, inson kamoloti avvalo oilada shakllanadi. Farzand tarbiyasi, axloqiy fazilatlarning singdirilishi, ma'naviy tayanch berilishi — bularning barchasi oilaning bevosita vazifasidir. U o'z asarida bunday tarbiyaning ijobiy yoki salbiy natijalari haqida tarixiy voqealar misolida so'z yuritadi. Shu bois "Boburnoma" nafaqat tarixiy voqealar yodnomasi, balki ma'naviy-tarbiyaviy qo'llanma sifatida ham baholanishi mumkin[5; 41-42-b].

Bobur zamonida, ayniqsa hukmdor oilalarida, farzandlarni ilm-fan, harbiy ishlar va siyosiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. "Boburnoma"dagi ayrim epizodlarda muallif o'z tarbiyasida olgan bilim va odob-axloq qoidalarini kelajak avlodga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. Bu holat o'z davrining ijtimoiy-pedagogik qarashlari bilan hamohangdir.

Asardagi oilaga oid ma'lumotlar tarixshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham katta ilmiy qimmatga ega. Chunki unda XV–XVI asr turkiy xalqlarining oila tuzilishi, ichki munosabatlari, axloqiy qadriyatlar haqidagi bevosita kuzatishlar keltiriladi. Bobur tasvirlarida oila faqat shaxsiy hayot maydoni emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yangilanishning asosi sifatida gavdalanadi.

Tarixiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma"dagi oilaviy epizodlar nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki ma'naviy meros sifatida zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb. Xususan, hozirgi globallashuv davrida oilaviy qadriyatlarning zaiflashishi sharoitida Bobur merosidagi ibratli o'gitlar yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin[6; 5-6-b].

"Boburnoma"dagi oila haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Inson kamoloti, ma'naviy poklik, mehr-oqibat va sadoqat kabi qadriyatlar hozirgi jamiyat taraqqiyotining ham asosiy poydevoridir. Bobur tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy oila institutini mustahkamlash, milliy tarbiya tizimini boyitish va yoshlar ongida axloqiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Shu jihatdan ushbu asar tarixiy manba bo'lish bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy dastur sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'li, uning qaror qabul qilishdagi qat'iyiligi, insoniy munosabatlardagi samimiyligi va adolatparvarligi ko'p jihatdan oilaviy tarbiya mahsulidir. Bobur yoshligidan otasi Umar Shayx Mirzo va onasi Qutlug' Nigorxonimning mehr-muhabbatida, shuningdek, turkiy va islomiy an'analar hukm surgan muhitda voyaga yetgan. "Boburnoma"da bu tarbiya unsurlari uning davlatni boshqarishdagi yondashuvlarida, dushman va do'stlarga munosabatida, el-yurtga xizmat qilishdagi mas'uliyatida yaqqol ko'rinadi[7; 2-3-b].

Bobur oilaviy rishtalarni mustahkamlash uchun shaxsiy hayotidagi ayrim qulayliklardan voz kechganini ham tilga oladi. Masalan, qarindoshlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni yumshatish maqsadida siyosiy nikohlar tuzishi, yaqinlarini muhim lavozimlarga tayinlab

ularning mavqeyini oshirishga intilishi bunga misoldir. Bu holat oilaning siyosiy funksiyasini ham ochib beradi.

Asarda oilaga oid qarashlar nafaqat saroy va hukmdor oilalari darajasida, balki oddiy xalq hayotida ham yoritiladi. Bobur xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini, mehmondorchilik anʼanalarini, marosimlarni tasvirlar ekan, ularning oilaviy hayotdagi ahamiyatini ham alohida taʼkidlaydi. Masalan, turli bayram va toʻy marosimlarida mehr-oqibatning kuchayishi, jamoaviy birlikning mustahkamlanishi Bobur nazarida jamiyat barqarorligining muhim belgisi hisoblangan[8; 4-b].

Bobur, shuningdek, kambagʻal oilalarning hayotidan ham lavhalar beradi, ularning mashaqqatlarini, iqtisodiy qiyinchiliklarini qayd etadi. Bu jihat “Boburnoma”ni nafaqat hukmdorlar hayotini yorituvchi asar, balki oʻz davrining ijtimoiy manzarasini toʻlaqonli aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida ham qimmatli qiladi.

Bobur qarashlarida oila axloqiy qadriyatlar tizimining boshlangʻich va eng muhim halqasi sifatida talqin etiladi. Unga koʻra, oilada shakllangan fazilatlar — rostgoʻylik, adolat, saxovat, sadoqat — shaxsning butun hayoti davomida unga hamroh boʻladi. “Boburnoma”dagi koʻplab epizodlar ana shu fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish uchun yozilgandek taassurot uygʻotadi[9; 3-b].

Islomiy axloq tamoyillari ham Bobur oila haqidagi qarashlarida muhim oʻrin tutadi. U Qurʼon va hadisda bayon etilgan ota-onaga hurmat, qarindosh-urugʻ aloqalarini mustahkamlash, farzandlarga ilm berish kabi burchlarni oʻz hayotida ham amalda tatbiq etgan. Bu holat “Boburnoma”ni diniy-maʼnaviy tarbiya nuqtai nazaridan ham ahamiyatli manba sifatida koʻrsatadi.

Boburning oila haqidagi kuzatuvlari bugungi pedagogik amaliyot uchun ham katta ilmiy qiymatga ega. Chunki unda oilaning tarbiyadagi roli nafaqat nazariy, balki amaliy misollar orqali yoritiladi. Shaxs tarbiyasida ota-onaning masʼuliyati, bolaga beriladigan maʼnaviy tayanch, oilaviy birdamlik — bularning barchasi zamonaviy taʼlim tizimi uchun dolzarb mavzudir.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan qaralganda, “Boburnoma” oila va jamiyat oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni oʻrganishda noyob tarixiy manbadir. Bobur tasvirlagan oilaviy model, uning ijtimoiy vazifalari va qadriyatlar tizimi bugungi oila sotsiologiyasi tadqiqotlari uchun tarixiy kontekst yaratadi.

Xulosa. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat XV–XVI asrlar tarixini, siyosiy voqealarini va madaniy hayotini aks ettiruvchi yodgorlik, balki inson va oila masalalarini yoritishda ham beqiyos ilmiy manba sifatida alohida oʻrin egallaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, Bobur oʻz asarida oila institutini shaxsiy hayotiy tajribasi, hukmdorlik faoliyati va oʻz davrining ijtimoiy-madaniy anʼanalari bilan chambarchas bogʻliq holda tasvirlaydi. Uning qarashlarida oila — inson kamoloti, axloqiy yetuklik va maʼnaviy poklikning boshlangʻich bosqichi sifatida talqin etiladi.

“Boburnoma” sahifalarida oilaviy qadriyatlarning turli koʻrinishlari: ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi, qarindosh-urugʻlar oʻrtasidagi mehr-oqibat va birdamlik, anʼanaviy marosimlarning ahamiyati keng yoritilgan. Bu jihatlarda oʻz davrining madaniy manzarasini tiklash, oila sotsiologiyasi va tarixshunosligi nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bobur hayotidagi siyosiy voqealar va sulolaviy nizolar fonida oilani barqarorlik omili sifatida koʻrishi, uning davlat boshqaruvidagi strategik qarorlarida ham aks etgan.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Bobur uchun oila faqat shaxsiy hayot doirasi emas, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy tayanchi, ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi eng muhim institutdir. Bu yondashuv zamonaviy davr uchun ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Hozirgi globalashuv jarayonida oilaviy qadriyatlarning zaiflashishi, shaxsiy individualizmning kuchayishi fonida Bobur merosidagi ibratli o'g'itlar milliy tarbiya tizimini boyitishda va yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, "Boburnoma"dagi oilaviy epizodlar zamonaviy pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari uchun ham katta ilmiy qiymatga ega. Ular shaxs tarbiyasida oilaning o'rni, axloqiy qadriyatlarning avloddan-avlodga o'tish mexanizmlari, madaniy an'analar va diniy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etishda bevosita qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asari orqali nafaqat o'z davrining siyosiy va madaniy hayotini yoritgan, balki oilaning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ham ilmiy-nazariy darajada asoslab bergan. Shu bois "Boburnoma" — o'zbek va jahon adabiyoti, tarixshunosligi hamda ma'naviyatshunosligida inson va oila muammosini o'rganishda eng muhim manbalardan biri bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2017.
2. Vohidov, R. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Karimov, N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Mo'minov, I. M. Oila va jamiyat: tarixiy-falsafiy tahlil. — Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
5. Qosimov, B. O'zbek adabiy merosi va milliy qadriyatlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. Alimova, D. Oila institutining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalar. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – С. 17-20.
8. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – С. 58-64.
9. Усмонов Ф. Н., Усмонова Л. Р. Рациональный анализ восточной миниатюры //Молодой ученый. – 2016. – №. 2. – С. 987-991.
10. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Этапы самоорганизации социальной системы //В поисках социальной истины. – 2021. – С. 237-242.
11. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – Т. 6. – №. 4. – С. 5-5.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE RELEVANCE AND IMPORTANCE OF AL-KHWARIZMI'S VIEWS ON SCIENTIFIC RESEARCH

Dzhantaev Maksud Ibrahimovic

Independent researcher

Samakand State Institute of Foreign Languages

E-mail: jantayev.maksud@gmail.com

Abstract. This article analyzes the relevance of the views of the great scientist Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi on scientific research and their importance in the development of modern science. It is shown that Al-Khwarizmi's scientific research in algebra, arithmetic, astronomy, geography and other fields of science served as a fundamental scientific basis not only in his time, but also in subsequent centuries. The article reveals the scientist's scientific methodology, an approach based on experience and observation, as well as the role of his scientific heritage in the scientific and practical activities of the modern era. The study used the methods of historical analysis, comparative approach and scientific and theoretical generalization. As a result, it is proven that Al-Khwarizmi's ideas on scientific research serve as a methodological basis for the innovative development of science and the education system today.

Keywords: Al-Khwarizmi, scientific research, algebra, methodology, astronomy, scientific heritage, historical analysis, innovation, history of mathematics, scientific and practical activity.

AL-XORAZMIYNING ILMIY TADQIQOT HAQIDAGI QARASHLARINING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Jantayev Maksud Ibragimovich

Mustaqil tadqiqotchi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ilmiy tadqiqotga oid qarashlarining dolzarbligi va zamonaviy fan taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Al-Xorazmiyning algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalaridagi ilmiy izlanishlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham fundamental ilmiy asos bo'lib xizmat qilgani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada olimning ilmiy metodologiyasi, tajriba va kuzatuvga asoslangan yondashuvi, shuningdek, uning ilmiy merosining hozirgi davr ilmiy-amaliy faoliyatida tutgan o'rni ochib beriladi. Tadqiqot davomida tarixiy tahlil, qiyosiy yondashuv va ilmiy-nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Natijada, Al-Xorazmiyning ilmiy izlanishlarga oid g'oyalari bugungi kunda ilm-fan va ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishida metodologik asos bo'lib xizmat qilishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Al-Xorazmiy, ilmiy tadqiqot, algebra, metodologiya, astronomiya, ilmiy meros, tarixiy tahlil, innovatsiya, matematika tarixi, ilmiy-amaliy faoliyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N13>

Kirish. Insoniyat tarixida ilm-fan taraqqiyoti asosan buyuk allomalar, mutafakkirlar va olimlarning fidokorona ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga kelgan. Ularning asarlari, ilmiy g'oyalari va metodologik qarashlari keyingi avlodlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan, IX asrning yirik olimi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nafaqat o'z

davrida, balki butun insoniyat ilmiy tafakkurining rivojlanishida beqiyos iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning asarlari matematika, astronomiya, geografiya, geodeziya va boshqa fanlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan, ilmiy izlanishlarni tashkil etish va amalga oshirishda metodologik yondashuvlar yaratgan. Bugungi kunda ham Al-Xorazmiyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Al-Xorazmiyning ilmiy tadqiqot haqidagi qarashlarini o'rganish, avvalo, uning ilmiy metodologiyasi va izlanishlarida qo'llagan prinsiplarini aniqlashga yordam beradi. U ilmiy haqiqatga erishishda kuzatuv, tajriba, mantiqiy tahlil va matematik hisob-kitoblarni uyg'un qo'llashga alohida e'tibor qaratgan. Olim ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va insoniyat uchun foydasini chuqur anglab, o'z asarlarida nazariy bilimlarni amaliy masalalarni hal etishga yo'naltirgan[1; 96-b].

Hozirgi kunda, globalashuv jarayonlari jadallashib, axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelgan davrda, ilmiy tadqiqot metodlarini mukammallashtirish dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, buyuk allomalar merosini, xususan, Al-Xorazmiyning ilmiy qarashlarini tahlil qilish, ularning zamonaviy ilm-fan va ta'lim tizimidagi ahamiyatini belgilash O'zbekiston va butun dunyo olimlari uchun muhimdir. Bu nafaqat tarixiy adolatni qaror toptiradi, balki bugungi yosh avlodni ilm-fan yo'liga undashda, ularga ilmiy tafakkur va mustaqil fikrlash madaniyatini singdirishda muhim o'rin tutadi[2; 7-8-b].

Ushbu maqolada Al-Xorazmiyning ilmiy tadqiqotga oid qarashlari keng tahlil qilinadi, uning ilmiy merosining bugungi kunda tutgan o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, olimning ilmiy uslubiyatiga doir yondashuvlari, nazariy va amaliy ishlari, shuningdek, ularning zamonaviy fan rivojidagi qo'llanilish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy hamjamiyat uchun Al-Xorazmiyning metodologik merosini chuqurroq o'rganishga va uni hozirgi ilmiy-amaliy jarayonlarga tatbiq etishga xizmat qiladi[3; 23-24-b].

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrning buyuk matematik, astronom, geograf va uslubiyotchi olimidir. U Bag'doddagi "Bayt al-Hikma" – Donishmandlik uyida ilmiy izlanishlar olib borib, Sharq va G'arb ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Al-Xorazmiy nafaqat nazariy, balki amaliy masalalarning ham yechimiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida chuqur falsafiy qarashlarni ilgari surgan. Uning ilmiy faoliyati qadimgi sivilizatsiyalar – Vavilon, Yunoniston, Hindiston, Xitoy va Misr ilmiy merosini sinchiklab o'rganish va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ishlash bilan ajralib turadi.

Al-Xorazmiyning matematika sohasidagi eng muhim asarlaridan biri "Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr val-muqobala"dir. Ushbu asar algebra fanining mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. Asarda kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish usullari tizimli bayon etilgan bo'lib, olim "al-jabr" va "al-muqobala" amallarini kiritgan[4; 77-78-b]. Bu amallar tenglamalarni kanonik shaklga keltirish imkonini berib, keyinchalik "algebra" atamasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Mazkur yondashuv matematikani faqat nazariy bilimlar majmuasi sifatida emas, balki hayotiy ehtiyojlarni qondiruvchi amaliy vosita sifatida namoyon etgan.

Al-Xorazmiy yaratgan ikkinchi muhim asar – "Kitob al-hisob al-hind" (Hind arifmetikasi haqida kitob) bo'lib, unda o'nlik sanoq tizimi va hind raqamlari (1–9)ni qo'llash qoidalari yoritilgan. Shuningdek, u nol tushunchasini matematik hisob-kitoblarga kiritib, zamonaviy

algoritmik tafakkurning shakllanishiga asos solgan. Olim qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish kabi asosiy arifmetik amallar algoritmlarini ishlab chiqqan. Bu ishlar o‘z davrida hisob-kitoblarning aniqligi va tezligini oshirishga xizmat qilgan.

Al-Xorazmiy astronomiya sohasida ham yirik tadqiqotlar olib borgan. U hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, “Zij al-Xorazmiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan astronomik jadvallarni yaratgan. Bu jadvallarda sinus va tangens qiymatlari keltirilgan bo‘lib, ular tekis uchburchak va sferik uchburchak trigonometriyasining ilk ilmiy asoslarini tashkil etgan[5; 57-58-b]. XII asrda ushbu asar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropadagi astronom va geodez olimlar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Olim rahbarligida 827-yilda Yer meridianining bir gradusi aniq o‘lchangan bo‘lib, bu o‘lchov ishlari geodeziya tarixida muhim burilish yasagan.

Al-Xorazmiy geografiya sohasida “Kitob surat al-ard” (“Yer surati haqida kitob”) asarini yozgan. Unda mamlakatlar, shaharlar, daryolar va dengizlarning koordinatalari, xaritalari keltirilgan. Olim Yer sharini yetti iqlimga bo‘lib tasnif qilgan hamda to‘rtta muhim xarita – Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalari xaritalarini yaratgan. Bu asar keyingi geografik tadqiqotlarga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Al-Xorazmiy ilmiy izlanishlarida kuzatuv, tajriba, mantiqiy tahlil va matematik modellashtirish usullarini uyg‘un qo‘llagan. U induktiv yo‘l bilan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, deduktiv yo‘l bilan esa ularni xususiy masalalarga tatbiq etish metodini ishlab chiqqan. Olimning yondashuvi zamonaviy ilmiy metodologiyaning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi[6; 81-82-b].

Bugungi globallashuv davrida Al-Xorazmiyning ilmiy merosi matematika, axborot texnologiyalari, muhandislik, geografiya va astronomiya sohaslarida amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Uning algoritm haqidagi g‘oyalari kompyuter texnologiyalarining nazariy asoslaridan biri bo‘lib qolmoqda. Algebra va o‘nlik tizim asosidagi hisob-kitob metodlari esa ta‘lim tizimida haligacha asosiy o‘quv dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Al-Xorazmiy ilmiy merosining eng muhim jihatlaridan biri uning ta‘lim-tarbiyada qo‘llanishidir. Olim o‘z asarlarida murakkab matematik tushunchalarni sodda, izchil va tizimli tarzda bayon etgani sababli, uning ishlari o‘rta asrlarda ham, bugungi kunda ham o‘quv qo‘llanma sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan. Xususan, “Al-jabr val-muqobala” asarining didaktik yondashuvi hozirgi zamon matematik ta‘limining metodik asoslariga uyg‘un keladi[8; 5-6-b].

Olimning ilmiy merosida matematik tushunchalarni amaliy hayotdagi ehtiyojlar bilan bog‘lashga alohida urg‘u berilgan. Masalan, meros taqsimoti, savdo-sotiq, yer o‘lchash kabi masalalar orqali algebraik bilimlarni mustahkamlash yondashuvi zamonaviy STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta‘lim konsepsiyasiga hamohangdir.

Al-Xorazmiy ishlab chiqqan induktiv va deduktiv yondashuvlarning uyg‘unligi bugungi ilmiy tadqiqot metodologiyasining asosiy talablari bilan mos tushadi. Induksiya orqali umumiy qonuniyatlarni ochish va deduksiya orqali ularni xususiy masalalarda sinovdan o‘tkazish – zamonaviy ilmiy izlanishlarning yetakchi tamoyillaridan biridir.

Shuningdek, uning algoritmik tafakkurga asoslangan yondashuvi sun‘iy intellekt, dasturlash, matematik modellashtirish kabi zamonaviy yo‘nalishlarda bevosita qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda “algoritm” atamasi bilan ifodalanayotgan barcha hisoblash jarayonlarining nomi bevosita Al-Xorazmiy merosi bilan bog‘liqdir[9; 3-4-b].

Al-Xorazmiy faoliyatining yana bir muhim jihati – fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuvdir. U matematika, astronomiya, geografiya kabi bir-biridan farqli fanlarni yagona ilmiy tizimda uyg'unlashtira olgan. Bunday yondashuv bugungi global ilm-fan rivojida juda dolzarb bo'lib, kompleks muammolarni hal etishda turli sohalar integratsiyasining muhimligini tasdiqlaydi.

Olimning asarlari XII asrdan boshlab lotin, ibroniy va boshqa tillarga tarjima qilinib, Yevropa Uyg'onish davri ilm-fan taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Yevropa matematiklari va astronomlari Al-Xorazmiy ishlanmalaridan asrlar davomida qo'llanma sifatida foydalangan. Bu esa uning ilmiy merosining nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosidagi ahamiyatini tasdiqlaydi[10; 2-3-b].

Al-Xorazmiy ilmiy faoliyatidan kelib chiqadigan eng muhim saboqlardan biri – ilm-fan natijalarini jamiyat manfaatlariga yo'naltirish zaruratidir. Olim ilmiy g'oyalarni hayotiy ehtiyojlar bilan bog'lash orqali ularning samaradorligini oshirish mumkinligini amalda isbotlagan. Bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitida bu yondashuv yangicha texnologiyalar, raqamli tizimlar va ilmiy yangiliklarni amaliy sohalarga tatbiq etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nafaqat o'z davrining yirik olimi, balki butun insoniyat tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning ilmiy merosi va tadqiqotga oid qarashlari nafaqat IX asrning ilmiy ehtiyojlarini, balki bugungi zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti talablarini ham qondiradigan darajada mukammal va tizimli bo'lib, insoniyat uchun universal ahamiyat kasb etadi.

Al-Xorazmiy ilmiy izlanish jarayonida qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, kuzatuv va tajribaga asoslangan tahlil, aniq hisob-kitob va matematik model yaratishga alohida e'tibor bergan. Bu yondashuv nafaqat matematika va astronomiya sohalarida, balki geografiya, geodeziya va boshqa tabiiy fanlar rivojida ham ulkan yangiliklar kashf etishga imkon bergan. Olimning ilmiy metodologiyasi, ayniqsa, ilmiy farazni tajriba orqali sinash, natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish tamoyillari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asrida Al-Xorazmiy merosini o'rganish ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etish, yangi bilimlarni yaratish va ularni amaliy hayotga tatbiq etish jarayonida muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, algoritmik tafakkur va tizimli yondashuv, zamonaviy dasturlash va hisoblash texnologiyalarining asosini tashkil etgani bois, uning qarashlari XXI asr ilm-fani uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, buyuk allomalar merosini o'rganish, uni ta'lim va tarbiya tizimiga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Bu jarayonda Al-Xorazmiy ilmiy qarashlarining yosh avlod tafakkurini shakllantirish, ularni ilm-fanga qiziqtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Shu bois, Al-Xorazmiyning ilmiy tadqiqot haqidagi qarashlarini chuqur o'rganish nafaqat tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash masalasidir, balki bu — kelajak ilmiy taraqqiyoti uchun mustahkam nazariy-metodologik poydevor yaratish demakdir. Uning merosi o'zbek ilm-fanining buyuk an'alarini tiklash, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni boyitish va jahon ilmiy maydonida munosib o'rin egallash yo'lida muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Al-Khwarizmi, M. ibn M. Kitab al-jabr va'l-muqabala (Algoritmik va algebra asoslari). – Bag'dod, 825 y. (Arabcha qo'lyozma, turli nashrlar).
2. Rashed, R. The Development of Arabic Mathematics: Between Arithmetic and Algebra. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1994. – 332 b.
3. To'raev, A. Al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 176 b.
4. Yusupov, O. Markaziy Osiyo allomalari va ularning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. – 240 b.
5. Rosen, F. The Algebra of Mohammed ben Musa. – London: Oriental Translation Fund, 1831. – 187 b.
6. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
8. Rizaev I. I. Evolutionary mechanisms of self-organization of the social system //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 9. – C. 81-86.
9. Usmonov F. N. The Role of Scientific Ethics and Bioethics in Modern Society //Design Engineering. – 2021. – C. 8373-8379.
10. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
11. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION AND LITERATURE

Kosnazarova Palzada

doctoral student

Nukus State Pedagogical Institute

E-mail: qosnazarovapalzada@gmail.com

Abstract. The article discusses the struggles waged to enrich the spiritual life of the people in the views of the representatives of the Jadid movement in Turkestan, the role of the national press, literature, and theater in the development of human thought, the figures who wrote passionate works, showed selflessness in this regard, and as a result became victims of repression. In their works, one can hear the cries of hearts filled with blood from tyranny and the cries of hearts longing for national freedom. Also, just as every person is a person with his own will, every state is a full-fledged state with its own independence and freedom. Our ancestors lived longing for such a state. After all, this was the main idea of the literature called national awakening.

Keywords: education, upbringing, literature, society, newspaper, magazine, art, family, profession, labor, morality, spirituality, enlightenment, nation, national idea, national interest, harmonious generation, national values, culture, religious values, honesty, purity, courage, kindness, truthfulness, printing house, public, ignorance.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA TA'LIM-TARBIYA, ADABIYOT MASALALARINING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI

Qosnazarova Palzada

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Turkistonda jadidchilik harakati namoyondalarining qarashlarida xalq ma'naviy hayotini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning inson tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni haqida kuyunib asarlar yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan va natijada qatag'on qurboniga aylangan siymolar haqida masalalari muhokama qilinadi. Ular ijodida istibdoddan qonga to'lgan dil nolalarini va milliy ozodlikni sog'ingan qalb sadolarini eshitish mumkin kabi tushunchalar tavsiflanadi. Shuningdek, har bir inson o'z erki bilan inson bo'lganidek, har bir davlat ham o'zining mustaqilligi, ozodligi bilan to'laqonli davlatdir. Jadid bobolarimiz bunday davlatni sog'inib yashab o'tdilar. Zero, milliy uyg'onish deb nomlangan adabiyotning bosh g'oyasi ham shu edi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, adabiyot, jamiyat, gazeta, jurnal, san'at, oila, kasb, mehnat, axloq, ma'naviyat, ma'rifat, millat, milliy g'oya, milliy manfaat, barkamol avlod, milliy qadriyatlar, madaniyat, diniy qadriyatlar, halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, rostgo'ylik, bosmaxona, omma, jaholat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N14>

Kirish. Xalq ma'naviy hayotini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning inson tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni haqida kuyunib asarlar yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan va natijada qatag'on qurboniga aylangan siymolar haqida so'z yuritilsa, ko'z o'ngimizda Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va Ishoqxon Ibrat kabi buyuk shaxslarning obrazlari

gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir inson o'z erki bilan inson bo'lganidek, har bir davlat ham o'zining mustaqilligi, ozodligi bilan to'laqonli davlatdir. Jadid bobolarimiz bunday davlatni sog'inib yashab o'tdilar. Shuning uchun ham ular ijodida istibdoddan qonga to'lgan dil nolalarini va milliy ozodlikni sog'ingan qalb sadolarini eshitish mumkin. Zero, milliy uyg'onish deb nomlangan adabiyotning bosh g'oyasi ham shu edi. Bu adabiyotining yirik siymolaridan biri Abdulla Avloniydir.

“Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun hayot yoki mamot, najot yoxud halokat, saodat yoki falokat masalasidir,” degan hikmatli so'zlari har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart”, [1] -ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy (1874-1934) pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, muammoli jihatlarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarini aks ettirgan pedagog, olimdir. U jadidchilik harakatining yetakchilaridan bo'lib, birinchilar qatorida o'zbek bolalari uchun yangi uslubdagi maktablarga asos solgan.

Abdulla Avloniy ushbu maktablar uchun maxsus darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari tayyorlagan. 1907-yilda u o'zbek tilida chop etiladigan “Shuhrat” gazetasining nashr etilishini boshlab bergan.

1900-yillardan boshlab esa endigina o'ttizdan oshgan Abdulla Avloniy milliy dard bilan og'ridi. Turkiy dunyoda chiqib turgan gazeta va jurnallar bilan tanishdi, “jadidchi” deb nom chiqardi, “jadid maktabi” ochib, dars bera boshladi.

Bu haqida adibning o'zi “Tarjimai holim” da shunday yozadi: “Turli gazetalar o'qishga tutundim. Shul zamonlarda (1900-yillar nazarda tutilmoqda-O.O.) Rossiyaning turli shaharlarida nashr etilgan matbuot-gazeta va jurnallar bilan tanishib, bilim va ma'lumotlarimni tobora oshirib bordim. “Tarjimon” gazetasini o'qib, zamon voqealari haqida xabardor bo'lib turdim. O'sha davrlarda mahalliy xalqlar orasida eskilik va yangilik masalasi ustida janjallar yuzaga kela boshladi. Gazeta o'quvchilarini esa mullalar “jadidchi” deb atar edilar. Men ham bu jadidchilar safiga qo'shildim. 1904-yildan boshlab jadidchilar safida faoliyat yuritib, “Jadid maktabi” ochib, o'qituvchilik faoliyatini boshladim. [2]

Avloniyning yana muhim bir milliy xizmati uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq. Millatning bir mustabid davlat istibdodi iskanjasida yashashi milliy turmushni izdan chiqargan edi. Buning bir tomoni milliy jaholat bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomoni mustabidlarning razilona siyosatiga borib taqalar edi.

Bu bulbul o'z dardini millati qulog'iga oshkor aytolmayotgan avloniylar obrazi. Chunki ularning ovozi bo'g'ilgan, xalqiga o'zligini tanitish, uni uyg'otish, taraqqiyotga boshlash yo'llari to'silgan edi. [3]

Tahlil va natijalar. Yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, ulug' shoir va adib Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (1897-1938) ning betakror ijodi g'oyat rang-barangdir. Uning nisbatan qisqa davom etgan, ammo sermazmun hayoti davomida erishilgan ijodiy yutuqlar beqiyos bo'ldi; u o'zining yuksak iste'dodi natijasida yaratgan yuzlab she'rlar, ko'plab nasriy asarlar, dramalar, maqolalar hamda tarjimalar orqali o'zbek adabiyoti xazinasini va ma'naviy merosini sezilarli darajada boyitdi.

Umuman, Cho'lpon "so'zi" o'tgan asr XX yillari avvalidanoq Sharq-u G'arbda baralla yangrab, tong yulduzi yanglig' porlab, turkiyzabon xalqlar orasida nash'u namo topgan edi. Uning shuhrati shu qadar yuksalgan ediki, hayotlik chog'ida (hali o'ttizga ham to'lmagan navqiron paytida) Toshkentning Bodak mahallasidagi maktab va Do'rmon qishlog'i uning nomi bilan atalgan, shuningdek, Turkiya, Olmoniya va Fransiyada nashr etiladigan jurnallarda shoir asarlari bot-bot e'lon qilinib turar edi. [4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada shunday ta'kidlagan edi: "Bundan bir asr avval, ulug' o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li- Cho'lpon "Adabiyot yashasa, millat yashar!", degan otashin da'vati bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan mazmunan teran ushbu so'zlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini va qimmatini yo'qotmagan. Haqiqatan ham, adabiyot, san'at va madaniyat yashar ekan, millat va xalq, shuningdek, butun insoniyat ham abadiy yashaydi." [5]

Cho'lpon o'n yetti yoshidan jadid nashrlari bilan aloqa bog'laydi, ularda avvaliga kichkina xabarlari, so'ng nazmiy va nasriy mashqlari, publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. E'tiborlisi, u nafaqat Turkiston, balki Qrim, Tatariston, Boshqirdistonda chop etilgan gazeta-jurnallarda ham qatnashishga harakat qilgan.

Cho'lponning matbuotda chop etilgan ilk asari "Sadoiy Turkiston" ning 1914-yil 3-sonidan joy olgan "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ridir. Shundan so'ng "Sadoiy Turkiston" va "Sadoiy Farg'ona" gazetalarida birin-ketin "Qurboni jaholat", "Doktor Muhammadiyor" nomli hikoyalari, "Bahor avvallari" etyudi, "Adabiyot nadir?" va "Muhtaram yozg'uchilarimizga" nomli adabiy-tanqidiy, "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik" hamda "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar" nomli publitsistik maqolalari e'lon qilindi. [6]

Cho'lpon 1917-yil fevral inqilobini zo'r quvonch bilan kutib oladi. O'sha kunlar Cho'lpon g'oyat ko'tarinki ruh bilan yashaydi, yangi shaharda bo'lgan mitingda otashin nutq so'zlaydi. Yuzaga kelgan sharoitda demokratik yo'l bilan mustaqillik olish imkoni yuzaga kelayotganidan ruhlangan "yoshlar Kerenskiy hukumatini mustahkamlamoq, milliy ozodlik olmoq yo'lida taraddudga tushib qoldilar". [7]

20-yillarda Cho'lpon shoir sifatida shuhrat qozondi, yangi o'zbek she'riyatining chinakam lideriga aylandi, e'tirof etildi. Davr matbuotida e'lon qilingan va "O'zbek yosh shoirlari jamoa to'plamiga kirgan she'rlari "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1922), "Tong sirlari" (1926) to'plamlari o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Shu yillarda markaziy matbuotda Cho'lpon she'riyati haqida iliq fikrlar aytili: "Z. Bashir, A. Saadiy, V. Mahmud kabi munaqqidlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi.

O'zbek teatr san'ati uchun malakali aktyorlar tayyorlash maqsadida Moskvadagi "Stalin nomiga oshilg'on o'zbek bilim yurti" qoshida 1924-yilda O'zbek drama studiyasi tashkil qilingan edi. Cho'lpon unda ochilgan vaqtdan boshlab ishlagan, degan fikrlar ham bor. [8]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 26 dekabr kuni Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomida yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, yosh ijodkorlar bilan muloqot qildi.

"Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma'naviyat ham bo'lmaydi. O'zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini bir emas, bir

necha marta o'qigan bo'ladi. Nega desangiz, uni o'qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo'lsa vatanga xiyonat qilmaydi. [9]

“Buyuk adibimiz, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o'zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda”. Shavkat Mirziyoyev.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi XX asr boshiga to'g'ri keladi. “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan “Yangi masjid va maktab” sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi birinchi chiqishi edi.

Millat ahvolini o'nglash uchun g'ayrat kerak. Qodiriy o'z tengqurlari bo'lgan ziyolilar shijoatidan umid qiladi. Millatni uyg'otish, ma'rifatni ulug'lash, Vatanni e'zozlash, ilmga da'vat-bularning bari jadid davri adabiyotining asosiy motivi. She'rlarida jaholatni, nodonlik va ilmsizlikni qoralaydi. Uningcha nodon kimsa uchun har to'rt fasl ham baravar- qish “jaholat sassig'i” har qanday odam ko'nglini behuzur qiladi. Bunday tuban hollardan qutilishning yo'li maktablar ochish, ilm-ma'rifat o'rganishdir. Yana ta'kidlaydiki, bo'yniga tillo tumor taqqan qizlarni “o'ylamangiz olima deb, jumlasini nafsiz, ziyon”. Adibning davr manzaralariga munosabati, o'z so'zi bilan aytganda “hasrati” shunday. Jaholat dardlarining davosi-ma'rifat. [10]

Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyunib so'zlaydi, jaholatni qoralaydi, ma'rifatni ulug'laydi, turli maishiy dog'lar sabab kirlagan yuraklarni adabiyot bulog'ining pokiza suvi bilan yuvishga qaror beradi. Millatni ogohlik, uyg'oqlik va fikrlashga chorlaydi. Adib ana shunday jadidona kayfiyatdagi asarlarida millatni ichdan yemiradigan illatlarni tanqid qiladi, xalqni o'zligini anglashga, yangilikka chaqiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biridir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 1920-yillarda mahalliy matbuot sahifalarida Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan ko'plab maqolalar va xotiralar chop etilgan. Behbudiy tarjimai holini o'rganishda, xususan, Hoji Muinning 1922–1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi” (1922) va “Zarafshon” (1923) gazetalarida e'lon qilgan maqolalari muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug'ullandi.

Xulosa va takliflar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoev Sh.M. Maktablarda qanday shior bo'lishi lozimligi. Xabar.uz. T. 24.08.2019. <https://xabar.uz/f54h>

2. Abdulla Avloniy. She'rlar, pedagogic asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma. Toshkent. "Zabarjad Media". 2022.B.3.
3. Olim Oltinbek.Ozodlikni orzulagan shoir. Abdulla Avloniy.Jadid adabiyoti namoyondalari. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma. Toshkent. "Zabarjad Media". 2022.B.8.
4. Quronov D.J adid adabiyoti namoyondalari. Abdulhamid Cho'lpon.Zabarjad Media.T. 2022. B.3.
5. Mirziyoev Sh.M. «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi» xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi.T.07.08.2018. <https://xabar.uz/chc>
6. Abdulhamid Cho'lpon.Jadidlar/D.Quronov. Yoshlar ishlari agentligi. Yoshlar nashriyot uyi.T.2022. B.11.
7. Muhammadjonov M. Turmush urinishlari.T.1964. B.130.
8. Sharafiddinov O. Cho'lpon.Toshkent. 1991.B.14. Karimov N. Cho'lpon.Toshkent. 1991.B.21-22.
9. Mirziyoev Shavkat. "O'zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyi bir emas, bir necha marta o'qigan bo'ladi". T. 27.12.2019. Kun.uz.
10. Karimov B. Jadidlar.Abdulla Qodiriy. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi. 2022. B.19.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE COGNITIVE FUNCTION OF LANGUAGE AND THE CONCEPTUAL FORMATION OF MORAL-EVALUATION (GOODNESS/BADNESS) CATEGORIES

Xasanova Sohibjamol

Tashkent State Transport University
1st year doctoral student

Abstract. This dissertation analyzes the semantic and stylistic features of the moral-evaluative categories “good” and “evil” in English and Uzbek from the perspectives of linguoculturology and cognitive linguistics. The study examines lexical units, proverbs, and sayings, as well as the usage of these categories in literary texts. The analysis employs the theory of semantic fields, the cognitive frame model, and comparative typology methods. As a result, both universal and culture-specific aspects of the concepts of good and evil in English and Uzbek cultures are identified.

Keywords: good, evil, semantics, stylistics, linguoculturology, cognitive analysis, comparative typology, proverb, saying.

TILNING KOGNITIV FUNKSIYASI VA AXLOQIY-BAHOLASH (YAXSHILIK/YOMONLIK) KATEGORIYALARINING KONSEPTUAL SHAKLLANISHI

Xasanova Sohibjamol Soatmurod qizi

Toshkent davlat transport universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

E-mail: khasanovasohibjamol@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” axloqiy-baholash kategoriyasining semantik va stilistik xususiyatlarini lingvokulturologik va kognitiv nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu kategoriyalarni ifodalovchi leksik birliklar, maqol va matallar, shuningdek, badiiy matnlardagi qo‘llanish o‘rganiladi. Tahlil jarayonida semantik maydon nazariyasi, kognitiv frame modeli va qiyosiy tipologiya metodlari qo‘llanilgan. Natijada ingliz va o‘zbek madaniyatlarida yaxshilik va yomonlik tasavvurlarining umumiy va milliy-spetsifik jihatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: yaxshilik, yomonlik, semantika, stilistika, lingvokulturologiya, kognitiv tahlil, qiyosiy tipologiya, maqol, matal.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N15>

Til inson tafakkurining shakllanishi va tashqi dunyoni idrok etish jarayonida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat aloqa va ma‘lumot almashish quroli, balki insonning olam haqidagi bilimlarini tuzilmaga soluvchi, tartibga keltiruvchi va saqlovchi kognitiv tizimdir. Shu bois, tilning kognitiv funksiyasi masalasi zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur funksiya tilning inson ongida konseptlar, kategoriyalar, ramzlar va ma‘nolarni shakllantirishdagi markaziy rolini

yoritadi. Kognitiv tilshunoslik nazariyasi asosida shakllangan kognitiv qoliqlar (frames, schemas, prototypes) esa til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushuntirishda metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv qoliqlar orqali insonlar o'z tajribasini tasniflaydi, dunyo haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi va ushbu bilimlarni lingvistik birliklar vositasida ifodalaydi. Bu jarayon, o'z navbatida, madaniyatning ham til orqali uzatilishiga va avloddan-avlodga o'tishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kabi axloqiy-baholash kategoriyalarining semantik va kognitiv xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tilning kognitiv funksiyasi va kognitiv qoliqlar nazariyasiga tayangan holda tahlil olib boriladi. Tadqiqot jarayonida konseptual tahlil, semantik-stilistik tahlil hamda qiyosiy-tipologik yondashuv metodlaridan foydalaniladi. Bu esa ikki til materialida axloqiy-baholash birliklarining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash, ularning madaniy hamda kognitiv asoslarini yoritish imkonini beradi. Tilning insoniyat hayotidagi o'rni va vazifalari turli yo'nalishdagi tilshunos olimlar tomonidan har tomonlama tadqiq etilgan. N. Uluqov tilning ijtimoiy tabiati va muloqotdagi bosh rolini alohida ta'kidlab, uni fikr almashish, axborot uzatish, his-tuyg'u va ta'sirni ifodalash hamda bilim va tajribani avloddan-avlodga yetkazish kabi jarayonlarda muhim vosita sifatida tavsiflaydi [1; 18-b.].

Tilning ko'p funksiyaliligi masalasida T.A. Bushuy va Sh.S. Safarov fikricha, uning asosiy vazifalari qatoridan kommunikativ, emotsional, fatik va metalisoniy funksiyalar alohida ajralib turadi. Ularning ta'kidlashicha, til vositasida inson nafaqat axborot yetkazadi, balki shaxsiy kayfiyatini va munosabatini ham ifodalaydi. Mualliflar R. Yakobsonning til funksiyalarining ko'p qirraliligi haqidagi nazariy qarashlariga ham tayanganlar [2; 20-21-b.]. Tilning bilish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan — kognitiv funksiyasi alohida e'tiborga molikdir. Bu masalani to'la tushunish uchun, avvalo, kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslariga to'xtalish zarur. Sh. Safarov "kognitiv" atamasining inglizcha *cognitive* — 'bilishga oid' so'zidan kelib chiqqanini qayd etib, uni insonning bilimlarni qabul qilish, tushunish va idrok etish faoliyati bilan bog'laydi [3; 17-b.].

Kognitiv tilshunoslik mustaqil yo'nalish sifatida 1989-yilda Deysburgda o'tkazilgan xalqaro simpoziumda rasman shakllangan bo'lsa-da, uning ilmiy ildizlari 1950–60-yillarga borib taqaladi. *Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology* manbasida ta'kidlanishicha, "kognitologiya" fan sohasi turli yo'nalishlar chorrahasida paydo bo'lib, bilimni to'plash va qo'llash usullarini o'rganishga qaratilgan [4; 408-b.]. D.U. Ashurova va M.R. Galieva kognitiv tilshunoslikni til va idrok o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi fan sifatida talqin qilib, tilni ma'noni saqlash, tasvirlash va yetkazishning asosiy birligi sifatida baholaydilar [5; 96-b.]. G.A. Miller esa bu yo'nalishning vazifasini kognitiv tuzilmalar hamda so'zlovchi–tinglovchi o'rtasidagi axborot almashinuv dinamikasini tushuntirishdan iborat deb biladi. Unga ko'ra, kognitiv tilshunoslikning rivojlanishiga uch muhim omil ta'sir ko'rsatgan: inson faoliyatiga xos vazifalarni bajara oladigan kompyuter dasturlarining yaratilishi, kognitiv psixologiyada bilish faoliyatining ruhiy jihatlarini chuqur tadqiq etish va generativ grammatika nazariyasining taraqqiy etishi [6; 292-b.].

A.E. Mamatov "Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi" asarida tilning kognitiv funksiyasini "bilimlarni qabul qilish, o'zlashtirish, saqlash, eslab qolish va qayta ishlash jarayonlarini umumlashtiruvchi faoliyat" sifatida tavsiflaydi [7; 16-b.]. Bu ta'rifdan anglashiladiki, til insonning bilish faoliyatini faollashtirib, uning ongida konseptual tizimni

shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Yuqoridagi ilmiy qarashlardan ko‘rinadiki, tilning kognitiv funksiyasi nafaqat muloqot jarayonida, balki inson tafakkurini shakllantirishda, uni axloqiy-me‘yoriy qadriyatlar bilan boyitishda ham asosiy o‘rin tutadi. Aynan shu jihat “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalarining konseptual shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari tilning kognitiv funksiyasi va kognitiv qoliplarning o‘zbek va ingliz tillaridagi namoyon bo‘lishini izchil yoritishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida til va tafakkur o‘zaro munosabatini, konseptual tizimlarning shakllanishini hamda “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalarining lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan yondashuvlar qo‘llanildi. Ishda nazariy va amaliy tahlil uyg‘un ravishda olib borildi. Nazariy yondashuv doirasida tilshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va semasiologiya bo‘yicha yetakchi olimlar (N. D. Arutyunova, V. N. Teliya, G. Lakoff, M. Johnson, G. Abdurahmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar)ning ilmiy qarashlari o‘rganildi. Amaliy tahlilda esa ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik”ni ifodalovchi til birliklari tahlil qilinib, ularning semantik, stilistik va madaniy qatlamlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodlari orasida deskriptiv tahlil usuli til birliklarining leksik- semantik va stilistik xususiyatlarini izohlashda qo‘llandi. Konseptual tahlil esa mazkur axloqiy kategoriyalarning kognitiv tarkibini ochib berish va ularning mental tasvirini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy-tarixiy tahlil yordamida ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarining shakllanish jarayoni hamda ularning madaniy manbalari taqqoslandi. Shuningdek, kognitiv qoliplar (frame, script, schema, prototip)ning shakllanish va ishlatilish mexanizmlarini ochib berishda lingvokognitiv modellashtirish usulidan foydalanildi. Ushbu metod konseptlararo bog‘lanishlarni aniqlash va ularning tilda aks etish mexanizmlarini izchil yoritish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida tilning kognitiv funksiyasi va kognitiv qoliplarning ingliz hamda o‘zbek tillarida, xususan, “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining semantik-stilistik xususiyatlarini yoritishdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilindi. Semantik tahlil usuli yordamida mazkur kategoriyalar ifodasida qo‘llaniladigan asosiy leksik birliklar, ularning ko‘pma‘nolilik xususiyatlari hamda konnotativ qatlamlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, har ikkala tilda ham “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlari o‘zining madaniy-milliy koloritiga ega bo‘lib, ular tarixiy taraqqiyot, diniy e‘tiqodlar va xalqning ma‘naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Kognitiv tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “yaxshilik” konsepti ko‘pincha yorug‘lik, poklik, yordam, himoya, adolat kabi kognitiv sxemalar orqali namoyon bo‘lsa, “yomonlik” konsepti esa zulmat, ifloslik, zarar, tahdid, adolatsizlik kabi sxemalar asosida shakllanadi. Ingliz tilidagi *good*, *virtue*, *benevolence* kabi birliklar va o‘zbek tilidagi *yaxshilik*, *ezgulik*, *savob* kabi birliklarning semantik maydonlari tahlil qilinganda, ularning ko‘plab umumiy jihatlari bilan bir qatorda, milliy-madaniy farqlari ham aniqlandi. Masalan, o‘zbek tilida “yaxshilik” ko‘pincha diniy va ma‘naviy kontekst bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida bu tushuncha ko‘proq axloqiy va huquqiy normalar asosida talqin qilinadi.

Mazkur konseptlar xalq og‘zaki ijodi, maqol va matallarda barqaror, stereotipik ifoda shakllarida namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida *What goes around comes around* yoki *Every cloud has a silver lining* kabi maqollar yaxshilikning qaytishi va umid timsoli sifatida ishlatilsa, o‘zbek tilida *Yaxshilik qil, suvga tashla* yoki *Yomonning yaxshisi bo‘lmas* kabi maqollar milliy

dunyoqarashni yoritadi. Ushbu birliklar kognitiv modellarning xalq mentalitetidagi mustahkam o‘rnini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarini ifodalovchi konseptlar universallik va milliy xususiyat uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Universallik — insoniyatga xos umumiy axloqiy qadriyatlarni, milliy xususiyat esa ularni konkret madaniyat doirasida talqin qilish usulini anglatadi. Demak, tilning kognitiv funksiyasi ushbu axloqiy-baholash kategoriyalarini konseptualizatsiya qilishda, ularning semantik va stilistik shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek va ingliz tillarida kognitiv qoliplar vositasida “yaxshilik” va “yomonlik” kabi axloqiy-baholash kategoriyalarining ifodalanishi madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni qiyosiy tahlil qilish tilning konseptual tizimini chuqur anglash imkonini beradi. Bunday tadqiqotlar milliy mentalitet, qadriyatlar va dunyoqarashning lingvistik namoyonini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Улуқов Н. *Тилшунослик назарияси*. – Тошкент: Barkamol fayz mediya, 2016. – 124 б.
2. Бушуй Т. А., Сафаров Ш. С. *Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси*. – Тошкент: Фан, 2007. – 184 б.
3. Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик*. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 112 б.
4. *Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology*. – Oxford: Blackwell, 1990. – 408 p.
5. Ashurova D. U., Galieva M. R. *Text Linguistics*. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 150 p.
6. Miller G. A. *Introduction to the Formal Analysis of Natural Languages*. – Cambridge: Center for Cognitive Studies, 1964. – 292 p.
7. Маматов А. Э. *100 наиболее важных функций языка = Тилнинг энг муҳим 100 та функцияси*. – Тошкент: Вауоз, 2014. – 64 б.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Burkxonova Go'yokhon Gulomovna

“Central Asian Medical University”

Senior Lecturer, International Medical University

Abstract. The article discusses effective methods of teaching Latin and medical terminology in medical universities. The practical significance of the article lies in the fact that it examines the effectiveness of teaching Latin and medical terminology in a medical university in an integrated manner with other disciplines. It is analyzed that Latin medical terminology, one of the most traditional disciplines in the medical education system, must now adapt to the new format of education with fundamentally new qualities, while preserving all the valuable aspects of traditional education.

Keywords: medical terminology, students, learning efficiency, self-study.

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI SAMARALI O'QITISH USHLARI

Burxonova Go'yoxon G'ulomovna

“Central Asian Medical University”

Xalqaro Tibbiyot Universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: burxonovagoyo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitish samarali usullari muhokama qilinadi. Maqolaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda tibbiyot oliy ta'lim muassasasida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan usulda o'qitish samaradorligi ko'rib chiqiladi. Tibbiyot ta'limi tizimidagi eng an'anaviy fanlardan biri bo'lgan lotin tibbiy terminologiyasi endilikda an'anaviy ta'limdan qimmatli bo'lgan barcha narsalarni saqlab qolgan holda, prinsipial yangi sifatlarga ega bo'lgan ta'limning yangi formatiga mos kelishi kerakligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, talabalar, o'qitish samaradorligi, mustaqil ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N16>

Bugungi kunda tibbiy kadrlar tayyorlash jarayonida xorijiy tillarni, xususan, lotin tilini o'rgatish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Lotin tili — ko'plab anatomik, klinik va farmakologik atamalarning asosini tashkil qiluvchi ilmiy til sifatida tibbiyot sohasida muhim o'rin egallaydi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida bu fanni samarali o'qitish nafaqat terminologik bilimlarni shakllantirish, balki talabalarni kasbiy matnlar bilan ishlashga, tibbiy hujjatlarni to'g'ri o'qish va tahlil qilishga tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, lotin tili va tibbiy terminologiyani o'qitishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirish — dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining talabalarini lotin tiliga o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Mazkur tilni o'rganish "diskurs tahlili unsurlari bilan birga tahliliy o'qish" [1] asosida tuziladigan gumanitar mutaxassisliklardan farqli o'laroq, butun til tizimini umuman ko'rib chiqishni nazarda tutgan holda [2, 3], tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tilini o'rganish qat'iy kasbiy yo'naltirilganlikka ega.

Quyidagi kasbiy atamalarni, ya'ni: anatomik nomlarni, kasalliklarning nomlarini, tekshirish uslublari va davolash metodlarining nomlarini, dorivor preparatlarni, dorivor o'simliklarni, kimyoviy moddalarni o'rganishga hamda yodlashga eng katta e'tibor beriladi. Auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarning asosiy qismi atamaning, atama unsurining, atamalarning rus va lotin tillariga tarjimasini tahlil qilish uchun ajratiladi. Ushbu fan miqyosida lotin grammatikasi ko'rib chiqiladi: ya'ni talabalar nominal va fe'l so'zi shakllarini hosil qila olishlari va shuningdek ular bilan so'z birikmalarni shakllantira olishlari kerak. Shu bilan birga, «Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini o'qitish katta hajmdagi grammatik materialni talab qilmaydi» [4]. Shuningdek, tibbiyot fakultetlarining talabalariga lotin tilini o'qitish metodikasi masalalari bilan shug'ullanuvchi A.A.Kachalkin grammatikaning yordamchi xususiyati haqida shunday deydi: "Grammatik material nafaqat minimal hajmda taqdim etilib, birinchi navbatda asosan tashkillashtiruvchi funksiyani bajaradi hamda shunda terminologik materialni kiritish mantig'ini va ketma-ketligini belgilaydi, balki unga moslashadi ham" [5, b.175]. Kursning grammatik materiali ot va sifatlarning nominativ va turdosh hollarining shakllarini, kelishik qoidalarini, buyruq mayli va qo'shma gapning og'zaki shakllarining shakllanishini, yuklamali iboralarni ko'rib chiqilishini o'z ichiga oladi.

Lotin tilini o'qitish metodikasining asosiy maqsadi tibbiy oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan rus tili, ingliz tili, anatomiya, fiziologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda, talabalar uchun qulay va tushunarli tarzda o'rgatishni ta'minlashdan iborat. Mazkur metodikaning eng muhim vazifalaridan biri — talabalarda kasbiy til madaniyatini shakllantirish, tibbiy terminologiyaning to'g'ri qo'llanishiga yo'naltirilgan lingvistik savodxonlikni rivojlantirish va lotin tilining boshlang'ich asoslarini puxta egallashlariga ko'maklashishdir.

Lotin tilini o'qitish usullari aniq va gumanitar fanlarni o'qitish usullaridan farq qiladi. Shu fanni o'qitish uchun alohida usul zarur. Bugun bu tilda hech kim so'zlamaydi. Avvalo, biz talabalarni ushbu fanga qiziqish motivatsiyasini shakllantirishimiz, har gal ushbu fanning yangi xususiyatlarini aniqlab ko'rsatish kerak. Shu bilan bir vaqtda talabalarga mazkur fan ularning bo'lajak kasbida qanchalik muhimligini ochib berish kerak [6].

Lotin tilini o'qitishda o'qituvchilar fanlararo o'qitish metodlaridan foydalanadilar. Ushbu uslublar tahsil oluvchilarda tibbiyot tilini o'rganish va yodlashlarida yordam beradi. Lotin tilini o'qitishning shunday qo'shma usuli ham umumta'lim ham tarbiyaviy vazifalarni bajarish metodi hisoblanadi. Bu lug'at boyligini kengaytirish ham, tibbiyot tili olamidagi qiziqishlar doirasini kengaytirish ham, izchil fikrlashni shakllantirish va tahsil oluvchilarning tibbiy madaniyatini oshirish demakdir [7].

Klinika atamalari kasalliklarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish, ularni farqlash, bemorlarni tekshirish va davolash usullari hamda boshqa jihatlar bilan bog'liq turli narsalar, jarayonlar, hodisalarga taalluqlidir [8].

Bo'lajak shifokor uchun tibbiy atamalarni to'g'ri o'zlashtira olish va ulardan amaliyotda foydalanish qobiliyati uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bois, talabalar terminlarning tuzilishi va ularni tashkil etuvchi qismlarni to'liq anglab yetishlari muhim. Bu jarayonda o'qituvchining roli juda katta bo'lib, u talabalarga atamalarni to'g'ri tahlil qilish, ularni mustaqil tarzda tuzish va ma'nosini tushunishga o'rgatishi kerak. Har bir darsda terminlarning tarkibiy elementlariga doir yangi unsurlar kiritilib, o'quvchilarning bilim doirasi bosqichma-bosqich kengaytiriladi. Shu bilan birga, ko'plab amaliy mashqlar orqali terminlarni mustahkamlash, faol ravishda qo'llash va yodlab olish jarayoni samarali tarzda yo'lga qo'yiladi.

Farmatsevtik atamalarni o'rganish ham tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu soha terminlari farmatsevtika bozorida keng qo'llaniladigan turli xil dori vositalarini qamrab oladi. Talabalar dori nomlari qanday shakllantirilganini anglashlari uchun ayrim farmatsevtik atamalar bilan tanishadilar. Shuningdek, ular dori vositalari nomlarida mavjud bo'lgan ma'lumotli qismlarni aniqlashni, ya'ni nomlanishdagi takrorlanuvchi segmentlarni ajratib olish va ularning ma'nosini tushunishni o'rganadilar.

Retsept yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun retseptning tuzilishini, standart formulalarini va ularda ishlatiladigan grammatik shakllarni yaxshi bilish zarur. Kimyoviy elementlar va birikmalarning lotincha nomlarini yodlash esa biokimyo, farmakologiya kabi maxsus fanlarni o'rganishda katta yordam beradi. Afsuski, lotin tilini o'rgatishga ajratilgan soatlar soni juda cheklangan. Shu sababli, kursning uchinchi qismi tezkor tarzda o'tib, talabalarning mustaqil ishlari keng ko'lamda nazorat qilinadi. Mashg'ulotlarda tibbiy atamalardan tashqari, lotin tilidagi hikmatli iboralar va mashhur so'zlarga ham alohida e'tibor qaratiladi, chunki ular nafaqat qadimiy donolikni o'zlashtirishga, balki lotincha so'zlarni yaxshiroq yod olishga yordam beradi.

Har bir mashg'ulotda talabadan "o'lik" tilni o'rganishni ma'lum darajada "jonlantiradigan" bir-ikkita hikmatli so'zlarni/aforizmni yodlab olish taklif qilinadi. Ba'zi lotin hikmatli so'zlar/aforizmlari hayot va o'lim (*Vivere militare est.* / Yashash — jang qilish demakdir), inson salomatligi (*Hygiena amica valetudinis.* / Gigiyena — salomatlikning do'sti), shifokorning xatti-harakati (*Medice, cura ayegrotum, sed non morbum.* / Doktor, kasallikni emas, bemorni davola!) masalalariga, taalluqli bo'lib, ajdodlarning tibbiy amrlarini ifodalaydi (*Salus ayegroti suprema lex medicorum.* / Bemorning xotirjam ekanligi shifokorlarning eng oliy qonunidir; *Primum noli nocere!* / Avvalo zarar etkazma!) [8].

Ingliz tilida lotin tilini o'rgatish o'ziga xos metodik yondashuv va muammolarni yuzaga keltiradi. Ayrim talabalar uchun bu nafaqat til to'sig'ini yengish, balki ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va bilimlarni baholash borasida ham qiyinchiliklar tug'diradi. Ko'pchilik talabalar darslarga muntazam qatnashish va uy vazifalarini bajarishni majburiyat deb hisoblamasligi sababli o'quv jarayoni sekinlashadi, natijada ayrimlar kurs yakuniga kelib kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq egallay olmaydilar.

Ingliz tilida ta'lim berish o'qituvchidan yanada ko'proq kuch, sabr, e'tibor va tashkiliy salohiyatni talab qiladi. Pedagog nafaqat ta'lim sifati, balki talabalar intizomi va ularning o'quvga bo'lgan munosabatiga ham jiddiy e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Mazkur fanni o'qitishda samarali va zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. An'anaviy va zamonaviy o'qitish uslublari

Lotin tilini o'qitishda uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgan an'anaviy uslublar — ma'ruza, grammatik mashqlar, tarjima, lug'aviy ishlanmalar orqali bilim berish — bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Biroq, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, modulli o'qitish, va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar bu jarayonni yanada samarali qiladi.

2. Interaktiv metodlarning o'rni

Talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilishda dialoglar, rolli o'yinlar, guruhli topshiriqlar, shuningdek, "Case-study" kabi yondashuvlar terminologiyani kontekstda o'rganishga yordam beradi. Bu uslublar talabalarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va tibbiy atamalarni amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, lotin tili darsida talabalar guruhlarga bo'linadi va ularga turli simulyatsion klinik holatlar beriladi. Har bir guruh o'ziga berilgan holat asosida bemorning shikoyatlarini, tashxisini va dori vositalarini lotincha terminlardan foydalanib ifodalashi kerak bo'ladi. Bir guruh shifokor rolini o'ynasa, boshqasi bemor rovida bo'ladi. Shu tarzda ular darsda o'rganilgan tibbiy terminologiyani real hayotga yaqin kontekstda qo'llab, kommunikativ va kasbiy til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu mashq nafaqat lug'aviy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarni muloqotga, mantiqiy fikrlashga va jamoaviy ishlashga undaydi.

3. Fanlararo integratsiya

Lotin tili darslari boshqa asosiy tibbiy fanlar — anatomiya, farmakologiya, patologiya bilan fanlararo bog'liq holda olib borilganda, bilim yanada mustahkamlanadi. Talabalar o'rgangan terminlarini bevosita kasbiy fanlarda qo'llash orqali ularni real hayotga yaqinlashtiradi. Masalan, anatomiya fanida "os frontale" (peshona suyagi), "musculus deltoideus" (delta mushagi) kabi anatomik atamalar o'rganilayotgan bo'lsa, lotin tili darslarida ushbu terminlarning etimologiyasi, grammatik tuzilishi va tarjimasini tahlil qilinadi. Bu orqali talabalar nafaqat atamani yodlaydi, balki uning tuzilishini, ma'nosini va qanday holatda ishlatilishini chuqur tushunadi.

4. Elektron resurslardan foydalanish

Zamonaviy o'qitishda multimedia materiallari, elektron lug'atlar, onlayn test platformalari va ta'lim portallari katta ahamiyatga ega. Moodle, Google Classroom kabi tizimlar orqali mustaqil ta'limni tashkil etish, dars materiallarini raqamlashtirish, topshiriqlarni onlayn baholash imkonini beradi. Bu esa talabalarning bilim olish jarayonini qulay, tizimli va sifatli qiladi. Lotin tili darslari uchun Quizlet platformasida tibbiy terminologiyaga oid flashcardlar (kartochkalar) yaratilib, talabalar ularning yordamida yangi atamalarni vizual va eshitish asosida mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Shuningdek, Google Classroom orqali o'qituvchi haftalik mavzular bo'yicha grammatik mashqlar, tarjima topshiriqlari va testlarni joylashtiradi, talabalar esa o'z javoblarini onlayn topshirib, o'qituvchidan tezkor fikr-mulohaza olish imkoniga ega bo'ladi.

5. Baholash va monitoring

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda baholash mezonlari aniqligi va aniqlikka asoslanishi lozim. Test topshiriqlari, yozma tarjimalar, so'zma-so'z imtihonlar, grammatik tahlillar yordamida talabalar bilim darajasi muntazam baholanadi. Shuningdek, formatif va summativ baholash tizimlari yordamida ta'lim jarayoni doimiy ravishda kuzatib boriladi. Semestr davomida har hafta o'tkaziladigan mini-testlar orqali talabalar o'z bilimlarini

tekshirib boradilar (formatif baholash). Har bir testda yangi o'rganilgan atamalardan foydalanilgan bo'lib, grammatik tahlil, tarjima va gap tuzish kabi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Semestr oxirida esa summativ baholash sifatida talabalar yozma va og'zaki imtihon topshiradilar: ular lotin tilida yozilgan retseptni tahlil qilish, dori vositalarining nomlarini grammatik jihatdan izohlash, va lotincha tibbiy iboralarni to'g'ri tarjima qilishlari kerak bo'ladi. Bu kabi baholash shakllari nafaqat bilim darajasini aniqlaydi, balki talabalarni doimiy ravishda faol o'rganishga, o'z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiyani o'qitish — talabalarda kasbiy til ko'nikmalarini shakllantirish va ularni kelajakdagi amaliy faoliyatga tayyorlashning muhim bosqichidir. Mazkur fan tibbiy atamalarni to'g'ri tushunish, yozish va qo'llash orqali shifokor va farmatsevtlarning kasbiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'qitish jarayonida an'anaviy uslublarni zamonaviy, interaktiv va axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, fanlararo integratsiyani ta'minlash, shuningdek, farmatsevtika va klinik terminologiyani chuqur o'zlashtirishga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, darslarda terminlarning tuzilishi, ularning morfologik xususiyatlari, qo'llanish chastotasi va ma'no jihatdan tahlili asosida mashg'ulotlar tashkil etilishi, talabalarning mustaqil fikrlashi va tibbiy tilni faol qo'llay olish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Lotin tili va tibbiy terminologiyani samarali o'qitish metodikasi — bu nafaqat lingvistik bilimlarni berish, balki bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Брагова А.М. Основы обучения латинскому языку в гуманитарном университете [Электронный ресурс]: // Studia Humanitatis. 2017. № 1. URL: http://sthum.ru/sites/st-hum.ru/files/pdf/bragova_1.pdf
2. Кацман Н.Л., Покровская З.А. Латинский язык: Учебник для вузов. 7-е изд. М.: ВЛАДОС, 2013. 455 с.
3. Козаржевский А.Ч. Учебник латинского языка. 8- изд. М.: ЛЕНАНД, 2017. 328 с.
4. Бухарина Т.Л., Новодранова В.Ф., Михина Т.В. Латинский язык: учеб. пособие. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2015. 496 с.
5. Качалкин А.А. Специфика преподавания дисциплины «Латинский язык, основы терминологии» на медицинских факультетах // Вестник Костромского государственного университета им. Н. А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2016. Т. 22. № 3. С. 172–176.
6. Каракотова, С.А. Управление системой образования в условиях модернизации / С.А.Каракотова // в сборнике: Инновационные процессы в системе образования: теория и практика / Материалы региональной научно-практической конференции. – Карачаевск, 2017. С. 116-119.
7. Козаржевский А.Ч. Учебник латинского языка. 8- изд. М.: ЛЕНАНД, 2017. 328 с.
8. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии: учебник. М.: Медицина, 2004. 448 с.
9. G.Burxonova Lotin tilida tibbiyotni o'rganamiz. O'quv qo'llanma.Toshkent 2023.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF THE LANGUAGE AND STYLE OF LITERARY JOURNALISM BY THE JADID WRITER TULAGAN KHOJAMYAROV (TAVALLO)

Rakhmonova Dildora Mirzakarimovna,

Doctor of Philosophy in Philology

Senior lecturer of the Uzbek language and literature department

Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, the articles of the Jadid writer Tulagan Khodzhamyarov (Tavallo), published in periodicals, in particular, in the newspaper "Turkiston viloyatining gazetisi" are analyzed from the point of view of language and style. The author cites the creation of stylistic originality in Tavallo's journalistic works, the content and thematic analysis of his articles.

Keywords: Jadid literature, Jadid journalism, "Turkiston viloyatining gazetisi", Tavallo, language of literary works, style.

JADID ADIBI – TO‘LAGAN XO‘JAMYAROV (TAVALLO) BADIY PUBLITSISTIKASINING TIL VA USLUBI TAHLILI

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: dildorarahmonovatsul@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid adibi – To'lagan Xo'jamiyrov (Tavallo)ning vaqti matbuot nashrlari, xususan, "Turkiston viloyatining gazetisi"da chop etilgan maqolalari til, uslub nuqtai nazaridan tahlilga tortiladi. Tavalloning publitsistik asarlarida uslubiy o'ziga xoslikning yaratilishi, maqolalarining mazmun va mavzu jihatidan tahlili muallif tomonidan keltiriladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, jadid publitsistikasi, "Turkiston viloyatining gazetisi", Tavallo, badiiy asar tili, uslub.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N17>

Kirish. Publitsistikaning eng asosiy vazifasi o'z davrining dolzarb muammolarini kun tartibiga qo'yish, mazkur jarayonda jamoatchilik fikrini qo'zg'atish, bahs uyg'otish orqali ijtimoiy fikrni shakllantirish, bu orqali omma ongiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Jadid matbuoti ayni shu maqsadlarni ko'zlagani holda, eng avvalo, millat va Vatan manfaati uchun kurashni o'z maqolalarida boshladilar. Jadidlar she'riyatda ham, dramaturgiyada ham, nasrda ham, publitsistikada ham birday muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan. Publitsistikaning ilk namunalari o'zbek matbuotida 1900-yildan keyingina paydo bo'la boshlagan edi. Lekin bu sohadagi tajribalarning g'oyat kamligiga qaramay, jadid publitsistikasi 20-yillarning boshida o'z rivojining yuksak cho'qqilariga ko'tarildi. Bu harakatning atoqli vakillari nafaqat kitob, gazeta-jurnal chop etish va tarqatish, balki bu ziyo vositalarini sifatli va fikr uyg'otuvchi materiallar bilan ham to'ldirishga intilishar edi. Bu maqsad Tavalloga ham yot emas edi. U millat

hayotini yaxshilash, gazeta-jurnallar faoliyati, ularga homiylik lozimligi haqida she'r yozishdan tashqari, milliy matbuot sahifalarida o'ziga xos maqolalari bilan ham chiqishlar qilar edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da ijodkor uslubi haqida to'xtalib, quyidagi fikrlarni keltiradi: "Butun o'zbek yozg'uchilarining ifodalari o'zbekcha bo'lg'ani holda har birining o'ziga xos maxsus bir uslubi bordir. Biroq uslubdagi bu hol tuban, kuchsiz-adib yozg'uchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir. Kuchsiz yozg'uchilarning uslublari bir-birig'a o'xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayin o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir. Shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tugal, komil bo'lg'ach, o'ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo'ladir" [1:17]. Jadid ijodkorlari haqida so'z ketganda, ularning aksariyati ijodning har bir turida – lirik, epik, dramatik – o'z uslubini yarata oldilar. Tavallo ayni shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. Ahamiyatli tomoni barcha ijod qilgan, davrning eng muhim ijtimoiy masalalari birdek baralla kuylanayotgan bir vaqtda Tavallo o'zining ijodiy ovozi yarata oldi, bu uning uslubi edi.

Adabiyotshunos D.Quronov: "Muayyan davrda yashagan bir qator ijodkorlar yaratgan ko'plab asarlarda tipologik umumiylik mavjud. Tipologik umumiylik hayot materialini tanlash, uni badiiy idrok qilish va baholash prinsiplarida, asarlarning badiiy shakl xususiyatlari, uslubiy jihatlari o'zini namoyon etadi" [2: 10] deb yozadi. Ayni shu tipiklik Tavallo ijodi uchun ham xos. Jumladan, bu holat ularning tanlagan hayotiy materialida shakl xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Tavallo ijodi uchun ham shu xususiyatlar xosligini inkor etmagan holda aytish mumkinki, u ayni muhitda o'z uslubining yangilanishini yarata oldi. Eng avvalo, Tavallo ijodi uchun xos bo'lgan eng muhim uslubiy belgi "turkona uslub"da ijod etishidir. Olima N.Afoqova turkona uslub tushunchasini qo'llagani holda, bu uslubga xos belgilar sifatida quyidagi jihatlarni sanaydi [3: 38]:

- soddalik;
- so'z shaklini o'zgartirish;
- ayrim qo'shimchalarni tashlab ketish;
- ba'zan grammatika qoidalari chetga chiqish;
- ohanglarning o'ynoqiligi.

Ko'rinib turibdiki, bu kabi uslubiy o'ziga xosliklar nafaqat lirikada, balki ayrimlari esa bir qadar publitsistikada ijtimoiy muhitning adabiyotga ta'siri asnosida yuzaga kelgan bo'lib, bu kabi uslubiy o'zgarishlar mumtoz adabiyotda tag'yir sifatida baholanishini ham ta'kidlab o'tish joiz. Adabiyotning missiyasi millatni uyg'otish, ularni birlashish va ma'rifatga chorlash bo'lib turgan bir vaqtda eng yaxshi usul uni xalqqa moslash va shu orqali adabiyot va omma yaqinlashuvini ta'minlashdan iborat edi. Ayni shu jihatlarga ko'ra Tavallo publitsistikasida N.Afoqova ta'kidlagan turkona uslubning eng muhim jihati soddalik, tilning ravonligi va nihoyada xalq tiliga yaqinlik yaqqol kuzatiladi.

Muhokama. Tavallo jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni nihoyatda aniq va tushunarli tarzda bayon etadi. Jumladan, "E'tizor" deb nomlangan maqolasida ayni shu ravon va oddiy tilning jozibasidan mahorat bilan foydalanadi. "Oyna" jurnaliga nega maqola yubormay qo'ydingiz degan savolga javob berib o'tish barobarida jamiyatdagi eng dolzarb masalalarga e'tibor qaratadi: "Endi mandin she'r, maqola talab qilsangizlar, ushbu "Turkiston viloyatining gazetasi"ni olib o'qursizlar. Ot aylanub qozig'in topar, degan man bo'ldum. Ne uchun men xafa bo'lmasmanki, O'runburg'da chiqadurgon "Vaqt" gazetasin o'qib turamiz, bir necha maqola

yoziq yubordim, bosmaydur. Bossa ham bik oz qilib bosadurlar. Bizlarning to'g'rimizdin matbuot sahifasida qalam tebratsa, darhol bosh maqolasiga "Sart", "sartlar" deb bo'lmag'on bir majhul ism ila bizlarni kamsitib nafratlanarlar. Ul kishi hamon hamshiralimizning erlar ila musohabasi, tunlarda ko'chalarda progulkalari deb mufassal suratda bayon qilib tutash-tutashmiz deb ovuzlarini suvlatib gazetaga to'ldirurlar. Shul voqealarni ko'rub, bir xil gazetalarni o'qimoqdin vijdonim meni qaytardi". Tavallo bu kabi oldi-qochdi fikrlardan iborat maqolalar yoziq yurishni zamondan ortda qolmoqlik sifatida baholaydi. Millatning qiyofasiga noto'g'ri yondashuvli, majhul bo'lgan fikrlarga tayanib yozilgan maqolalarni, bu kabi mavzularni yoritgan gazetalarni o'qishni o'ziga ep ko'rmagani holda, boshqalargada o'qishni maslahat bermaydi. "Bilmasmanki, endi qaysi gazetani o'qimoqni va qaysi gazetaga hasbi-holimizni yetushmaganliklaridin yozub, millatga xizmat etmog'imni deb, boshim qotub, o'ylab, "Qaysi yerni o'tin o'tlasang, shul yerni suvini suvla", degan qozoq maqoli esimga tushib ketib, ushbu "Turkiston viloyatining gazetasi"n o'qimoqni ham o'z birodarlarimg'a tavsiya etmoqni vojib darajada bilib, ko'nglum shul fikrni muqarrar qilib, tatar qarindoshlarimizga ham Ollohdin insof tilab qoldum". Tavallo "sart" ifodasiga, gazetalarda chiqadigan maqolalarda millatning qiyofasi to'liq ochib berilmasdan, aksincha bir tomonlama talqin etilayotganiga keskin e'tiroz bildiradi. Eng muhimi, bu e'tirozlarni ham turkona uslubda bayon etadi. "Ot aylanub qozig'in topar" kabi o'zbek xalqiga xos bo'lgan, qozoq xalqining esa: "Qaysi yerni o'tin o'tlasang, shul yerni suvini suvla" kabi maqollaridan foydalanishining o'ziyoq uslubdagi xalqonalikni, soddalik va ravonlikni ko'rsatib beradi. Ayni shu maqolaning o'zidayoq ruscha so'zlarning ham xalq talaffuziga moslangani kuzatiladi. Orenburgni O'runburg' tarzida yozilgani N.Afoqova ta'kidlagan turkona uslubga xos so'z shaklini o'zgartirish elementining ham uchrashini namoyon etadi. Bu kabi holatlarning barchasida turkona uslub qirralari bo'rtib turgani holda, ijodkorning xususiy uslub belgisiga aylana boradi. Qaysidir ma'noda publitsistik asarlarda maqollardan foydalanish jadid adabiyotining uslubiy ziynatiga aylangan edi deyish mumkin. Juda ko'plab ijodkorlar publitsistikasida ayni shu uslubiy ziynatga guvoh bo'lganimiz holda, ulardan foydalanishda uslubiy individuallikni kuzatamiz. Jumladan, Qodiriyning publitsistikasida ham Tavallo ijodida bo'lgani kabi maqollardan uslubiy ziynat sifatida foydalanish yaqqol kuzatiladi. Birgina: "Tavakkaltu 'allahni" degan er: na talqon-u, na qalqonning g'amin yer" sarlavhali maqolasida Qur'on oyatlari bilan asoslangan toat-ibodatda, ixlos-e'tiqodda, zuhdu taqvoda riyozat chekib, tavakkul qilish maqomiga ko'tarilgan buyuk ajdodlardan ibrat olmay, o'zining dangasaligini "tavakkul" niqobiga o'rab ko'rsatadigan zamondoshlarini ayovsiz tanqid qiladi. "Kimning og'ziga quloq solsang: Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar" deya kuyingan adib, bilimi chala muallimlar, so'zda polvonu mehnatdan qochadigan ishchilar, avlod tarbiyasi o'rnida "Qozonda jiz-biz, o'rinda siz-biz", she'rini shior qilgan millat ayollari, "Millatga ilm kerak, ma'rifat kerak" deya bong urib, ishga kelganda tomoshabin bo'lib turuvchi ziyolilik da'vosida yurganlar aslida Vatan millat tanazzulining bosh sababchilari ekani haqida iztirob bilan yozadi" [4: 141]. Ko'ringani kabi Qodiriy publitsistikasida ham millatni tanazzulga boshlovchi jaholat va uning sababchilari achchiq tanqid ostiga olinadi. Fikrlarini Qur'oni karim oyatlari va xalq maqollari yordamida asoslaydi. Millat taqdiriga kuyinish faqatgina tilda emas, amalda bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlamoqda. Qodiriy va Tavalloda ham xalq maqollari uslubning ziynati bo'lish barobarida, maqsadni ochib berish vositasidir. Har ikki ijodkorning uslubiy bezaklari aynan bo'lgani holda uslubni bir biridan hissiy bo'yoqdorlik yaqqol farqlashga imkon tug'dirmoqda. Tavallo uslubida

til sodda va qisqa. Qodiriy uslubi esa hissiy bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlikka ega. Bu kabi uslubiy farqlar, jadid adabiyotining badiiy jihatdan rango-rang ekanini, ammo maqsad tomonidan yakdilligini, publitsistikaning asosiy maqsadi millatni uyg‘otish, g‘ofillikdan qutulishga undash ekanini anglashimiz mumkin.

Tavallo publitsistikasida asosiy g‘oyalarning undash, chaqiriq, da’vat kabi mazmunda aks etishi ham uning uslubiga xos eng muhim elementlardan biridir. Ijodkor millat degan tushunchani nihoyatda yuksak baholagani holda millat taraqqiysi yo‘lida barchani ilm-u ma’rifat ketidan quvmoqqa, o‘tkinchi, keraksiz illatlardan chekingani holda o‘zligini anglashga chaqiradi: Agarda bizlar ham o‘z ona tilimizda bo‘lg‘on bir dona majalla va gazetamizni boshqa millat bolalari kabi tirishub o‘qusak edi, bizlarg‘a ham o‘nlab, yigirmalab gazit, jurnal vujudg‘a kelur edi. Boylarimiz ham majalla va gazeta nasihati va tanqidini tinglab, aziz bolalari uchun qayg‘urub bid‘at ishlara qiladurgon behuda sarflarin qo‘yub, millat taraqqiysig‘a cholishurlar edi. Ulamolarimiz-da majalla va g‘azeta sababila ahvol va ijobi zamondan xabardor bo‘lib, millatg‘a, zamonga xizmat qilur edilar, insof edingiz... Muallif millat taraqqiysining omili bo‘lgan jurnal va gazeta chop etishga boylarni undar ekan, insof etingiz chaqirig‘i bilan o‘z fikrini yakunlaydi. Bu kabi fikrlar Tavallo publitsistikasida yetakchilik qiladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, chaqiriq, da’vatlar uning maqolalari badiiyatini faqatgina shundan iborat qilib qo‘ymaydi, yoki badiiylikni pasaytirmaydi. Zero, Tavallo publitsistikasiga xos bo‘lgan eng dastlabki belgi uning maqolalari, eng avvalo, badiiy publitsistik maqolalardir. U ijodkor sifatida o‘z maqolalarini she’riy misralar bilan boyitadi, fikrlari tasdig‘i o‘laroq hazrat Navoiy g‘azaliyotiga, xalq hikmatlariga ko‘p bora murojaat etadi. Chunonchi, “Ответ Джанбаеву” maqolasida ayni hazrat Navoiy lirikasidan hamda xalq hajviyalaridan unumli foydalangani holda o‘z uslubini ziynatlaydi. Jumladan, “Djanbayev” (Jonboy)ning ismini Nasriddin Afandi haqidagi latifalar asnosida hajv ostiga oladi: Endi meni so‘zimni qabul qilsangiz, har kim ilan javob raddiya yozishmasdin burun otingizni va otangiz ismini to‘g‘rilab olganingiz yaxshi bo‘lur edi. Manimcha, Jonboy o‘rniga Jonmuhammad qo‘yingiz. Ul vaqtda Mullo Nasriddin Afandi laklakni tutib, oyog‘in-tumshug‘in qirqib, emdi qushga o‘xshading degandek bo‘lsa, ajab emas. Ey muhtaram muallim afandi, har narsa yozganingizda o‘ylabroq yozing, eslamay so‘zlagan esnamay o‘ladi, maqolig‘a o‘xshab ketmasun. Ko‘rinib turibdiki, nafaqat latifadan, xalq maqolidan ham unumli foydalangani holda badiiyatni yanada ko‘rkamlashuviga erishadi, qolaversa, ularni hajv, kinoya, achchiq-kesatiq jarayonida mahorat bilan qo‘llagani holda uslubiy mukammallikni, butunlikni ta’minlashga harakat qiladi. Fikrlarini ziynatlashni Navoiy misralaridan foydalangani holda davom ettiradi: Har qancha mani to‘g‘rimga iftirolar yozganingizda ham men sizdekdan ranjimasmen va ham martabadin tushub ham qolmasman, deya Navoiyning quyidagi misralarini keltiradi va o‘z maqolasining badiiyatini yana bir karra mukammalashuviga erishadi:

“Hud-hud qo‘ydilar azali toj boshig‘a,
Tushgaymu jola yoqqan ila toj boshidin”

Ko‘rinib turganidek, Tavalloning shoirligi uning publitsistik uslubiga ham o‘z-o‘zidan ta’sir ko‘rsatgani holda, maqolalardagi badiiylikni turli adabiy vositalar yordamida hosil qiladi. O‘z-o‘zidan bu holat uslubning mukammalligiga olib keladi. Ayni bu kabi badiiylik nafaqat maqolalar mohiyatida, qolaversa, sarlavhaning o‘zidayoq ko‘zga tashlanadi. Tavallo sarlavhadayoq maqolaning butun mohiyatini ochib berishga, badiiylik va xabarni umumlashtirishga intiladi. Bu kabi holatlar Tavallo publitsistik uslubining o‘ziga xosligini,

individualligini namoyish etadi. Ayni shu o'rinda D.Quronovning quyidagi mulohazalarini keltirib o'tish joiz: "Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi" [2: 43]. Tavallo publitsistikasidagi ayni shu uslubiy individuallik ham badiiy matnning barcha qismlarida birdek ko'rinib turadi, uslubiy betakrorlikni yuzaga keltiradi.

Natijalar. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Tavallo publitsistikasida uslubning badiiyatini ijodkorning o'z hamfikrlariniki kabi adabiy-estetik qarashlari yanada mukammallashtiradi. Qaysidir ma'noda aytish mumkinki, barcha jadid publitsistlarining adabiy-estetik qarashlarida Vatan va millat g'ami masalasi yetakchilik qilgani holda, ularning tili, ifodalash usulida ma'lum bir farqlar mavjudki, ayni shu farq uslubdir. Jumladan, barcha jadid ijodkorlari Rusiya bosqiniga salbiy munosabatda bo'lgani holda, ayni masalaga o'z munosabatlarini individual uslub imkoniyatlariga tayangan holda bildirib o'tadilar. Jumladan, Fitrat ruslarning O'rta Osiyoni madaniylashtirish bahonasidagi bosqinchilik siyosatini keskin qoralagani holda o'zining "Turkistonda ruslar" maqolasida quyidagicha yozadi: "Shuni ham aytib o'taylikkim, munday bir ta'sirni rus millatining avom tabaqasidan olmog'imiz mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz unlardan yuz marotaba madaniyroq edilar" [5: 201] deb yozadi. Fitrat shu tariqa bosqinchilik siyosatining asl mohiyati, maqsadini ochib borar ekan, bu holat ayniqsa ilm-ma'rifat masalasida alohida ko'zga tashlanishini ta'kidlaydi: "Bizning diniy va milliy hissiyotlarimizni o'ldurmak tilagi bilan O'straumov kabi mutaassib po'plarning idorasida gazit chiqarildi, maktab ochildi, lekin o'z millatimiz va diyonatimizni onglatish uchun o'z tarafimizdan ochilg'on maktablar va gazitlar bog'landi, sha'riy mahkamalarimizning huquq va salohiyatlaridan buyuk bir qismi g'asb etildi" [5: 201]. Ko'rinib turganidek, millatning eng og'riqli nuqtalarini Fitrat o'z uslubida bayon etadi. Fitratning uslubi, eng avvalo, uning tilida, ifoda yo'sinida ko'zga tashlanadi. Tavallo ham "Asosan "Oyna" jurnali va "Turkiston viloyatining gazeti"da e'lon qilingan publitsistik maqolalarida u ham boshqa jadid mutafakkirlari kabi o'z zamonining dolzarb muammolarini ko'tarib chiqdi. Bu muammolarga muolaja izladi". Faqat o'z uslubida. Tavallo ham Fitrat kabi ayni millat uchun eng dolzarb bo'lgan masalalar – ilm-u urfon masalasini yoritir ekan, faqat uning tilidagi sodda, bir qadar achchiq kesatiq, tushunarlikka ega bo'lgan ifoda uslubning Fitrat maqolalari uslubidan aniq farqini ko'rsatib turadi. Uning publitsistikasi badiiy publitsistika bo'lsa-da, uslubi ortiqcha pafos yoxud tasviriy bo'yoqdorlikdan xoli. Bu uslub Tavallo ijodining, aynan publitsistikasining maqsad va mohiyatini o'zida aks ettiradi. Maqsad millatni uyg'otish va bu maqsadning yuzaga chiqaruvchisi adabiyot bo'lib turgan bir paytda Tavalloning ayni uslubi barcha maqsadlarning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi. U o'z maqolalarida xalqning o'z tilidan, xalqning uslubidan foydalangan holda eng dolzarb masalalarni ochib berdi. Uyg'oq tafakkur, zamonaviy hayotga intilish maqolalar bosh mavzusi bo'lsa, jonli til, ravon ifoda Tavallo uslubining o'ziga xos qirrasidir. U hayotning go'zallashuv omili haqida fikr yuritir ekan, shunday yozadi: "Hozirgi zamonda ilm ila, ikkinchi pul-oqcha ila umrni istirohatda kechirmak mumkin. Qo'lda oqcha tutmasdin va ilm o'qumasdin dunyoda umr o'tkazurman, degan inson albatta majnunlikdin yiroq emas, deb biling. Ko'rasiz, bizlar maktabga jo'nagonda g'uyoki bir azob beradurg'on yoki hibsga olib ketayotganlardek zo'r minan va noiloj. Maktabga yaqinlashgan sayin ko'kragimiz urub, yurak o'ynab, maktab eshigida necha minut turib, kiroyinmu yoki kirmasdin ertaga biror bahona topilmasmu, deb qarab turamiz. Voy, bizlarning o'tkan umrlarimizga va otalarimizning

qilg'on tarbiyatlariga, deb afsuschilar ichidin". Tavallo hayotning har bir masalasiga reallik asosida yondashadi. Professor N.Jabborov ta'kidlaganidek: "Eng muhimi, bu fikrlar bugungi kun uchun ham dolzarb, bugun ham shu kabi muammolar mavjud. Tavallo publitsistikasi bu muammolarni hal qilishda bizga dastur bo'lishga loyiq" [6: 3]. Zero, ilmning mohiyati va samarasi hech qachon o'zgarmaydi. Tavallo publitsistikasida ayni mohiyatan eskirmas masalalar tahlil qilinadi. Ko'rinib turibdiki, Tavallo va Fitrat publitsistikasi mazmunan uyg'un bo'lgani holda, uslub jihatidan tamomila alohidalik xususiyatiga ega. Fitratning uslubi bir qadar pafosning yuqoriligi, tilning murakkabligi jihatidan Tavallo publitsistikasi uslubidan farqlidir. Alohida ta'kidlash joizki, uslubiy jihatdan rang-baranglik jadid adabiyotining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Ayni shu rang-baranglik Cho'lpon va Tavallo publitsistikasi qiyosida ham kuzatiladi. Cho'lpon publitsistikasida ham ma'rifat va millat taraqqiysi bosh mavzu hisoblanadi. U ham ma'rifatni yagona xaloskor va yengilmas kuch deb hisoblaydi. Millatning millat sifatida shakllanishi uchun, dunyoda yashab qolishi uchun ma'rifat zarurligini ta'kidlaydi: "Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysig'a chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'an millat o'zini inqirozda ekanun bildirur" [7: 2]. Cho'lponning millatning najoti bo'lgan ilm va ma'rifat haqida yozgan ushbu maqolasini o'qigan o'quvchi, eng avvalo, o'zini she'r o'qiyotgan kabi his etadi. Yuksak badiiyat, pafos, obrazli ifodalar go'yo lirik asar namunasini o'qiyotgandek taassurot uyg'otadi. Bu holat o'z-o'zidan Cho'lpon publitsistik uslubining o'ziga xos jihatini namoyon etish bilan bir qatorda adabiyotshunos Ulug'bek Hamdamning quyidagi fikrlarini yodga soladi: "30-yillarga kelib o'zbek she'riyatida publitsistiklik xususiyati to'la ustuvorlikka ega bo'ldi. She'riyatda lirikaga xos bo'lgan o'zak xususiyat – qalb kechinmalarini tasvirlash keyingi o'ringa surildi: u o'z vazifasini, asosan, jamiyatda yuz berayotgan hodisalarni tezkorlik bilan aks ettirish va ularga g'oyaviy-hissiy munosabat bildirish orqali ommaga ta'sir etish, ijtimoiy fikrni shakllantirishda ko'ra boshladi" [8: 173-174]. Biroq Cho'lpon ijodiga nazar solar ekanmiz, uning nafaqat lirikasida badiiyatning yuqoriligi, hatto publitsistikasida publitsistik ruhdan ko'ra lirikaning ruhiyatini ko'proq namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Uslubning bu qadar xilma-xilligi, o'ziga xosligi namoyon bo'lib borayotgan bir davrda o'z ovozi topish, o'z uslubiga ega bo'lish hamma ijodkor ham erishavermaydigan natija edi. Tavallo o'ziga zamondosh bo'lgan eng ulkan adabiy qiyofalar orasida o'z o'rnini, shu bilan birga, o'z uslubini yarata olgan ijodkor edi, deyish mumkin. Fitrat "adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir" deya yozar ekan, Tavallo ijodi uchun ham ayni xususiyatlar tegishli ekanini anglashimiz mumkin. Jumladan, teatr va uning millat taraqqiysida tutgan o'rni haqida tuyg'ularini Fitrat ta'kidlaganidek, to'lqinli so'zlar ila bayon etar ekan, har narsadan illat izlovchilar doim mavjud ekanini alohida ta'kidlab o'tadi: "Bir qaysi kasaltabiat o'z manfaatini bilmag'on va millatni tanimag'onlarimiz bu tiyotni teskari fahm edub, yo'q aqlin yugurturmasdin mundoqcha farosatlarni eturlarki, bizlarga tiyotr ko'rguzamiz deb, bizlarga ota o'ldursangizlar mundoqcha o'ldurasiz, deb bizning bolalarimizga ota o'ldurmoq ta'limini ko'rsottilar va misoli shunga o'xshash ters xayollari ila dunyoyi olamni bilchiratub yururlar"[9: 13]. Ayni shu o'rinda Tavallo publitsistikasidagi pafosli uslubning qirralarini uchratish barobarida, she'riyatdagi kabi hissiyotning, tasvirlash usulining guvohiga aylanamiz. G. Nishonova ta'kidlagani kabi: "She'rlardagi hasratli mazmun o'sha davr publitsistikasida aks sado ber"ganini [10: 150]

kuzatishimiz mumkin bo'lishi. Ayni shu fikrlar tasdig'iga Fitrat publitsistikasiga nazar solish orqali ham amin bo'lish mumkin. Zero, Tavallo publitsistikasining uslubiy o'ziga xosligini anglash, uning zamondoshi bo'lmish Fitrat publitsistikasining badiiyati va uslubini tadqiq etish bilan yanada oydinlasha boradi. Fitrat ham ayni Tavallo ijodidagi mavzularda qalam tebratgani holda, maqsad tomondan ham u bilan bir xillikka ega. Biroq uning publitsistik uslubiy badiiy bo'yoqdorlikning yuqoriligi, uslubning ta'sirchanligi va she'riy ohangga yaqinligi bilan alohidalik xususiyatiga ega. Jumladan, Fitratning "Muxtoriyat" sarlavhali maqolasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning uslubidagi hayajonli nutq, baland pafos, o'tkir til yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni shu jihatlar Fitrat uslubiy novatorligining asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq yillar davomida ezilish, zulm tig'i ostida qolgan millatning bardoshi yolg'iz hamrohi bo'lganini qayd etadi: "Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumurildi, nomusimiz g'ash qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik" [11: 198]. Ayni shu o'rinda Fitrat publitsistikasining o'ziga xosligi barobarida, Tavallo publitsistikasidagi uslub masalasi ham qiyosiy tahlil orqali bir qadar oydinlasha boradi.

Xulosa. Bu kabi uslubiy xilma-xillikdan xulosa chiqarish mumkinki, jadid davri publitsistikasi, xususan, Tavallo publitsistikasi ham, faqatgina ijtimoiylik masalasini yoritgani bois badiiy mukammallikni yo'qotmadi, aksincha, bu davrda adabiyotga yangi janrlar, yangidan-yangi uslublar kirib kela boshladi. Ayni shu jarayonda Tavallo publitsistikasining ham alohida o'rni borligini e'tirof etish joizdir. Tavallo publitsistikasi uslubiy haqida so'z borar ekan, qiyosiy tahlillar va mulohazalar asnosida uning uslubiy uchun xos xususiyatlar sifatida quyidagi jihatlarni alohida qayd etish joiz: soddalik, hajv, xalq og'zaki ijodiga murojaat va kinoya. Bu kabi vositalar garchand boshqa ijodkorlar publitsistikasida ham kuzatilsa-da, Tavallo publitsistikasida maromiga yetganligi, o'z o'rni va vaqtida qo'llanganligi, badiiy maqsadni nozik tarzda ochib bera olganligi bilan xarakterlidir. Avloniy ta'kidlagani kabi jadid davri matbuoti, publitsistikasi: "bir yoqdan ilmiy islohot uchun mafkura hozirlagon bo'lsa, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini sochdi". Shu jihatdan Tavallo publitsistikasi ham badiiy adabiyot, ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat yaxshilanishi uchun ma'lum darajada xizmat qildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
2. Қуронон Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
3. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърлий шакллар тараққиёти тамойиллари. Филол. фан. докт. дисс... – Тошкент, 2006.
4. Ислом энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон ислом академияси нашриёти, 2020.
5. Фитрат А. Туркистонда руслар. // Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2003.
6. Жабборов Н. "Миллата жонлар фидо..." // Моҳият. – Тошкент, 2004, №18.
7. Чўлпон. Адабиёт надир? // Садоий Туркистон, 1914 йил 4 июнь.
8. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърлий бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. - Тошкент, 2017.
9. Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
10. Нишонова Г. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида "Ойна" журналининг ўрни ва аҳамияти. Фил. фан. ном...дисс. – Тошкент, 2008.
11. Фитрат А. Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2003.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

LINGUISTIC MODELS OF NOUN COLLOCATIONS IN ENGLISH AND PROBLEMS OF ADEQUACY IN THE PROCESS OF THEIR TRANSLATION TO UZBEK LANGUAGE

Yuldasheva Rukhshona Rustamjon kizi

National University of Uzbekistan

Named after Mirzo Ulugbek

Master's Degree Student in Computer Linguistics

E-mail: Yrukshona@inbox.ru

Abstract. This article examines the linguistic models of English noun collocations, their semantic and grammatical features, as well as the challenges of achieving adequacy in their translation into Uzbek. The paper analyzes the structural characteristics of collocations, lexical-semantic discrepancies in translation, and presents the results of a comparative analysis of machine and human translation. Based on the research findings, an effective linguistic model is proposed for the adequate translation of noun collocations into Uzbek.

Keywords: noun collocations, translation adequacy, linguistic model, English language, Uzbek language, machine translation, lexical-semantic analysis.

INGLIZ TILIDAGI OTLI KOLLOKATSIYALARNING LISONIY MODELLARI VA ULARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMA JARAYONIDAGI ADEKVATLIK MUAMMOLARI

Yuldasheva Ruxshona Rustamjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarning lisoniy modellari, ularning semantik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan adekvatlik muammolari tahlil qilinadi. Maqolada kollokatsiyalarning strukturaviy xususiyatlari, tarjimada uchraydigan leksik-semantik tafovutlar hamda mashina tarjimasi va inson tarjimasi orqali amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijalari keltiriladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, otli kollokatsiyalarni o'zbek tilida adekvat tarjima qilish uchun samarali lisoniy model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: otli kollokatsiyalar, tarjima adekvatligi, lisoniy model, ingliz tili, o'zbek tili, mashina tarjimasi, leksik-semantik tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N18>

Kirish. Jahon globallashuvi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ingliz tilining xalqaro muloqot va ilmiy-texnikaviy sohalarda ustuvor o'рни yanada mustahkamlanmoqda. Shu jarayonda ingliz tilidagi kollokatsiyalar, xususan, otli kollokatsiyalar (noun collocations)ning o'zbek tiliga adekvat tarjima qilinishi tilshunoslik, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi uchun dolzarb masalaga aylandi[1;54b.]. Kollokatsiyalar tarjima jarayonida tilning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini to'laqonli aks ettirish imkonini beruvchi birliklar sifatida alohida ilmiy e'tibor talab qiladi.

Ingliz tilidagi o'tli kollokatsiyalar ko'pincha frazeologik barqarorlikka, yuqori darajadagi birikuvchanlikka va kontekstual ma'noga ega bo'lib, ularning so'zma-so'z tarjimasini ko'pincha semantik nomuvofiqlik yoki uslubiy xatolarga olib keladi. Xususan, "climate change", "risk factor", "data analysis" kabi terminologik yoki umumiy kollokatsiyalar o'zbek tilida har doim ham bir xil leksik-strukturaviy shaklda ifodalanmaydi. Natijada, tarjima jarayonida adekvatlikni ta'minlash uchun maxsus lisoniy modellar ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi[2;89-90b.].

So'nggi yillarda ushbu masala bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq ingliz tilidagi o'tli kollokatsiyalarning o'zbek tiliga tarjimadagi adekvatlik muammolari va bu jarayonda mashina tarjimasini hamda inson tarjimasining qiyosiy tahliliga oid tadqiqotlar yetarli darajada chuqurlashtirilmagan. Shuningdek, mavjud ishlarda lisoniy modellar orqali tarjima jarayonini soddalashtirishga qaratilgan amaliy yechimlar yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ingliz tilidagi o'tli kollokatsiyalarning lisoniy modellarini aniqlash, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilish hamda o'zbek tiliga tarjima jarayonida adekvatlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqolada kollokatsion birliklarning turli tiplari tahlil qilinadi, mashina tarjimasini va inson tarjimasidagi farqlar solishtiriladi hamda amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan lisoniy model taklif etiladi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi o'tli kollokatsiyalarni aniqlash va ularning o'zbek tiliga adekvat tarjimasini baholash uchun korpus asosidagi va qiyosiy-lisoniy yondashuvlardan foydalanildi. Dastlab, British National Corpus va Corpus of Contemporary American English kabi yirik inglizcha matnlar bazasidan 1000 dan ortiq keng qo'llaniladigan o'tli kollokatsiyalar tanlab olindi. Ushbu birliklar mavzuviy ilmiy-texnik, ijtimoiy, kundalik nutq hamda strukturaviy ot+ot, sifat+ot, predlogli birikmalar kabi mezonlar asosida tasniflandi. Tanlab olingan kollokatsiyalar o'zbek tilidagi matnlar va tarjimalar korpusi bilan solishtirildi. Bu jarayon kollokatsiyalarning adekvat ekvivalentini aniqlash, tarjimadagi semantik siljishlar va sintaktik o'zgarishlarni qayd etish imkonini berdi[3;102-105b.].

Qiyosiy tahlil ikki bosqichda olib borildi: birinchisi, inson tomonidan amalga oshirilgan professional tarjimalarni o'rganish orqali kollokatsiyalarning o'zbek tilida ishlatilish me'yorlari aniqlangan bo'lsa, ikkinchisi, mashina tarjimasini orqali olingan natijalar bilan solishtirilib, semantik va uslubiy nomuvofiqliklar qayd etildi. Ushbu bosqichda tarjima adekvatligini baholash uchun lisoniy kriteriyalar (kollokatsiyaning semantik yaxlitligi, uslubiy mosligi, sintaktik to'liqligi) asosida maxsus baholash jadvali tuzildi. Olingan ma'lumotlar asosida o'tli kollokatsiyalar uchun universal lisoniy model ishlab chiqildi, u tarjima jarayonida so'zma-so'zlikdan qochish va kontekstga mos ekvivalent tanlash imkonini beradi[4;31b.].

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi o'tli kollokatsiyalarni o'zbek tiliga adekvat tarjima qilish jarayonida uchta asosiy tasnif va muammo guruhini ko'rsatdi. Dastlabki tahlil asosida tanlab olingan 1000 kollokatsiya tuzilishi va semantik xususiyatlariga ko'ra uch toifaga ajratildi:

- 1) oddiy terminologik kollokatsiyalar
- 2) metaforik yoki konnotativ birliklar
- 3) barqaror iboralar tarkibidagi kollokatsiyalar.

Qiyosiy tahlil natijasida inson tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda kollokatsiyalarning 82% holatda semantik va uslubiy jihatdan adekvat ekvivalentlar topilgan

bo'lsa, mashina tarjimasida bu ko'rsatkich 54% ni tashkil etdi. Mashina tarjimasida asosan so'zma-so'z tarjima (masalan, risk faktor xavf omili o'rniga xatar faktori tarzida), kontekstdan uzilgan semantik talqin, va uslubiy beqarorlik kuzatildi. Ayniqsa, metaforik kollokatsiyalar va konnotativ birliklarda mashina tarjimasi adekvatlikni ta'minlashda eng ko'p qiyinchiliklarga duch keldi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalarida ingliz tilidagi ko'p komponentli otli kollokatsiyalarni o'zbek tilida to'liq va uslubiy mos shaklda ifodalash uchun kontekstga asoslangan qayta strukturalash uslubining samarali ekani aniqlanib, bu lisoniy model sifatida tavsiya etildi. Ushbu model kontekstga mos ravishda otli birikmalarni qayta tuzish, zarur hollarda sifatlash, izohlash yoki qo'shimcha komponentlar kiritish orqali adekvat tarjimani ta'minlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarni o'zbek tiliga tarjimada semantik yaxlitlik va uslubiy moslikni ta'minlash uchun korpusga asoslangan tahlil, kontekstual qayta strukturalash va inson nazoratini birlashtiruvchi kompleks yondashuv eng samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarni o'zbek tiliga adekvat tarjima qilishda uchta asosiy muammo so'zma-so'z tarjima tendensiyasi, kontekstdan ajralgan semantik talqin va uslubiy beqarorlik eng ko'p uchrashini ko'rsatdi. Bu holat, ayniqsa, metaforik va konnotativ birliklarda yaqqol namoyon bo'ldi. Mashina tarjimasi ushbu muammolarni keskin kuchaytirgan bo'lsa-da, professional tarjimalar ham ba'zi hollarda kontekstga mos bo'lmagan yoki haddan tashqari so'zma-so'z yechimlardan xoli emasligi aniqlandi.

Bu natijalar ingliz tilidagi kollokatsiyalarni tarjima qilishda korpusga asoslangan tahlil va kontekstual qayta strukturalash yondashuvining zarurligini tasdiqlaydi. Korpus tahlili kollokatsiyaning real qo'llanish chastotasi va kontekstdagi o'rnini aniqlash imkonini bersa, qayta strukturalash (restructuring) metodikasi o'zbek tilida tabiiy va uslubiy jihatdan mos tarjimani yaratishga yordam beradi. Masalan, long-term economic growth strategies birikmasi so'zma-so'z tarjima qilinganda mantiqiy va uslubiy nomuvofiqlik yuzaga keladi, biroq qayta strukturalash orqali "uzoq muddatli iqtisodiy o'sish strategiyalari" tarzida adekvat yechim olinadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mashina tarjimasi ko'pincha oddiy terminologik kollokatsiyalarda maqbul natijalar bera olsa-da, metaforik yoki ko'p komponentli birliklarda inson nazoratisiz adekvatlikni ta'minlay olmaydi. Shu bois, tarjima amaliyotida mashina tarjimasini qo'llash faqat korpus tahliliga tayangan holda va inson tomonidan yakuniy tahrir bilan uyg'unlashtirilgandagina samarali bo'lishi mumkin[5;113b].

Umuman, olingan natijalar ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarni tarjima qilishda integral yondashuv korpus tahlili, qayta strukturalash va inson nazoratini birlashtirgan model eng samarali uslub sifatida qo'llanishini ilmiy asoslaydi. Bu model tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki amaliy tarjima jarayonlarida ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uch asosiy xulosa chiqarish imkonini berdi. Birinchidan, kollokatsiyalar strukturaviy va semantik xususiyatlari bo'yicha turli toifalarga ajraladi va har bir toifa o'zbek tilida adekvat ifodalash uchun turli yondashuvlarni talab etadi. Oddiy terminologik birikmalar

ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lsa-da, metaforik yoki ko'p komponentli birliklar kontekstdan kelib chiqqan holda qayta strukturalash orqali tarjima qilinishi lozim.

Ikkinchidan, mashina tarjimasi hozirgi holatda terminologik birliklar uchun nisbatan maqbul natijalar bersa-da, konnotativ va metaforik kollokatsiyalarda adekvatlikni ta'minlashga qodir emas. Bu esa inson tomonidan nazorat qilinadigan va korpus tahliliga asoslangan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan korpusga tayangan va kontekstual qayta strukturalashni o'z ichiga olgan lisoniy model otli kollokatsiyalar tarjimasida semantik yaxlitlik va uslubiy moslikni ta'minlashda samarali yechim sifatida tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv tarjima amaliyotida inson tarjimonlari ishini yengillashtirishi, mashina tarjimasi sifatini oshirishi hamda tarjima jarayonida so'zma-so'zlikdan qochishga imkon yaratadi.

Natijada, ingliz tilidagi otli kollokatsiyalarni o'zbek tiliga tarjimada adekvatlik muammolarini bartaraf etish uchun kompleks yondashuvdan foydalanish tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. To'xliyev B. Tilshunoslik nazariyasi va tarjima amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 215 b.
2. Xudoyberganova D. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalar va ularning o'zbek tiliga tarjima xususiyatlari. // O'zbek tilshunosligi jurnali. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 45–52.
3. Nazarova G. Ingliz tilida ko'p komponentli terminologik birikmalar tarjimasida. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019. – 140 b.
4. Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis and Applications. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 256 p.
5. Sinclair J. Trust the Text: Language, Corpus and Discourse. – London: Routledge, 2004. – 240 p.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE TEACHER IN ERKIN A'ZAM'S STORY "THE YEAR OTOYI WAS BORN"

Gulinor Kholmurotova

Student of Termez State University

Scientific advisor: Raimova Sayyora Zaitovna

Senior lecturer, Department of Uzbek Literature, Termez State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Abstract. This article examines the artistic interpretation of the image of a teacher in Erkin A'zam's story "The year Otoyoi was born". The work reveals the relationship between a teacher and a student, the role of a teacher in society, and the spiritual and moral values promoted through the image of a teacher. The article deeply analyzes the assessment of the image of teachers, the author's critical approach, and the depiction of social problems in the light of the hero's worldview and internal conflicts. It also studies modern teacher-student relationships through the analysis of the story's art and characters.

Keywords: story, image of a teacher, critical realism, modern literature, artistic interpretation.

ERKIN A'ZAMNING "OTOYINING TUG'ILGAN YILI" QISSASIDA USTOZ OBRAZI BADIY TALQINI

Gulinor Xolmurotova Azmiddin qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

E-mail: xolmurotovagulinor@gmail.com

Ilmiy rahbar: Raimova Sayyora Zaitovna

Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasidagi ustoz obrazi badiiy talqini mulohazaga tortilgan. Asarda ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar, ustozning jamiyatdagi o'rni, ustoz obrazi orqali ilgari surilgan ma'naviy va axloqiy qadriyatlar ochib berilgan. Maqolada qahramonning dunyoqarashi va ichki ziddiyatlari zamirida ustozlar obraziga berilgan baho, muallifning tanqidiy yondashuvi va ijtimoiy muammolar tasviri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, qissa badiiyati va personajlar tahlili orqali zamonaviy ustoz-shogird munosabatlari ham o'rganiladi.

Kalit so'zlar: qissa, ustoz obrazi, tanqidiy realizm, zamonaviy adabiyot, badiiy talqin.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N19>

Kirish. O'tgan asrdagi yozilgan badiiy asarlarda, asosan, insonning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni yoritilgan bo'lsa, keyingi davrlarda inson ichki olami, hissiy kechinmalari taftish qilingan asarlar yozila boshlandi. Yozuvchilar an'anaviy o'zbek qissachiligi uslubiga jahon realistik va modernistik talqin usullarini muvaffaqiyat bilan singdira boshlashdi. Adabiyotshunos olim D.Xoldorov ushbu jarayon haqida fikr bildirar ekan, bu xususiyat qissalardagi milliy realistik tasvir yetakchiligiga mone bo'la olmaganini, shuningdek, ularning

asarlarini umumiy qiyofasiga qarab eksperimental ham, modernistik qissa ham deb bo'lasligini, ularning uslublarini yangilangan milliy uslub, salafarlari uslubiga nisbatan o'ta zamonaviylashgan uslub shakli ekanini ta'kidlaydi [1; 25-26-b.]. Mazkur yangilanish pallasida yozuvchi Erkin A'zam "Otoyining tug'ilgan yili" nomli ilk qissasi bilan o'zbek adabiyotida yangi nafas, yangi ruh, yangi xarakterdagi obrazlar paydo bo'la paydo bo'la boshlanganini isbot etdi. Ushbu maqolada muhokamaga tortiladigan "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi talabalar hayotidan hikoya qiluvchi, jamiyatdagi ayrim illatlarni kulgi ostiga olib yozilgan asarlar sirasiga kiradi.

Mazkur maqolada "Otoyining tug'ilgan yili" qissasidagi obrazlar, xususan, ustozlar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining badiiy mahorati, obraz yaratishdagi uslubi, tanqidiy nigohi va asarning g'oyaviy-estetik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolaning maqsadi Erkin A'zamning "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi misolida zamonaviy o'zbek nasridagi ijtimoiy-tanqidiy ruh, ustoz obrazi badiiy talqini va yozuvchining milliy-realistik yondashuvlarini tahlil qilishdir. Ushbu maqola asardagi asosiy obrazlarni tahlil qilish, ustoz-shogird munosabatlarining badiiy talqinini ochib berish, asarda qo'llangan kinoya, sarkazm va tanqidiy uslublarni aniqlash va qissaning ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyatini asoslash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot mavzusi o'zbek adabiyotshunosligida dolzarb mavzulardan biri bo'lib, u zamonaviy qissachilikning uslubiy yangilanishi va unda ustoz obrazi badiiy talqinining takomillashuvini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Erkin A'zam ijodini o'rganish bo'yicha ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, adib ijodi haqidagi A.Rasulov, S.To'laganova, M.Qo'chqorova, F.Rajabova, S.Qurbonovalarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, A.Xolmurodov, M.Sheraliyeva va Sh.Toshxo'jayevalarning dissertatsiyalarida Erkin A'zam ijodi qo'yilgan masalalarni o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, Obidjon Shofiyevning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)" nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu nomdagi monografiyasida Erkin A'zam poetikasini tadqiq etish asosida kinoya, qiyosiy-tipologiya, adabiy ta'sir, obrazlar tabiati masalalari ochib berilgan [2; 5-b.].

Ushbu maqolani yozishda va oldiga qo'ygan maqsadni yoritib berishda badiiy asar tahlilining kontekstual tahlil va immanent tahlil kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakillari orasida Erkin A'zam alohida e'tibor va e'tirofqa loyiq ijodkor sanaladi. Yozuvchi o'z so'zini so'zlashda "erkin"ligi bilan ajralib turadi. Erkin A'zam kishilarda kuzatiladigan kechirilmas illatlarni goh qog'ozga o'rab satiristik ruhda bayon etsa, gohida hech narsani yashirishga urinmay o'tkir zaharxandalik – sarkazm bilan ifodalaydi. "Erkin A'zam badiiy olami" nomli ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plamida adibga shunday ta'rif beriladi: "Yozuvchi nasrida kinoya, yengil kulgi, zaharxanda, qahqaha, piching, kesatiq, masxaraomuz, mazaxlovchi hazil qatlamlari, sarkazm, so'z o'yinlari, parodiya, paradoks, parodiyaviy obrazlilik, niqoblangan obrazlar kuzatiladi. Adibning so'zga, chinakam adabiyotga bo'lgan talabchanligini, injiqligini, obrazli ifoda va o'tkir kinoya vositalarini qo'llashiga qarab, biz uni zamonaviy o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhorlarning munosib izdoshi, munosib shogirdi deya olamiz" [3; 5-b.].

"Otoyining tug'ilgan yili" qissasi nashr qilinishi bilanoq adabiyot ixlosmandlari orasida mashhurlikka erishgan, asarning bosh qahramoni Asqar Shodibekov esa "shartaki", "beandisha" yigit bo'lishiga qaramasdan kitobxonlar mehrini qozongan. Qissa birinchi shaxs

tilidan hikoya qilinadigan, “qog‘ozga o‘rash”larsiz ochiq gapirish, jamiyatdagi adolatsizlik, niqobbozlik va ikkiyuzlamachilikka qarshi kurash ruhidagi asardir. Bosh qahramon Asqar “shartaki” qahramon sifatida gavdalanadi, u o‘ta rostgo‘yligi tufayli atrofdagilar bilan munosabatda ko‘p bor pand yeydi. Adibning o‘zi mazkur asarini “shartakilik qissasi” deb atashi ham bejiz emas, albatta.

Adabiyotda ustoz-shogird munosabatlari doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek nasrida bu munosabatlar faqatgina an‘anaviy tarzda ustozga hurmat va ehtirom bilan emas, balki ayrim ustozlarda uchraydigan qusurlarga tanqidiy nigoh, ikkiyuzlamachilikka nafrat va shaxsiy hayotiy iztiroblar orqali ham ifodalanmoqda. Erkin A‘zamning “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasida shunday murakkab ruhiy holatlar tasviriga guvoh bo‘lamiz. Asar qahramonining ustozlarga nisbatan munosabati, ayniqsa talabalar o‘rtasida “Savlatxonov” deb nom chiqargan Ziyoxon Ahmadxonov bilan bo‘lgan ayovsiz munosabati shular jumlasidandir.

“Otoyining tug‘ilgan yili” qissasidagi qahramon Asqar jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni, ayniqsa ustozlar timsolidagi qog‘ozbozlik va laganbardorlikni tanqid qiladi. Uning Ziyoxonov domlaga “Darslikda bor gaplarni ko‘chirishga odatlanmaganman” degani unga xos ochiqcha fikrlash va an‘anaviy natijasiz qolipdagi darslardan chetlab o‘tishga harakat belgisi edi. Bu esa, o‘z navbatida, bir xil tizim va qolipda fikrlaydigan ustozlar tomonidan yoqlanmaydi. Aynan shu kabi tasvirlar va ustoz obrazlari orqali Erkin A‘zam “Ustoz shaxsi qanday talablarga javob bermog‘i kerak?”, “Haqiqiy ustoz qanday bo‘lmog‘i kerak?” degan savollarga javob bermog‘chi bo‘ladi go‘yo.

Imtihon davomida “*Mashrabning oti nega Mashrab?*”, “*Otoy nechanchi yilda tug‘ilgan?*”, “*Durbekning qanday romanlari bor?*”, “*Sakkokiy nechta drama yozgan?*”, “*Lutfiy nega yuz yil emas, to‘qson to‘qqiz yil umr ko‘rgan?*” qabilidagi asossiz savollar berib, unga javob bera olmaganlarni fandan yiqitadigan ustozning ilmiy salohiyati qay darajada bo‘lishi mumkin?! Bu kabi saviyasi va bemaza savollar ortida o‘z ilmsizligi niqoblanmaganmikan?! Erkin A‘zamning bu yaratiq obrazi kitobxonni ana shunday savollar girdobiga ko‘mib tashlaydi.

Adabiyotshunoslarning ta‘kidlashicha, yaratilgan voqea va obraz hayotiy haqiqatga mos kelishi kerak [5; 10-b.]. Xususan, “Otoyining tug‘ilgan yili” asaridagi ustoz obrazlari va ularda uchraydigan xususiyatlar ham barchasi hayotiy haqiqatlar tasviri bo‘lib xizmat qiladi. Ziyoxonov singari ma‘ruzalarda faqat konspekt o‘qib berib, talabalarni uni yozishga majbur etadigan, modomiki, bundan bosh tortsa, unga ters kelib, fanidan yiqitadigan ustozlar universitet ta‘lim tizimida uchragan, albatta. Erkin A‘zam esa mazkur toifadagi ustozlarni o‘tkir kulgu ostiga olib, bunday ustozlik faoliyati chetdan qay darajada xunuk ko‘rinishini Ziyoxonov va Maxsumov singari domlalar misolida ko‘rsatib beradi. “Badiiy g‘oya san‘atkorning borliqqa munosabati, davr ijtimoiy hodisalarini, tabiat sirlarini farqlash, anglash va baholay olish iqtidori, go‘zallik, oliyanoblik hamda baxt haqidagi ideallari bilan bog‘liq ravishda tug‘iladi. Binobarin, badiiy g‘oya va uning taqqosiga ko‘ra yaratiladigan obraz muayyan dunyoqarash doirasidagi aql mahsuli hamdir” [6; 16-b.]. Qissada qahramonning ichki monologlari orqali ustoz obrazlariga baho beriladi. Ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ruhiyatini anglay oladigan shaxs bo‘lishi kerakligi muallif qarashi sifatida ilgari suriladi.

Qissada qahramon Asqar aspirantlik, fan nomzodligi va ilmiy ishga bo‘lgan yuzaki munosabatni keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, u Madhiddin va Ziyoxon Ahmadxonov obrazlarida jamiyatda “ideal” deb qabul qilinadigan, ammo haqiqatda yuzaki, ko‘r-ko‘rona tizimga

bo'ysunadigan, tanqidga bardosh berolmaydigan insonni ko'radi. Asqar Madhiddinni bugun talaba, ertaga aspirant, keyin fan nomzodi, bir kuni domla degan stereotip tarzida tasvirlaydi: *"U hozir yuvoshgina talaba, ertaga – ta'zimkor aspirant, indini – silliqqina fan kandidati, bir kun qarabsizki – salobatli fan doktori, professor! Salobatli Salohiddinov..."* [4; 9-b.]. Bu esa, muallifning o'zbek ilmiy muhitidagi ko'r-ko'ronalik, yuzakilik va mansabparastlikka bo'lgan munosabatini ochib beradi.

Ilmiy darajani olish – asarda shunchaki "qog'oz to'ldirish", "fan nomzodi bo'lish uchun 150 bet, fan doktori bo'lish uchun yana 200 bet yozish" kabi fikrlar istehzoli tarzda tilga olinadi: *"... u avval albatta kichik xodim bo'ladi, keyin – albatta katta ilmiy xodim! Avval amal-taqal qilib yuz-yuz ellik qog'ozni qoralaydi-da, fan kandidati unvoniga erishadi, keyin o'shanga yana ikki yuz bet (insofga qarab!) qo'shsa kifoya – fan doktori!"* [4; 9-b.]. Bu orqali yozuvchi ilmiylikka emas, ko'r-ko'ronalik va mansabparastlikka asoslangan tizimni fosh qiladi. Asqar ilm-fan sohasini "olti-yetti yilga cho'zib yurmay, ikki yilda bitirib tashlayman" deya oddiylashtiradi, bu esa muallifning zamonaviy ilm olamidagi sun'iylikni fosh etuvchi pozitsiyasini bildiradi. Shuningdek, qahramon o'zining ilmiy yo'ldan ketmasligini ongli tanlov sifatida tushuntiradi: u rostgo'y, erkin va mustaqil fikrli inson sifatida ilmda faqat bosh egib, qisinib yurish ehtiyojini rad etadi. "Umrni goh bemasar, goh basamar o'tkazayotgan aksar fidoyilar, askari unvonparastlar-u chalamullalar davrasi"ni ko'p kuzatgan va tahlil qilgan Asqarning fikricha, bunday ilm insonga, jamiyatga emas, yolg'on hayotga xizmat qiladi. Shu bois, Asqar bu taxlit ilmdan emas, haqiqat orqali yuksalishni ustun qo'yadi. Adolatparvar va rostgo'y, o'z vijdoni oldida pok inson bo'lishni afzal biladi. Bu esa qahramonning mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishini ko'rsatadi va asarning asosiy g'oyaviy qatlamini kuchaytiradi. Bir so'z bilan aytganda, Erkin A'zam Asqar Shodibekov obrazi orqali "o'z davri bilan murosasiz odam obrazi" ning ajoyib namunasini yaratdi. Uning ko'r-ko'rona ilm va ustozlik bilan shug'ullanuvchilarga nisbatan *"Atrofimdagi, chidam bilan harflarga termilgan ko'yi g'afatda umr o'tkazayotgan kimsalarni cho'chitib, seskantirib, "To'xtang" deya baqirib yuborgim keladi"* [4; 14-b.] qabilidagi isyonli hayqiriqlari ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Ijodkor Marat, Bo'ston, Madhiddin kabi ismlari kodlashtirilgan qahramonlar orqali ham o'sha davr ta'lim tizimidagi ayrim nuqson va kamchiliklarni ironiya usuli orqali fosh qilib beradi. Misol uchun, qahramonning Marat ismli kursdoshi mansabdor otasi soyasida bezbetlarcha gerdayib yuradigan, "hech qachon imtihonga kirmasa-da, hamisha a'lochilar ro'yxatida yuradigan chalamulla" edi. Aynan uning imtihonga kirmay turib, a'lochiga aylanib qolishi tasviri jamiyatda uchraydigan laganbardorlik, mansab ortiga berkinish kabi illatlar ustidan kulingan.

Normat Yo'ldoshev o'zining "Xarakter musavviri" maqolasida "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi haqida fikr bildirar ekan shunday deydi: "Yozuvchi Asqar Shodibekov tilidan gapirib, asardagi har bir personajning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini mahorat bilan qalamga oladi" [3; 52-b.]. Haqiqatan ham, Erkin A'zam qissadagi har bir epizodik obrazlarga ham aniq portret va xarakter xususiyati jo etadi. Xuddi shunday epizodik obrazlardan yana biri bu fransuz tili o'qituvchisi Dilora Jo'rayevnadir. U asarda "sira yolchitib dars o'tmaydigan", "bir-ikki kishidan o'tilgan mavzuni naridan-beri so'raydigan", yangi mavzuni "tez-tez tushuntirib, sumkachasini bilagiga ilib yov quvganday jo'nab qoladigan", ishiga hafsalasiz, layoqatsizlarcha yondashilgan, ustozligini o'zi-da tan olgisi kelmaydigan ayrim ustozlar obrazining badiiy umumlashma obrazi sifatida chizib beriladi. Barchaning yuziga ayamay ko'zgu tutadigan qahramonimiz Asqar Dilora

Jo'rayevnaga ham achchiq haqiqatni aytishdan ta'ib tortmaydi: *"siz boshqa biror sohaning boshini tutishingiz kerakka o'xshaydi"* [4; 40-b.]. Ushbu alamli haqiqatdan yig'laganiga qaramay, Dilora Jo'rayevna Asqar kabi dangal talabalarga qasdlashmaydigan, ularning fikrini tinglaydigan, hurmat qiladigan, eng asosiysi, haqiqatga tik boqa oladigan kam sonli ustozlardan edi. Asqarga qarshi bormay, imtihonda osonlik bilan "zatchyot" qo'yib berishi va uning fikrini tasdiqlashi ham buning yorqin isbotidir. Keyinchalik uning o'zi ham bu haqiqatni tan oladi: *"To'g'ri payqabsiz, rostdan ham men boshqa sohaning odami bo'lsam kerak. Buni o'zim ham bilaman"* [4; 41-b.]. Yozuvchi Dilora Jo'rayevna obrazini yaratish orqali jamiyatdagi o'z o'rnini topa olmay aslan noto'g'ri kasbda faoliyat yuritayotgan, buni qalban og'ir xo'rsinish his qiladigan kishilarga ishora qilmoqda.

"Otoyining tug'ilgan yili" qissasida muallif ustozlarga faqat tanqidiy ruhda yondashgan, ustozlarga namuna bo'la oladigan qahramon yaratmagan desangiz, adashasiz. Adib talabalarga esh bo'ladigan, ularni haqiqiy ilm olamiga olib kira olgan ustoz obrazi sifatida falsafa fani o'qituvchisi – Fozilov obrazini gavdalandiradi. Fozilov o'z faniga talabalarni shu qadar qiziqтира olardiki, uning darsida hatto – davomati chatoqligi uchun har oy bir marta o'qishdan "haydaladigan" mashhur Bozor Bobojonov ham ko'rinib qolardi. Fozilovning talabalarini o'z hisobidan Kibernetika institutiga olib borib, ekskursiya uyushtirgani, falsafa fanining amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatishga bo'lgan rag'bat, albatta, tahsinga sazovor. Bunday ustozona fidokorlik o'quvchilar tomonidan ham e'zozlanadi va mazkur o'qituvchi fanini qunt bilan o'qilishiga olib keladi. Erkin A'zam fanning tushunilishi uni o'rgatadigan ustozga bog'liqligini Fozilov obrazi orqali yorqin ifodalaydi. Talabalar mehrini qozongan Fozilov vafotidan so'ng boshqa domla dars bera boshlagani va talabalar falsafadan hech nima tushunmay qo'ygani tasviri bunga dalildir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi Erkin A'zamning o'zbek qissachiligida o'ziga xos yo'lga, uslubga ega ekanligini ko'rsatib bergan asari sanaladi. "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi zamonaviy o'zbek nasrining tanqidiy ruhda yozilgan bo'lib, yozuvchining badiiy mahorati bilan yo'g'rilgan durdona asarlaridan biridir. Qissada ustoz obrazlari oddiy ta'lim beruvchilar shaxslar emas, balki jamiyatdagi xulq-atvor tarbiyalovchilari sifatida baholanadi. Asarda ta'lim tizimidagi kamchiliklar, ustozlar tabiatida uchrovchi ayrim illatlar va ilm-fanga ko'r-ko'ronalik bilan yondashish singari holatlar o'tkir kulgu ostiga olinadi. Ushbu tadqiqot davomida qissaning g'oyaviy-estetik yo'nalishi, obrazlar tizimi, muallifning jamiyatdagi ayrim illatlarga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Asarda talaba-yoshlar, ustozshogird munosabatlari, ta'lim tizimidagi muammolar, ilmiy faoliyatga bo'lgan munosabat kabi masalalar badiiy kinoya, sarkazm va satira vositasida yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi Erkin A'zam an'anaviy qissachilik yo'lidan borar ekan, unda zamonaviy adabiyotga xos uslubiy va poetik vositalarni ham muvaffaqiyatli qo'llagan. Asarda ifodalangan jamiyatga xos illatlar hayotiy haqiqatlarga asoslangan bo'lib, ular bugungi kundagi ta'lim tizimiga oid dolzarb muammolarni ham ochib beradi.

Erkin A'zam asarlarida inson ma'naviyati masalasini hayot hodisalariga real yondashish orqali ochib berish tamoyili ko'zga tashlanadi. Adib yaratgan qahramon hayotda o'z o'rnini topish, maqsadga erishish uchun kurashish va intilish kerak degan maslakni shior etadi [7; 66-b.]. Asqar Shodibekov ana shunday qahramonlardan biri edi, deyish mumkin. Qahramon Asqar Shodibekov obrazi orqali yozuvchi rostgo'y, tanqidiy fikrlovchi, ichki ozodlikni qadrllovchi zamonaviy yosh avlod vakilining badiiy timsolini yaratgan. U orqali muallif ilm-fan, ustozlik,

jamiyat va adolat haqida chuqur ijtimoiy-falsafiy muammolarni ko‘taradi. Shu bilan birga, Ziyoxonov, Maxsumov obrazlari orqali yozuvchi kasbiga noloyiq kishilar, Fozilov va Dilora Jo‘rayevna obrazlari orqali esa munosib ustoz va o‘z o‘rnini anglagan insonning badiiy timsolini ham yaratishga erishgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: o‘zbek qissalari uslubi (Matn): uslubiy qo‘llanma. – T.: Nodirabegim nashriyoti, 2019. – 84 b.
2. Shofiyev O. Erkin A‘zam nasri badiiyati (kinoya va obraz): Filol.fan.b.fal.dok. – Termiz, 2019. – 152 b.
3. Erkin A‘zam badiiy olami: / Ilmiy maqolalar va suhbatlar to‘plami. – T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2014. – 304 b.
4. A‘zam E. Kechikayotgan odam: Qissalar. – T.: “Sharq”, 2002. – 448 b.
5. Shofiyev O., Abduraimova Sh. Badiiylik jozibasini. – Termiz: “Surxon-Nashr”, 2016. – 36 b.
6. Rasulov T. Badiiy asar qanotlari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977.
7. Rasulovalar U. Hozirgi adabiy jarayon. – T.: “Akademnashr”, 2023. – 192 b.

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR IMPROVING THE INQUIRY

Kadirova Mokhigul Khamitovna

Professor, DSc, Department
of Criminal procedural law of TSUL

Abstract. Based on the experience of foreign countries, this scientific article provides a comparative legal analysis of the stage of investigation of criminal proceedings, including the institution of inquiry, as well as its theoretical and practical problems, the proposals and recommendations on digitalization and improvement of inquiry are scientifically substantiated.

Keywords: investigation, inquiry, terms, digitalization, differentiation.

SURISHTIRUVNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Kadirova Moxigul Xamitovna

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi
kafedrası professori v.b., yu.f.d.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada jinoyat protsessining tergov bosqichi, jumladan surishtiruv instituti hamda uning nazariy va amaliy muammolari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil etilib, surishtiruvni raqamlashtirish va takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan.

Kalit soʻzlar: tergov, surishtiruv, muddatlar, raqamlashtirish, differentsiyalash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N20>

Mamlakatimizda jinoyat protsessining surishtiruv instituti 2017-yil 6-sentyabrda isloh qilinib, JPKga surishtiruvga bagʻishlangan alohida 46¹-bob kiritildi [14, 943-modda]. JPKning 320³-moddasiga binoan, jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladi. Dastlabki tergov JPKning 345-moddasi asosida, surishtiruv esa JPKning 381²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ishlari boʻyicha oʻtkaziladi. Surishtiruvni:

- 1) Ichki ishlar organlarining;
- 2) Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi boʻlinmalarining;
- 3) Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi boʻlinmalarining;
- 4) Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasining va uning joylardagi boʻlinmalarining;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo‘linmalarining surishtiruvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Prokuror va tergovchilar ham surishtiruvni amalga oshirishi mumkin.

Surishtiruvchi jinoyat ishini qo‘zg‘atib, uni o‘z ish yurituviga oladi va bu haqda ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorga yozib qo‘yadi. Basharti surishtiruvchiga oldin qo‘zg‘atilgan ish berilgan bo‘lsa, u ishni o‘z yurituviga olganligi to‘g‘risida qaror chiqaradi, shundan so‘ng surishtiruv boshlanadi. Surishtiruv jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan kundan boshlab bir oydan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim. Surishtiruv muddati prokuror tomonidan yigirma kungacha uzaytirilishi mumkin. Ish qo‘shimcha surishtiruv o‘tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek to‘xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda qo‘shimcha surishtiruv muddati mazkur ishni surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e‘tiboran o‘n kun doirasida belgilanadi. Ish ayblov dalolatnomasi bilan, ishni tibbiy yo‘sidagi majburlov choralari qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni surishtiruv tamomlangan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan surishtiruv muddatiga quyidagilar kirmaydi:

- 1) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt;
- 2) surishtiruv to‘xtatib turilgan vaqt;
- 3) qo‘shimcha surishtiruv o‘tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o‘tgan vaqt.

Surishtiruv institutining rivojlanish tarixiga nazar solsak, 2017-yil 6-sentyabrga qadar jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv o‘n sutkadan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim bo‘lgan. Surishtiruv muddati uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmadi [4, 12-b.]. Surishtiruv kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, surishtiruvchilarga gumon qilinuvchiga ayb e‘lon qilish, tergov qilish, ayblov xulosasini tuzish kabi vakolatlar berilmagan edi. Ilgari surishtiruv o‘n sutkadan oldin tamomlanishi [10, 218-219-b.] va dastlabki tergov boshlanishi mumkin bo‘lgan, shunga ko‘ra, surishtiruv jinoyat protsessining mustaqil bosqichi hisoblanmagan.

Amaldagi JPKga binoan, surishtiruv asosan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va ayrim uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar yuzasidan olib boriladi. Bu borada, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar yuzasidan ham surishtiruv yuritish va uni yuritish muddati bir oy ekanligini hamda uning natijalari ishni sudga yuborish uchun yetarli bo‘lishini inobatga olib, bu toifa ishlarining barchasi bo‘yicha tergovni surishtiruvga o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu turdagi jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borishga ehtiyoj mavjud bo‘lmasa-da, oxirgi uch yil davomida qo‘zg‘atilgan bir mingdan ziyod jinoyat ishlari bo‘yicha kam ahamiyatli qilmishlar dastlabki tergov predmeti bo‘lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kuch va mablag‘lari ularni aniqlash va tergov qilishga behuda sarflangan. Shunga ko‘ra, ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan jinoyat protsessini soddalashtirish afzalligi ilgari suriladi. Masalan, S.Belovning fikricha, ayrim jinoyatlarni tergov qilish tezkor tartibda, ya‘ni 2-3 haftada olib borilishini nazarda tutuvchi qonun loyihalarini ishlab chiqish zarur [2, 2-b.].

Surishtiruvning imkoniyatlariga bildirilgan bunday qarash, bizningcha, asosli emas. Odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan talablar ildamlilik bilan rivojlanib

borayotgan bir paytda, shak-shubhasiz qonunchilik yo'li bilan surishtiruvchilarga barcha uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tergovini yuritish kabi vakolatlarni qamrab olgan huquqiy maqom berish imkoniyati mavjud. Jumladan, Sh.Fayziev, amaldagi JPKda nazarda tutilgan surishtiruvning shakli dunyoda o'xshashi yo'q tergov qilishning bir turi, deb hisoblaydi va surishtiruvning to'liq shaklini joriy etishni ilmiy asoslaydi [13, 126-127-b.].

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, surishtiruvning ilgari yana:

- 1) dastlabki tergov yuritish shart bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv (bir oy);
- 2) dastlabki tergov yuritish shart bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv (10 sutka) shakllari ham mavjud bo'lib [10, 218-219-b.], amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan surishtiruv esa yuqorida keltirilgan surishtiruvning birinchi shaklidir.

Bunday surishtiruv shaklining ahamiyati xususida zamonaviy tadqiqotchilarning e'tiborga molik fikrlari ham bor. Masalan, Ye.V. Larkina, tergov yuritish shart bo'lgan jinoyat ishining surishtiruvchi tomonidan qo'zg'atilishi va uning yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari olib borilishi – mustaqil institut, ammo u surishtiruv emas [7, 46-b.], deb hisoblaydi.

Surishtiruvning mazkur shaklini, V.Statkusning fikricha, barcha toifadagi jinoyat ishlariga tatbiq etish, ya'ni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etilishi mumkin bo'lgan shaxsning aniqlanganiga qadar surishtiruv yuritish lozim [12, 45-b.]. G.S.Kazinyan bunga qarshi fikrni bildirib [5, 162-b.], surishtiruvning bunday shaklidan voz kechish zarur, aks holda surishtiruvchilar barcha harakatlarini dalillarni aniqlash va to'plashga emas, balki faqat aybdor shaxsni aniqlashga qaratadilar, deydi.

V.D.Arsenev fikricha, ijtimoiy xavfi kam, ya'ni qamoq jazosi nazarda tutilmagan jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov yurituvini tugatish zarur [1, 64-b.].

Biz, jinoyatlarni tez va to'la ochishning maqsadi tezlikda faqat jinoyatni sodir etgan shaxsni aniqlash emas, balki tezlikda isbotlashning barcha holatlarini aniqlash uchun zaruriy va yetarli bo'lgan dalillarni to'plashdan ham iborat, deb hisoblaymiz. Shu bois, surishtiruvda e'tiborni faqat ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etilishi mumkin bo'lgan shaxsni aniqlashga emas, haqiqatni aniqlashga qaratish zarurdir. Bu borada, surishtiruvchining vazifasi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni, tergovchining esa og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni tergov qilishdir [9, 48-b.], degan huquqshunoslarning mulohazalari o'rinli. Umuman, surishtiruvning ahamiyatini hamda uni takomillashtirish istiqbollari belgilashda xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar solish foydadan xoli emas. Xorijiy tajribani o'rganish amaldagi qonunchilik va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda soddalashtirishga, kamchiliklarni bartaraf qilishga keng imkoniyat yaratadi. Chunonchi, **Germaniyada** surishtiruv tergovning asosiy shakli sifatida hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, Rossiya, Belorussiya, Qozog'istonda surishtiruv dastlabki tergovning muqobili sanalsa, Fransiya, Avstriya, Gretsiya, Ispaniya, Armaniston, Ukraina, Ozarbayjon, Tojikistonda u dastlabki tergovdan oldingi bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, **Portugaliya, Niderlandiya, Italiya** davlatlari dastlabki tergovdan butunlay voz kechib, ko'proq surishtiruv yuritilishiga imkon yaratilishining tarafdori bo'lsa, Estoniya, Gruziya va Moldova esa, aksincha, surishtiruvdan voz kechgan davlatlar hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, surishtiruvdan voz kechib bo'lmaydi, negaki unda jinoyat izlarini aniqlash va mustahkamlash borasida kechiktirib bo'lmaydigan tezkor-tergov harakatlarini

yuritishning keng imkoniyatlari mavjud. Modomiki shunday ekan, surishtiruvdan voz kechmagan holda uni takomillashtirish va differenziatsiyalash maqsadga muvofiq.

Yuqorida zikr etilgan davlatlar ichida **Fransiya** jinoyat protsessual kodeksining 74-75, 78-moddalarida surishtiruvning muayyan differenziatsiyasiga erishilgan. Unda surishtiruvning to'rt shakli mavjud:

- 1) yaqqol namoyon bo'lgan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv;
- 2) dastlabki surishtiruv;
- 3) shubhali o'lim yuzasidan surishtiruv;
- 4) fuqaroning shaxsini tekshirishdan iborat surishtiruv.

Bundan tashqari, MDHga a'zo davlatlar ichida Rossiya Federatsiyasining JPKda ham differenziatsiyalashning o'ziga xos belgilarini kuzatishimiz mumkin, uning 150-151-moddalari: "Dastlabki tergov shakllari" va "Tergovga tegishlilik", deb nomlanib, unda:

- 1) dastlabki tergov yuritish shart bo'lgan, ya'ni surishtiruv va tergov yuritiladigan ishlar;
- 2) dastlabki tergov yuritish shart bo'lmagan, ya'ni faqat surishtiruv yuritiladigan ishlarga bo'linishi nazarda tutilgan.

Birinchi shaklida 150-moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan jinoyatlardan tashqari barcha jinoyatlar yuzasidan surishtiruv yuritilib, ishning tergovchiga oshirilishi belgilangan. Ikkinchi shaklida esa, dastlabki tergov faqat surishtiruv shaklida olib boriladigan sog'liqqa yengil yoki o'rtacha og'ir bo'lmagan zarar yetkazish, shaxsning sog'lig'iga yoki hayotiga tajovuz qilish bilan qo'rqitish, xavf ostida qoldirish, voyaga yetmaganni jinoyat sodir etishga jalb qilish kabi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning qat'iy ro'yxati keltirilgan bo'lib, surishtiruvchi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilishi va isbotlanadigan barcha holatlar o'ttiz sutkagacha aniqlanishi belgilangan. Ish ayblov xulosasini tuzish yoki ishni tugatish to'g'risida qaror chiqarish bilan tamomlanadi, to'plangan materiallar ishni sud muhokama qilish uchun asos bo'ladi.

Amaldagi JPKmizning 2017-yil 6-sentyabrgacha bo'lgan tahririda 342-moddasida o'rnatilgan, surishtiruvchi tomonidan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar aniqlanganda, u surishtiruv yuritish muddati o'tishini kutmasdan jinoyat ishining darhol tergovchiga yoki prokurorga o'tkazishi lozimligi xususidagi qoida surishtiruvchiga uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish vakolatining qonuniy mustahkamlanganligidan dalolat beradi. Buni yanada isloh etish, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan faqat surishtiruv yuritishni kafolatlash va uning tezkor-qidiruv, tergov imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Bu ilgari V.M.Saviskiy, Z.V.Kalniskiy, N.A.Vlasova va S.L.Maslenkovlar tomonidan ham tadqiq etilgan bo'lib, ulardan B.Ya.Gavrilovning fikricha, ro'yxatga olingan jinoyatlarning uchdan ikki qismining tergov surishtiruv shaklida yuritilishi lozim [8, 18-20-b.].

Boz ustiga, surishtiruvni differenziatsiyalash maqsadida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarning ba'zilar bo'yicha ayblov dalolatnomasini tuzmay, ishni sudga yuborish tartibini ham yo'lga qo'yish mumkin. Bu ilgari amaliyotda bo'lgan **Bayonot** tartibida ish yuritish bo'lib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan surishtiruvning soddalashtirilgan shakllaridan biridir. Unda surishtiruvning barcha qoidalaridan to'la foydalaniladi, shuning uchun unga surishtiruvning qisqartirilmagan, alohida mustaqil instituti sifatida qarash joiz.

Bayonot tartibida ish yuritish dastlab 1966-yil 31-oktyabrda qonun va huquqni qo'llash amaliyotiga kiritilgan bo'lib, asosan bezorilik jinoyatlari yuzasidan qo'llanilgan. 1977-yil

5-martdan boshlab, mayda o'g'rilik jinoyatlariga nisbatan ham qo'llanilib kelingan. 1985-yilda uning ro'yxati kam ahamiyatli jinoyatlar bilan kengaytirilgan. Ushbu institut jinoyat protsessini differentsiyalash g'oyalarining amaliy ifodasi bo'lib, mazkur tartib surishtiruv faoliyatining uzluksiz va asosiy yo'nalishi sifatida jinoyat sodir etish vaqtini sudning odil hukmi chiqarish vaqtiga maksimal darajada yaqinlashtirib, tergov organlariga og'ir va o'ta og'ir xavfli jinoyatlarni o'z vaqtida, to'la ochishlari uchun qo'shimcha imkoniyat yaratgan [6, 52-56-b.].

Mazkur tartibni qo'llash uchun quyidagi asoslar:

- 1) moddiy, ya'ni insonning sha'ni, qadr-qimmati va daxlsizlik huquqining buzilishi bilan bog'liq ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, jumladan zo'rlik, haqorat, tuhmat, bezorilik kabi murakkab bo'lmagan jinoyatning sodir etilishi;
- 2) uni sodir etgan shaxs aniq bo'lib, u voyaga yetgan, ruhiy va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lmagan;
- 3) ehtiyot chorasini qo'llash shart bo'lmagan;
- 4) oshkora, barchaning ko'z o'ngida sodir etilganligi talab etilgan [11, 255-261-b.].

Bayonot tartibida ish yuritishda surishtiruvchining shaxsan o'zi jinoyat belgilarini aniqlaganda yoki jinoyat shohidlarining bergan arizalari tegishli tartibda rasmiylashtirilganidan so'ng, surishtiruvchi tomonidan Bayonot tuzilib, o'n kunlik muddat davomida sodir etilgan jinoyatga oid holatlar aniqlangan. Jinoyatning u yoki bu holatlarini aks ettirgan tushuntirish, ma'lumotnoma va tavsifnomalar yig'ilib, jinoyat va uni sodir etgan aybdor shaxsning aybini tasdiqlovchi faktik holatlar qayd etilgan. Bayonotga barcha to'plangan materiallar va sudga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxati ilova qilinib, surishtiruv prokurorning Bayonotni tasdiqlashi bilan tamomlanib, ish materiallari sudga yuborilgan.

Hozirda **Qozog'iston** Respublikasi jinoyat protsessida ushbu institutdan samarali foydalanilib kelinmoqda, xususan uning JPK 23¹-bobi "Soddalashtirilgan sudgacha bosqich" deb nomlanib, bayonot tartibida elektron raqamli ish yuritish qoidalariga bag'ishlangan.

Germaniya JPKning 417-moddasida dalillarning ochiq-oydin va aniqligi sababli jinoyat sodir etgan shaxs jadallashtirilgan (intensiv) sud yurituvida 24 soat ichida hukm qilinishi mumkinligi belgilangan [3, 460-463-b.].

Yuqoridagi qiyosiy tahlillar asosida, surishtiruvni raqamlashtirish hamda uni kelgusida quyidagicha differentsiyalash maqsadga muvofiqdir:

- 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha *bir oy*;
- 2) oshkora, barchaning ko'z o'ngida sodir etiladigan insonning sha'ni, qadr-qimmati va daxlsizlik huquqining buzilishi bilan bog'liq ayrim ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv Bayonot tartibida *o'n sutka* ichida tamomlanishi.

Hozirda surishtiruvning mazkur tartibi MDH, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlarida saqlanib qolgan. Bu shaklda surishtiruv o'tkazish RFda 93 ta, Qozog'istonda 120 ta, Belarusiyada 36 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yuritiladi. Ushbu tartibning kelgusida mamlakatimizda joriy etilishi, sud ish yurituvining zamonaviy talablariga mos tezkor elektron raqamli shakl sifatida jinoyat protsessida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan surishtiruvning yangi tartibini shakllantirib, sudgacha bosqichning isloh etilishi va surishtiruvning takomillashtirishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Арсеньев В.Д. Упрощение не равнозначно упрощенчеству // Соц. законность. 1975. №3. –С. 64.

2. Белов С. Упрощение процедуры // Российская газета. -2008. -12 январь. –С. 2.
3. Вернер Бойльке. Германия Федератив Республикасининг Жиноят-процессуал ҳуқуқи. Дарслик. 12-нашр. –Т.: ТДЮУ. 2017. –Б. 460-463.
4. Қодиров Р.Х. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш - суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг бош мақсади // Ҳуқуқ ва бурч, 2009. -№ 3. –Б. 12.
5. Казинян Г.С. Актуальные проблемы уголовно-процессуального законодательства в третьей республике Армения. – Ереван, 1999. –С. 162.
6. Курбанов Д.Т. Рассмотрение дел с протокольной формой досудебной подготовки. – Т.: “Адолат”, 1993. –Б. 52-56.
7. Ларкина Е.В. Предварительное следствие: обязательно или необязательно // Закон и право, 2008. -№7. –С. 46.
8. Масленков С.Л. Дознание в современном уголовном процессе России. Проблемы совершенствования. Автореф. ... дисс. канд. юрид. наук. – Новгород, 2003. –С. 18-20.
9. Петрухин И.Л. Уголовно-процессуальное право. 2-е изд. – М.: “Проспект”, 2009. –С. 5.; Пономарев А. Досудебное производство: возможности совершенствования // Законность, 2009. -№6. –С. 48.
10. Рыжаков А.П. Уголовный процесс России: Курс лекции. – СПб.: Питер, 2009. –С. 218-219.
11. Скрипченкова О.В. Эволюция дознания в уголовном процессе России: от советского этапа к современному // Судебная власть и уголовный процесс. 2016. №2. –С. 255-261.
12. Статкус В. Когда мы избавимся от процентомании // Милиция, 2000. №1. –С. 45.
13. Файзиев Ш. Суриштирувнинг умумий шартларини жорий қилишнинг назарий ва амалий аҳамияти // ТДЮИ Ахборотномаси, 2010. -№3. –Б. 126-127.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-y., 36-son, 943-modda.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PRE-TRIAL PROCEEDINGS IN THE CRIMINAL PROCESS OF UZBEKISTAN

Khidoyatov Bakhtiyar Batirovich

Professor, Doctor of Philosophy in Legal Sciences
Department of Criminal Procedural Law
Tashkent State University of Law
E-mail: b.b.xidoyatov@gmail.com

Abstract. This article provides a step-by-step analysis of the history of the development of pre-trial proceedings in the criminal process, mainly studying the genesis of pre-investigation, inquiry and preliminary investigation. The effectiveness of the forms of pre-trial criminal proceedings in various periods is analyzed. The necessity of creating new legal mechanisms for regulating pre-investigation checks, inquiries and preliminary investigations is substantiated.

Keywords: pre-trial proceedings, genesis, a retrospective analysis, inquiry, investigation, control, supervision, criminal procedure, prosecutor, procedural means, limits of criminal investigation.

O'ZBEKISTON JINOYAT PROTSESSIDA SUDGA QADAR ISH YURITISHNING RIVOJLANISH TARIXI

Xidoyatov Baxtiyar Batirovich

Toshkent Davlat Yuridik Universitetining
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası
professori, yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida sudga qadar ish yuritishning rivojlanishi tarixi tadrijiy tahlil qilingan bo'lib, asosan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovning genezisi o'rganilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritish shakllarining turli davrlarda samaraligi tahlil qilingan. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni tartibga solishning yangi huquqiy mexanizmlarini yaratish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ishni sudga qadar yuritish, genezis, retrospektiv tahlil, surishtiruv, tergov, nazorat, jinoyat protsessi, prokuror, protsessual vositalar, jinoyat tergovining doirasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N22>

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar hozirgi O'zbekiston hududida feodal davlatlar — Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi mavjud edi. O'sha davrda bu davlatlarda surishtiruv va dastlabki tergov organlari bo'lmagan, shu sababli jinoyatlarni dastlabki tergov qilish amalga oshirilmagan. Adolat diniy ta'limot asosida amalga oshirilgan. Qozilarning sud ish yurituvida dastlabki tergov degan tushuncha umuman bo'lmagan.

Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ham u yerda jinoyatlarni dastlabki tergov qilish ishlari olib borilmadi.

Keyinchalik Turkistonda 1864-yilgi Rossiya sud ustavlari tamoyillari joriy qilinib, prokuror nazorati va tergov organlari tizimi tashkil etila boshlandi. Tergov surishtiruv va dastlabki tergov shaklida amalga oshirila boshlandi. Biroq, surishtiruv ko'pincha dastlabki tergov o'rnini egallay boshladi, chunki chor hukumati o'z manfaatlarini himoya qilish, ya'ni taraqqiyparvar unsurlar faoliyatiga qarshi kurashish maqsadida bu unsurlarga qarshi dastlabki tergovdan emas, balki surishtiruvdan — tezlashtirilgan tergov va ularni sudga topshirishdan foydalanishga harakat qildi. Buning uchun u Ichki ishlar vazirligining Turkiston qo'riqlash bo'limi va shaharlarning jandarm-politsiya boshqarmasi amaldorlaridan foydalangan [1].

Oktyabr revolyutsiyasidan keyin revolyutsion tartibni saqlash va kontrrevolyutsiyaga qarshi kurash maqsadida tergov-yuridik bo'limi tuzilib, u dastlabki tergovning birinchi organi bo'lib qoldi.

Sudgacha bo'lgan ish yuritish dastlab 1918-yilda qabul qilingan NKVD va NKYUning sovet ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnomasida tartibga solingan. Ko'rsatilgan yo'riqnomaning 27-bandi jinoyiy jinoyatlar bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borish vazifasini sovet militsiyasi zimmasiga yukladi. Uning surishtiruv olib borish bo'yicha faoliyati doirasi yo'riqnomaning 28-bandida ko'rsatilgan. Sudyalar va tergov komissiyalarining rahbarligi va ko'rsatmalari bo'yicha jinoyat ishlari bo'yicha qidiruv va surishtiruv ishlarini olib borish militsiya ixtiyoriga berildi. 27-bandning xulosa qismida militsiya mansabdor shaxslari surishtiruv ishlarini olib borishda ishchi-dehqon hukumatining tegishli qarorlariga amal qilishlari ta'kidlangan edi.

Shunday qilib, militsiya sovet jinoyat protsessida dastlabki surishtiruv funksiyasi berilgan organ bo'ldi. Garchi militsiya tomonidan o'tkaziladigan tergov harakatlarining soni faqat uchta (tintuv, olib qo'yish va ko'zdan kechirish) bilan cheklangan bo'lsa-da, bu bilan hozirgi zamon surishtiruviga asos bo'lgan tamoyil — surishtiruv organlari tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari o'tkazilishi boshlangan edi [2].

Barcha dastlabki tergov va surishtiruv organlarining faoliyati alohida tergov harakatlarini o'tkazish qoidalarini o'z ichiga olgan nizomlar bilan tartibga solingan. Bundan tashqari, ushlab turish, tintuv o'tkazish va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga daxl qiluvchi boshqa ba'zi harakatlarni amalga oshirish tartibi tegishli organlarning yo'riqnomalari bilan tartibga solingan.

Tergov sifatini oshirish masalalarini hal etish o'sha yillarda bevosita sudlarning tashkil etilishi va faoliyati bilan bog'liq edi. Shunga ko'ra, ishlarning xalq sudyalari tergoviga tegishliligi belgilangan. Chunonchi, 1918-yil 16-noyabrda qabul qilingan xalq sudyalari to'g'risidagi birinchi respublika akti — "Mahalliy xalq sudlarini tashkil etish va ularning faoliyati to'g'risidagi yo'riqnoma"ga muvofiq, mahalliy xalq sudining sudloviga tegishli ishlar bo'yicha tergovni olib borish sudyaga; xalq sudida olti nafar xalq maslahatchisi ishtirokida ko'riladigan murakkab ishlar bo'yicha va okrug sudlarining sudloviga tegishli ishlar bo'yicha — 2-sonli sud to'g'risidagi dekret bo'yicha ta'sis etiladigan uch shaxsdan iborat tergov komissiyalariga yuklatilgan. 1918-yil 30-noyabrdagi Xalq sudi to'g'risidagi Nizomda xalq sudi tomonidan olti nafar xalq maslahatchisi ishtirokida ko'riladigan jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni o'tkazish uyezd va shahar tergov komissiyalari zimmasiga yuklatilgan. Qolgan jinoyat ishlari bo'yicha xalq sudi militsiya tomonidan o'tkazilgan surishtiruv bilan cheklanishi yoki ishni dastlabki tergov o'tkazish uchun tergov komissiyasiga topshirishi mumkin edi. Himoyachi jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan paytdan

boshlab ishtirok etishga haqli edi. Biroq, tergov komissiyasi ham, ishni tergov qilayotgan sudyalari ham, agar haqiqatni aniqlash manfaatlari talab qilsa, himoyachining ishda ishtirok etishiga yo'l qo'ymasliklari mumkin edi [3].

1921-yil 18-yanvarda Turkiston ASSR xalq sudi to'g'risidagi yangi Nizom e'lon qilindi. Ushbu hujjatning ko'pgina moddolari dastlabki tergovni amalga oshirish tartibini tartibga solgan. Tergov komissiyalari yakka xalq tergovchilari bilan almashtirildi. Bu jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rib chiqishni farqlashni anglatardi. Endilikda xalq sudyasi emas, balki uchastka xalq tergovchisi mustaqil ravishda jinoyat ishi qo'zg'atar, zarur tergov harakatlarini o'tkazar, ehtiyot chorasini tanlar va bekor qilardi. Tergov komissiyalaridan yakka tergovchiga o'tish dastlabki tergovni tashkil etishning muhim jihatlaridan biri bo'ldi.

1922-yilda qabul qilingan RSFSRning birinchi Jinoyat-protsessual kodeksi surishtiruv organlari sonini ancha kengaytirdi. Unda surishtiruv vazifalari yanada aniq belgilandi va surishtiruv organlari o'tkazishi mumkin bo'lgan tergov harakatlari doirasi kengaytirildi. Surishtiruv organlari jumlasiga quyidagilar kiritildi: militsiya va jinoyat qidiruv organlari; GPU organlari; soliq, oziq-ovqat, sanitariya, texnika, savdo inspeksiyalari va mehnat inspeksiyasi organlari. Inspeksiyalar faqat qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan ishlar bo'yicha surishtiruv o'tkazishlari mumkin edi.

Turkiston ASSR hududida ham amalda bo'lgan RSFSRning 1922-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksida dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lmagan ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruv farqlangan. Birinchi guruhdagi ishlar bo'yicha surishtiruv materiallari dastlabki tergov dalolatnomalari o'rnini to'liq bosgan va ishni sudda mazmunan ko'rib chiqish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan (1922-yilgi RSFSR JPKning 107-moddasi). Ikkinchi guruhdagi ishlar bo'yicha surishtiruv organlari tomonidan muayyan tergov harakatlari o'tkazilgan bo'lsa, JPKning 111-moddasida ko'rsatilganidek, tergovchi surishtiruv materiallarini to'liq va ishni yetarlicha tergov qilingan deb topib, dastlabki tergovni puxta o'tkazmasdan, faqat ayblov e'lon qilish, ayblanuvchini so'roq qilish va ayblov xulosasini tuzish bilan cheklanish huquqiga ega bo'lgan.

RSFSRning 1922-yildagi JPK bo'yicha surishtiruvga murakkab bo'lmagan jinoyat ishlari bo'yicha o'tkaziladigan eng oddiy tergov sifatida qaralgan (JPKning 107-moddasi). Murakkabroq va muhimroq ishlar bo'yicha esa surishtiruv kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini o'tkazishdan iborat bo'lib, ular bajarilganidan so'ng surishtiruv organlari ishni dastlabki tergovni davom ettirish uchun tergovchiga topshirganlar (JPK 108-moddasi).

Yangi tahrirdagi RSFSR JPK 1923-yil 15-fevralda kuchga kirdi, o'sha yili uning amal qilishi Turkiston ASSR hududiga ham tatbiq etildi.

1922-yilgi JPK va 1923-yilgi JPKda belgilangan surishtiruv va tergov o'rtasidagi chegaralar 1924-yilda, sovet adliya arboblarning 5-Butunrossiya syezdidan so'ng deyarli yo'qola boshladi. Syezd "ular o'rtasidagi farq ularning vakolatlari predmeti bo'lgan tergov obyektlarining o'zlarining murakkabligidadir" degan asosda surishtiruv va tergovni sezilarli darajada yaqinlashtirish zarurligini e'tirof etdi. Shuning uchun ular o'rtasidagi farqlar mohiyat e'tibori bilan funksional chegaralanishga borib taqaladi.

1926-yil 16-iyunda O'zSSR MIQ Prezidiumi birinchi JPKni tasdiqladi va 1926-yil 1-iyuldan uni amalga kiritdi.

Mazkur Kodeksning sakkizinchi bobi surishtiruv organlariga bag'ishlangan bo'lib, u surishtiruv organlarini sanab o'tish bilan boshlangan: militsiya va jinoyat qidiruv organlari,

GPU organlari, soliq, sanitariya, texnika, savdo inspeksiyalari va mehnat inspeksiyasi organlari o'z yurituviga berilgan ishlar bo'yicha; hukumat muassasalari va mansabdor shaxslar o'zlariga bo'ysunuvchi shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha.

1926-yilgi O'zSSR JPKning 97-moddasiga muvofiq, tergovchi ishga kirishgunga qadar dastlabki tergovni amalga oshirish majburiy bo'lgan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv organlari guvohlarni, gumon qilinuvchini so'roq qilish, olib qo'yish, tintuv o'tkazish, ko'zdan kechirish va guvohlantirish, shuningdek, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchini ushlab turish huquqiga ega edi.

Gumon qilinuvchi ushlanganligi to'g'risida surishtiruv organi 24 soat ichida tergovchiga, prokurorga, o'ziga taalluqli ishlar to'g'risida esa sudga xabar berishi shart edi.

Surishtiruv o'tkazish muddati bir oydan oshmasligi belgilangan (JPK 103-moddasi). Bu muddatni uzaytirish hech kim tomonidan ko'zda tutilmagan.

To'qqizinchi bobda dastlabki tergov o'tkazishning umumiy shartlari belgilangan bo'lib, unda dastlabki tergov viloyat sudlari va harbiy tribunallar sudloviga tegishli ishlar bo'yicha o'tkazilishi shartligi, boshqa ishlar bo'yicha esa xalq sudining qarori yoki prokurorning taklifiga ko'ra o'tkazilishi mumkinligi haqida so'z yuritilgan. Dastlabki tergov gumon qilinuvchiga ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oy ichida tugallanishi kerak edi. Bu muddat ichida tergovni tamomlashning iloji bo'lmagan taqdirda tergovchi tergovni tamomlashni kechiktirayotgan sabablar to'g'risida prokurorga ma'lum qilishi shart edi. Tergov muddatini uzaytirish tartibi belgilanmagan. Viloyat sudlari sudloviga tegishli ishlar bo'yicha dastlabki tergov xalq tergovchilari va viloyat sudlari huzuridagi tergovchilar tomonidan tegishli prokuror nazorati ostida olib borilgan. Barcha ishlar bo'yicha tergovchi ayblov e'lon qilishi, ayblanuvchini so'roq qilishi va ayblov xulosasini tuzishi shart edi (108-modda).

O'zSSR JPKni qo'llash amaliyoti, xususan, ishni sudga qadar yuritishning holati shu yillarda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlari va rahbar organlarning direktiv ko'rsatmalariga bog'liq edi. Chunonchi, 1925-yil dekabrda qabul qilingan O'zSSR Adliya xalq komissarligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq unga tergov va prokuratura organlariga umumiy rahbarlik qilish yuklatilgan edi [4]. NKY prokuraturasi bo'limi jinoiy ta'qib qilish huquqiga ega bo'lib, tergov, surishtiruv va GPU organlari faoliyatini kuzatib borgan. O'zSSR MIQ va XKSning 1928-yil 27-oktyabrdagi "O'zSSR sud organlariga rahbarlik qilish tartibi to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bilan adliya xalq komissarining o'rinbosarlaridan biri respublika prokurori, ikkinchisi esa O'zSSR Oliy sudining raisi hisoblangan [5]. Bu prokuratura organlari bilan sud muassasalarini bir-biridan ajratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. O'zSSR MIKning 1928-yil 1-dekabrdagi qarori bilan tergov apparati prokuratura organlariga bo'ysundirildi [6]. Amaliyotda tergovchilarning prokuraturaga o'tishi tergovchilarning surishtiruv organlariga nisbatan prokurorlik funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini kuchaytirdi va kengaytirdi. Tergovchilar surishtiruv organlari faoliyatini kuzatibgina qolmay, balki surishtiruv organlari tomonidan tamomlangan ishlar bo'yicha ayblov xulosasini tasdiqlaydigan, ayblanuvchilarni sudga oshiradigan, ushbu ishlar bo'yicha sud majlislarida davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etadigan bo'ldilar (94, 97, 102 va boshqa moddalar). O'zSSR JPK 1926-yil).

1929-yil 29-iyunda O'zSSRning yangi (ikkinchi) jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilinib, shu yilning 1-avgustidan amalga kiritildi.

G.A.Abdumajidov haqli ravishda ta'kidlaydiki, qonunni sodda va mehnatkashlar uchun tushunarli qilishga intilish amalda protsessual fanning ko'plab yutuqlaridan voz kechishga, amalda o'zini to'liq oqlagan O'zSSR JPKning bir qator normalarini chiqarib tashlashga olib keldi. Avvalgi JPKda ko'plab kamchiliklar mavjud edi, biroq 1929-yilgi JPK ularni bartaraf etmadi, balki ko'paytirdi [7].

O'zSSR JPKning 4-moddasida shunday deyilgan edi: "Dastlabki tergov tergovchilar, militsiya, jinoyat qidiruv, birlashgan GPU organlari, ularni yuritish bo'yicha maxsus inspeksiya va maxsus qonunlar bilan tergov qilish huquqi berilgan boshqa hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi."

Quyidagilar ham tergov olib borish huquqiga ega bo'lgan:

- 1) muassasalar, tashkilotlar va korxonalarining yuriskonsultlari;
- 2) matlubot jamiyatlari taftish komissiyalarining raislari va a'zolari;
- 3) O'zbekiston davlat ulgurji-chakana savdo tresti tizimi instruktori;
- 4) moliya-byudjet inspeksiya inspektori.

Mazkur surishtiruv organlari, O'zSSRning 1929-yilgi JPKning 4-moddasida nazarda tutilganidek, "qonun bilan surishtiruv o'tkazish huquqi berilgan boshqa hokimiyat organlari" deb e'tirof etildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan surishtiruv organlarining jinoyat ishini qo'zg'atish huquqlari ma'lum darajada cheklangan edi, chunki ko'rsatilgan mansabdor shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarishda ushbu qarorning nusxasini majburiy tartibda nazorat qiluvchi prokurorga yuborar va undan qarorga roziligi to'g'risida tasdiqnomalar edi. Faqat shu holdagina ish qo'zg'atilgan deb hisoblangan [8].

1929-yilgi O'zSSR JPKning 4-moddasi mazmunidan ko'rinib turibdiki, unda surishtiruv va dastlabki tergov tushunchalari mavjud emas, chunki bu ikki tushuncha bitta umumiy "dastlabki tergov" tushunchasiga birlashtirilgan. JPK ushbu ikki institut oldiga umumiy vazifalarni qo'ygan va tergov muddatlari hamda ishlarning tergovga tegishliligi hajmini tartibga solgan.

Shu bilan birga, 1929-yilgi JPKning 10-moddasi tergovchiga har qanday ishni to'liq tergov qilish uchun surishtiruv organlariga topshirish huquqini bergan. Amaliyotda bunday holat dastlabki tergov va surishtiruv o'rtasidagi chegaralarning sezilarli darajada yo'qolishiga va tergovchilar tomonidan tergov qilinadigan ishlar sonining keskin kamayishiga olib keldi.

Shunday qilib, 20-yillarning oxiriga kelib surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasidagi chegara yo'qola boshladi, chunki tergovchilar va prokurorlar dastlabki tergov o'tkazilishi kerak bo'lgan jinoyat ishlarini tergov qilish uchun surishtiruv organlariga topshirish huquqidan keng foydalana boshladilar. Bu yo'lning noto'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun ko'p yillar kerak bo'ldi [9].

1934-1936-yillarda qabul qilingan umumittifoq qonunlariga ko'ra, davlat jinoyatlari va boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat xavfsizligi boshqaruv organlari, yong'inga qarshi qoidalarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha yong'indan saqlash organlari va avtotransportda ko'cha harakati qoidalarini buzish, avtohalokatlar, transportdan noto'g'ri foydalanish va unga jinoiy xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish, avtotransportda intizomni buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat avtomobil nazorati organlari dastlabki tergov olib borish huquqiga ega bo'ldilar.

O'zSSR JPK 1929-yilda tergov va nazoratni amalga oshirishda prokuror va tergovchi o'rtasida keskin chegara qo'yilmagan. Aslida tergovchi boshqa tergov organlariga nisbatan prokuror hisoblangan. Bu holat respublika prokurorining 1933-yil 20-noyabrdagi "Tergov va tergov ishi ustidan nazoratni qayta qurish to'g'risida"gi direktiv xati bilan tuzatildi. Bu xat nazoratni ham, tergovga rahbarlikni ham prokurorlar zimmasiga yuklagan edi [10].

50-yillarning o'rtalarigacha surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasida aniq protsessual chegaralar bo'lmagan. Ular o'rtasidagi bunday aniq chegaralar 1955-yil 24-maydagi SSSRda prokuror nazorati to'g'risidagi Nizom, 1958-yil 25-dekabrda SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat sudlov ishlarini yuritish asoslari kabi hujjatlar qabul qilingandan so'ng paydo bo'ldi.

SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat sudlov ishlarini yuritish asoslari qabul qilingandan so'ng, 1959-yil 21-mayda O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksi tasdiqlandi va 1960-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritildi.

Uning asosida avvalgidek jinoyat sudlov ishlarini yuritishning davlat organlarining ustunligini ta'minlovchi oshkorlik va ularni jinoyat ishi holatlarini har tomonlama, to'liq va obyektiv tekshirishga majburlovchi moddiy haqiqat kabi tarixan shakllangan tarkibiy qismlari yotardi, bu esa mahalliy jinoyat sudlov ishlarini yuritishning kontinental-huquqiy tabiatiga mos kelardi. Shu bilan birga, jinoyat-protsessual faoliyatning mazmuni sudga qadar ish yuritishni ikkita mustaqil bosqichga: jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tergovga aylantirish, shuningdek, sudga qadar ish yuritishda himoya ta'sirining yo'qolishiga va sudga qadar ish yuritishda himoya ta'sirining amalda yo'qolishiga olib kelgan jiddiy ayblovga moyillik yo'li bilan o'zgardi [11].

1959-yildagi O'zSSR JPK asoslari jinoyat ishlarini dastlabki tergov qilishning ikki shaklini: surishtiruv va dastlabki tergovni mustahkamladi hamda dastlabki tergov organlarining to'liq ro'yxatini berdi. Surishtiruv ikki shakldan iborat bo'lib, birinchisi dastlabki tergov yuritilishi shart bo'lmagan ishlar bo'yicha to'liq hajmda surishtiruv yuritishni qamrab olgan bo'lsa, surishtiruvning ikkinchi shakli kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini o'tkazish va dastlabki tergov yuritilishi shart bo'lgan ishlar bo'yicha ishni tergovchiga topshirishdan iborat bo'lgan.

O'zSSR JPKning 28-moddasi va 97-moddasiga muvofiq surishtiruv organlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- 1) militsiya organlari (militsiya);
- 2) harbiy qismlar, qo'shilmalar komandirlari va harbiy muassasalarning boshliqlari — bo'ysunuvchilar yoki harbiy xizmatchilar, shuningdek harbiy xizmatga majburlar tomonidan xizmatni yoki o'quv yig'inlarini o'tash chog'ida sodir etilgan barcha jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha; harbiy muassasalarda va harbiy qismlarda yoxud muassasa yoki qism ixtiyorida ishlayotgan harbiy xizmatchi bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha;
- 3) axloq tuzatish-mehnat muassasalarining boshliqlari — axloq tuzatish-mehnat muassasasi joylashgan yerda sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha;
- 4) davlat yong'in nazorati organlari — yong'inlar va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha;
- 5) chegara qo'riqlash organlari — davlat chegarasini buzganlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

6) davlat xavfsizlik qo‘mitasi organlari — ular tomonidan dastlabki tergov o‘tkazilayotgan ishlar bo‘yicha.

Bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, surishtiruv organlari ro‘yxatiga sanitariya, texnika, savdo inspeksiyalari va boshqalar kiritilmagan, chunki qonun chiqaruvchilar bu muassasalarni surishtiruv o‘tkazish huquqidan mahrum qilishga qaror qilganlar. Dastlabki tergov prokuratura, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tergovchilari tomonidan olib borilgan.

1959-yilgi O‘zSSR JPKga muvofiq dastlabki tergovni yuritishda himoyachi ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lsa, surishtiruvni yuritishning soddalashtirilgan shakli sifatida tergovda himoyachi ishtirok etmagan [12].

Prokurorning dastlabki tergov va surishtiruvni amalga oshirishda qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish bo‘yicha huquq va majburiyatlari, ayblov xulosasi bilan kelib tushgan ish bo‘yicha prokuror hal qilishi lozim bo‘lgan masalalar va ular bo‘yicha uning qarorlari va hokazolar sanab o‘tilgan.

Sobiq ittifoq davrida jinoyat-protsessual faoliyatning o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, jinoyat-protsessual faoliyatda davlat organlarining mavqeyi ustun bo‘lib, jinoyat-protsessual faoliyat jarayonida yuzaga keladigan har qanday masala yoki mansabdor shaxs tomonidan, yoki uning rahbari tomonidan hal qilinar edi. Boshqa ishtirokchilarga, xususan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga tergovchining ishini indamay kuzatib turuvchi statistlar roli berildi. Butun jarayonning dvigateli jamoatchilik manfaati edi [13].

1994-yil 22-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi JPK qabul qilinib, 1995-yil 1-apreldan qonuniy kuchga kirdi, uni sudga qadar yuritish barcha jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish majburiyatini yukladi.

Dastlabki tergovni olib borish prokuratura, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati tergovchilariga yuklatildi. Shuningdek, dastlabki tergovni prokurorlar ham olib borishi mumkin.

Surishtiruv olib borish kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini o‘tkazish va ishni tergovchiga albatta topshirish bilan cheklanar edi.

Surishtiruv ishlarini yuritish quyidagi surishtiruv organlariga yuklatilgan:

- 1) militsiya;
- 2) harbiy qismlar, qo‘shilmalar komandirlari, harbiy muassasalar va o‘quv yurtlari boshliqlari;
- 3) milliy xavfsizlik xizmati organlari;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlari boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari va turmalarning boshliqlari;
- 5) davlat yong‘in nazorati organlari;
- 6) chegaralarni qo‘riqlash organlari;
- 7) uzoq safarda bo‘lgan dengiz kemalari kapitanlari;
- 8) davlat soliq va bojxona xizmati organlari.

Surishtiruv organlari ro‘yxati bir necha marta o‘zgartirildi va 2017-yil 6-sentyabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi JPKning 339-moddasiga muvofiq surishtiruv kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini o‘tkazishdan iborat bo‘ldi.

Amaldagi JPKga ko'ra, 2017-yil 6-sentyabrda surishtiruv isloh qilinib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar ro'yxati belgilanganidan so'ng, shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning vazifalari va vakolatlaridan kelib chiqib, jinoyat alomatlari va uni sodir etgan shaxslarni aniqlash maqsadida zarur choralar ko'rish, shu jumladan, ilmiy-texnika vositalaridan foydalanish, jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash kabi vazifalar Jinoyat-protsessual kodeksi qoidalariga muvofiq tekshirilgandan so'ng, ushbu organlarning ba'zilari shu maqsadda ilgari surishtiruv organlariga yuklatilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqli ekanligi endilikda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga yuklatilmoqda.

Hozirgi vaqtda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar O'zR JPKning 39¹-moddasida sanab o'tilgan.

Hozirgi vaqtda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar O'zR JPKning moddasida sanab o'tilgan.

Surishtiruv jinoyatlarni ochish, ularga chek qo'yish va ularning oldini olish maqsadida qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish shaklida amalga oshiriladigan, jinoyat-protsessual qonuni bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati bo'lmay, tergovning soddalashtirilgan shakliga aylandi. Surishtiruv, dastlabki tergov singari, O'zbekiston Respublikasi JPKning 320³-moddasida ko'rsatilganidek, tergov shakli hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi JPKning 320¹-moddasiga muvofiq esa, tergovga qadar tekshiruv bilan birgalikda sudga qadar ish yuritish shakli hisoblanadi.

Amaldagi JPKga muvofiq himoyachining ishni sudga qadar yuritishda ishtirok etishi shaxs amalda ushlangan paytdan e'tiboran yoki shaxsni ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror bilan tanishtirilgan paytdan e'tiboran nazarda tutiladi. Avvalgi jinoyat-protsessual qonunlardan farqli o'laroq, amaldagi JPKda sudga qadar ish yuritishda himoyachining real ishtiroki mustahkamlangan bo'lib, bu himoyachidan voz kechish bayonnomasini tuzishda ifodalanadi, unda nafaqat tergovchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, balki himoyachi — advokatning imzosi ham bo'lishi kerak.

Prokurorlarga ishni sudga qadar yuritish bosqichlarida nazorat qilish, shuningdek, O'zR JPKning 382-moddasiga muvofiq ayrim protsessual majburlov choralari qo'llash va ayrim tergov harakatlarini o'tkazishga ruxsat olish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish huquqi yuklatiladi.

Tergov sudyasining ishni sudga qadar yuritishga doir vakolatlari O'zR JPKning 31¹ - moddasida sanab o'tilgan.

Shunday qilib, O'zbekistonda jinoyat protsessida sudga qadar ish yuritishning aralash model doirasida shakllanishi genezisi bugungi kunda ommaviy-hokimiyat organlari — tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud tizimini shakllantirdi.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan bir qatorda ishni sudga qadar yuritishda advokat ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi, shuningdek guvoh va jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi professional yurist sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tizim evolyutsion yo'l bilan o'zgarib, rivojlanib kelgan. Ko'rinib turibdiki, sudga qadar ish yuritishning mazkur tizimida O'zbekiston jinoyat protsessida sudga qadar ish

yuritishning protsessual jihatdan mustaqil ishtirokchilari bo'lgan surishtiruvchi va tergovchi asosiy ishtirokchilar hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib va o'tkazilgan tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida sudga qadar ish yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishining quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich — Oktyabr to'ntarishiga qadar (1864-1917-yillar) bo'lgan davrda sudgacha bo'lgan ish yuritish va tergovning paydo bo'lishi.

Ikkinchi bosqich — oktyabr to'ntarishidan keyin va O'zSSR JPK qabul qilingunga qadar (1917 — 1924 yy.) sudgacha ish yuritish va dastlabki tergov to'g'risidagi qonun hujjatlarining qabul qilinishi.

Uchinchi bosqich — sovet davrida O'zSSR JPKning birinchi, ikkinchi va uchinchi (1926 — 1994-yillar) normalariga muvofiq sudgacha ish yuritishning rivojlanishi;

To'rtinchi bosqich — O'zbekiston Respublikasi JPKga muvofiq zamonaviy sudgacha bo'lgan ish yuritishni shakllantirish va isloh qilish (1995-yil – hozirgi kungacha).

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдумажидов Г. Развитие законодательства о расследовании преступлений Т.: Узбекистон, 1974. –С.9.
2. Портнов В.П. Процессуальные формы дознания 1919-1920 гг. // Правоведение.- 1969.- № 2.- С.11-12.
3. Абдумажидов Г. Расследование преступлений. – Т.: Узбекистон, 1986. С.29-30.
4. СУ УзССР, 1925, № 16, ст. 174.
5. СУ УзССР, 1928, № 44, ст. 292.
6. СУ УзССР, 1928, № 49, ст. 322.
7. Абдумажидов Г. Развитие законодательства о расследовании преступлений. – Т.: Узбекистон, 1974. С.36, 44-46.
8. Хусанов М.Т. Предварительное расследование в Узбекской ССР.- Т.: Узбекистон, 1983.- С.20-22.
9. Крылов И.Ф. Бастрыкин А.И. Розыск, дознание, следствие: Учеб. пособие.- Л.: Изд-во ЛГУ, 1984. – С.105.
10. ЦГА УзССР, ф. Р-904, оп. 9, д. 208, л. 1-3.
11. Азарёнок Н.В. Эволюция отечественного уголовного процесса как производства континентальной формы. – Екатеринбург: УрГЮУ, 2021. С.121-122.
12. Абдумажидов Г. Развитие законодательства о расследовании преступлений. – Т.: Узбекистон, 1974. С.95.
13. Азарёнок Н.В. Эволюция отечественного уголовного процесса как производства континентальной формы. – Екатеринбург: УрГЮУ, 2021. С.120.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

PARTICIPATION OF AN INFORMATION TECHNOLOGY SPECIALIST IN INVESTIGATIVE ACTIONS IN CRIMINAL CASES

Davronov Atobek Ravshanovich

PhD in Law, Lecturer at the Department of Criminal Procedure Law,
Tashkent State University of Law
E-mail: Adamdavr@gmail.com

Abstract. The article examines the role of information technology specialists in conducting investigative actions in criminal cases related to computer information. It emphasizes the necessity of involving experts with relevant technical knowledge, particularly in light of the growing number of cybercrimes and the adoption of new legislation regulating digital evidence. The author highlights the need to introduce IT-investigators as new actors in the criminal justice system, possessing specialized digital expertise, capable of extracting, analyzing, documenting digital evidence, and interpreting it for other participants in the criminal process. Particular attention is paid to the interaction between investigators, specialists, and experts, as well as the legal regulation issues regarding their competencies.

Keywords: Digital evidence, IT investigator, cybercrime, specialist, criminal procedure, information technology, computer information, technical knowledge, investigation, forensic examination.

УЧАСТИЕ СПЕЦИАЛИСТА В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЯХ ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ

Давронов Атобек Равшанович

Доктор философии по юридическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры уголовного процессуального права
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается роль специалиста в области информационных технологий при производстве следственных действий по уголовным делам, связанным с компьютерной информацией. Акцент сделан на важности привлечения специалистов с соответствующими техническими знаниями, особенно в условиях растущего числа киберпреступлений и принятия новых законодательных актов, регулирующих цифровые доказательства. Автор подчеркивает необходимость подготовки IT-следователей как новых субъектов уголовного процесса, обладающих специализированными знаниями в сфере цифровых технологий, способных не только извлекать, анализировать и документировать цифровые доказательства, но и объяснять их значение участникам уголовного судопроизводства. Отдельное внимание уделено вопросам взаимодействия следователя со специалистами и экспертами, а также проблемам правового регулирования компетенций таких участников процесса.

Ключевые слова: цифровые доказательства, IT-следователь, киберпреступления, специалист, уголовный процесс, информационные технологии, компьютерная информация, технические знания, расследование, экспертиза.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N23>

ВВЕДЕНИЕ

Развитие компьютерной техники и различных гаджетов, их широкое внедрение в различные сферы человеческой деятельности в сочетании с интернетом привело к тому, что практически каждое действие человека оставляет цифровой след.

Производство предварительного следствия по преступлениям в области компьютерной информации требует привлечения специальных познаний в области компьютерной техники, программирования, использования сети Интернет, специфики отображения виртуальных следов преступления. Для наиболее качественного производства следственного действия следователь приглашает специалиста в области компьютерной техники и используя его специальные познания обнаруживает, закрепляет и изымает следы преступления. Говоря о термине «специальные познания» хотелось бы отметить, что это знания, навыки ограниченного круга лиц, порой имеющие узкую специализацию в той или иной области науки, техники и ремесла.

В случае приглашения специалиста при расследовании преступлений в сфере компьютерной информации важно обращать внимание на наличие знаний и навыков в технической области.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОВ


Нельзя не согласиться с мнением ряда ученых. Так, А. А. Эйсман, считает, что специальные знания - это «знания не общеизвестные, не общедоступные», «это знания, которыми располагают ограниченный круг специалистов». З. И. Соколовский уточнил, что «под специальными знаниями следует понимать совокупность сведений, полученных в результате профессиональной специальной подготовки, создающих для их обладателя возможность решения вопросов в какой-либо области» [1; с. 247]. Согласно действующему уголовно-процессуальному законодательству для участия в производстве следственных действий, следователь может пригласить либо специалиста, либо эксперта.

Специалист - это незаинтересованное в исходе дела лицо, обладающее специальными знаниями и практическими навыками, привлекаемое следователем для участия в производстве следственного действия и оказания содействия в обнаружении, закреплении и изъятии предметов, документов, применения технических средств в исследовании доказательств и материалов уголовного дела [2; с.33-36].

Следователь, расследуя уголовное дело о неправомерном доступе к компьютерной информации, не имея достаточное количество специальных технических познаний, может пригласить специалиста для разъяснения вопросов, входящих в его профессиональную компетенцию. Участие специалиста может быть в форме консультации по вопросам входящим в область его компетенции, либо это может быть оформлено в виде протокола допроса. Также специалистом может быть дана консультация по вопросам, которые необходимо поставить на разрешение эксперта при производстве экспертизы. Следователь привлекает специалиста в случаях, когда считает необходимым использовать специальные знания. Что же касемо расследования преступлений в сфере компьютерной информации, то участие специалиста в случае изъятия компьютерной информации или ее копирования обязательно.

21 ноября 2024 года вышел очень важный и знаменательный закон «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан, направленных на совершенствование системы работы с цифровыми доказательствами» № ЗРУ-1003 который регламентирует внедрение и признание электронных данных и цифровых доказательств в уголовном процессе Республики Узбекистан. С этого дня

Статистика преступлений в Республике Узбекистан (2021-2024)



цифровые доказательства были изъяты из вещественных доказательств и выведены, но совершенно новый правовой уровень. Возникает вопрос, хватит ли у правоохранительных органов возможностей (материальных) и ресурсов (квалифицированных специалистов) к таким изменениям.

Данный инновационный и не подходящий по своему времени закон является на сегодняшний день утопией современной реальности в уголовном процессе. Так как, перед тем как принять такой закон необходимо было обеспечить правоохранительных органов и судов необходимыми информационно-техническими возможностями, так как до сих пор нет определенной практики признания и допустимости данных доказательств со стороны правоохранительных органов и судов. Не обдуманность и не подготовка существующих кадров приводит к антологии существующего порядка, и футурология предполагает экспресс-решения со стороны науки и практики.

Из них если взять киберпреступления за 2024 год в Узбекистане зафиксировано более 12 млн попыток кибератак, а случаи мошенничества выросли на 34%. Злоумышленники применяют различные способы для кражи денег – от вирусных приложений до схемы «Алло, мама».

В 2024 году поступило более 35 тыс. заявлений о мошенничестве, тогда как в прошлом году их было около 26 тыс. Примерно 35% всех обращений связаны с кардингом. Одной из причин роста является увеличение числа пользователей

банковских карт: в начале года их количество было менее 40 млн, а сейчас уже превысило 55 млн [3].

При расследовании киберпреступлений одним из ключевых условий привлечения специалиста, помимо его объективности и отсутствия заинтересованности в результате дела, является наличие необходимых профессиональных знаний. Поэтому перед тем как допустить лицо к участию в процессе в качестве специалиста, необходимо удостовериться в отсутствии оснований для его отвода, а также проверить его профессиональную компетентность. В то же время, законодательство не содержит чётких критериев для оценки и подтверждения квалификации специалиста.

В качестве доказательства его компетентности может выступать диплом о профильном образовании. Однако одного лишь диплома, как правило, недостаточно — практический опыт работы с аналогичными объектами играет не менее важную роль. Следует также учитывать, что сотрудники организации, в которой произошло киберпреступление, не могут быть привлечены в качестве специалистов, так как они могут быть заинтересованными лицами и подлежат отводу.

С одной стороны, следователь, обладающий навыками опытного пользователя может самостоятельно, без привлечения специалистов, произвести осмотр персонального компьютера, но высока вероятность того, что подозреваемый пользуется программными средствами защиты информации при попытке просмотра, важная информация будет уничтожена, либо для получения доступа потребуются привлечение знаний в области криптографии и шифрования, использование навыков снятия парольной защиты. Наиболее популярной у злоумышленников является программное обеспечение TrueCrypt, при помощи которого можно создать криптованный раздел или зашифровать системный диск. Без специальных познаний не только не возможно дешифровать информацию, но даже обнаружить само нахождение на компьютере зашифрованного файла.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Неукоснительное соблюдение правового элемента организации является необходимым условием привлечения и использования специальных знаний, т.к. нарушение установленного законодательством порядка может свести на нет всю проделанную работу и привести не к положительным, а к отрицательным для расследования результатам. Организуя взаимодействие со специалистами и экспертами, следователь должен руководствоваться принципами, соблюдение которых обеспечивает результативность совместной с ними работы. Среди них выделяется принцип соблюдения законности. Законными должны быть не только результаты использования специальных знаний специалистов в сфере компьютерных технологий, но и пути и способы достижения поставленных целей.

С точки зрения процессуального законодательства участие специалистов в сфере компьютерных технологий и назначение экспертизы компьютерной техники и информации ничем не отличается от привлечения специалистов в других областях знания и назначения иных родов судебных экспертиз. Но, тем не менее, следует обратить внимание на то, что привлекаемые сведущие лица (если это не сотрудники ведомственных экспертных подразделений, обладающие необходимым опытом)

обычно не обладают правовыми знаниями и нередко выступают источником процессуальных нарушений. В связи с этим, следователю необходимо заострить внимание на подробном разъяснении прав и обязанностей эксперта и специалиста.

На сегодняшний день в место специалистов предлагается внедрит ИТ-следователей в уголовный процесс с регламентацией их прав и обязанностей.

Внедрение ИТ-следователей в уголовный процесс с четкой регламентацией их прав и обязанностей предоставляет значительные преимущества для системы уголовного правосудия. Прежде всего, ИТ-следователи обладают профессиональной компетентностью в информационно-технологической сфере, что включает глубокое понимание цифровых технологий, сетевой инфраструктуры и программного обеспечения. Такие специалисты имеют узконаправленные знания в области кибербезопасности и цифровой криминалистики, а также навыки работы с большими объемами цифровых данных и специализированным программным обеспечением.

Существенным преимуществом является повышение эффективности расследования киберпреступлений. Благодаря профильным компетенциям ИТ-следователей происходит сокращение сроков расследования, обеспечивается более качественная работа с цифровыми доказательствами и их интерпретация. Также снижается зависимость от привлечения внешних экспертов, что в свою очередь ведет к сокращению процессуальных задержек и ускорению хода расследования.

ИТ-следователи обеспечивают совершенствование процесса сбора и анализа цифровых доказательств. Они способны профессионально извлекать данные с цифровых устройств без потери ценной информации, квалифицированно проводить форензик-анализ и восстанавливать удаленные данные. Важным аспектом их работы является грамотное документирование цифровых доказательств, что обеспечивает юридическую силу собранных материалов в суде.

Особую ценность представляет интеграция технических и юридических знаний в работе ИТ-следователей. Они умеют переводить сложные технические факты на язык юридических документов и объяснять технические вопросы другим участникам уголовного процесса в доступной форме. Это способствует лучшему пониманию обстоятельств дела всеми сторонами процесса и обеспечивает более объективное рассмотрение технически сложных дел.

Не стоит также недооценивать возможную пользу от ИТ-следователей в борьбе с организованной преступностью, которая в последнее время все больше переходит на «цифровые рельсы». Преступники организуют свою деятельность посредством использования Даркнета, специальных или обычных мессенджеров и цифровых устройств. Один из таких примеров – полукриминальная сеть Encrochat. Компания с одноименным названием гарантировала своим пользователям полную конфиденциальность, продавая модифицированные смартфоны без USB-портов и прочих модулей аппаратной связи с собственной операционной системой. Связь между телефонами осуществлялась с помощью нескольких уровней шифрования через собственные серверы компании. Таким образом, «Encrochat» обеспечивала обособленный и зашифрованный от остального Интернета трафик, использовавшийся преступниками для координации своей деятельности. Хотя сеть Encrochat не была полностью изолирована от Интернета, но фактически ее инфраструктура не позволяла

установить точное местонахождение мобильных устройств пользователей. Взлом и последующее раскрытие криминальной сети Европолем стали возможны только после установления местонахождения выделенных серверов компании во Франции [4; p. 452-461]. Если в ходе расследования преступлений появляются данные, указывающие на то, что преступная группа использует для организации своей деятельности цифровые технологии, то к расследованию должен подключаться IT-следователь – например, посредством участия в составе следственной группы.

IT-следователь должен также заниматься расследованием преступлений, связанных с цифровыми финансовыми активами и цифровой валютой. Сложности в расследовании таких преступлений очевидны. Следователю требуются знания в экономике и цифровых технологиях в этой сфере.

Особенности расследования такого рода преступлений раскрываются через задачи с учетом требований уголовно-процессуального закона и существующих методик расследования.

Основной задачей предварительного расследования как стадии уголовного процесса является раскрытие преступления. Законодатель не определяет понятия «раскрытие преступления». В Уголовно-процессуальном кодексе такое словосочетание встречается в разных статьях применительно к вопросу о заключении досудебного соглашения о сотрудничестве. То, что раскрытие преступлений является задачей досудебного производства не вызывает никаких сомнений. В теории оперативно-розыскной деятельности отношение к данному понятию неоднозначно.

Раскрытие преступлений понимается, как: задержание лица, совершившего преступление с поличным; установление лица его совершившего, изобличение, доставление к следователю; факт подтверждения виновности лица в совершении преступления, который отражается в предъявлении ему обвинения следователем; обеспечение доказательственной базой в виновности всех участников преступления, которое достигается к концу расследования, когда следователь направляет уголовное дело в суд; привлечение виновных лиц к уголовной ответственности, которое выражается в обвинительном приговоре [5; с.191].

В любом случае просматривается обеспечительная роль оперативно-розыскной деятельности по отношению предварительному расследованию. В этом видится ее главное предназначение, результативность и эффективность.

Решение рассматриваемой задачи предполагает установление наличия уголовно наказуемого деяния, обнаружение всех его проявлений (эпизодов, квалифицирующих признаков), выявление и изобличении лиц его совершивших. Задача является сложной, требующей высокого профессионализма от следователя и решается благодаря, прежде всего, взаимодействию с сотрудниками органов, осуществляющих оперативно-розыскную деятельность. При этом должны соблюдаться принципы недопустимости разглашения планов и полученных результатов совместной работы (конспирация), непрерывности и динамичности взаимодействия.

IT-следователь должен быть иметь представление о цифровых следах, которые представляют собой результат действий человека или автоматизированной системы, воплощенные, как правило, в текстовой или мультимедийной форме, и пригодные к трансформации в доказательства по уголовным делам в электронном виде.

«Обычный следователь» также сталкивается с обнаружением и фиксацией цифровых следов [6; с.10]. Так, например, при расследовании факта получения взятки следователю предстоит фиксировались цифровые следы, указывающие на подготовительные действия злоумышленника (возможно была предварительная договоренность о встречах взяткодателя с взяткополучателем, решался вопрос об участии посредника при передаче-получении взятки). Часто общение между взяткодателем и взяткополучателем происходит не при встречах, а с помощью средств компьютерной техники, мобильных устройств, когда информационный обмен осуществлялся с помощью SMS-сообщений, сообщений в мессенджерах, электронных писем и фиксация факта передачи-получения взятки также была на электронных информационных носителях [7; с. 387-395.].

Однако IT-следователь должен уметь работать с большими данными, читать экспертные заключения по результатам проведения компьютерно-технических экспертиз любой сложности, широко применять электронные документы в перспективе использовать электронного помощника [8]. Цифровая видеотека, аудиозаписи и фотографии могут накапливаться в облачных пространствах, относительно которых на сегодня имеются различные предложения по применения программного обеспечения, моделирования, алгоритмизации процессов.

Прежде всего, предполагается, что подготовка (или повышение квалификации) таких следователей будет осуществляться по специальной программе с участием не только теоретиков уголовно-процессуального права, но и специалистов в сфере цифровых технологий и кибербезопасности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Важно подчеркнуть, что успешное использование цифровых технологий в расследовании уголовных дел возможно лишь при слаженном взаимодействии трёх ключевых групп: научных исследователей, практикующих юристов и IT-экспертов. Исследователи разрабатывают теоретические основы и методики, предназначенные для применения на практике. Однако для их успешной реализации необходима доработка со стороны специалистов в области информатики, а также правоприменителей, обладающих опытом и знанием специфики практической деятельности.

В связи с этим подготовка IT-следователей должна осуществляться в рамках специализированных образовательных программ, которые будут включать как теоретические дисциплины, разработанные ведущими учёными в сфере цифровизации уголовного судопроизводства, так и практические модули с участием экспертов-программистов, объясняющих принципы работы и применения цифровых технологий. Формирование таких учебных программ, основанных на сочетании теории, практики и технической экспертизы, является не только основой для создания института IT-следователей, но и залогом его дальнейшей результативности. После появления таких специалистов потребность в привлечении внешних экспертов в ходе расследования отпадёт.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Зинин, А. М. Участие специалиста в процессуальных действиях / А. М. Зинин, Е. В. Иванова, А. И. Семикаленова. — М. : Проспект, 2016. С. 247.
2. Логвинец Е.А. Заключение специалиста (проблемы использования в доказывании) // Эксперт-криминалист. 2008. № 1. С. 33–36.
3. Махмуджанова Мухаббат "Мошенники не сидят сложа руки": почему увеличивается рост кибермошенничества и как МВД с ним борется. 16 декабря 2024. <https://www.spot.uz/ru/2024/12/16/cyber/> Дата обращения: 30.04.2025г.
4. Wahl Th. Verwertung von im Ausland überwachter Chatnachrichten im Strafverfahren Zugleich Besprechung der EncroChat-Beschlüsse des OLG Bremen v. 18.12.2020 – 1 Ws 166/20, und OLG Hamburg v. 29.1.2021 – 1 Ws 2/21 // ZIS. 2021. № 7–8. P. 452-461.
5. Зуев, С.В. Основы оперативно-розыскной деятельности: учебное пособие для вузов / С.В. Зуев. М.: Издательство «Юрайт», 2020. 191 с.
6. Кенжабаев Д. Эксперт и специалист как участники уголовного процесса. 2018, Журнал «Одил судлов» («Правосудие»). С. 10
7. Цветкова, А. Д. Проблема рассогласованности при цифровизации правоохранительной деятельности / А. Д. Цветкова // Цифровые технологии и право: Сборник научных трудов II Международной научно-практической конференции: в 6 т., Казань, 22 сентября 2023 года. Казань: Познание, 2023. Т. 3. С. 387-395.
8. Рахимова У. Х., Хамзахонов С. Сравнительный анализ участия защитников в процессе доказывания в уголовном процессе // Экономика и социум. 2022. №7 (98). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-uchastiya-zaschitnikov-v-protssesse-dokazyvaniya-v-ugolovnom-protssesse> (дата обращения: 30.04.2025).

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE LEGAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF CLEARLY DEFINING JURISDICTION IN CRIMINAL CASES

Alishayev Sobir Tursunboyevich,

Lecturer of the Department of Criminal and Procedural Law
of Tashkent State Law University, Tashkent,
Republic of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the concept of jurisdiction in criminal cases, its legal nature, and practical significance. The necessity of clearly defining jurisdiction based on the criteria of subject matter, territoriality, personal scope, alternativeness, and exclusivity is substantiated. A comparative analysis of the legal approaches of Germany, France, the United States, Russia, and Japan is also presented. The article proposes introducing a jurisdiction norm as an independent legal institution into the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. It is emphasized that such a norm would ensure the legality, validity, and fairness of judicial decisions, as well as strengthen the legal guarantees of citizens.

Keywords: jurisdiction, criminal procedure law, first instance, judicial jurisdiction, subject matter, territoriality, alternativeness, exclusivity, criminal case, judicial reform, justice, presumption of innocence, international experience, criminal process, court decision.

JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLOVGA TEGISHLILIKNI ANIQ BELGILASHNING HUQUQIY VA AMALIY AHAMIYATI

Alishayev Sobir Tursunboyevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-huquqiy huquqi kafedrasini o'qituvchisi
e-mail: sobiralishaev25@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat ishlari bo'yicha sudlovga tegishlilik tushunchasi, uning huquqiy mohiyati va amaliyotdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Sudlovga tegishlilikni predmetlilik, hududiylik, subyektga nisbatan, alternativlik va istisnolik asoslariga ko'ra aniq belgilashning huquqiy zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya va Yaponiya davlatlarining huquqiy tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada sudlovga tegishlilik normasini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga alohida huquqiy institut sifatida kiritish taklifi ilgari surilgan. Bu orqali sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash imkoni yaratilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Sudlovga tegishlilik, jinoyat-protsessual huquq, birinchi instansiya, sud yurisdiksiyasi, predmetlilik, hududiylik, alternativlik, istisnolik, jinoyat ishi, sud islohoti, odil sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi, xalqaro tajriba, jinoyat protsessi, sud qarori.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N24>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasini isloh qilish, sud mustaqilligini ta'minlash va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, sud hujjatlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishish, sudlov jarayonida shaffoflikni ta'minlash, sudlovni to'g'ri tashkil etish orqali sud yurisdiksiyasini samarali amalga oshirish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Shu munosabat bilan jinoyat ishlari bo'yicha sudlovga tegishlilikni aniq belgilash masalasi huquqiy va amaliy nuqtai nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada mazkur kategoriyaning mazmuni, uning huquqiy asoslari, xorijiy tajriba, hamda uning O'zbekiston qonunchiligidagi ifodasi tahlil qilinadi.

Sudlovga tegishlilik — jinoyat protsessual huquqining muhim va mustaqil instituti bo'lib, u jinoyat ishi bo'yicha birinchi navbatda uni qaysi sud yurisdiksiyasida ko'rib chiqish lozimligini belgilovchi me'yoriy-huquqiy asoslarni ifodalaydi. Sudlovga tegishlilik — faqat ishni protsessual jihatdan yuritish masalasi bo'lib qolmay[1; 1-5-b.], balki sud adolatining real amalga oshirishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu institut orqali sud hokimiyati vakolatlari, uning doirasi va hududiy yurisdiksiyasi aniqlanadi, ishlarni sudlar o'rtasida obyektiv va qonuniy taqsimlash ta'minlanadi.

Sudlovga tegishlilikning mohiyati sud hokimiyatining mustaqilligi, sud qarori chiqarishda xolislik, jinoyat protsessining tezkorligi va aniqligi kabi konstitutsiyaviy va protsessual prinsiplar bilan uzviy bog'liq. Sudga ishni tasodifan emas, balki qonun bilan belgilangan aniq mezonlar asosida yuborish orqali fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni amalga oshirishda yagona standart shakllanadi.

Amaliy nuqtai nazardan, sudlovga tegishlilik masalasini noto'g'ri hal etish[2; 1-3-b.] ishni qayta yuborish, ish muddatining ortishi va sud qarorining bekor qilinishi kabi jiddiy protsessual oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli mazkur institutning huquqiy tavsifi, uni tarkibiy tamoyillar asosida aniq belgilash sud-huquq tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Sudlovga tegishlilikni quyidagi asosiy tamoyillar asosida tasniflash mumkin:

- **Predmetlilik** — ishning tabiati, og'irligi va jinoyat turiga ko'ra qaysi darajadagi sud vakolatiga tegishli ekanligini belgilaydi. Masalan, yengil jinoyatlar — tuman sudlari, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar — viloyat yoki Oliy sud yurisdiksiyasiga berilishi mumkin.

- **Hududiylik** — jinoyat sodir etilgan joy, gumonlanuvchining yashash joyi yoki jinoyat oqibatlari yuzaga kelgan hudud asosida aniqlanadi.

- **Subyektga nisbatan tegishlilik** — mansabdor shaxslar, sudyalari, deputatlar yoki boshqa maxsus maqomga ega shaxslar bo'yicha jinoyat ishlari faqat tegishli yurisdiksiyada ko'rib chiqilishi mumkin. Bu kafolat ularning faoliyati ustidan nazorat shaffofligini ta'minlaydi.

- **Alternativlik** — jinoyat bir necha hududda sodir etilgan, yoki jinoyatchi bir nechta sud yurisdiksiyasiga taalluqli bo'lgan hollarda, sudlovni belgilashda tanlash imkoniyatini nazarda tutadi. Bunda asosan prokuratura yoki sud qaror qabul qiladi.

- **Istisnolik** — muayyan turdagi jinoyatlar, masalan, terrorizm, davlatga qarshi jinoyatlar kabi ishlarni maxsus tashkil etilgan sudlar (masalan, harbiy sudlar yoki oliy instansiyalar) tomonidan ko'rib chiqilishi talab etiladi.

Sudlovga tegishlilik masalasi jinoyat protsessida faqat texnik masala sifatida emas, balki huquqiy kafolat sifatida qaralishi lozim. Shu boisdan ham uning aniq qonuniy ta'rifi, umume'tirof etilgan prinsiplar asosida kodeks darajasida mustahkamlanishi — sud adolatini amalga oshirishning huquqiy bazasini yanada mustahkamlaydi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlovga tegishlilik tushunchasini protsessual qonunchilikda rasmiy ta'rif sifatida mustahkamlash zarurati zamonaviy sud-huquq amaliyotida dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu talab, avvalo, huquqiy aniqlik, ish yuritish

samaradorligi va sudlovning adolatli amalga oshirishini ta'minlashga qaratilgan. Sud adolatini amalga oshirishda sudning yurisdiksiyasiga doir masalalar avvalboshdan noaniq belgilangan bo'lsa, bu sud faoliyatida turli muammolar, xususan, ishni qaysi sudda ko'rish kerakligi yuzasidan bahslar, bir xil ishlarni turlicha yuritish amaliyoti va manipulyatsiya ehtimollariga sabab bo'ladi.

Sudlovga tegishlilikni rasmiy ta'riflashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Sud ish yuklamasini oqilona taqsimlash: Sudlovga tegishlilik aniq belgilanmagan sharoitda ayrim sudlar ish bilan ortiqcha band etiladi, boshqalarida esa salbiy yuklamalar kam bo'lishi mumkin. Bu sud tizimidagi ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aniq yurisdiksiya belgilash esa ishlar to'g'ri taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Protsessual manipulyatsiyalar va subyektiv talqinlarning oldini olish: Amalda ayrim holatlarda ishni qaysi sudda ko'rish kerakligi huquqni muhofaza qiluvchi organ yoki taraflar tomonidan erkin talqin qilinadi. Bu esa ishni ko'rib chiqishda xolislik va neytrallik tamoyillariga putur yetkazishi mumkin. Aniq ta'rif shunday holatlarning oldini oladi.

Sud jarayonining shaffofligi va barqaror huquqiy amaliyotni shakllantirish: Sud ishini qaysi instansiyada ko'rish haqida huquqiy asos aniq bo'lsa, taraflar uchun kutilmagan o'zgarishlar va beasos yurisdiksiya almashish holatlari bo'lmaydi. Bu sudga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash: Yurisdiksiyani aniq tartibga solmaslik – sud-huquq amaliyotida protsessual nomuvofiqliklarga, hatto ish natijasining bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun sudlovga tegishlilikka oid ta'rifning qonun darajasida belgilanishi – huquqiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omildir.

Shu munosabat bilan, sudlovga tegishlilikni quyidagicha rasmiy ta'rif sifatida qonunchilikka kiritish taklif etiladi: "Sudlovga tegishlilik — me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan jinoyat ishining belgilari majmuasi bo'lib, bu belgilar orqali jinoyat ishini birinchi instansiyada ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan muayyan sudning yurisdiksiyasi aniqlanadi."

Sudlovga tegishlilikni huquqiy institut sifatida to'liq va aniq tarzda tartibga solish ko'pgina huquqiy davlatlarda sud-huquq tizimining barqaror va shaffof faoliyatini ta'minlashda asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari — AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, sudlovga tegishlilik masalasi nafaqat protsessual tartib, balki sud adolatini ta'minlovchi kafolat sifatida ham nazarda tutiladi.

Germaniya Federativ Respublikasida jinoyat ishlari yuzasidan sudlovga tegishlilik masalalari[3; 240-b.] Jinoyat-protsessual kodeks (Strafprozessordnung – StPO) orqali qat'iy tartibga solingan. Xususan:

- §15–16 StPOda hududiy tegishlilik mezonlari belgilanib, ish qaysi sud okrugida ko'rib chiqilishi aniq ko'rsatilgan.
- §24 va §74–120 oralig'ida esa predmetli yurisdiksiya asoslari bayon etiladi:
- Amtsgericht — yengil va o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar uchun;
- Landgericht — og'ir jinoyatlar uchun;
- Oberlandesgericht va Bundesgerichtshof — yurisdiksiyasi federal miqyosidagi, o'ta og'ir, yoki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan jinoyat ishlarini ko'rishga qaratilgan.

Mazkur tizim jinoyat ishining og'irlik darajasiga, subyektning maqomiga va jinoyat sodir etilgan hududga qarab, sudlovning aniq taqsimlanishini ta'minlaydi.

Fransiya Respublikasida jinoyat ishlarining sud yurisdiksiyasi Jinoyat-protsessual kodeks (Code de procédure pénale) bilan belgilanadi. Sud tizimida:

- Tribunal correctionnel — o'rtacha og'ir jinoyatlarni;
- Cour d'assises — og'ir jinoyatlarni;
- Tribunal de police — yengil huquqbuzarliklarni ko'rib chiqadi.

Prezident, parlament a'zolari, sudyalari va boshqa mansabdor shaxslarga nisbatan alohida sudlov tartibi belgilangan. Bunda Haute Cour de justice yoki Konstitutsiyaviy kengash maxsus vakolatga ega. Sudlov yurisdiksiyasi jinoyatning og'irligi, shaxsning maqomi va jinoyat joyiga qarab tartibga solinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida jinoyat ishlari yuzasidan sudlov masalalari [4; 46-49-b.] Federal Rules of Criminal Procedure va har bir shtatning alohida qonunchiligi orqali tartibga solinadi. E'tiborga molik jihatlari:

- Venue prinsipi — ish jinoyat sodir etilgan okrugda ko'rib chiqilishi kerakligini belgilaydi (Federal Rules, Rule 18).
- Federal va shtat sudlari o'rtasidagi yurisdiksiya aniq ajratilgan:
- Federal sudlar — federal qonunlarni buzish bo'yicha;
- Shtat sudlari — shtat qonunlari buzilishi bo'yicha ish yuritadi.
- Prezident, Senatorlar, Oliy sud sudyalari kabi shaxslar uchun maxsus sudlov tartibi (impichment, alohida palata ko'rib chiqishi) belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida sudlovga tegishlilik Jinoyat-protsessual kodeksning bir qator normalarida aniq tartibga solingan:

- 31-modda — jinoyat og'irligiga ko'ra sudlar vakolatini ajratadi;
- 35-modda — hududiy tegishlilikni belgilaydi;
- 447-modda — mansabdor shaxslar, deputatlar, sudyalari, prokurorlar, prezidentlar kabi subyektlar ishini maxsus sud yurisdiksiyasiga berishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, Oliy sud raisi muayyan ishni yuqori instansiyada ko'rishga yuborish huquqiga ega. Bu sudlovni markazlashtirish va institutning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yaponiyada jinoyat ishlari bo'yicha sud tizimi quyidagi tartibda faoliyat yuritadi:

- Summary Court — yengil huquqbuzarliklar uchun;
- District Court — umumiy jinoyatlar;
- High Court — apellyatsiya instansiyasi;
- Supreme Court — yuqori sudlov hokimiyati.

Sudlovga tegishlilik Jinoyat-protsessual kodeks (Keiji soshoho) asosida tartibga solinadi. Ayrim kategoriyadagi shaxslar, xususan, davlat xizmatchilari, sudyalari yoki parlament a'zolari ishi faqat sudyalari kollegiyasi tarkibida ko'rib chiqilishi shart hisoblanadi.

inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish; ekologiya xavfsizligini ta'minlash;

tabiat obyektlari bilan bog'liq moddiy madaniy meros obyektlarini asrab qolishdir.

Fuqarolar o'z majburiyatlariga adolatli yondashmasa, kelajak avlod uchun asrashimiz kerak bo'lgan tabiatga juda katta zarar yetkazishimiz va bu zararlarni tiklash imkoniyati bo'lmaganligi sababli kelajak avlod bizni kechirmasligi mumkin. atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish – bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki odamlarga, kelajak avlodlarga, hayotga bo'lgan hurmatning ifodasidir. Qonun bizdan bu borada befarq bo'lmaslikni talab qiladi. Shaxsiy mas'uliyat, jamoaviy ong va qonuniy majburiyat uyg'un bo'lsa, sog'lom muhit, barqaror kelajak va yashil shaharlar biz uchun haqiqatga aylanishi mumkin.

Ekologik barqarorlik uchun amaliy majburiyatlar: har bir fuqaroning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyot bosqichida turibdi: texnika, qurilish, ishlab chiqarish va transport sohalaridagi yutuqlar hayotni qulaylashtirmoqda. Biroq bu qulayliklar zamirida tabiiy resurslarning haddan ziyod ekspluatatsiyasi, chiqindilar muammosi va atmosfera ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, har bir fuqaroning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi amaliy majburiyatlari tobora dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ekologik muhofaza nafaqat davlat va hukumat zimmasidagi vazifa, balki oddiy aholi – har bir shaxs zimmasidagi burchdir. Qonun hujjatlarida belgilanganidek, **fuqarolar atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni to'g'ri tashlash, yashil hududlarga e'tiborli bo'lish, hayvonot va o'simlik dunyosini asrash kabi amaliy majburiyatlarga ega.**

Masalan, odamlarning kundalik hayotidagi eng sodda harakatlari — chiqindilarni ajratib yig'ish, plastik iste'molini kamaytirish, yovvoyi hayvonlarga zarar yetkazmaslik, daraxtlarni asrash, suv va elektrni tejash – bularning barchasi kichik ko'rinsa-da, tabiat uchun ulkan foyda keltiradi. Bu majburiyatlar nafaqat axloqiy, balki huquqiy asosga ham ega. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasi ikkinchi bandiga ko'ra "Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning atrof muhitga xavfsizligi uchun chiqindilarning mulkdorlari javob beradilar. Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish obyektlarini tegishli hududga joylashtirish masalalarini mahalliy davlat hokimiyati organlari

hal qiladi” deb belgilangan bo‘lib, fuqarolar o‘zi tomonidan yuzaga kelgan chiqindilarga o‘zi javob berishi belgilab o‘tilgan.

Shuningdek, fuqarolarning amaliy majburiyatlari orasida **ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish, bolalar va yoshlar orasida atrof-muhitga mehr uyg‘otish, o‘zining yashash joyida tozalikni saqlash, jamoaviy obodonlashtirish ishlarida qatnashish** kabi faoliyatlar ham kiradi. Bu majburiyatlarni bajargan fuqaro nafaqat ekologiyani, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday qonun yoki davlat dasturi fuqarolarning ongli ishtirokisiz natija bermaydi. Davlat ekologiyani himoya qiladi, lekin uni amalda saqlab qoladigan — fuqarolarning o‘zidir. Shaxsiy mas‘uliyat va ekologik madaniyat orqali aholi tabiatning eng yaqin va eng ishonchli himoyachisiga aylanishi mumkin.

Aholining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi amaliy majburiyatlari – bu kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklarni asrab qolish, ekologik muvozanatni saqlash va inson salomatligi uchun qulay muhit yaratishga bo‘lgan shaxsiy hissasidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddima qismida shunday deyilgan: **mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e‘lon qilamiz.** Bu jumladan ko‘rishimiz mumkinki, Konstitutsiya umumxalq saylovi orqali qabul qilinishi, har bir fuqaro o‘zining majburiyatiga yuqoridagi vazifalarni olganini ko‘ramiz. Shunday ekan, har birimiz bu borada o‘z o‘rnimizni anglab, faol bo‘lsak, yashil va barqaror kelajakni birgalikda barpo eta olamiz.

III Fuqarolarning ekologik faolligi va jamoatchilik nazorati.

Bugungi ekologik inqirozlar – iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi, chiqindilar muammosi – insoniyatdan nafaqat texnologik va huquqiy yechimlar, balki fuqarolik faolligini ham talab qilmoqda. Ayniqsa, shaharlarda aholining ekologik xabardorligi va ishtiroki barqaror rivojlanish yo‘lida hal qiluvchi omillardan biridir. Zero, fuqarolarning ekologik faolligi va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi davlat ekologik siyosatining muhim ustuniga aylanmoqda.

Ekologik faollik — bu fuqarolarning atrof-muhit muhofazasida faol ishtirok etishi, ekologik qarorlar qabul qilinishida ovozga ega bo‘lishga intilishi, jamoaviy tashabbuslarda qatnashishi, ekologik huquqlardan xabardor bo‘lishi va ularni himoya qilishi bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, plastik chiqindilarga qarshi kurashish, daraxt ekish, ekologik ta‘lim targ‘iboti, tozalik aksiyalari — bularning barchasi ekologik faollik shakllaridir. Xalqaro darajadagi amaliyotga qaraydigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlarda ekologik faollik nafaqat fuqarolarning shaxsiy tashabbusi, balki tizimli davlat siyosati, qonunchilik, fuqarolik jamiyati va texnologik innovatsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Shaharlarida tabiati eng toza va chiqindisiz hisoblanadigan Shvetsiyada **Green Roofs**[6] (yashil tom) amaliyoti fuqarolar tomonidan keng targ‘ib etilgan. Bunga sabab, shaharlarda amalga oshirilayotgan jadal qurilishlar natijasida shahar hududlarida yashil maydonlarning kamayishiga olib keladi. Shvetsiya esa bunga innovatsion yechim o‘ylab topgan. Ya‘ni, qurilayotgan uylarning ustini yashillikka burkash amaliyoti. Bu shaharlarda yashillikning ko‘payishiga va havo haroratini kamayishiga olib keladi. Biz O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent misolida ko‘radigan bo‘lsak, hozirgi vaqtga kelib, qurilishlarning jadal darajada amalga oshirilayotganligi, daraxtlarga moratoriy joriy qilinishiga qaramasdan kesilayotganligi va yer osti suv sathining pasayayotganligi shahar

hududida tez tez chang bo'ronlari qoplab olishiga va atmosfera havosining ifloslanishiga hamda yashil hududlarning qisqarishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi amaliyotni shaharlarda qo'llasak, yuqoridagi muammolarni sezilarli darajada yaxshilagan bo'lamiz.

Jamoatchilik nazorati – bu ochiqlik va javobgarlik kafolati hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuning 15-moddasiga ko'ra, fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotganda tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga, ularni tashkil etishga, shuningdek ularda ishtirok etishga;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonunchilikka muvofiq davlat organlaridan so'rab olishga;

jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashga hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatleri, jamiyat manfaatleri buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishga;

davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga;

jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilishga haqlidir.

So'nggi yillarda dunyoda ham, O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyati vakillari tomonidan ko'plab ekologik tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ochiq axborot platformalari ekologik muammolar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishda muhim vositaga aylangan. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, **«jamoatchilik nazorati bu — faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir»**.

Masalan, daraxtlarning noqonuniy kesilishiga marotoriy e'lon qilingan bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda 2023-yilning 9 oyida daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liq 2427 ta huquqbuzarlik qayd etildi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, hukumat tomonidan qaror qabul qilinishi huquqbuzarlikning oldi olinganligini bildirmaydi. Bu holatni oldini olishning bitta yo'li jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va qaror ijrosini ochiqligini ta'minlashdan iborat. Agar shu harakatlar amalga oshirilsa, davlat organlari tezroq va samarali choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Bu esa fuqarolik jamiyati va hukumat o'rtasida ekologik sohada sog'lom muloqot shakllanishiga olib keladi.

Ekologik muhofaza yo'lida davlatning harakati yetarli emas — fuqarolarning ekologik faolligi va jamoatchilik nazorati bu yo'ldagi zaruriy shartlardandir. Har bir fuqaro atrof-muhitni muhofaza qilishda faollik ko'rsatib, o'z huquqlari bilan bir qatorda majburiyatlarini ham anglagan holda harakat qilsa, ekologik xavfsizlik va sog'lom hayot muhiti barpo etiladi. Bu esa kelajak avlodlar uchun yashashga yaroqli, barqaror muhitni kafolatlaydi.

Shaharda ekologik holat kundan kunga yomonlashayotganligi sababli shahar aholisi ekologik faollikni ko'proq amalga oshirishi zarur. Chunki, shahar aholisi ekologik muammolarni bartaraf qilishda bevosita ta'sirga ega hisoblanadi. Misol uchun quyidagi ekologik harakatlar tashkil etilishi ekologik xavfni kamayishiga ko'maklashishi mumkin:

Ko'ngilli ekologik guruhlar (mahallalarda)

Jamoatchilik eshituvlari

Ekologik targ'ibot va ta'lim

Xalqaro tajribalarda (masalan, Germaniya, Janubiy Koreya) fuqarolar ekologik masalalarda hukumat bilan hamkorlikda faol ishlaydi. Janubiy Koreyada hozirgi kunga kelib **“Smart Green City”** [7] loyihasi jamoatchilik tomonidan yuksak baholanib, buning natijasida shaharlarni ekologik jihatdan barqaror qilishga umid qilinmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda turli harakatlar olib borilib, **“Yashil makon** [8]” umummilliy loyihasi ishlab chiqilib, turli harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu umummilliy loyihani samaradorligini oshirish uchun jamoatchilik eshituvlarini kuchaytirish va ekologik targ'ibot harakatlarini ko'paytirish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa. Shahar aholisi atrof-muhitni muhofaza qilish borasida muhim huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ular barqaror urbanizatsiya va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Fuqarolar sog'lom va toza muhitda yashash huquqiga ega bo'lishi bilan birga, o'z faoliyati orqali tabiatga zarar yetkazmaslik, chiqindilarni to'g'ri boshqarish, yashil hayot tarzini qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazoratida faol ishtirok etish kabi majburiyatlarni ham bajarishi zarur.

Zamonaviy shaharlar duch kelayotgan ekologik muammolar – havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi, yashil hududlarning qisqarishi – aholining ekologik ongini oshirish, ularning huquqiy savodxonligini kuchaytirish va fuqarolik faolligini rag'batlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qonuniy asosda kafolatlangan huquqlarni to'g'ri anglash va ularni amalga oshirishda jamoatchilik va davlat o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shahar aholisi bu jarayonda ham huquqlarga, ham majburiyatlarga ega. Ularning bu sohadagi faol ishtiroki toza va sog'lom yashash muhitini yaratishda juda muhim.

Shahar aholisining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi huquqlari va majburiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Faqatgina o'z huquqlarini talab qiladigan va majburiyatlarini unutadigan fuqarolar emas, balki o'z **mas'uliyatini anglagan fuqarolar atrof-muhitni muhofaza qilishda chinakam o'zgarishlarga erisha oladi.**

Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi takliflar maqsadga muvofiq:

1. Maktablar, universitetlar va ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ta'lim va ma'rifatni kuchaytirish lozim. Bu, yosh avlodga tabiatga bo'lgan hurmatni shakllantirish bilan birgalikda o'z huquqlarini talab qilish va majburiyatini o'z vaqtida amalga oshirishga yordam beradi.
2. Hukumat organlari atrof-muhitga oid qonunlar va qoidalarga rioya etilishini ta'minlash uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirib borishi kerak. Agar ekologiyaga oid qabul qilinayotgan va qabul qilingan qonunlarda jamoatchilik nazoratini doimiy ta'minlashni yo'lga qo'ysak, yuzga kelayotgan har qanday muammoni oldindan aniqlab, bartaraf qilish yo'llari topilgan bo'lardi.
3. Ekologik tashabbuslar va loyihalarni moliyaviy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamoatchilik faolligini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish muhim. Jamiyatning ishtirokini to'g'ri rag'batlantira olsak, ekologiyaga qiziqish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan yondashuvlarni tezroq o'z yo'lga tushirgan bo'lamiz.

4. Shaharlarda chiqindilarni qayta ishlash, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, atmosfera havosini ifloslantirish oldini olish va yashil maydonlarni ko'paytirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarur.

Shu bois, aholining ekologik huquqlari va majburiyatlarini huquqiy, ijtimoiy va ma'rifiy jihatdan mustahkamlash orqali shahar ekologik muhitini yaxshilash, kelajak avlodlar uchun sog'lom hayot tarzini yaratish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.1992 yildagi 754-XII-son
2. Aarhus Convention implementation reports, UNECE.org
3. Bobir Turdiev PhD researcher at the Law Enforcement Academy, Tashkent, Uzbekistan "ENHANCING ENVIRONMENTAL TRANSPARENCY IN UZBEKISTAN: LEGAL PERSPECTIVES FROM THE AARHUS CONVENTION FRAMEWORK" https://inlibrary.uz/index.php/tajpslc/article/view/54288?utm_source=chatgpt.com
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son
5. Dai, M. How to Enhance Public Participation in Environmental Governance? Evidence from China. Sustainability 2024, 16, 3154. <https://doi.org/10.3390/su16083154>
6. Renewable and Sustainable Energy Reviews Volume 94, October 2018, Pages 1179-1191 "Carbon sequestration potential for mitigating the carbon footprint of green stormwater infrastructure" Emad Kavehei, G.A. Jenkins, M.F. Adame, C. Lemckert c
7. <https://www.mq.edu.au/research/research-centres-groups-and-facilities/centres/smart-green-cities>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.11.2024 yildagi 804-son

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF CRIMINAL LAW NORMS RELATED TO THE VIOLATION OF LABOR LEGISLATION

Abdurasulova Khadichakhon Ravshanbek kizi,

Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a step-by-step analysis of the historical and legal development of crimes related to the violation of labor legislation. The author examines the formation of such offenses, their legal foundations, and the evolution of criminal liability across different historical periods. The study identifies three main stages in the development of criminal liability in the field of labor law: the first stage — the period of the Russian Empire (from the second half of the 19th century to the early 20th century); the second — the Soviet era (1922–1991); and the third — the independence period of the Republic of Uzbekistan (from 1994 to the present). The socio-political context of each period, the normative legal framework, and the reflection of labor law norms in criminal legislation are compared and systematically analyzed. Special attention is given to the role of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, adopted during the independence period, in protecting labor rights, its compliance with international labor standards, and modern legal approaches.

Keywords: liability, violation of labor legislation, violation of the right to work, crimes related to labor law, criminal liability, history of labor-related crimes.

MEHNAT QONUNCHILIGINI BUZISH BILAN BOG'LIQ JINOYAT QONUNI NORMALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Abdurasulova Xadichaxon Ravshanbek qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat qonunchiligini buzish bilan bog'liq jinoyatlarning tarixiy-huquqiy rivojlanishi bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Muallif ushbu turdagi jinoyatlarning shakllanishi, ularning huquqiy asoslari va jinoiy javobgarlik choralarinin rivojlanishini turli davrlar kesimida o'rganadi. Tadqiqotda mehnat huquqi sohasidagi jinoyatlar uch asosiy tarixiy davrga ajratilgan: birinchisi — Chor Rossiyasi davri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarigacha), ikkinchisi — Sovet Ittifoqi davri (1922–1991-yillar), uchinchisi esa — O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davri (1994-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr). Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari, normativ-huquqiy bazasi va jinoyat qonunchiligida mehnat huquqi bilan bog'liq normalarning aks etishi o'zaro solishtirilib, huquqiy mezonlar izchil tahlil qilindi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining mehnat huquqini himoya qilishdagi o'rni, xalqaro mehnat normalariga uyg'unligi va zamonaviy huquqiy yondashuvlar alohida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: javobgarlik, mehnat qonunchiligini buzish, mehnat qilish huquqini buzish, mehnat qonunchiligini buzish bilan bo'g'liq jinoyatlar, jinoiy javobgarlik, mehnat qonunchiligini buzish bilan bo'g'liq jinoyatlar tarixi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N29>

N.S. Tagantsev o'z ilmiy asarlarida ta'kidlaganidek, har qanday huquqiy holat yoki institut muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, u ma'lum bir davlatda amal qilayotgan har qanday huquqiy holat, albatta, shu xalqning o'tgan tarixida ildiz otgan bo'lishini, amaldagi qonunchilik doirasida tarixiy talqinning katta

ahamiyatga ega ekanligini, agar biz qandaydir huquqiy institutni o'rganmoqchi bo'lsak, uni to'g'ri tushunish uchun ushbu institutning tarixiy taqdirini, ya'ni uning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillarni va tarixiy taraqqiyot davomida qanday o'zgarishlarga uchraganini o'rganishimiz zarurligini keltirib o'tgan [1].

Shu nuqtai nazardan, mehnat huquqlari sohasidagi amaldagi normalarni to'g'ri baholash va ularni takomillashtirish uchun mazkur institutning tarixiy ildizlari va rivojlanish davrlarini tahlil qilish hamda o'rganish muhimdir. Bu yondashuv o'tgan yillardagi ijobiy va salbiy tajribalarni tahlil qilish asosida zamonaviy huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, mehnat huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik hujjatlari faqat XIX asrning 30-yillaridagina vujudga kelgan [2]. Fuqarolarning mehnat huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik, xuddi ushbu sohani tartibga soluvchi mehnat qonunchiligining umumiy rivojlanishi singari, bosqichma-bosqich shakllangan. Shu sababli bu bo'yicha mamlakatimiz hududida amal qilgan jinoyat-huquqiy normalarga oid manbalar tahlil etilib quyidagi uch davrga ajratildi:

- 1) Chor Rossiyasi davri (XIX asrning 50-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha);
- 2) Sobiq ittifoq davri (1922-yildan 1991-yilgacha);
- 3) Mustaqillik davri (O'zbekiston Respublikasi JK qabul qilingan 1994-yil 22-sentyabrdan hozirga qadar).

XIX asrning 30-yillaridan oldin O'zbekiston qonunchiligida xodimlarning mehnat huquqlarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash masalalariga katta e'tibor qaratilmagan.

Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasining huquq manbalari tizimi o'ziga xos ko'rinishda edi. O'lkani boshqarish haqidagi Nizomning 256-moddasi, Rossiya imperiyasi fuqarolik qonunlar to'plamining 216, 255-moddalarida mahalliy xalqlar uchun asrlar mobaynida udum bo'lib kelgan musulmon huquqi tan olindi, ammo shunga qaramay, tub aholi juda ko'p huquqlardan mahrum etildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib huquq manbalarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin: 1) imperiya huquqi; 2) shariat huquqi. O'z navbatida, imperiya huquqi ham ikki qismdan – umumimperiya qonunlari va mustamlakachilik huquqlaridan iborat bo'lib, birinchisiga 1835-yildagi "Fuqarolik qonunlari to'plami", Veksellar to'g'risidagi Ustav, 1866-yildagi "Jinoiy va tuzatuvchi jazolar haqida"gi Nizomnoma (Уложение), shuningdek, 1864-yildagi Sud ustavlarini misol qilib ko'rsatish mumkin [3].

1866-yildagi "Jinoiy va tuzatuvchi jazolar haqida"gi Nizomnomada (Уложение) (1885-yildagi tahrirlardagi) mehnat huquqlarini himoya qilish haqida alohida bob yoki bo'lim mavjud emas edi.

Mehnatga oid ayrim qoidalar "Jamoat tartibi va obodonchiligiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan katta bo'limning ichidagi turli boblarda o'z aksini topgan edi. Masalan:

- Qurilish qoidalarini buzish;
- Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik;
- Transport yo'llarini saqlash qoidalarini buzish [4].

1903-yilda qabul qilingan Jinoyat Nizomnomasi mehnat sohasidagi fuqarolarni jinoiy-huquqiy himoya qilish rivojida keyingi qadam bo'ldi. Ushbu Nizomnomaning o'ziga xos jihati shunda ediki, unda jinoiy-huquqiy normalarni buzish uchun ham xodimga, ham ish beruvchiga nisbatan teng taqiqlar belgilandi. Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishini hamda mehnat

vazifalarini bajarishda voyaga yetmaganlardan foydalanishni tartibga soluvchi yangi reglamentlar paydo bo'ldi.

Chor Rossiyasi davrida mehnatni muhofaza qilishga oid yuqoridagi kabi normalar bo'lishiga qaramasdan, o'lka hududida mehnat huquqlari yetarlicha himoya qilinmagan. Xususan, o'lka sanoat korxonalarida mehnat sharoiti nihoyatda og'ir bo'lib, mehnatni muhofaza qilishga mutlaqo e'tibor berilmagan. Fabrika mexaniklaridan birining xabariga ko'ra, 1907-yilning iyulida "Katta Yaroslavl manufakturasi" shirkati zavodlarida o'zbek ishchilaridan 18 kishi shikastlangan. Ulardan 12 kishi mutlaqo ishga yaroqsiz bo'lib qolgan. 1906 yilda "Chimyon" neft konlarida 53 kishi mayib bo'lgan. Shikast topganlarning ko'plari mahalliy millat vakillari edi. Birgina 1911-yilning o'zida O'rta Osiyo temir yo'lida 2938 baxtsiz hodisa ro'y bergan [5]. Ammo mazkur holatlarga huquqiy yechim berish, bu kabi holatlarning oldini olishga e'tibor qaratilmagan.

Mehnat qonunchiligini buzish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarning keyingi rivojlanish bosqichi 1922-yilga to'g'ri keladi. Bu davrda RSFSR Jinoyat kodeksi qabul qilinishi natijasida mehnat munosabatlari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan normalar ishlab chiqildi. Mazkur kodeksda belgilangan qoidalar ushbu yildan boshlab O'zbekiston SSR hududida ham amalda qo'llanila boshladi.

1922-yil 24-mayda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksining "Xo'jalik jinoyatlari" deb atalgan IV bobidagi normalar ish beruvchilarning turli jinoyatlari uchun jazolarni belgilab bergan. Jumladan, ish vaqti me'yorlari va jamoa shartnomalari qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikdan tortib, kasaba uyushmalari faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikkacha jazo choralari belgilangan.

Shuningdek, mazkur kodeksga ko'ra, quyidagi moddalar mehnat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik masalalarini belgilab beradi:

132-modda. Yollanma ish beruvchi tomonidan Mehnat to'g'risidagi qonunlar va tarif haqidagi umumiy nizom bilan belgilangan ish kunining davomiyligi, ish vaqtdan tashqari ishlar, tungi ish, ayollar va o'smirlar mehnati, mehnatga haq to'lash, ishga qabul qilish va bo'shatishni tartibga soluvchi qoidalarning, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus normalarning buzilishi — kamida 100 oltin rubl miqdorida jarima yoki kamida uch oy muddatga majburiy ishlar yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar ushbu qonunbuzarlik bir guruh ishchilarni yoki ularning salmoqli qismini qamrab olsa, u holda jazo kamida bir yil muddatga ozodlikdan mahrum qilishgacha va kamida 1000 oltin rubl miqdorida jarimagacha kuchaytiriladi [6].

133-modda. Yollanma ish beruvchilar (davlat korxonalari va muassasalarining mas'ul shaxslari, shuningdek, xususiy shaxslar) tomonidan kasaba uyushmalari bilan tuzilgan jamoa shartnomalarining buzilishi — 132-moddada nazarda tutilgan jazo bilan jazolanadi [7].

134-modda. Fabrika-zavod qo'mitalari (mahalliy qo'mitalar), kasaba uyushmalari va ularning vakillarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki ularning o'z huquqlaridan foydalanishiga monelik qilish — kamida olti oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish va jarima yoki mol-mulknini musodara qilish bilan jazolanadi [8].

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilk sovet davlatida, xususan, 1922-yilda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksida mehnat qonunchiligini himoya qiluvchi normalar faqat bitta maxsus bob bilan cheklanib qolmay, balki bir nechta boblarda mazkur huquq sohasidagi munosabatlarni himoya qiluvchi normalarni o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida

namoyon bo'lgan. Jinoyatlar toifalarga ajratilgan qonun chiqaruvchi mehnat huquqlari himoyasini faqat mehnat munosabatlari doirasi bilan cheklamagan. Xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar, agar u ish joyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, shaxsga qarshi jinoyat sifatida baholangan.

Agar 1922-yilgi Kodeksda mehnat huquqlari himoyasi bir nechta boblardagi tarqoq normalar orqali (masalan, shaxsga qarshi, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar) amalga oshirilgan bo'lsa, 1926-yilgi tahrir bu sohadagi javobgarlikni tizimlashtirish va differentsiatsiya qilish (tabaqalashtirish) yo'lida jiddiy qadam tashladi. Buning yaqqol misoli mehnat sharoitlarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi 133-moddaning ikki qismdan to'rt qismgacha kengaytirilganidir. 1926-yilgi tahrirdagi kodeksga ko'ra, 133-modda quyidagicha yangi tahrirda qabul qilindi:

Yollanma ish beruvchi ham xususiy shaxslar, ham davlat yoki jamoat muassasalari va korxonalarining mas'ul shaxslari tomonidan mehnatni qo'llashni tartibga soluvchi qonunlarni, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish va ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonunlarni buzish – olti oygacha muddatga majburiy ishlar yoki uch yuz rublgacha jarima bilan jazolanadi.

Agar bu qonunbuzarlik kamida uch kishidan iborat ishchilar guruhini qamrab olsa, o'z tarkibiga ko'ra ushbu guruhga kiruvchi barcha shaxslarga nisbatan bir xil bo'lsa va ularning barchasiga nisbatan bir vaqtda sodir etilgan bo'lsa –bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki majburiy ishlar yoxud o'n ming rublgacha jarima bilan jazolanadi.

Xodimni, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzgan holda, o'z mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki yo'qotishi mumkin bo'lgan ish sharoitlariga qo'yish – ikki yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki bir yilgacha muddatga majburiy ishlar yoxud besh yuz rublgacha jarima bilan jazolanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan majburiy qarorlar asosida, shuningdek, Mehnat Xalq Komissarligining qarorlari, buyruqlari va yo'riqnomalari bilan belgilanadigan mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va gigiyenasi qoidalarini buzish –ma'muriy tartibda qo'llaniladigan bir oygacha muddatga majburiy ishlar yoki yuz rublgacha jarima bilan jazolanadi.

1930–1940-yillar davomida mehnat sohasida jinoiy javobgarlikni keskinlashtirish usullari faol qo'llanildi. Masalan, SSSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS), Butunittifoq Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Qo'mitasi va Butunittifoq Kasaba Uyushmalari Markaziy Kengashining 1938-yil 28-dekabrda Qarori bilan ishga kechikish va progullar uchun jinoiy javobgarlik joriy etildi. 1942-yil 13-fevraldagi SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoniga binoan esa majburiy mehnatga jalb qilishga yo'l qo'yilib, undan bo'yin tovlash 1 yilgacha muddatga majburiy ishlar bilan jazolangan.

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili XX asrning o'rtalaridagi sovet mehnat siyosatining ikki bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan davrini ochib beradi. Bu davrlar mehnatga va uning huquqiy himoyasiga bo'lgan davlat yondashuvining tubdan o'zgarganini namoyon etadi.

1930–1940-yillar sovet davlatining mehnat munosabatlariga maksimal darajada aralashuvi va javobgarlikni keskinlashtirish siyosati bilan tavsiflanadi. Bu davrning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Mehnat intizomini kriminalizatsiya qilish: ilgari faqat intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar jinoiy harakatlar qatoriga o'tkazildi. 1938-yilgi partiya va hukumatning qo'shma qarori bilan ishga kechikish va ishga sababsiz chiqmaslik (progul) uchun

jinoiy javobgarlikning joriy etilishi buning yaqqol misolidir. Bu bilan davlat ishchi kuchini korxonalariga “biriktirish” va uning ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishni maqsad qilgan.

Majburiy mehnatning keng qo‘llanilishi: ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida mehnat munosabatlari deyarli to‘liq harbiylashtirilgan. 1942-yilgi Farmon bilan majburiy mehnatga jalb qilish va undan bosh tortganlik uchun jinoiy jazo belgilanishi mehnat huquqlarining deyarli yo‘qqa chiqarilganini ko‘rsatadi. Bu davrda “mehnat huquqlarini himoya qilish” o‘rniga “mehnat majburiyatlarini bajarishni ta‘minlash” asosiy vazifaga aylangan.

1956-yil 25-aprelda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan SSSR OSPning 1940-yil 26-maydagi Farmoni bekor qilindi, u sababsiz ishga chiqmaslik (progul) va korxonadan o‘zboshimchalik bilan ketib qolish uchun jinoiy javobgarlikni belgilagan edi.

1951-yilda jinoyat huquqi nazariyasida Jinoyat kodeksida “Fuqarolarning mehnat va siyosiy huquqlariga qarshi jinoyatlar to‘g‘risida”gi alohida bobni ajratish bo‘yicha takliflar ustida faol ish boshlandi. Bunday harakatning zaruriyati davlatning o‘z mehnat resurslariga bo‘lgan e‘tibori va g‘amxo‘rligi, shuningdek, fuqarolarning mehnat huquqlarini jinoiy-huquqiy himoya qilishni jinoyat qonunchiligining eng muhim vazifalari va qadriyatlaridan biri sifatida aks ettirish bilan asoslandi [9].

1958-yil 25-dekabrda “SSSR va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligi Asoslari”, 1960-yil 27-oktyabrda esa – RSFSR Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Ushbu hujjatlar fuqarolarning mehnat huquq va erkinliklarini himoya qilishga mas‘ul bo‘lgan normalarni sezilarli darajada rivojlantirdi.

1958-yilgi Kodeksning eng katta yutug‘i – fuqarolarning mehnat huquqlariga qarshi jinoyatlar uchun maxsus 4-bobning ajratilishi bo‘ldi. Bu, 1951-yilda nazariyada ilgari surilgan g‘oyaning amaliy ifodasi edi. Endi mehnat huquqlari himoyasi boshqa jinoyatlar tarkibiga “singdirilgan” tarqoq normalar orqali emas, balki mustaqil, tizimli bob (138–140-moddalar) orqali ta‘minlanadigan bo‘ldi.

Vaqt o‘tishi bilan normalar takomillashtirib borildi: yo obyektiv tomoni kengaytirildi (masalan, JK 138-moddasida), yo subyektiv aniqlashtirildi (JK 140-moddasida).

Mehnat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning rivojlanishining keyingi bosqichi bu — mustaqillikdan keyingi davr bo‘lib, mazkur davr mustaqillikka erishganimizdan boshlab (1991-yildan) to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab oladi.

1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qabul qilinishi mehnat qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi normalarning rivojlanishining yangi bosqichi bo‘ldi. Xususan, unga muvofiq, mehnat qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ikki turdagi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish oqibatida kelib chiqishi nazarda tutildi:

- 1) Mehnat qilish huquqini buzish;
- 2) Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish.

Keyinchalik, mamlakatdagi ijtimoiy-huquqiy islohotlarga hamohang tarzda qayd etilgan normalar doimiy ravishda rivojlantirib borildi va ularning tarkibiga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, 1994-yildagi jinoyat kodeksiga ko‘ra, mehnat qilish huquqini buzish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan moddaning birinchi qism dispozitsiyasi quyidagicha tavsiflangan:

“Bila turib, g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish yoki ishga tiklash to‘g‘risidagi sud qarorini bajarmaslik, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilsa”.

Keyinchalik mazkur norma birinchi qismi dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrdagi O‘RQ-442-sonli Qonuni tahririda quyidagicha tahrirlandi va modda dispozitsiyasidan *ishga tiklash to‘g‘risidagi sud qarorini bajarmaslik* uchun javobgarlik chiqarib tashlandi: “Bila turib, g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilsa” [10].

Kodeks dastlab qabul qilingan davrda moddaning ikkinchi qism dispozitsiyasi quyidagicha bo‘lgan:

“Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish”. Ammo keyinchalik 148-modda ikkinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktyabrdagi O‘RQ-640-sonli Qonuni tahririda o‘zgartirildi va endilikda modda dispozitsiyasi bo‘yicha nafaqat ayolni balki erkak kishini ham yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish javobgarlikka sabab bo‘ladigan bo‘ldi, ya‘ni jabrlanuvchilar doirasi kengaytirildi [11].

Moddaning har ikkala qismlarining sanksiya qismi 1994-yildan to hozirgi kunga qadar dastlabki tavsiflangan holatidan mazmunan hech qanday o‘zgarishga uchramagan bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda sanksiyadagi “eng kam oylik ish haqi” so‘zlari “bazaviy hisoblash miqdori” so‘zlariga o‘zgartirilgan [12].

O‘zbekiston Respublikasining 1994-yilgi Jinoyat kodeksida mehnat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik belgilovchi normalardan yana biri bu 257-modda bo‘lib, unga asosan mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi.

Vaqt o‘tishi bilan ushbu normaning sanksiyalari bir necha bor o‘zgartirilib, jinoyat qonunchiligidagi gumanizatsiya tamoyillariga moslashtirilgan. Kodeks qabul qilingan vaqtdagi JK 257-modda dispozitsiyasi hozirgi kungacha o‘zgarishsiz qolgan. Biroq uning sanksiyalari quyidagicha tahrirlangan:

Moddaning birinchi qism sanksiyasi dastlab (texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalariga rioya etilishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs tomonidan buzilishi o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo‘lsa):

“eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

Ikkinchi qism sanksiyasi dastlab (o‘sha qilmish odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa):

“muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

Ko‘rinib turibdiki, dastlabki tahrirda jazo choralari, ayniqsa ozodlikdan mahrum qilish jazolari ancha qat‘iy bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi Qonuni bilan moddaning har ikki qismi sanksiyasidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosi yengillashtirildi:

Birinchi qismdagi “besh yilgacha” ozodlikdan mahrum qilish muddati “uch yilgacha” etib belgilandi.

Ikkinchi qismdagi “besh yildan sakkiz yilgacha” bo‘lgan jazo muddati “besh yilgacha” ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirildi.

Bu o‘zgarish jazo siyosatini liberallashtirish yo‘lidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi Qonuni bilan sanksiyalarga yangi jazo turi – ozodlikni cheklash jazosi kiritildi [13]:

Birinchi qism sanksiyasi “bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash” jazosi bilan to‘ldirildi.

Ikkinchi qism sanksiyasi “ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash” jazosi bilan to‘ldirildi.

Bu o‘zgarish jazolarni individuallashtirish va jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash imkoniyatini kengaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda Qonuni bilan moddaning birinchi qismi sanksiyasidagi jarima miqdorini belgilovchi atama o‘zgartirildi:

“eng kam oylik ish haqi” iborasi “bazaviy hisoblash miqdori” iborasi bilan almashtirildi. Bu butun mamlakat qonunchiligini unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) maqsadida amalga oshirilgan texnik o‘zgartirishdir.

Mehnat qonunchiligining rivojlanishidagi muhim yangiliklardan biri bu Jinoyat kodeksiga alohida, maxsus normaning kiritilishi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O‘RQ-603-sonli Qonuni bilan Jinoyat kodeksi 148¹-modda (Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi talablarni buzish) bilan to‘ldirildi.

Ushbu moddaning dispozitsiyasi quyidagicha tavsiflandi va hozirgi kunga qadar hech qanday o‘zgartirish kiritilmadi:

“Voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish, xuddi shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.”

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O‘RQ-603-sonli Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 148²-modda mehnatga ma‘muriy tarzda majburlaganlik uchun jinoiy javobgarlik bilan to‘ldirildi [14]. Ushbu normaning asosiy xususiyati shundaki, u ma‘muriy preyuditsiya institutiga asoslanadi. Ya‘ni, jinoiy javobgarlik faqatgina shaxs mehnatga majburlash bilan bog‘liq huquqbuzarlikni sodir etib, buning uchun ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga muvofiq jazoga tortilganidan keyin, shu qilmishni takroran sodir etgan taqdirdagina yuzaga keladi.

Dastlab umumiy norma sifatida kiritilgan ushbu modda keyinchalik jamiyatning eng zaif qatlamlari – voyaga yetmaganlar va o‘z kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga tez-tez jalb qilinadigan pedagog xodimlarni himoya qilish uchun maxsus tarkiblar bilan to‘ldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-martdagi O‘RQ-826-sonli Qonuni bu boradagi tub islohot bo‘ldi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 148²-moddasi uchinchi qism bilan

to'ldirilib, unda ta'lim tashkilotining pedagog xodimi jinoyatning maxsus jabrlanuvchisi sifatida e'tirof etildi [15].

Ushbu normaga ko'ra, mehnatga biron-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlash, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, quyidagi jazo choralarini keltirib chiqaradi:

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehnat huquqlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish tarixi Chor Rossiyasidan to XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda tarqoqlikdan tizimlilikka qarab rivojlandi.

Dastlab, XIX asrda mehnat xavfsizligi mustaqil soha bo'lmay, unga oid normalar jamoat tartibini saqlashga qaratilgan umumiy normalar bilan qamrab olingan bo'lsa, ilk ixtisoslashgan normalar faqat 1922-yilda jinoyat kodeksini qabul qilinishi bilan paydo bo'ldi.

1959-yilgi Jinoyat kodeksida mehnat huquqlariga bag'ishlangan maxsus, alohida bob yaratildi. Bu – mehnat huquqlari jinoyat qonunchiligining mustaqil va muhim himoya obyektiga sifatida to'liq tan olinganini anglatardi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning mehnat huquqlari himoyasiga oid jinoyat qonunchiligi jazolarni liberallashtirish, gender tengligini ta'minlash, normalarni aniqlashtirish hamda bolalar mehnati va majburiy mehnat kabi dolzarb muammolarga qarshi kurashish uchun maxsus moddalar kiritish yo'lidan bordi. Bu rivojlanish mamlakatdagi ijtimoiy-huquqiy islohotlar bilan hamohang tarzda, inson huquqlari himoyasini kuchaytirish tamoyillariga asoslanadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Таганцев Н.С. Курс уголовного права. – Спб.,1874. – Вып. № 1. – С. 21.
2. Вешняков Д.Ю. Эволюция законодательства об уголовной ответственности за нарушение правил охраны труда // Вестник Санкт-Петербургского государственного университета. Серия 14. 2012. No 1. С. 83.
3. Muqimov Ziyodullar. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: "Adolat", 2003. – 280 bet.
4. Хилтунов Николай Николаевич. Уголовная ответственность за нарушение требований охраны труда: диссертация ... кандидата юридических наук: 12.00.08 / Хилтунов Николай Николаевич; [Место защиты: Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации - ФГКОУ ВПО].- Москва, 2016.- 205 с.
5. O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob / Mas'ul muharrir N. Abduazizova. - T.: «Sharq», 2011. - 552 b.
6. СУ РСФСР. 1922. Ст. 37 https://pravo.by/upload/pdf/krim-pravo/UK_RSFSR_1922_goda.pdf
7. СУ РСФСР. 1922. Ст. 37 https://pravo.by/upload/pdf/krim-pravo/UK_RSFSR_1922_goda.pdf
8. СУ РСФСР. 1922. Ст. 37 https://pravo.by/upload/pdf/krim-pravo/UK_RSFSR_1922_goda.pdf
9. Наумов А.В. Российское уголовное право. Общая часть: курс лекций. – М.: БЕК, 2005.
10. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni.

12. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O'RQ-586-sonli Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustda O'RQ-389-sonli Qonuni.
14. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son — 2020-yil.
15. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-martda O'RQ-826-sonli Qonuni.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF DIGITAL SERVICES AS AN OBJECT OF CIVIL LAW RELATIONS

Khazratov Mekhriddin Fakhridin o'gli

Independent Researcher of Tashkent State University of Law (PhD)

e-mail: h.mex@mail.ru

Abstract. This article is dedicated to the scientific and legal analysis of the concept of digital services as an object of civil law relations. The article aims to explore the legal foundations of digital services, their role within the framework of civil law relations, and highlight issues related to digital services. It examines the development of digital technologies and their impact on civil law relations, as well as the regulation of digital services from a legal perspective through the analysis of doctrines and theories.

Keywords: digital services, civil law relations, legal foundations, digital technologies, regulation of digital services.

RAQAMLI XIZMAT TUSHUNCHASI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARINING OBYEKTI SIFATIDA

Xazratov Mexriddin Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola raqamli xizmat tushunchasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekt sifatida ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada raqamli xizmatlarning huquqiy asoslari, ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida qanday o'rin tutishi, raqamli xizmatlar bilan bog'liq muammolarni yoritish maqsad qilinadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ta'siri, shuningdek, raqamli xizmatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha doktrina va nazariyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli xizmatlar, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, huquqiy asoslar, raqamli texnologiyalar, raqamli xizmatlarni tartibga solish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N30>

The object of civil law consists of material and immaterial goods to which the actions of legal subjects are directed [1, 98-p.]. Objects of civil law can be classified into two types: material (tangible) and immaterial (intangible) assets.

In civil law, the category of "object" is used in several terminological combinations, such as "object of law," "object of legal relations," "object of civil law," and "object of civil-law relations." While these terms may have the same non-legal meaning, they differ in legal interpretation. This difference is determined by the degree of legal influence applied to the object and the stage at which the legal regime is formed[2, 110-111-p, 153-154-p.].

The "object of law" refers to what is subject to legal regulation, it is an external manifestation toward which the normative influence of law is directed — namely, social relations. As for the object of legal relations, it is considered to be wealth (objects, intellectual property, food, personal benefits, the result of actions).


According to pluralistic theory, scholars divide civil law objects into two groups[3, 287-p.]: the first group considers all types of wealth corresponding to types of civil rights (things, actions, intangible goods, services, etc.) [4, 119-120-p.]; the second group (represented by Khvostov, Trubetskoy, Shershenevich, Korkunov, and in modern times Alekseev, Bezruk, Sukhanov, Tarkhov, and others) classifies objects only into things and actions[5, 59-p.].

These scholars, from both the Anglo-Saxon and Romano-Germanic legal systems, consider services as intangible objects. However, modern law demonstrates various new forms of services — for example, delivery services, online commerce, and financial services. Unlike traditional services, modern services are often executed or facilitated by electronic platforms that automatically determine locations, optimize distribution, and significantly contribute to service quality and speed, even though human involvement remains in a managerial function.

Methods. This study employs a qualitative comparative legal analysis methodology to examine and assess the concept of digital services as an object of civil law relations. The comparative legal analysis method is particularly suitable for this research because it enables the systematic exploration of how different jurisdictions conceptualize and regulate digital services within civil law. Through this approach, the study identifies similarities, differences, legislative gaps, and potential improvements, thereby providing a deeper understanding of the legal nature of digital services and their role as an object of civil law relations.

Comparative Analysis. Access to information plays a very important role in our societies, as information impacts all aspects of our lives, either political or economic (such as giving or finding information on products and services). The so-called 'screen culture' shows that information can also shape culture. Access to information in the ICT survey is summed up by 2 indicators related to the finding of information about goods and services and the reading of online news (newspapers and magazines). In 2024, 65% of individuals aged between 16 and 74 years read online news. The share increased to 88% in Finland and 87% in Denmark. As concerns the finding of information about goods and services, the proportion was 75% in the EU (Figure 5). The Netherlands (96%) and Denmark (94%) reported the highest share among the EU countries (Figure 1).

Use of internet: communication, 2024
(% of all individuals aged 16-74 years)



Source: Eurostat (isoc_ci_ac_i)

eurostat

(Figure 1)

Despite their widespread practical use, the term “service” still lacks a unified conceptual definition and has not been fully categorized. Therefore, the purpose of this article is to present

a retrospective comparative analysis of different scientific approaches by foreign and local scholars to distinguish the interpretations of the following key concepts: “electronic service,” “digital service,” and to propose an original definition of the term “digital service.”

According to Russian scholar Kozyrev[6], a digital service is defined as a service that is not directly linked to a physical carrier of information but is related to it in essence.

Electronic services are based on electronic resources, which rely on information technologies and usually possess an informational character. Digital services, however, are primarily formed through end-to-end (integrated, multi-level) technologies and secondarily rely on ICTs. In Russia, an “electronic service” is often associated with the submission of electronic documents, which can be converted into paper form[7, 39-40-p.].

To define digital services, it is crucial to identify their nature and functions. Based on current trends, we define a digital service as the provision of a service to users through the processing, transmission, storage, or execution of other technological processes of data. Such services are delivered through electronic means, remotely, or via online platforms. The law should clearly define this term, including various forms of services such as online consultations, virtual classes, digital public services, e-commerce, and digital content provision.

Introducing the concept of “digital service” into Uzbekistan’s civil legislation will enable systematic and effective regulation of civil-law relations in this area.

It is essential to define clear legal criteria for digital service providers within civil legislation. Providers — including internet platforms, mobile apps, and other digital systems — must ensure transparency in service delivery. Their rights and obligations, including service duration, quality, security, and contract terms, should be regulated by existing civil law norms.

The field of digital services began its rapid development in the late 1990s and early 2000s. During this time, the internet and digital technologies penetrated many areas of life, leading to the emergence of new services such as online commerce, email, internet banking, and other digital services. Legal regulation in this area evolved alongside the development of these technologies[8, 159-p.].

As internet and e-commerce expanded, the foundational structures of digital services began to emerge. In Uzbekistan and several other countries, including the EU, the first laws on e-commerce and digital signatures were adopted.

By the 2000s, many new forms of digital service delivery emerged. The concept of “e-commerce” became widespread, and legal regulation of services provided in digital form began. Key documents such as the EU Digital Services Act[9] and the EU e-Commerce Directive played an important role in the legal regulation of digital services.

Special regulations should be developed for contracts related to digital services. These contracts must include detailed information about the delivery process, terms, duration, payment, and user rights. While such contracts may be concluded electronically, they must still meet all legal requirements to be considered valid.

Mechanisms must also be established to resolve disputes arising in the field of digital services. This includes developing new legal procedures for consumer complaints or contract violations, as well as introducing “online arbitration” or digital dispute resolution systems.

The history of digital service regulation and legal doctrines varies significantly between countries. This area is heavily influenced by the development of digital infrastructure and

technologies, and legal regulation has evolved in parallel. Below are key developments and legal doctrines related to digital services:

Results. Legal doctrines on digital services vary by country. They often relate to contract law, information law, data protection, and e-commerce regulation. Key legal doctrines include:

1) Electronic Contracts: Digital services rely heavily on electronic contracts that regulate the service delivery process via digital platforms. Doctrines on digital signatures and electronic documents are vital in this context.

2) Information and Technology Law: Legal doctrines in this field address intellectual property (copyright, patents, trade secrets), data protection, and cybersecurity.

3) E-Commerce Regulation: This includes doctrines regulating online payments, contracts, and delivery of products and services. Platform law theories have also emerged to govern the role of digital platforms.

Jack Balkin (USA) in his article “The Fiduciary Model of Privacy” and the theory of “Information Privacy and the Law” highlights the balance between digital services and personal data protection.

Larry Lessig (USA), in his book “Code and Other Laws of Cyberspace,” explores the intersection of internet and law, including online contracts, digital signatures, and the protection of digital rights. He coined the phrase “code is law,” emphasizing that in cyberspace, technologies embody law and regulation.

Uzbekistan’s transition to a digital economy began in the early 2000s, focusing on developing technological infrastructure and expanding internet access. Key milestones include the adoption of the Law “On Electronic Digital Signature” (December 11, 2003) and the Law “On Electronic Government” (December 9, 2015), enabling citizens and businesses to sign and submit documents electronically.

Despite this progress, digital service legislation in Uzbekistan remains relatively new. Presidential Decree of November 21, 2018, on modernizing digital infrastructure marked a significant step, followed by new legal frameworks aimed at regulating digital services, platforms, and e-commerce.

Article 81 of Uzbekistan’s Civil Code lists the objects of civil rights as things, including money and securities, other property, intellectual property, services, and other tangible and intangible goods. However, it does not specifically mention digital services.

Conclusion. The Law “On Electronic Commerce” treats services as “goods,” which we believe does not fully reflect their intangible legal nature. Therefore, distinguishing digital services from digital goods and clearly defining them in law would help address legal and social issues related to them.

As noted, some Russian scholars do not recognize services as objects of civil legal relations. This view ignores the technological and economic importance of modern services. On the other hand, scholars such as Kozyrev (Russia), Balkin, and Lessig (USA) propose a more modern understanding — that digital services are not based on physical form but are created through digital processes.

We support this view as it reflects that services today are composed of digital operations, not material outputs. Digital services are not just technical innovations — they are legal categories. Recognizing them as full-fledged objects of civil legal relations, establishing legal frameworks, and defining the rights and obligations of market participants is essential.

The approaches of Kozyrev, Balkin, and Lessig provide a solid scientific foundation for understanding digital services. Taking their perspectives into account in Uzbekistan's legal system and formally recognizing the legal status of "digital services" is timely and necessary.

The field of digital services is developing globally and contributing to the formation of new legal doctrines. In Uzbekistan, this process is ongoing, with new laws and regulations being developed. International experience and doctrinal insights must be used to improve and consistently regulate this area.

The regulation of digital services — ensuring their legal compliance and security — requires the application of scientific and legal doctrines that explore the technological, legal, and socio-economic aspects of digitalization. Implementing these recommendations will improve legal regulation in Uzbekistan and strengthen trust between users and digital service providers.

References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Authors' team. (2016). Civil Law: Textbook. Part I. Tashkent: Tashkent State University of Law Publishing House. (312 pages).
2. Senchischev V., The Object of Civil Legal Relations. General Concept, in: Actual Problems of Civil Rights, Braginskiy M. (Editor), Moscow, "Statut", 1998, 110-111, 153-154, available (in Russian) at: [https://www.researchgate.net/publication/344493799 Object of Civil Legal Relations](https://www.researchgate.net/publication/344493799_Object_of_Civil_Legal_Relations)
3. Alekseev A., On the Object of Law and Legal Relation, in: The Issues of the General Theory of the Soviet Law, Bratus S. (Editor), Moscow, "State Publisher of Law Literature", 1960, 287.
4. Dudin, A., The Object of Legal Relations (Theory Issues), Saratov, "Saratov State University Publishing House", 1980, 73; Senchischev V., The Object of Civil Legal Relations. General Concept, in: Actual Problems of Civil Rights, Braginskiy M. (Editor), Moscow, "Statut", 1998, 119-120, see: <<http://www.civillex.net/book/actprobl1998.pdf>> [15.04.10]; Bekker E., System des heutigen Pandektenrechts, Weimar, 1866, 62, see: Joffe O., Relationship on Soviet Civil Law, Leningrad, "Publishing House of Leningrad State University", 1949, 75. On this provision see: Braude I., On the Issue About Relationship in the Soviet Civil Law (Abstract), "The Soviet State and Law", №3, 1951, 56 (in Russian).
5. Vakulina A., "On the Concept of the Object of Civil Legal Relations, "Modern Science Intensive Technologies", №4, 2009, 59
6. Козырев А.Н. Цифровая экономика и цифровизация в исторической ретроспективе [Электронный ресурс] // Цифровая экономика (СЕРИ-RAS).- М.: ЦЭМИ РАН, 2017.URL: <http://digiteconomy.ru/stati/tsifrovaya-ekonomika-i-tsifrovizatsiya-v-istoricheskoy-retrospektive>.
7. Цветков В.Я., Семушкина С.Г. Электронные ресурсы и электронные услуги // Современные проблемы науки и образования. – 2009. – № 6-1. – С. 39-40.
8. Porsaev, G.M., Safarov, B.Sh., & Usmanova, D.Q. (2020). Fundamentals of the Digital Economy (Textbook). Tashkent: Fan va Texnologiyalar Publishing House. (189 pages).
9. Code and Other Laws of Cyberspace is a 1999 book by Lawrence Lessig. (Textbook)

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

PROSPECTS FOR FURTHER IMPROVEMENT OF THE SECURITY INSTITUTION FOR PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCEEDINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Mamatalieva Shakhnoza Khushmamat kizi,
Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law
Tashkent State University of Law
E-mail: shahnozaxushmamatovna64689397@gmail.com

Abstract. This article analyzes the existing legal gaps in the Criminal Procedure legislation of the Republic of Uzbekistan concerning the safety assurance of process participants - victims, witnesses, and other individuals. International experience, including the legislation of Georgia, Kyrgyzstan, and Moldova, has been studied. Additionally, the article provides suggestions and recommendations for protecting the safety of sexual violence victims, women, and other groups directly affected by the legal process.

Keywords: security, security in criminal proceedings, security of participants in criminal proceedings, protection, state protection, forms of protection.

ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamataliyeva Shahnoza Xushmamat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida protsess ishtirokchilari — jabrlanuvchilar, guvohlar va boshqa shaxslarning xavfsizligini ta'minlash borasidagi mavjud huquqiy bo'shliqlar tahlil qilingan. Xalqaro tajriba, jumladan Gruziya, Qirg'iziston va Moldova qonunchiligi o'rganilgan. Shuningdek, maqolada jinsiy zo'rovonlik qurbonlari, ayollar va jarayonga bevosita ta'sir qiluvchi boshqa guruhlar xavfsizligini himoya qilishga oid taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, jinoyat protsessida xavfsizlik, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi, himoya qilish, davlat himoyasi, himoya shakllari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N31>

Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivojlanishida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim omil hisoblanadi. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya" sida shaxs huquqlarini himoya qilishga, jumladan jinoyat ishlarini yuritishda himoya huquqini ta'minlashga oid bir qancha normalar mavjud bo'lib, ularga ko'ra «har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega» [1-33]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida, "jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan

isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi."; 54-moddasida, "davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi"; 55-moddasida "har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, -" deb ko'rsatilgan [2-34]

Qiziq jihati shundaki, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligi ta'minlanishi lozimligi, protsess jarayonida dalillarning tez va oson to'planishi, shuningdek jinoyatlarning ochilishida xavfsizlik masalalari muhim ekanligi bot-bot takrorlanadi, biroq na O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida, na O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi Qonunida jinoyat protsessi ishtirokchilari, jumladan, guvoh, jabrlanuvchi va protsess boshqa ishtirokchilari xavfsizligi tushunchasiga oydinlik kiritilmagan. Bu esa protsess ishtirokchilariga nisbatan xavfsizlik choralarining turlicha tatbiq etilishiga sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bu tushunchaning mavjudligi ayni shu xavfsizlik choralarining aniq va bir xilda qo'llanilishiga yordam berib, amalga oshirilish doirasini belgilab beradi.

Jumladan, milliy protsessualist olim G.Tulaganova protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash doirasiga jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i mol-mulki hamda sha'n va qadr-qimmatini bilan bog'liq masalalar muhim ekanligini ta'kidlaydi [3-12], biroq biz shu o'rinda shaxsning ishchanlik obro'si ham muhim deb hisoblaymiz, negaki axborotlashgan bir zamonda agar xavfsizligi ta'minlanishi lozim bo'lgan shaxsning ishchanlik obro'siga putur yetishi, katta ehtimol bilan uni qiyin moliyaviy vaziyatga solib qo'yishi mumkinligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Bu esa o'z-o'zidan shaxslarning guvohlik berishdan bosh tortish, jinoyatlar haqida xabar bermaslik, eng achinarli jihati esa adolatsiz hukmlar chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi 2019-yil 14-yanvardagi Qonunining 6-moddasida xavfsizlik choralari keltirilgan bo'lib, unda quyidagilar, jumladan:

- 1) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash;
- 2) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulki qo'riqlash;
- 3) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;
- 4) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;
- 5) boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish;
- 6) hujjatlarni almashtirish;
- 7) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash;
- 8) qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralarini ta'minlash kabilar.

Biroq, bu choralardan tashqari JPK ning tegishli normalarida sudlarning yopiq sud majlisida o'tkazilishi, shaxslarning ism-shariflari oshkor qilinmasligi, shuningdek taxalluslardan foydalanish mumkinligi, bundan tashqari jinoyat ishi yakunlangach, ish materiallari bilan tanishish jarayonida bayonnomalarning kirish qismlari taqdim etilmasligi, sudga muhrlangan holda yuborilishi kabi normalar ham mavjud. Bu esa jinoyat protsessi

ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash sirasiga kiritish mumkinligi sababli xavfsizlik choralari ikki xil ko'rinishda ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqib, xavfsizlik choralari protsessual xavfsizlik choralari va boshqa xavfsizlik choralari ajratish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, JPK 270-moddani tahlil qiladigan bo'lsak, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligiga mas'ul sifatida Ichki ishlar organlari belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq jinoyatlarning tergovga tegishliligi nuqtai nazaridan barcha hollarda Ichki ishlar organlari protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash imkoniyati mavjud emasligi hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Misol tariqasida, Davlat xavfsizlik xizmati tergovga tegishli ishlar yuzasidan xavfsizlik masalasini ayni shu organ amalga oshirilishi xavfsizlik choralari qo'llanishida ta'sirchanlik darajasini oshiradi.

Keyingi muhokama qilishimiz zarur bo'lgan masala shundan iboratki, "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi Qonunining 4-moddasida himoya qilinuvchi shaxslar ro'yxati keltirilgan bo'lib, unda xavfsizligi ta'minlanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi juda tor qilib belgilangan, jumladan unda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, xalq maslahatchisi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslari, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslari nazarda tutilmagan. Bundan tashqari, jinoyat ishlarini yuritishning asosiy bazasi hisoblangan Jinoyat-protsessual kodeksida umuman bu haqida so'z ketmaganligini ko'ramiz.

To'g'ri, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va xalq maslahatchilari faoliyatini tartibga soluvchi qonun normalarida ularning xavfsizlik masalalari bayon etilgan, biroq aynan qaysi shaklda, qaysi xavfsizlik choralari qo'llash mumkinligi xususida norma mustahkamlanmagan, bundan tashqari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxslari ham ayni dalillarni to'plash vakolatiga ega, bu esa o'z navbatida protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Negaki, ushbu organ mansabdor shaxslari to'plagan dalillari orqali ijtimoiy xavfi jihatidan yuqori bo'lgan jinoyatlar aniqlansa, dalillarni yo'qotish maqsadida ularning ham hayoti, sog'lig'i, mol-mulki kabilar xatarda qolishi mumkin. Shu sababdan ham ularning ham xavfsizligi ta'minlanishi jinoyatlarning batafsil va to'liq ochishiga sabab bo'ladi.

A.Umarxonovning fikricha, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar, xususan guvohlar va jabrlanuvchilar, protsess boshqa ishtirokchilar hamda ularning yaqin qarindoshlariga noqonuniy ta'sir ko'rsatish hollari ko'payayotganligi kelajakda huquqiy jihatdan muammoli vaziyat yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning dalillar manbai bo'lgan guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilishga hamda ilgari ma'lum bo'lmagan xavfli ijtimoiy-huquqiy hodisaga qarshi kurashishga, uning oldini olishga yetarli darajada tayyor emasligidan dalolat bermoqda. Fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidan qoniqmaslik hissini yuzaga keltirmoqda. Qonun chiqaruvchi organ jamiyatda jinoyatchilik darajasining o'sib borayotganligiga qaramay, shaxs manfaatlarini muhofaza qilish ustun vazifa ekanligini hisobga olgan holda unga qarshilik ko'rsatishning samarali jinoyat-huquqiy choralari kompleksining konseptual asoslarini ishlab chiqmagan [4-9].

Bu institutlar jazolash va taqiqlash ustunligiga emas balki odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning huquqiy va protsessual faolligini rag'batlantirishga tayanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalarida protsessga jalb qilingan shaxslarning himoyasini ta'minlash mexanizmi emas, balki faqat protsessual choralar (ishni yopiq sud majlisida ko'rib chiqish, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish, ismi sharifi va familiyasi o'rniga taxallusdan foydalanish va h.k.) qayd etilganligi, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligiga tajovuz qilish hollariga qarshi kurashni tartibga soluvchi normalar mukammal emasligi, ushbu normalarni qo'llash orqali guvoh, jabrlanuvchi, ekspertni hamda protsessning boshqa ishtirokchilarini amalda himoya qilib bo'lmasligi e'tirof etiladi[5-10].

Ha, albatta, protsess ishtirokchilarining qarindoshlari hayoti, sog'ligi, mol-mulki va boshqa huquqlari xavf ostida bo'lishi tabiiy holat, biroq milliy qonunchiligimizga asosan yaqin qarindoshlar, umuman qarindoshlar doirasiga ayni vaqtda qonuniy nikohda bo'lmagan er yoki xotin kiritilmasligini ko'ramiz, bu esa agar ularga nisbatan amalda real xavf mavjud bo'lsa, qonunchilikka asosan xavfsizlik choralarning hech bir shaklini qo'llay olmasligimizni ifodalaydi. Bu esa yana guvohlikdan bosh tortish, jabrlanuvchi sifatida o'z manfaatlarini himoya qila olmaslik, shu bilan birgalikda ayblov xulosasi, ayblov dalolatnomasi, shuningdek hukmning JPK normalarini buzgan holda chiqarilishi, haqiqatni aniqlash prinsipining buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, qarindosh bo'lmagan shaxslarning ham hayotiga amalda real tahdidlar amalga oshirilish holatlari yuzaga kelmoqda. Misol tariqasida, juda ham yaqin do'st yoki o'rtoq bo'lgan holatda guvohlik berilsa, ularning hayotiga tahdid bo'lishi mumkinligi ham bu kabi shaxslarning xavfsizligini ta'minlash zaruratini paydo qiladi.

Bundan tashqari, jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar tezkor-qidiruv tadbirlariga maxfiylik asosida ko'maklashayotgan shaxs va jinoyat shohidlari ham xavfsizligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi va bu normani qonunchilikda mustahkamlash lozim. Negaki, JPK da ham, «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi 2019-yil 14-yanvardagi Qonunda ham ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash ular ma'lum bir maqomga ega bo'lganlaridan so'ng amalga oshirilishi nazarda tutilgan, biroq yuqorida tilga olingan shaxslar bu jarayonda hech bir protsessual huquqiy maqomga ega emas. Shu sababdan agar ularga real xavf tahdidi mavjud bo'lsa, amalda qonunchilik doirasida hech bir xavfsizlik choralari qo'llash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Bu esa yana protsess davomida og'riqli masalalarga sabab bo'ladi. Bu jarayonda shaxslarning hayoti, sog'ligi, mol-mulki va yaqinlari xavf ostida qoladi.

Bu o'rinda muhokama qilishimiz lozim bo'lgan masala, protsess ishtirokchilariga qo'llaniladigan protsessual hujjat va unda ayni qaysi masalalar ko'rsatilishi lozimligidir. Gruziya Jinoyat-protsessual kodeksi 70-71-moddalarida [6] xavfsizlikni ta'minlash uchun qaror chiqarilishi, qarorda nimalar ko'rsatilishi lozimligi belgilangan, jumladan, maxsus himoya chorasini qo'llanilayotgan shaxs (protsess ishtirokchisini maxsus himoya dasturiga kiritish); maxsus himoya chorasining muddati, qo'llash mumkin bo'lgan organlar ko'rsatib o'tilgan. Milliy qonunchiligimiz hisoblangan Jinoyat-protsessual kodeksida ham ayni shu masalalar o'z aksini topsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari, xavfsizlik choralari qo'llash muddatlari ham e'tiborlidir, negaki bu jarayon uchun ayni bir muddatni qo'llay olmaymiz, ya'ni amalda real xavf qachon tugashi hech

kinga ayon emas. Bu jinoyat ishi tamomlanib, sudga yuborilgan bosqichdami yoki hukm chiqarilib, sudlanuvchi shaxs mahkumga aylangandami yoxud oqlangan yoki jazoni ijro etish muassasasidan chiqqandami, bu aniq belgilash imkoni mavjud emas. Shu sababdan muddatlarni nomuayyan, oqilona qilib belgilash, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda Gruziya va Qirg'iziston [7] qonunchiligining yana bir jihatini milliy qonunchiligimizga tatbiq etilishi, ba'zi bir amaliyotdagi masalalarning bartaraf etilishiga sabab bo'ladi deb hisoblaymiz, jumladan shaxs xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yishdir. Jinoyat- protsessual kodeksi 121²-moddasida ko'rsatilgan asoslarga ushbu asosni ham kiritish shaxs xavfsizligi ta'minlashning eng optimal usullaridan biri sifatida e'tirof etishimizga sabab bo'ladi.

"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi Qonunida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga nisbatan qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ularning shaxsi protsessning boshqa ishtirokchilarga ma'lum bo'lganligi bois, ularga nisbatan hujjatlarni almashtirish yoki himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni cheklash kabi choralar qo'llash imkonini bermaydi. Shuningdek, ish bo'yicha ikki va undan ortiq shaxslar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi tariqasida ishtirok etayotgan, ulardan aqalli bir nafari jinoyatni fosh etishga ko'maklashib kelayotganligi munosabati bilan unga nisbatan boshqa jinoyat ishtirokchilari yoxud manfaatdor shaxslar tomonidan tahdid qilish xavfi mavjud bo'lgan hollarda mazkur tahdidni oldini olish yoki bartaraf qilishga oid aniq-chora tadbirlarni belgilovchi qonun normasi mavjud emas. Shu bois, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish, ish bo'yicha dalillarni aniqlash, aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlashda ayrim hollarda haqiqatni aniqlashga ko'maklashish istagini bildirgan jinoyat ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlashda vakolatli organ yoki mansabdor shaxslarga muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Fikrimizcha, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda, ish holatlaridan kelib chiqqan holda xavfsizlik choralari qo'llash uchun dastlab, tahdid kim tomonidan amalga oshirilishiga qarab, tegishli choralarni qo'llash bilan birga tahdid qiluvchi shaxsga nisbatan ham ta'sir choralari qo'llash lozim bo'ladi. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan jinoyatning boshqa ishtirokchisi xavfsizligiga tahdid amalga oshirilishi haqida yetarli asos va ma'lumotlar bo'lganida, unga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash orqali tahdid bartaraf etilishi mumkin.

Shu bois, JPK ning 242-moddasida nazarda tutilgan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash uchun asoslar toifasiga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi tomonidan protsess ishtirokchilariga tahdid qilinganligi munosabati bilan ham ushbu ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkinligini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning barchasiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilgan bo'lsa, jinoyatni fosh qilishga ko'maklashayotgan ishtirokchi bilan boshqa ishtirokchilarning o'zaro aloqalarini cheklash, tanib olish, yuzlashtirish tergov harakatlarini texnika vositalaridan foydalangan holda o'tkazilishini ta'minlash, ularni protsessual harakatlar o'tkaziladigan joylarga alohida-alohida etap qilib olib kelinishi va boshqa-boshqa kameralarda saqlanishi yaxshi samara beradi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining hayoti va sog'lig'iga tahdid mavjud bo'lgan hollarda, xavfsizligini ta'minlash uchun xavfsizlik choralarini qo'llash haqida iltimosnoma berish huquqi bilan birga, o'ziga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash haqida iltimosnoma berish huquqini jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutish lozim.

Jabrlanuvchining vafoti bilan bog'liq ayrim ishlarda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining hayoti va sog'lig'iga jabrlanuvchining qarindoshlari yoki boshqa shaxslar tomonidan tahdid mavjud bo'lganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi o'ziga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash orqali uning xavfsizligi ta'minlanishi va jabrlanuvchining vakillari tahdid qilishdan to'xtashlari mumkinligi haqida vakolatli organga yoki mansabdor shaxsga murojaat qilish hollari amaliyotda uchrab turadi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, shaxsga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash haqida faqatgina prokuror tomonidan iltimosnoma berilishi mumkinligi, bu masala sud tomonidan hal etilishi nazarda tutilgan bo'lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining hayoti va sog'lig'iga tahdid amalga oshirilishini oldini olish maqsadida o'ziga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llashni so'rab iltimosnoma berish huquqini qonun normalarida aks ettirish, kelgusida uning xavfsizligini ta'minlashga hamda boshqa shaxslar tomonidan huquqbuzarlik yoxud jinoyat sodir etilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Gruziya Jinoyat-protsessual kodeksi 40-moddasida nazarda tutilgan yana bir ilg'or tajriba, ya'ni agar protsess ishtirokchilari xavfsizligiga tahdid solinishi mumkin deb hisoblansa, sudlanuvchi sud zalidan chiqarib yuborilishi yoki sudda ishtirok etish huquqidan mahrum etilishi belgilangan. Ushbu normani JPK 410-moddaga ham tatbiq etsak, sud protsessi davomida ishtirokchilar xavfsizligi ta'minlanishiga erishilishi mumkin.

Ayollarning jinoyat protsessida ishtirok etishi ular uchun qo'shimcha xavf-xatarlar tug'dirishi mumkin. Ular jabrlanuvchi, guvoh yoki ayblanuvchi sifatida ish yuritish jarayonida ruhiy bosim, tahdid va tazyiqlarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, jinoyat protsessida ayollarning xavfsizligini ta'minlash uchun qo'shimcha huquqiy kafolatlar kerak.

O'zbekistonda 2021-yilda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan 40 mingga yaqin xotin-qizga himoya orderi berilgan. Afsuski, bu zo'ravonliklarning 87 foizi oilalarda sodir etilgan. Xotin-qizlar huquqlari haqida gap ketganda, nafaqat bu huquqlarni ta'minlash haqida, balki bu muammo qay darajada dolzarbligini tushuntirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi raqamlarning o'zi katta ma'noga ega: 2021-yilda ichki ishlar organlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari yuzasidan 39 343 ta murojaat kelib tushgan va shuncha xotin-qizni himoya qilish maqsadida himoya orderlari rasmiylashtirib berilgan. Qiziq tomoni shundaki, jabrlanuvchilarga nisbatan himoya orderlari bo'lishiga qaramasdan, ayollarni himoya qilishning bu usuli o'zini oqlamagandek go'yo.

Guruhlarga bo'linganda: 106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, **18 777 ta ruhiy, 13 658 ta jismoniy** zo'ravonlik hamda 7 174 ta tazyiq holatlari aniqlangan. Eng yomoni, zo'ravonlik holatlarining 34 330 tasi yoki 87 foizi oilada sodir etilgan [8]

Demak, bir yilda taxminan 40 mingga yaqin ayol zo'ravonlik va tazyiqqa uchrab himoya orderi olishga majbur bo'lyapti, ularning 87 foizi o'z yaqin(lar)i jabridan panoh so'ragan.

Avvalo, ayollar jinoyat qurboni bo'lganda, ularning huquqlari va daxlsizligi himoya qilinishi kerak. Masalan, jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarda jabrlanuvchining shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlanishi va sudda alohida tartibda ko'rsatma berishi ta'minlanishi lozim.

Shuningdek, ularni psixologik qo'llab-quvvatlash va huquqiy maslahatlar bilan ta'minlash muhimdir.

Guvoh sifatida qatnashgan ayollar uchun himoya choralari, jumladan, yashirin guvohlik berish mexanizmi, davlat muhofazasi va tazyiqlardan himoya tizimi kuchaytirilishi kerak.

Ayollar xavfsizligi nafaqat sud va tergov organlari, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir. Har bir ayol huquqiy himoya va xavfsiz muhitda o'z huquqlarini himoya qila olishi kerak.

Jinsiy jinoyatlar va jabrlanuvchilar xavfsizligini ta'minlash zaruriyati

Jinsiy jinoyatlar jamiyatda jiddiy muammo bo'lib, ularning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish bo'yicha kuchli huquqiy mexanizmlar joriy etilishi zarur. 2018-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston hududlarida nomusga tegish va unga urinish bilan bog'liq jinoyatlar keng tarqalgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (16.44%), Toshkent viloyati (12.46%) va Toshkent shahri (12.11%)da qayd etilgan [9.]

Masalan, Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 215¹-moddasiga ko'ra, jinsiy jinoyat qurbonlariga himoya choralari qo'llanilishi mumkin. Bunday choralar orasida zo'ravonni jabrlanuvchining yashash joyiga yaqinlashtirmaslik, muloqotni cheklash va elektron kuzatuv tizimini joriy etish kabi mexanizmlar mavjud [10- Moldova Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi]. Bu amaliyotni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritish jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'lishi mumkin.

Bunday me'yorlar jabrlanuvchilarga nisbatan takroriy zo'ravonlik sodir etilishining oldini oladi, huquq-tartibot organlariga esa aybdorlarning harakatlarini nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, jabrlanuvchilarni himoya qilish bo'yicha himoya orderlari tizimini kuchaytirish, jabrlanuvchilarga yuridik va psixologik yordam ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish talab etiladi.

Qonunchilikda ushbu o'zgartishlarni kiritish orqali jinsiy jinoyatlar qurbonlari xavfsizligi ta'minlanadi, jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan nol tolerantlik muhiti shakllanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jabrlanuvchilar himoyasiga oid xalqaro standartlarga mos normalar joriy qilinishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.08.2018-yildagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" gi 24-sonli Qarorida ham shaxslarning xavfsizligi ta'minlanmasdan turib, dalillar olingan bo'lsa yoki olingan dalillar shubhaga sabab bo'lsa, nomaqbul deb e'tirof etish to'g'risida norma mustahkamlanishi lozim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. –T.: Adolat, 2024. –B.32-33.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Constitution.uz/uz/clause/index/
3. Tulaganova.G.Z., Matmurotov A. R., Mavlanov K.T. Jinoyat protsessida shaxs xavfsizligini ta'minlash. Risola. – T: TDYUI, 2016. – 12-35 betlar.
4. Umarxonov.A.Sh. Odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy choralarni takomillashtirish muammolari: Yurid. fanlari nomzodidiss. avtoreferati. –T.: IIV Akademiyasi, 2004. –B.3-9 .
5. Umarxonov.A.Sh. Odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy choralarni takomillashtirish muammolari: Yurid. fanlari nomzodidiss. avto referati. –T.: IIV Akademiyasi, 2004. –B.3-9 .
6. <https://matsne.gov.ge/en/document/view/90034?publication=162>

7. Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Elektron resurs: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36313326#_pos=1013;-50 (kirish sanasi 29.02.2024 yil).
8. Ayollarni zo'ravonlikdan himoyalash tizimi qanday ishlaydi? <https://kun.uz/6645321422.03.2024>
9. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2755/relationshi-r-data-20.08.2024>.
10. Moldova Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Elektron resurs: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=30397729 (kirish sanasi 19.02.2023).

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

SUPERIOR BARGAINING POSITION AND FORMS OF ITS ABUSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PRACTICE IN GERMANY, JAPAN AND SOUTH KOREA

Abduazizov Doniyor Baxtiyor ugli

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

e-mail: abduazizovdoni@gmail.com

Abstract. This article examines the legal concept of abuse of superior bargaining position and the mechanisms of its regulation in the practices of Germany, Japan, and South Korea. Unlike market dominance, superior bargaining position arises from a specific economic dependency and is manifested when the stronger party in contractual relations imposes unfair conditions on the weaker party that contradict ordinary commercial practices. The article provides a comparative analysis of the enforcement practices of the competition authorities in these countries and their criteria, highlighting the main forms of abuse of superior bargaining position and the legal standards applied in their assessment.

Keywords: superior bargaining position, forms of abuse, competition law, Bundeskartellamt, JFTC, KFTC, unfair trade practices, economic dependency.

USTUN MUZOKARA KUCHI VA UNING SUIISTE'MOLLIK SHAKLLARI: GERMANIYA, YAPONIYA VA JANUBIY KOREYA AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI

Abduazizov Doniyor Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish institutining huquqiy mazmuni va uning Germaniya, Yaponiya hamda Janubiy Koreya tajribasida tartibga solinish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ustun muzokara kuchi, bozor ustuvorligidan farqli o'laroq, muayyan iqtisodiy qaramlik asosida yuzaga keladi va shartnomaviy munosabatlarda kuchliroq tomonning zaifroq tomonga odatiy tijorat amaliyotiga zid bo'lgan, adolatsiz shartlarni majburan yuklashi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada mazkur mamlakatlarning raqobat organlari tomonidan huquqni qo'llash qilish amaliyoti hamda ularning mezonlari qiyosiy tahlil qilinib, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning asosiy shakllari va ushbu shakllarning aniqlashdagi huquqiy mezonlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: ustun muzokara kuchi, suiiste'mollik shakllari, raqobat huquqi, Bundeskartellamt, JFTC, KFTC, insofsiz savdo amaliyotlari, iqtisodiy qaramlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N32>

Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish bu xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa bir tomon bilan savdo aloqalarida nisbatan kuchliroq iqtisodiy kuchidan foydalanib, nohaq shartlarni majburan qabul qildirish yoki boshqa turdagi asossiz talablarga majbur etish holatlarini anglatadi [2-20]. Ustun mavqeni suiiste'mol qilishdan farqli ravishda, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatlari sezilarli bozor ulushiga ega bo'lmagan korxonalar tomonidan ham sodir etilishi mumkin, agar u muayyan iqtisodiy ustunlikka ega bo'lsa va bu

ustunlikni adolatsiz tarzda kontragentlariga nisbatan qoʻllagan boʻlsa kifoya [12-158-168]. Koʻplab davlatlar, ayniqsa taʼminot zanjiri doirasida kichik yetkazib beruvchilarni himoya qilish maqsadida, ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishga qarshi normalarni raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik yoki maxsus savdo qonunlari orqali tartibga soladi. Bu, ayniqsa chakana savdo sohasida dolzarb boʻlib, yirik chakana savdo tarmoqlari yoki platformalar oʻz yetkazib beruvchilari ustidan ustunlikka ega boʻlib, uni suiisteʼmol qilish xavfini oldini olishga harakat qiladi.

Ushbu maqolada Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyada tajribasida ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishni huquqiy tartibga solish tizimlari va ularni amalda qoʻllash tajribasi tahlil qilinadi. Tahlil quyidagi asosiy yoʻnalishlarni qamrab oladi: (1) ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishni taqiqlashning huquqiy asoslari; (2) ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilish holatlarini aniqlashda raqobat organlari tomonidan qoʻllaniladigan mezonlar va usullar; (3) huquqni muhofaza qilish jarayonlari va qoʻllaniladigan mezonlar va shartlar. Mazkur tahlil davomida tegishli qonunchilik, hukumat nashrlari va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda, ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishning mohiyati va unga qarshi kurashish mexanizmlarini tahlil qilinadi.

Metodologiya. Maqolada qiyosiy-huquqiy tahlil usuli qoʻllanilib, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyaning amaldagi qonunchilik normalari, raqobat organlari tomonidan ishlab chiqilgan koʻrsatmalar hamda sud amaliyoti oʻrganildi. Tahlil jarayonida milliy qonun hujjatlari, hukumat nashrlari va akademik adabiyotlar manba sifatida foydalanildi. Ushbu metodologiya orqali ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishning huquqiy mazmuni, mezonlari va qoʻllash mexanizmlarini aniqlash hamda davlatlar oʻrtasidagi umumiylik va farqlilikni koʻrsatish maqsad qilingan.

Qiyosiy tahlil uchun tanlangan mamlakatlar

Mazkur maqolada qiyosiy tahlil uchun uchta davlat tajribasi tanlab olindi. Bular:

1. **Germaniya** – Bundeskartellamt amaliyotida shakllangan huquqiy yondashuv, iqtisodiy qaramlik mezonlari va shartnoma adolatsizligini baholash usullari sababli.
2. **Yaponiya** – Monopoliyaga qarshi qonun (AMA) va Yaponiya Adolatli savdo komissiyasi (JFTC) koʻrsatmalarida ustun muzokara kuchi alohida insofsiz savdo amaliyoti sifatida tartibga solingani hamda batafsil huquqiy mezonlar ishlab chiqilgani tufayli.
3. **Janubiy Koreya** – Monopoliyani tartibga solish va halol savdo toʻgʻrisidagi qonun (MRFTA) hamda yirik chakana savdo faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun orqali ustun muzokara kuchini suiisteʼmol qilishning oldi olinishi va Koreya Adolatli savdo komissiyasi (KFTC) amaliyotining yapon tajribasiga yaqinligi sababli.

Mazkur davlatlar tajribasi tanlanishining sababi — ularning adolatli savdo amaliyotlarini mustahkamlashga qaratilgan aniq qonunchilik asoslari, raqobat organlarining faol amaliyoti va kichik xoʻjalik subyektlarini himoya qilishga yoʻnaltirilgan mexanizmlaridir

Maʼlumot yigʻish manbalari

Qiyosiy tahlilni tayyorlashda maʼlumotlar quyidagi manbalardan olindi:

- Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya qonunlari (GWB, AMA, MRFTA) va ularga oid ijro hujjatlari;
- Raqobat organlarining rasmiy koʻrsatmalari va amaliy qarorlari (Bundeskartellamt, JFTC, KFTC);
- Ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro ilmiy nashrlar;

- Rasmiy hukumat hisobotlari va xalqaro tashkilotlarning ochiq manbalari.

Tahlil qilish tartibi

Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- **Huquqiy normalarni aniqlash:** Har bir davlat qonunchiligida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishga oid asosiy huquqiy normalar qayd etildi.
- **Qiyosiy baholash:** Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya qonunchiligi va amaliyotidagi o'xshashliklar hamda farqlar tahlil qilindi.
- **Shakllarni tasniflash:** Adolatsiz savdo amaliyotlarining keng tarqalgan shakllari (majburiy xarid, to'lovlarni kechiktirish, xarajatlarni majburlash va boshqalar) aniqlab chiqildi.
- **Tavsiyalar ishlab chiqish:** O'zbekiston tajribasi uchun qo'llash mumkin bo'lgan nazariy va amaliy xulosalar shakllantirildi.

Ish qamrovi

Tadqiqotning asosiy e'tibori huquqiy va institutsional asoslarni tahlil qilishga qaratildi, iqtisodiy-statistik tahlil esa chuqur ko'rinishda amalga oshirilmadi. Ma'lumotlar asosan ochiq hujjatlar va ilmiy nashrlarga tayangan bo'lib, yopiq yoki maxfiy qarorlar tahlildan tashqarida qolgan. Natijada ishlab chiqilgan tavsiyalar xalqaro tajribaga mos bo'lsa-da, ular O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda qo'llanishi zarur.

Natijalar

Xalqaro huquqiy tajriba

Germaniya tajribasi

Germaniya raqobat qonunchiligiga ko'ra, ustun muzokara kuchi tushunchasi shunday holatlarda vujudga keladiki, bunda xo'jalik yurituvchi subyektlardan biri ikkinchi tomonning iqtisodiy faoliyatiga ma'lum darajada qaram bo'ladi. Agar ular o'rtasidagi hamkorlik tugatilsa yoki sezilarli darajada yomonlashsa, zaifroq tomonning tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishi jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Natijada kuchliroq tomon o'z shartlarini qarshi tarafga mustaqil tanlov imkoniyatisiz qabul qildirishga erishadi.

Germaniya Federal Kartel idorasi (keyingi o'rinlarda – Bundeskartellamt) bunday vaziyatlarni aniqlashda bir qator mezonlardan foydalanadi. Xususan, yetkazib beruvchining o'z mahsulotlarini sotishda chakana savdo tarmog'iga qanchalik qaramligi, muqobil xaridorlarning mavjudligi yoki ularning yetarlicha rivojlanmaganligi, shuningdek xarid bozorida chakana sotuvchining iqtisodiy ahamiyati sinchkovlik bilan tahlil qilinadi. Muhim jihati shundaki, ustun muzokara kuchiga ega tomon umumiy bozor segmentida hukmron mavqega ega bo'lishi shart emas. Ikki tomon o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda kuchlar notengligi mavjud bo'lishi ustun muzokara kuchi maqomini belgilash uchun yetarli asos hisoblanadi [8]. Masalan, yirik chakana savdo tarmoqlari kichik yetkazib beruvchilar bilan ishlaganda, agar ushbu yetkazib beruvchilar boshqa teng hajmdagi xaridorlarni topishda qiyinchilikka duch kelsa, bu chakana savdo tarmoqlari ustun muzokara kuchiga ega tomon sifatida baholanishi mumkin.

Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatini aniqlashda, Germaniya tajribasiga ko'ra, shartnomaviy majburiyatlar yoki qo'yiladigan talablarning odatiy tijorat amaliyotidan obyektiv asosga ega bo'lmagan holda chetga chiqishi alohida o'rganiladi. Bunday vaziyatda kuchliroq tomon zaifroq tomon zimmasiga ortiqcha majburiyatlarni yuklab, uning tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan asossiz og'irliklar keltirib chiqarishi suiiste'mol sifatida baholanadi [9-7]. Germaniya sud amaliyoti va Bundeskartellamt faoliyatida ustun muzokara kuchini suiiste'mol

qilishning turli shakllari qayd etilgan. Ularga quyidagilar kiradi: shartnomada bevosita nazarda tutilmagan, biroq ustun muzokaradagi shaxs tomonidan bir tomonlama tatbiq etiladigan chegirmalar yoki bonuslarni talab qilish; to'lov muddatlarini bir tomonlama tarzda asossiz uzaytirish; yetkazib beruvchilardan xaridorning xarajatlarini qoplashni majburan yuklash; shuningdek, ortiqcha tadbirkorlik tavakkalchiligini zaifroq tomon zimmasiga yuklash [7]. Bunday hollarda asosiy tahliliy mezon shundan iboratki, agar ustun muzokara kuchiga ega tomon olgan imtiyoz yoki ustunlik zaifroq tomonga mutanosib darajada foyda keltirmasa va u hech qanday samaradorlik yoki iqtisodiy zarurat bilan oqlanmasa, mazkur vaziyat zaif tomonni ekspluatatsiya qilinishi sifatida baholanadi.

Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish holatlarini aniqlashda Bundeskartellamt odatda ish yuritishning umumiy protsessual tartib-taomillaridan foydalanadi. Jumladan, u tahlil jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarga ma'lumot so'rovlari bo'yicha talabnomalar yuboradi, sohalar kesimida maxsus so'rov va tahlillarni amalga oshiradi hamda qarama-qarshi tomonlarning iqtisodiy qaramlik darajasini sifat jihatdan baholaydi [2-59]. Mazkur huquq instituti doirasida bozor ulushi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi, shu bois ustun mavqega ega bo'lmagan kompaniyalar ham javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuning uchun tahlilning asosini, avvalo, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy qaramlik darajasi hamda shartnoma shartlariga zid ravishda qo'llaniladigan adolatsiz savdo amaliyotlari tashkil etadi. Bunday hollarda bahsli shartlarning obyektiv zarurati yoki asoslanganligi haqida isbotlash majburiyati bevosita ustun muzokaradagi tomon zimmasiga yuklanadi.

Yaponiya tajribasi

Yaponiyada ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish raqobat huquqi doirasida alohida insofsiz savdo amaliyoti turi sifatida taqiqlangan [13-2-3]. Ushbu institutning huquqiy asoslari 1947-yilda qabul qilingan Monopoliyaga qarshi qonun (keyingi o'rinlarda – AMA) bilan belgilanadi. 2009-yilda ushbu qonunga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish shakllari qonunning 2-moddasi, 9-bandi, 5-kichik bandida mustahkamlab qo'yildi. Mazkur norma quyidagicha ta'rif beradi: *“o'zining ustun muzokara kuchidan foydalanib, odatiy tijorat amaliyotiga zid ravishda boshqa tomon zimmasiga asossiz zararli shartlarni yuklash”* insofsiz savdo amaliyoti sifatida baholanadi.

Boshqacha qilib aytganda, agar xo'jalik yurituvchi subyekt nisbiy iqtisodiy ustunlikka ega bo'lsa va uning qarama-qarshi tomoni mazkur talablarni rad eta olmagan holda asossiz shartlarni bajarishga majbur etilsa, bunday xatti-harakat AMA buzilishi sifatida baholanadi. Qonunda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning turli ko'rinishlari misol tariqasida keltirilgan. Ularga jumladan quyidagilar kiradi: kontragentni shartnoma shartlariga daxldor bo'lmagan mahsulotlarni xarid qilishga majburlash; bepul xizmatlar ko'rsatishni yoki mablag' ajratishni talab qilish; yetkazib berilgan tovarlarni bir tomonlama tartibda qabul qilmaslik yoki qaytarib yuborish; to'lovlarni asossiz kechiktirish; shuningdek, odatiy biznes amaliyotiga zid tarzda savdo shartlarini zararli shaklda belgilash.[3- 2 (9-5)]

Mazkur normalarning ijrosi Yaponiya Adolatli savdo komissiyasi (Japan Fair Trade Commission – keyingi o'rinlarda JFTC) tomonidan ta'minlanadi. 2010-yilda JFTC AMA doirasida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishga oid maxsus ko'rsatmalarni qabul qilgan bo'lib, ular hozirgi kunda ham tadbirkorlik subyektlari uchun asosiy me'yoriy-huquqiy manba vazifasini o'taydi. Ushbu ko'rsatmalarda ustun muzokara kuchining mazmuni batafsil izohlangan va qonun buzilishiga olib keluvchi xatti-harakatlarning aniq misollari keltirilgan.

JFTC alohida ta'kidlaydiki, xo'jalik yurituvchi subyekt ustun muzokara kuchiga ega bo'lishi uchun bozorning monopol yoki dominant ishtirokchisi bo'lishi shart emas. Yetarli darajada "nisbiy ustunlik" mavjud bo'lsa, ya'ni muayyan savdo munosabatlarida bir tomon ikkinchi tomonning iqtisodiy qaramligidan foydalanayotgan bo'lsa, ustun muzokara kuchi mavjud deb topiladi. Bunday vaziyat nafaqat yirik kompaniyalar bilan kichik hamkorlar o'rtasida, balki ikki yirik subyekt yoki ikki kichik subyekt o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin. Chunki ustunlikni belgilashda asosiy mezon bozor ulushi emas, balki muayyan iqtisodiy qaramlik darajasi hisoblanadi [4-5].

JFTC ustun muzokara kuchi mavjudligini aniqlashda bir qator sifat mezonlaridan foydalanadi. 2010-yilda qabul qilingan "Monopoliyaga qarshi qonun doirasida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishga oid ko'rsatmalar" da ushbu mezonlar to'rt asosiy guruhga ajratilgan.

Birinchi, zaifroq tomonning kuchliroq tomonga qaramlik darajasi baholanadi. Bunda, savdo hajmining qanchalik qismi aynan shu hamkor bilan bog'langanligi va ushbu ulushning tadbirkorlik faoliyati uchun ahamiyati e'tiborga olinadi.

Ikkinchi, kuchliroq tomonning bozor ulushi tahlil qilinadi. Unga kompaniyaning sohadagi ulushi, yetakchilik darajasi va strategik o'rni kiradi.

Uchinchi, muqobil hamkorlarni topish imkoniyati hisobga olinadi. Agar zaifroq tomon boshqa xaridor yoki buyurtmachini topa olmasa yoki u muayyan hamkorlik uchun shaxsiylashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirgan bo'lsa, u amalda kuchli tomonga qaram bo'lib qoladi.

To'rtinchi, boshqa tashqi omillar baholanadi. Jumladan, hamkorlik hajmi, ustun muzokaradagi shaxsning bozordagi obro'si va brend ta'siri, shuningdek, ikki tomon o'rtasidagi iqtisodiy hajm tafovuti ustun muzokara kuchini belgilovchi mezon sifatida ko'rib chiqiladi.

Ushbu mezonlar shuni ko'rsatadiki, agar ustun muzokaradagi shaxs bilan hamkorlikdan voz kechish zaifroq tomonning faoliyatini sezilarli darajada izdan chiqarsa, JFTC uni ustun muzokara kuchiga ega deb topadi. Muhim jihati shundaki, bu holat ko'pincha doimiy savdo munosabatlariga taalluqli bo'lsa-da, hatto bir martalik bitimlarda ham, agar zaifroq tomon real sharoitda talabni rad eta olmasa, ustun muzokara kuchi mavjud deb e'tirof etiladi [4-5-6].

Ustun muzokara kuchining mavjudligi o'zi qonun buzilishi uchun yetarli emas. Qonuniy javobgarlik yuzaga kelishi uchun ustun muzokara kuchiga ega shaxs xatti-harakati "odatiy tijorat amaliyotiga zid ravishda adolatsiz" bo'lishi lozim. Shu bois, JFTC kuchli tomonning qo'ygan talabi yoki qarori odatiy savdo amaliyotlaridan chetga chiqadimi va zaifroq tomonga bir tomonlama zarar yetkazadimi, degan savolni alohida tahlil qiladi. Masalan, shartlarni bir tomonlama va kutilmagan tarzda o'zgartirish, hech qanday huquqiy asosga ega bo'lmagan talablarni qo'yish yoki xarajatlar va risklarni kontragent zimmasiga majburan yuklash kabi amaliyotlar odatda suiiste'mol shakli sifatida baholanadi.

JFTC ko'rsatmalarida qayd etilganidek, ushbu tartibning asosiy maqsadi zaifroq tomonning mustaqil ravishda xo'jalik qarorlarini himoya qilish va bozorda adolatli raqobatni ta'minlashdan iboratdir. Chunki ustun muzokara kuchiga ega shaxs asossiz imtiyozlar talab qilishi kichikroq subyektlarning raqobatbardoshligini pasaytiradi va natijada bozorda raqobat muhiti buzilishiga olib keladi [13-12].

Amaliyotda uchraydigan keng tarqalgan suiiste'mollik shakllari bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Jumladan:

- Bitimga daxldor bo'lmagan tovar yoki xizmatlarni majburiy sotib olishga undash, ya'ni kontragentni o'z faoliyatiga aloqasi bo'lmagan qo'shimcha xaridlarni amalga oshirishga majbur qilish;
- Yetkazib beruvchilardan bepul xizmat yoki mablag' talab qilish, masalan, ularning xodimlarini chakana sotuvchining do'konlarida ishlashga yuborish yoki sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatishni bepul ta'minlash;
- Yetkazilgan tovarlarni asossiz ravishda qaytarib yuborish yoki to'lovni kechiktirish va kamaytirish, ya'ni kontragentning moliyaviy barqarorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadigan shartlarni majburan qo'llash;
- Yetkazib beruvchilar zimmasiga qo'shimcha moliyaviy yuklarni yuklash, xususan, reklama xarajatlari, savdo nuqtalarini ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar, "qo'llab-quvvatlash" badallari yoki ikki tomon o'rtasida kelishilmagan narxlarni tushirish talablarini kiritish.

Mazkur xatti-harakatlarning barchasi, agar ular huquqiy va iqtisodiy asos va mutanosiblikdan mahrum bo'lsa, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish sifatida baholanadi va AMA talablariga zid hisoblanadi [4-9-35].

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya tajribasida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish masalasi nafaqat umumiy raqobat huquqi normalari orqali, balki chakana savdo sohasiga oid maxsus qonunchilik orqali ham tartibga solinadi. Asosiy raqobat qonuni "Monopoliyani tartibga solish va halol savdo to'g'risidagi qonun" (Monopoly Regulation and Fair Trade Act, keyingi o'rinlarda – keyingi o'rinlarda MRFTA) ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni "insofsiz savdo amaliyoti" sifatida belgilab, uni taqiqlangan xatti-harakatlar qatoriga kiritadi [6-45]. MRFTAning ijro hujjatlarida hamda Koreya Adolatli savdo komissiyasi (Korea Fair Trade Commission – keyingi o'rinlarda KFTC) tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatmalarda ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning aniq ko'rinishlari belgilab berilgan. Qonun normalariga muvofiq, agar xo'jalik yurituvchi subyekt qarama-qarshi tomonning iqtisodiy qaramligidan foydalanib, uni "adolatsiz shartlarni qabul qilishga majburlasa", bu MRFTA buzilishi sifatida baholanadi. Muhim jihati shundaki, bunday hollarda bozor ulushini isbotlash talabi mavjud emas. Asosiy e'tibor tomonlar o'rtasidagi nisbiy kuch nomutanosibligi va yuklanayotgan shartlarning adolatligiga qaratiladi. Shu sababli, hatto umumiy bozor ulushida dominant hisoblanmagan kompaniyalar ham, agar ular alohida shartnomaviy munosabatlarda nisbatan ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilsa, javobgarlikka tortilishi mumkin.

Janubiy Koreyada ayrim sohalarda yetkazib beruvchilarni himoya qilishga qaratilgan maxsus qonunlar ham qabul qilingan. Ularning eng muhimlaridan biri "Yirik chakana savdo faoliyatida adolatli tranzaksiyalar to'g'risidagi qonun" bo'lib, 2012-yilda yirik chakana tarmoqlar va ularning yetkazib beruvchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan. Mazkur qonun chakana sotuvchilarga bir qator majburiyatlarni yuklaydi. Jumladan:

- to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyati;
- sotilmagan tovarlarni bir tomonlama qaytarishni taqiqlash;
- yetkazib beruvchilarni ularning roziligisiz aksiyalarda ishtirok etishga yoki xarajatlarni bo'lishishga majburlashni man etish.

Shu tarzda ushbu qonun yirik chakana sotuvchilarning ustun mavqeidan kelib chiqadigan suiiste'mol xatti-harakatlarini chegaralash hamda yetkazib beruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni maqsad qiladi [1-7]. Qonunning maqsadi yirik supermarketlar, universal do'konlar va onlayn savdo platformalari tomonidan kichik yetkazib beruvchilarga nisbatan odatiy tarzda uchraydigan suiiste'mollik shakllarini bartaraf etishdan iborat. MRFTA kabi, ushbu qonun buzilgan taqdirda ham KFTC tomonidan tuzatish choralarini ko'rish va jarimalar qo'llash imkoniyati mavjud.

Ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni baholashda KFTC yondashuvi Yaponiya amaliyotiga yaqin bo'lib, asosiy mezon sifatida iqtisodiy qaramlik va nisbiy kuch tafovuti olinadi. Bunda bir tomon shunday kuchga ega bo'lishi mumkinki, qarama-qarshi tomon uning qo'yg'an talablarini qabul qilishdan boshqa real imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Mazkur vaziyatni aniqlashda KFTC bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanadi. Jumladan:

- tomonlarning savdo hajmi va xarid hajmi o'rtasidagi sezilarli tafovut;
- zaifroq tomonning muqobil xaridorlar yoki yangi bozorlarni topish imkoniyatining cheklanganligi;
- ustun muzokaradagi shaxsning talabi bilan amalga oshirilgan investitsiyalar yoki shartnomaviy majburiyatlar tufayli vujudga kelgan strukturaviy bog'liqliklar.

Shu tarzda, KFTC uchun hal qiluvchi mezon bu tomonlar o'rtasidagi real iqtisodiy qaramlik darajasi va zaifroq subyektning amalda erkin tanlov imkoniyatidan mahrum bo'lishidir [5-40]. Mazkur tushuncha Janubiy Koreyaning tarixan chaebol-dominant iqtisodiy tuzilmasidan kelib chiqqan bo'lib, yirik konglomeratlar kichik yetkazib beruvchilar ustidan bir tomonlama shartlar belgilash imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli huquqiy aralashuv zarurati tug'ilgan. Shu bilan birga, KFTC ta'kidlaganidek, ushbu institut asosan yirik konglomeratlar kichik biznes hamkorlariga nisbatan ixtiyoriy va biryoqlama siyosat yuritgan hollarda qo'llaniladi [10].

Janubiy Koreya qonunchiligida ustun muzokara kuchini aniqlash uchun aniq bozor ulushi chegarasi belgilanmagan. Shuning uchun nisbatan kichik bozor ulushiga ega kompaniya ham ma'lum bir hamkor ustidan ustun mavqega ega bo'lishi mumkin, agar mazkur hamkor uchun bitim hajmi katta iqtisodiy ahamiyat kasb etsa. Masalan, agar chakana sotuvchi yetkazib beruvchining umumiy savdolarining 30 foizini tashkil etsa, shu sotuvchining umumiy bozor ulushi 20 foizdan past bo'lsa ham, u mazkur yetkazib beruvchiga nisbatan ustun muzokara kuchiga ega deb topiladi. KFTC o'z tahlilida asosiy e'tiborni zaifroq tomonning erkinlik darajasiga qaratadi. Ya'ni, u mazkur biznes munosabatlaridan "erkin chiqib ketish" imkoniyatiga egami yoki yo'qligini aniqlaydi. Agar bunday imkoniyat mavjud bo'lmasa, hatto bir martalik bitim doirasida ham ustun mavqe mavjud deb e'tirof etiladi. So'nggi yillarda KFTC o'z ko'rsatmalariga tegishli o'zgartirishlar kiritib, ushbu yondashuvni yana bir bor mustahkamladi, sud qarorlari esa bu talqinni qo'llab-quvvatlab, uni huquqiy amaliyotda yanada mustahkamlab berdi [11].

Ustun muzokara kuchi mavjud deb topilgach, KFTC xatti-harakatlarning adolatliligini tahlil qiladi. Qonun buzilishi uchun talab etiladigan asosiy mezon bu zaifroq tomonga bir tomonlama zarar keltiruvchi hamda odatiy tijorat amaliyotiga zid bo'lgan harakatlarning mavjudligidir. KFTCning amaldagi "Nohaq savdo amaliyotlarini ko'rib chiqish bo'yicha ko'rsatmalari"da ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishning eng ko'p uchraydigan shakllari sanab o'tilgan. Ularga jumladan:

- to'lovlarni bir tomonlama kamaytirish yoki kechiktirish;
- mahsulotlarni kelishuvsiz qaytarish yoki inventar tavakkalchiligini yetkazib beruvchiga yuklash;
- yetkazib beruvchilarni boshqa tovarlarni xarid qilishga yoki bepul xizmat ko'rsatishga majburlash;
- reklama va tashqi xarajatlarni majburan yuklash;
- shartnomani bir tomonlama o'zgartirish yoki bekor qilish kiradi.

Mazkur harakatlarning barchasi iqtisodiy asosdan mahrum bo'lsa va zaifroq tomonga bir tomonlama zarar yetkazsa, ular KFTC amaliyotida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilish sifatida baholanadi. Ushbu xatti-harakatlar odatda qonuniy asosga ega bo'lmagan, mutanosiblik mezonidan chetga chiqadigan va halol savdo shartlarini buzadigan holatlar sifatida baholanadi [11].

Muhokama. Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy o'rganilganda, ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni tartibga solishda mazkur davlatlarning huquqiy va institutsional yondashuvlari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ayrim muhim farqlar ham ko'zga tashlanadi. Germaniya tajribasi ko'proq iqtisodiy qaramlik mezoniga urg'u beradi: agar shartnoma munosabatlari tugatilishi zaifroq tomonni jiddiy qiyinchilikka duchor etsa, bu ustun muzokara kuchining mavjudligini bildiradi. Bundeskartellamt tahlilda savdo hajmi, muqobil xaridorlarning mavjudligi va chakana sotuvchining bozor ahamiyatini hisobga oladi. Muhim jihat shundaki, Germaniyada ustun muzokara kuchini aniqlash uchun bozor ustuvorligi shart emas — ikki tomon o'rtasidagi kuchlar nomutanosibligi yetarli asos hisoblanadi. Bu yondashuv Germaniya tizimining kuchli tomoni bo'lib, kichik yetkazib beruvchilarni himoya qilishda samarali mexanizm vazifasini bajaradi.

Yaponiya tajribasida ustun muzokara kuchi 1947-yildagi Monopoliyaga qarshi qonun bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, 2009-yilda unga kiritilgan o'zgartirishlar mazkur institutni alohida insofsiz savdo amaliyoti sifatida belgiladi. Yaponiya Adolatli savdo komissiyasi (JFTC) 2010-yildagi ko'rsatmalarida ustun muzokara kuchini aniqlash mezonlarini batafsil ishlab chiqdi. JFTC yondashuvi Germaniyaga qaraganda nisbatan tizimlashtirilgan bo'lib, u to'rt asosiy ko'rsatkichni (iqtisodiy qaramlik, bozor ulushi, muqobil hamkorlarni topish imkoniyati, tashqi omillar) nazarda tutadi. Shu bilan birga, Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ustun mavqega ega bo'lish uchun monopol yoki dominant o'yinchi bo'lish shart emas — nisbiy ustunlikning o'zi yetarli. Bu yondashuv huquqni qo'llashni kengaytirib, kichik hamda o'rta bizneslarni samarali himoya qilish imkonini beradi.

Janubiy Koreya esa Germaniya va Yaponiyaga nisbatan ikki darajali yondashuvni qo'llaydi: bir tomondan, umumiy raqobat qonuni — MRFTA orqali, ikkinchi tomondan, yirik chakana savdoga oid maxsus qonun orqali ustun muzokara kuchini tartibga soladi. Bu Koreya tizimining o'ziga xos kuchli jihati bo'lib, u nafaqat umumiy savdo munosabatlarini, balki sektorlar kesimidagi muammolarni ham qamrab oladi. KFTC amaliyotida ham Yaponiya tajribasiga o'xshash tarzda iqtisodiy qaramlik va zaif tomonning erkin tanlov imkoniyatidan mahrumligi asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, Koreyada ustun muzokara kuchini aniqlash uchun aniq bozor ulushi chegarasi belgilanmagan bo'lib, bu qoidaning amaliy ahamiyati shundaki, kichik bozor ulushiga ega korxonalar ham muayyan hamkor ustidan ustun mavqe kasb etishi mumkin.

Ushbu uch davlat tajribasi qiyosiy tahlil qilinganda, umumiy jihat sifatida shuni ko'rish mumkinki, barcha tizimlarda asosiy maqsad zaifroq tomonning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va bozorda adolatli raqobatni ta'minlashdir. Shu bilan birga, Germaniya ko'proq iqtisodiy qaramlikni aniqlash va odatiy tijorat amaliyotidan chetga chiqishni tahlil qilsa, Yaponiya huquqiy mezonlarni tizimlashtirish va kengaytirishga urg'u beradi, Janubiy Koreya esa sektoral yondashuvni ham qo'llab, chakana savdo sohasidagi suiiste'mol holatlariga qarshi maxsus qonunchilik choralarni ishlab chiqqan.

Xulosa. Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu davlatlarning huquqiy tizimlari adolatli savdo amaliyotlarini ta'minlash maqsadida ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilishni aniqlash va baholash borasida deyarli bir xil tartibni shakllantirgan. Har bir mamlakatning raqobat organlari shunday vakolatlar bilan ta'minlanganki, ular xaridor yoki chakana sotuvchi tomonidan yetkazib beruvchining iqtisodiy qaramligidan foydalanib, unga asossiz va nohaq shartlarni yuklash holatlarida bevosita aralashishga haqli hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Yaponiya va Koreya huquqiy amaliyotida ustun muzokara kuchini baholashda yagona metodologik yondashuv qo'llaniladi. Avvalo, bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan iqtisodiy qaramligi aniqlanadi va shu asosda boshqa tomonning ustun muzokara kuchi mavjudligi tasdiqlanadi. Keyin esa mazkur xatti-harakatning odatiy tijorat amaliyotidan chetga chiqishi hamda zaifroq tomonga asossiz zarar keltirishi baholanadi.

Mazkur tizimlarning umumiy maqsadi kuchli xaridorlarning ortiqcha talablar va adolatsiz shartlar orqali bozordagi sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olishdir. Chunki bunday adolatsiz amaliyotlar yetkazib beruvchilarning xarajatlarini oshiradi, innovatsion rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi va kichikroq xo'jalik subyektlarining bozordan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ushbu institut nafaqat kontragentlarni himoya qiladi, balki raqobat muhitining barqarorligini ham ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Korean Act on Fair Transactions in Large Retail Business (2012);
2. German Act Against Restraints of Competition;
3. Japan's Act on Prohibition of Private Monopolization and Maintenance of Fair Trade (Act No. 54 of April 14, 1947);
4. Japan's Guidelines Concerning Abuse of Superior Bargaining Position under the Antimonopoly Act;
5. KFTC Enforcement Decree & Guidelines: Definitions of ASBP and illustrative unfair practices
6. Korean Monopoly Regulation and Fair Trade Act;
7. Bundeskartellamt case reports: EDEKA/Plus decision (B2-58/09, 2014) and BGH judgment KVR 3/17 (2018) confirming the Anzapfverbot in retail;
8. GRP Rainer Lawyers Commentary: Explanation of the Anzapfverbot (prohibition on demanding unjustified benefits) in German antitrust law;
9. International Competition Network (ICN) (2008) Report on Abuse of Superior Bargaining Position, 7th Annual Conference of ICN, Kyoto, Japan;
10. K.T.Jung and Timothy J. O'Brien. The Asia-Pacific Antitrust Review 2008. Korea: Overview;
11. KIM&Chang. KFTC Announces Draft Amendment to Unfair Trade Practice Review Guidelines;

12. Xodjayev B.K., Radjapov X.M., Qalandarov A., Abduazizov D. (2025) Raqobat huquqi [Matn]: darslik / Xodjayev Baxshillo Kamolovich, Radjapov Xusain Muhammad o'g'li, Qalandarov A., Abduazizov D. – T.: TDYU nashriyoti;
13. Wakui, Masako and Cheng, Thomas K., Regulating Abuse of Superior Bargaining Position Under the Japanese Competition Law: An Anomaly or a Necessity? (June 4, 2015).

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF FRAUD COMMITTED THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES

Uralov Sarbon Sardorovich

Tashkent State University of Law
Department of Criminal Procedure Law
Acting Associate Professor, PhD in Law
E-mail: s.uralov@tsul.uz

Abstract. This article is devoted to the analysis of the most common forms of fraud in the context of the development of information technologies. It examines methods of unlawfully acquiring another's property under the guise of legitimate social or civil-law relations, as well as mechanisms of giving an appearance of legality to unlawful acts. The conclusion outlines proposals aimed at preventing fraud and protecting potential victims.

Keywords: fraud, information technologies, artificial intelligence, criminal-law relations, civil-law relations, disposal of property.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI SODIR ETILAYOTGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARI TAHLILI

Uralov Sarbon Sardorovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat protsessual huquqi kafedrası
dotsenti v.b., yu.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi axborot texnologiyalari zamonida sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining eng ko'p tarqalgan turlari xususida so'z yuritiladi. Asosan zamonaviy dunyoda ijtimoiy munosabatlar niqobi ortida o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritish, unga qonuniy tus berish, yoxud firibgarlik jinoyatining sodir etilish usulini go'yoki fuqarolik huquqiy munosabatlar tarzida inssenirovka qilish kabi holatlar ilmiy-amaliy nuqtai nazardan yoritib berilgan. Xulosa qismida esa mazkur jinoyatdan ogoh bo'lish hamda uning qurboni bo'lishning oldini olishga qaratilgan taklif va tavsiyalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: firibgarlik, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, jinoiy-huquqiy munosabatlar, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, mulkiy tus berish, mulkni tasarruf etish va foydalanish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N33>

KIRISH.

Firibgarlik usulining tuzilishidagi asosiy element uni sodir etish usuli bo'lib, uning maqsadi jinoiy tajovuz predmeti hisoblangan mulkni qo'lga kiritishdir.

Firibgarlik usullari shunday yo'llar bilan amalga oshiriladiki, bunda aldov jabrlanuvchining ishonchini qozonadi, natijada u firibgarga o'ziga tegishli mol-mulkni topshiradi. Firibgarlik jabrlanuvchi uchun ochiqchasiga sodir etilsa-da, u ma'lum faktik holatlar haqida chalg'itish bilan bog'liq bo'ladi. Jabrlanuvchilar ko'pincha aldovni darhol emas, balki ancha vaqt o'tgach anglydilar. Bu vaqt mobaynida firibgar nafaqat mulkni to'liq egallab olish,

balki yashirinish yoki tergov uchun muhim bo'lgan dalillarni yo'q qilish imkoniyatiga ega bo'ladi[1].

Firibgarlik usullari juda xilma-xil, ammo shunday bo'lsa-da, ularning takrorlanishi va bir xil shaxslar tomonidan qo'llanilishining barqaror tendensiyasi mavjud.

Texnologiyalar rivojlangani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari paydo bo'lmoqda. Shulardan eng keng tarqalgani – kiberfiribgarlikdir. Oxirgi 3-yilda bu turdagi jinoyatlar soni 8 barobarga ko'paygan[2].

TADQIQOTNING USULLARI.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy, sotsiologik so'rov o'tkazish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR.

- keng aholi qatlami o'zaro munosabatlarga ishonch bilan qarashadi;
- ijtimoiy munosabatlarga kirishilganda qonun doirasida belgilab qo'yilgan harakatlar bilan emas, balki urf-odat yoki milliy an'analarimiz doirasida harakatlanishadi;
- tahlikali dunyoda axborot texnologiyalari orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar haqida to'liq ma'lumotga ega emas;
- bunday jinoyatlar sodir etilishiga urinish aniqlanganda aholi o'rtasida tezkor aloqa orqali huquq-tartibot idoralariga murojaat qilmasliklari, murojaat qilinganda ham huquq-tartibot idoralarida tezkorlik bilan bunday jinoyatni sodir etishga suiqasd deb topgan holda javobgarlikka tortish amaliyoti yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA.

Noma'lum “xaloskor”. Bu sxemada firibgar odamlarning qo'l telefoniga qo'ng'iroq qilib, o'zini Markaziy bank, tijorat banki yoki to'lov tizimi (masalan, Click) xodimi deb tanishtiradi. Shundan keyin mobil ilova buzilgani, bank kartasi blok holatiga tushgani, kartadan noqonuniy pul yechib olishga urinishlar bo'layotgani va shu kabi turli uydirmalarni keltirgan holda, darhol chora ko'rilmasa, barcha mablag'lardan ayrilish mumkinligini ta'kidlab, ishonchga kirishga va emotsional ta'sir o'tkazishga urinadi.

Masalan, “bank kartangizdan qanchadir mablag' o'g'irlandi, bu sizmisiz?” deyishi mumkin[3]. Firibgar “tezroq”, “hoziroq”, “keyin tushuntiraman”, “tezroq kerak” kabi so'zlar bilan sarosimaga solishga urinadi. Bu holatda hech qachon telefoningizga kelgan bank kartalari bilan bog'liq bir martalik yuborilgan SMS-kodni, tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalariga kirish huquqini beruvchi login va parollarni hech qanday shaxslarga aytmang. Ular sizdan olgan ma'lumotlar (SMS-kod, login va parol va h.k.) orqali bank kartangizdagi pul mablag'larini ko'chirib olish yoki ruxsatingizsiz boshqarish imkonini qo'lga kiritadi.

“Tanlovda g'olib bo'ldingiz”. Noma'lum shaxs siz bilan bog'lanib, tanlovda g'olib bo'lganingiz bilan tabriklaydi. Keyin sizga “yutib” olgan pulni qabul qilib olishingiz uchun link yuboradi va ko'rsatilgan saytga kirib mablag'larni qabul qilishingiz haqida aytadi[4]. Saytga kirib, plastik karta raqami, amal qilish muddati, telefon raqam va kelgan SMS xabarnomadagi parolni ham kiritganingizdan keyin, plastikdagi barcha pul soniyalar ichida yechib olinadi.

Sovg'alar taklif etgan holda “qo'shimcha to'lovlar”, “garov puli qo'yish” yoki boshqa yo'llar bilan pul o'tkazishni so'rash ham firibgarlik alomatlarini hisoblanadi[5].

“Guruhga odam qo‘shing”. Oxirgi vaqtlarda avj olayotgan firibgarlik turlaridan yana biri – Telegram guruhlariga odam qo‘shish orqali qanchadir mablag‘ bilan taqdirlanishdir. Ushbu holatda ham firibgarlar telefon raqam va plastik karta ma‘lumotlarini bilib olib, hisobdan pul yechib olishga urinadi.

Shu tufayli turli aksiya va konkursarga ishonib, shaxsiy hisob ma‘lumotlarini begonalarga oshkor etmaslik tavsiya etiladi, aks holda firibgarlik qurboniga aylanib qolishingiz mumkin.

Elektron savdo platformalari. Onlayn savdo platformasiga (masalan, OLX.UZ) o‘z narsangizni sotish uchun joylashtirdingiz. Bir ozdan so‘ng e‘lon bo‘yicha xaridor chiqadi va sizga yozadi. Siz bilan savdolashadi. Shundan so‘ng tovar pulini yuborganini, hisobni tekshirib ko‘rish kerakligini aytib, havola yuboradi[6]. Yuborilgan havolaga esa kartadagi pulni yechib oladigan tizim o‘rnatilgan bo‘ladi. Kirganingizdan keyin pulingizni yechish uchun karta raqamingizni so‘rashadi.

Karta raqamini yozganingizdan keyin hech qanday pul ko‘rinmaydi. Keyin sotuvchi pul yo‘qligini, ko‘rinmayotganini aytadi. Shundan so‘ng ular maxfiy kodni telefoningizga yuborishadi va shu orqali kartangizdagi hamma mablag‘ni yechib olishga urinishadi.

Onlayn xizmatlarning rivojlanishi insonlarga shu kabi qator yengilliklarni beryapti, biroq bu bilan birga “virtual firibgarlik” ham avj olishda davom etmoqda. Firibgarlar endi o‘z o‘ljalarini onlayn tarzda ovlayapti.

Ko‘p hollarda fuqarolar onlayn to‘lovlardan foydalanish qoidalaridan bexabarligi, ijtimoiy tarmoqlarda botlar va kanallardan foydalanishda virtual bilimlarning yetarli emasligi sabab firibgarlarning tuzog‘iga tushib qoladi. Noqulay vaziyatlarga tushib qolmaslik, yolg‘on qurboniga aylanmaslik, pullardan ayrilib qolmaslik uchun odamdan biroz diqqat, ozroq qunt talab etiladi.

“Fishing” usuli. Fishing sxemasi oddiy – qalloblar taniqli brendlar, banklar va yetkazib berish kompaniyalari nomidan firibgar saytiga havolani tarqatishni tashkil qilishadi[7].


Firibgarlar o‘zlarini bank xodimi, Click, Payme kabi to‘lov tizimlaridan ekanini aytib, “Plastik kartangizga kiberhujum bo‘lyapti” yoki tizimda qandaydir xatolik yuz bergani, tizim yangilangani uchun unga raqamni qayta ulab qo‘yish kerakligini sabab qilib ko‘rsatadi.

“Hozir sizga maxfiy kod yuboriladi, uni zudlik bilan aytishingiz kerak”, deydi[8]. Agar raqamni ulash uchun kodni berishmasa, foydalanuvchilar tarmoqdan uzib qo‘yilishlari, pul o‘tkazish-yechish amaliyotlarini bajara olmasdan bloklanib qolishlarini yoki bo‘lmasa, kartasidagi pullaridan ayrilib qolishini aytib, bosim o‘tkazishadi. Shuningdek, foydalanuvchidan shaxsiy ma‘lumotlari: karta raqam, login va parollar ham so‘ralishi mumkin. Sodda insonlar esa vahima va qo‘rquv ostida bunday aldovlarga ishonib, darhol telefoniga kelgan SMS-kodni aytadi va kartasidagi bor mablag‘dan ayriladi.

Qanday himoyalani kerak?

Sayt nomiga e‘tibor bering. Manzil satrida haqiqiy sayt https bilan boshlanadi, soxta sayt http bilan boshlanadi yoki sayt nomi o‘zgartirilgan bo‘ladi. Masalan, <https://www.korzinka.uz> emas, <http://www.korzinka.official.u...> (<http://www.korzinka-online.uz> va hokazo).

Soхта xabarlar



ИИВ ТҚД Киберхавфсизлик маркази


“Pul yutib olishingiz mumkin”, “Sovg’a yutib oldingiz”, “Sizga qanchadir mablag’ meros qoldi” yoki “Sizga birorta fond tomonidan pul ajratildi, uni ushbu havola orqali olishingiz mumkin” kabi xabarlar orqali insonlarni ishontirib, shaxsiy ma’lumotlarini bilib olish holatlari ham ko’p kuzatiladi.

Hozirgi kunda ulardan eng ommalashgani bu — meros haqidagi va’da.

Sizga ham elektron pochta yoki messenjerlar orqali qaysidir xorijlik uzoq qarindoshingiz yoki familiyangiz o’xshash insondan tasodif tufayli sizga katta meros qoldirgani haqida xabar kelgandir.

Ushbu merosni qo’lga kiritishdagi dastlabki xarajatlar sizning bo’yingizda bo’ladi. Pul yutib olganiga yoki kutilmaganda “merosxo’r” bo’lib qolganiga ishongan sodda odamlar esa havola orqali maxfiy ma’lumotlarini: karta raqam, login va parollarini kiritib, ushbu mablag’ni to’lab yuborishadi. Natijada “merosxo’r” yoki “sovrindor” emas, balki jonli xo’rakka aylanishadi.

Banklar nomidan soxta yutuqlar. Firibgarlar soxta akkaunt, soxta saytlar orqali foydalanuvchilarga yozishadi, turli reklamalar orqali ularni jalb qilishadi. Banklar tomonidan pul ajratilgani yoki yutuqli o’yinda g’olib bo’lganlikni tasdiqlovchi xabarlarini jo’natib, havola orqali uni olish mumkinligini ta’kidlashadi.



ИИВ ТҚД Киберхавфсизлик маркази

Biroq bu kabi xabarlarga ishonishdan oldin foydalanuvchining akkauntini ko'zdan kechirish va sayt nomi hamda domeniga e'tibor berish kerak. O'zbekiston hududidagi barcha to'lov tizimlari, banklar hamda rasmiy saytlar faqat ".uz" domeni bilan tugaydigan manzildan foydalanadi. Xabar jo'natgan akkauntida esa asosan bitta rasm bo'ladi va telefon raqami ko'rsatilmaydi.

Oldi-sotdi saytlardagi firibgarliklar. Firibgarlar oldi-sotdi saytlarida sotuvga qo'yilgan narsalarga xaridor sifatida o'zini tanishtiradi. Faqat uzoqda, boshqa bir viloyatda yashashini aytib, tovarni pochta orqali berib yuborishingizni iltimos qiladi. So'ng turli banklarning soxta saytini yaratib, (masalan, "anorbank.uz" emas, «anorbank.uz-derart.com») "mana shu saytga karta ma'lumotlaringizni kiritib, pulni qabul qilib oling", deydi. Siz esa haqiqiydek ko'ringan saytga o'ylab o'tirmasdan ma'lumotlaringizni kiritasiz, qarabsizki, kartadagi barcha pullaringiz yechib olinadi.

Buning teskarisi ham bo'lishi mumkin. Ya'ni firibgarlar xaridor emas, sotuvchi rolda ham ko'pchilikni chuv tushiradi: aytaylik, 6 million so'mlik noutbukni yarim narxiga baholab, saytga e'lon beradi. Sotib olmoqchi bo'lganlarni tovar holati ijobiyligiga ishontirgandan so'ng, hammasi firibgar rejasi asosida davom etadi. Kim ham katta chegirmada xarid qilishni xohlamaydi deysiz? Xaridorlar "iltimos, hech kimga sotib yubormang, men olaman", deyishni boshlaydi va firibgar ularning har biriga "Xaridorlar juda ko'p, xohlasangiz pulning yarmini hoziroq tashlab bering, men boshqaga sotmay turaman", deb mo'maygina mablag' yig'ib oladi va "g'oyib bo'ladi".

Pul o'tkazish uchun ba'zida bank karta raqami, egasining F.I.Sh, STIR kerak bo'ladi. Ammo CVV-kod, PIN-kod va SMS-xabarlar orqali kelgan bir martalik tasdiqlash kodlari hech qachon talab qilinmaydi. Agar sotuvchiga ishonmasangiz, oldindan to'lovni amalga oshirmang.

Sarmoya, xayriya taklifi. Firibgarlar, shuningdek, o'zlarini treyding yoki qandaydir qurilish kompaniyasi vakili sifatida tanishtirib, "Siz bizga ma'lum miqdorda sarmoya kiritish evaziga ko'p pul ishlab olishingiz mumkin", deb ham odamlarni aldaydi. Achinarlisi, oramizda mana shunday oddiy yolg'onlarga ishonib qolayotganlar ham yo'q emas.




Фото: ИИР ТКП Киббохалфизилик мақкачи


Virtual firibgarlar insonlarni chuv tushirishda mashhur qiyofalardan ham foydalanishmoqda.

Hozirgi paytda *Alisher Usmonov*, *Ravshan Ermatov*, *Zafar Hoshimov*ning qiyofalaridan foydalanish orqali odamlarning ishonchiga kirish firibgarlarning “trend”dagi usuli bo‘lib turibdi.

Firibgarlar mashhurlarning videotasviriga sun’iy intellektga asoslangan dastur yordamida qayta ishlov berib, audioyozuvlarni soxtalashtirish yo‘li orqali buni amalga oshiryapti. Natijada sodda insonlar soxta “mashhur”larga ishonib, katta miqdordagi pul mablag‘larini virtual firibgarlar qo‘liga berib qo‘ymoqda[9].

Tarmoqlar hamda messenjerlar orqali davlat rahbari nomidan aholiga, yoshlarga, oilalarga pul ajratilayotgani, shuningdek, foizsiz kreditlar berilishi haqidagi xabarlar jo‘natish holatlari ham ko‘p kuzatilmoqda.

Bu mazmundagi xabarlarga ishonishdan oldin saytning nomiga, domeniga e‘tibor berish kerak. Masalan, “Har bir bolali oilaga 850 ming so‘mdan to‘lov” haqidagi xabarni olaylik.



Yordam pulini **helpchildren.coqsecu.com** saytidan olish mumkinligi ta'kidlangan[10]. Bu kabi mazmundagi xabarlarning yolg'onligini domen manzilidagi chalkashlik, noaniqlik va imloviy xatolardan ham aniqlash mumkin: firibgarlar asosan oddiy, grammatik xatolar bilan yozadi yoki so'zlar bir-biriga to'g'ri ulanmagan bo'ladi. Bu esa boshqa tildan o'zbek tiliga tarjima asosida yozilganini isbotlashi mumkin. Afsuski, bularning yolg'on ekanini bilganlar ham bor, bilmaganlar ham.

Bularni o'qib, "Menda ham xuddi shunday vaziyat bo'lgan", deyayotgan bo'lsangiz, ajabmas, chunki virtual firibgarlar tuzog'iga ilinganlar soni kundan kunga ko'payib bormoqda.

XULOSA.

Ma'lumotlarga ko'ra, har sekunda dunyo bo'yicha 5-7 nafar fuqarolar to'lov kartalari vositasida virtual firibgarlik jabrlanuvchisiga aylanarkan.

Fishing – bu firibgarlikning bir turi bo'lib, uning maqsadi foydalanuvchining maxfiy ma'lumotlari — login va parollarni qo'lga kiritishdir.

Fishingga olib kelishi mumkin bo'lgan 5 ta keng tarqalgan xatolar:

- antiviruslardan foydalanmaslik;
- elektron pochtaga kelgan noma'lum xabarlarni ochish;
- saytning manzil satrini tekshirmaslik;
- xavfsiz bo'lmagan sahifalar orqali to'lovlarni amalga oshirish;
- barcha to'lovlar uchun bitta bank kartasidan foydalanish.

Bu xatolarga yo'l qo'ymaslik orqali firibgarlikdan himoyalaniş mumkin.

Onlayn firibgarlik uchun qonunchilikda qanday javobgarlik mavjud?

Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik va uning turlari uchun javobgarlik va jazo belgilangan. Unga ko'ra, firibgarlikni axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etganlik uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 400 baravarigacha jarima yoki 2-yildan 3-yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etib, 5-yildan 8-yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Уралов, С., & Утаров, К. (2025). ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИНИНГ СУДГАЧА БЎЛГАН БОСҚИЧИДА РАҚАМЛИ ИШ ЮРИТИШ. *Modern Science and Research*, 4(2), 159–167. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65334>
2. Sardorovich, Uralov S. "Dynamics and Current State of Youth Crime in the Republic of Uzbekistan." *World Bulletin of Management and Law*, vol. 31, 8 Feb. 2024, pp. 9-12.
3. Абдулхаев А. ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ КРИМИНОЛОГИК ТАВСИФИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 48. – С. 38-49.
4. Кушбаков Д. М., Эгамбердиев В. О. Фирибгарлик жиноятини барвақт профилактикасини такомиллаштириш масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 118-122.
5. Искандеров П. К. ИНТЕРНЕТ ОРҚАЛИ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ: ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ //Eurasian Journal of Technology and Innovation. – 2024. – Т. 2. – №. 1-3. – С. 168-173.
6. Қадамович Б. Х., Халилов Ж. У. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ УМУМИЙ ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 17-22.
7. Tadjiyev A., Abdusharipov M. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI SODIR QILINADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATINING SHAKLLARI VA ULARGA TAVSIF //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 24. – С. 65-68.
8. Абдреимов А., Сайфуллаев Ў. ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИ ОЛДИНИ ОЛИШГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. Special Issue 12. – С. 69-74.
9. Исомиддинов С. Основные направления совершенствования виктимологической профилактики мошенничества //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 3/S. – С. 185-192.
10. Тошев О. Почему растет число мошенничеств. Можно ли это предотвратить? //Правовые вопросы противодействия мошенничеству и киберпреступлений. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-91.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF HOOLIGANISM COMMITTED BY MINORS

ABDURASHIDOV Abdurauf Abdurashidovich

Lecturer at the Department of Criminal Procedure Law
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the legal and criminological characteristics of hooliganism committed by minors. Within the scope of the study, the socio-economic and psycho-emotional causes of this type of crime are examined, as well as the psychological features of juvenile offenders. The article analyzes the elements of such crimes based on current legislation and emphasizes the theoretical and practical importance of distinguishing between crimes and administrative offenses.

Statistical data on cases of hooliganism committed by minors in the Republic of Uzbekistan are reviewed. International experience in the prevention of such crimes is studied, and practical recommendations are proposed to increase the effectiveness of preventive work among minors. These include enhancing the educational role of schools, families, and community institutions (neighborhood).

Keywords: minors, hooliganism, crime, criminology, prevention, legal responsibility, psycho-emotional causes.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN BEZORILIK JINOYATLARINING XUSUSIYATLARI

Abdurashidov Abdurauf Abdurashidovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi
e-mail: abdurashidovabdurauf1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatlarining huquqiy va kriminologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ushbu jinoyat turining ijtimoiy-iqtisodiy va psixoeotsional sabablari, shuningdek, voyaga yetmagan jinoyatchilarning psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Mazkur toifadagi jinoyatlar tarkibining alomatlarini amaldagi qonunchilik asosida tahlil qilib, jinoyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi chegarani belgilashning nazariy-amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatining statistik ma'lumotlari tahlil qilinib, mazkur jinoyatni oldini olish bo'yicha xalqaro tajriba o'rganilib, voyaga yetmaganlar o'rtasida profilaktik ishlar samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalari, oila va mahalla institutlarining tarbiyaviy funksiyalarini kuchaytirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, bezorilik, jinoyatchilik, kriminologiya, profilaktika, huquqiy javobgarlik, psixoeotsional sabablar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N34>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturning 16-maqsadi sifatida – jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish belgilandi.[1; 1-b].

Shuningdek, ushbu maqsadning ustuvor vazifasi sifatida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish ham belgilandi. Shu kungacha davlat dasturida belgilangan maqsadga erishdikmi?! Ushbu savolga biz O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatlarining xususiyatlarini ilmiy tomondan o'rgangan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqamiz.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatlarining xususiyatlariga to'xtatilishdan oldin. O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatlarining statistikasini tahlil qilsak.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar tomonidan bezorilik jinoyatlarini sodir etilishi (2021-2024-yillar yanvar-dekabr oylari uchun) quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan.

Xususan, 2021-yilda 239 ta, 2022-yilda 284 ta, 2023-yilda 453 ta, 2024-yilda 356 ta.[2; 1-2 b.]

Shuningdek, kriminolog olimlarning bu boradagi fikrlarini ko'rib chiqamiz. Xususan, M.X.Rustambayevning fikricha bezorilik jinoyatlari, o'z xususiyatiga ko'ra, jamiyat va uning tinchligiga raxna soladigan jinoyatdir. Bezorilik qilib jamoat tartibini buzish orqali shaxsga ozor berish har qanday holatda ham yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.[3; 257-b.].

Bundan tashqari, "bezori shaxsi" shartli tushuncha bo'lsada, ushbu shartlilik bunday shaxsni alohida o'rganishni istisno qilmaydi. Mazkur masalada eng muhim jihat – shaxsning o'ziga xosligi, jinoiy xulq-atvori va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. V.N. Kudryavsev insonning alohida ijtimoiy toifasi sifatida bezori shaxsi jinoiy shakldagi xulq-atvorning o'ziga xosligi bilan bevosita bog'liqligini, u deviant xulq-atvorning har qanday boshqa shakldan o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan sifat jihatdan ajralib turishini doimo yodda tutish lozim, deb hisoblaydi.[4; 6-9 b.].

Shuningdek, D.Karaketovanning fikriga ko'ra, agar bezorilikning o'ziga xos ko'rinishlarini nazarda tutsa, bunday motivlar bor deb faraz qilinishini, bezorilikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish orqali bezorilar jinoiy xulq – atvori motivining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ham mumkin bo'ladi deb ta'kidlaydi.

Bezorilikning ko'pchilik motivlari mutlaq, o'ziga xos bo'lmasligi va boshqa harakatlarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini, ammo maqsadni tanlash va maqsadga erishish vositalari shaxsning xususiyatlari bilan bevosita bog'liqligini, har bir shaxsning individual xususiyatga egaligi inobatga olinsa, jinoiy xulq-atvor mexanizmi turli tuman va keng ko'rinishga ega degan xulosa shakllanadi degan fikrni ilgari suradi.[5; 152-153 b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, biz ham voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatining qanday xususiyatlari borligini ko'rib chiqamiz.

Bizning fikrimizcha, bezorilik jinoyatining **3 ta** asosiy xususiyatlari bo'lib, bularga:

- **ijtimoiy-axloqiy, jinoiy-huquqiy** va **kriminologik** xususiyatlari kiradi.

- **ijtimoiy-axloqiy xususiyati** – jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, o'z mazmuniga ko'ra umum e'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan, ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda sodir etish.

- **jinoiy-huquqiy xususiyati** – urish – do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish, badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib, yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilishi, sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib,

ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab, ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bo'lsa, jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etish.

- **kriminologik xususiyati** – bir guruh shaxslar tomonidan, yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan shaxs yoki o'z ahvoldagi shaxslarni xo'rlab, takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilishi bezorilik jinoyatlarining xususiyatlari sifatida qaraymiz.

Bezorilik jinoyatining ijtimoiy – axloqiy xususiyatini kengroq ko'rib chiqsak. Jamiyatda tinchlik, xavfsizlik va aholi farovonligiga tahdid solish. Ushbu jinoyatni sodir etish orqali jamiyatda noqulay muhit yaratish, jamiyatda umumiy qabul qilingan axloqiy me'yorlar, masalan, insonlar bir-birini hurmat qilish, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi qadriyatlarga qarshi harakatlar sodir etish. Bu jinoyat turi insonning o'z harakatlari uchun mas'uliyat hissini yo'qotganligini ko'rsatadi, ya'ni shaxs atrofdagilarni bezovta qilish, ularning tinchligiga aralashish orqali o'z manfaatlarini qondirishga harakat qiladi. Bezorilik jinoyatlari jamiyatdagi insonlararo axloqiy munosabatlarning buzilishiga, qarama-qarshiliklarga sabab bo'ladi.

Shuningdek, jinoiy-huquqiy xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish, badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilishi, sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab, ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir etilgan bo'lsa, jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etish jinoyat deb topiladi.

Bundan tashqari, kriminologik xususiyati deganda? Biz O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi bir guruh shaxslar tomonidan, yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan shaxs yoki o'z ahvoldagi shaxslarni xo'rlab, takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilishi bezorilik jinoyatlarining xususiyatlari sifatida qaraymiz va buning sababi sifatida voyaga yetmaganlarning oilasidagi nosog'lom muhit, tashqi salbiy muhit, psixologik, ta'lim darajasining pastligi kriminologik xususiyatini belgilab beradi.

Bundan tashqari, ushbu jinoyatning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini o'rganib chiqamiz.

- **Oilaviy muhit va nazorat yetishmasligi** – Oila bola shaxsiyatining shakllanishida asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi! Zo'ravonlikka moyil, nazorati zaif bo'lgan oila muhiti bolaning og'riqli yoki deviant xulq-atvoriga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ajrashgan otalar, iqtisodiy qiyinchiliklar, alkogolizm yoki narkomaniya bilan bog'liq muhitda o'sgan bolalarda bezorilikka moyillik yuzaga keladi.

- **Ijtimoiy tengsizlik va kambag'allik** – Qashshoqlik, ishsizlik, ta'lim sifatining pastligi va ijtimoiy adolatsizlik yoshlar o'rtasida norozilik, agressiya va jamiyatga nisbatan salbiy munosabat uyg'otishi mumkin bo'lgan sabab. Bunday holatlarda yoshlar o'zini namoyon qilish, "avtoritet-jinoiy muhitda nufuzli shaxsga aylanish" maqsadida bezorilikka yo'l qo'yishi mumkin.

Shuningdek, yana bir muhim sabablardan biri bu – **mahalla va muhit ta'siri** voyaga yetmaganlarning yashash hududida jinoyatchi guruhlar, kattalarning zo'ravonlikka moyilligi,

nazoratsizlik kabi omillar ularda bezorilik yoki boshqa jinoyatlarni sodir etishga moyillikni kuchaytiradi. Jinoiy muhitda o'sgan bolalar uchun zo'rvonlik va bezorilik ular uchun odatiy hol sifatida qabul qiladi.

Mazkur jinoyatni sodir etishda voyaga yetmagan bolalarning **psixoemotsional sababini** ham o'rganib chiqish lozim. Emotsional beqarorlik va agressiya – voyaga yetmaganlarda hissiy barqarorlik to'liq shakllanmagan bo'lib, ularda qo'rquv, nafrat, izolyatsiya hissi, agressiya va haddan tashqari impulsivlik yuzaga kelishi mumkin. Emotsional yetishmovchilik, oila a'zolarining mehirsizligi, inqirozli vaziyatlar (tahqirlanish, tahdid, kamsitilish) ularni zo'rvonlik bilan **“o'zini himoya qilish”**ga olib keladi.

Shaxsning to'liq shakllanmaganligi, o'zini anglash va nazorat qilish qobiliyati yetarli darajada emasligi, javobgarlik hissi zaifligi, o'z-o'zini boshqara olmaslik voyaga yetmaganlar orasida jinoiy xulqni yuzaga keltiradi.

Yana bir sabab sifatida – **Rollik identifikatsiya muammolarini ko'rishimiz mumkin.** Ya'ni o'spirinlar o'sish davrida o'z shaxsini topish, ijtimoiy rolini belgilashga intiladi. Agar ijobiy namuna topilmasa, ular salbiy obrazlar (bezori, jinoyatchi, qo'rquv soluvchi) orqali o'zini namoyon qilishga harakat qilishadi.

Bundan tashqari, bezorilik jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganlarning psixologik xususiyatlarini ham ko'rib chiqamiz.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning bir nechta psixologik xususiyatlari bo'lib, bularga impulsivlik, agressivlik, empatiya yetishmasligi, liderlikka intilish, ijtimoiy normalarga nisbatan bee'tiborlik.

Ushbu xususiyatlar ya'ni, Impulsivlik – harakatlarini o'ylamasdan amalga oshirish, oqibatini o'ylamaslik. Agressivlik – jismoniy yoki og'zaki zo'rvonlikka moyillik. Empatiya yetishmasligi – boshqalarning holatini tushunishda qiynalish. Liderlikka intilish – tengdoshlar orasida nufuz qozonish uchun jinoiy xatti-harakatlarni sodir etish. Ijtimoiy normalarga nisbatan bee'tiborlik – qonunlarga, odob-axloq va jamiyat talablariga bepisandlik bilan qarash va befarqliklar kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyati va huquqbuzarlik o'rtasidagi chegarani nazariy-amaliy jihatdan ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasida Bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq holda sodir etilishi jinoyat deb baholanadi.

Nazariy jihatdan jinoyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi farqlash – huquq normalarini to'g'ri kvalifikatsiya qilish imkonini beradi. Shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi – jinoyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi chegarani belgilashda muhim. Shaxsning motivi va maqsadi, xatti-harakatining darajasi, jamiyat uchun xavf darajasi, yetkazilgan zararining miqdori asosida baholanadi.

Tergov organlari tomonidan mazkur huquqbuzarlikni jinoyat yoki jinoyatni huquqbuzarlik sifatida baholab, noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini buzilishiga va jamiyatda qonuniylik, odillik prinsipining buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, jinoyat va huquqbuzarlik o'rtasidagi farqlashni amaliy jihatiga ham to'xtalib o'tsak. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun me'yor – voyaga yetmaganlarning hayotiy tajribasi va psixologik barqarorlikka ega bo'lmaganligi sababli,

ularning xatti-harakatlariga huquqiy baho berishda bahsli vaziyatlarga sabab bo'ladi. Ilmiy asoslangan va qonunda belgilangan chegara huquqbuzarlik va jinoyatni to'g'ri huquqiy baholashda sudya va tergovchilarga yordam beradi.

Bezorilik jinoyatini sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni kelgusida jinoyat sodir etishini oldini olish, uni qayta tarbiyalash maqsadida tarbiyaviy va profilaktik ta'sirlarni qo'llash, shaxsning qilmishini to'g'ri baholash unga nisbatan samarali tarbiyaviy choralarni ko'rish muhim amaliy jihatlardan biridir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida mazkur jinoyatni oldini olish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish orqali profilaktik ishlar samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqish zarur.

Masalan, mazkur yo'nalishda Amerika Qo'shma Shtatlarining o'ziga xos tizim va ilg'or tajribaga ega davlat hisoblanadi. Mazkur davlatda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan o'ziga xos normativ baza shakllantirilgan bo'lib, bu borada AQSHning "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi va sudlovi to'g'risida"gi Qonunini aytib o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki AQSHda voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashga oid qonunlarning kodifikatsiya qilinganligi bu boradagi masalaga davlatning aniq pozitsiyasi mavjudligini yaqqol ko'rsatadi.

Xususan, Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari to'g'risidagi federal kodeksda. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sud tartibida hal etish mexanizmlari belgilab qo'yilgan. A.B.Guseynovning ta'kidlashicha AQSHning Florida shtati huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ishlab chiqilgan va ko'pgina davlat va xususiy maktablarda joriy qilingan yuridik ta'lim dasturi diqqatga sazovordir. 7-8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ushbu dasturning maqsadi – voyaga etmaganlarni jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimi, jinoyat huquqi asoslari va fuqaroning burchlari bilan tanishtirish, shuningdek, huquqbuzarlarni nima kutayotgani haqida g'oyalarni shakllantirishdan iborat.

AQSHning yuqori urbanizatsiyalashgan shaharlari qatorida uchinchi o'rinni egallovchi Virjiniya-Bich shahrida politsiya departamenti asosiy e'tiborni voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish, bolalar va o'smirlar bilan ishlash muammosiga qaratadi. Yosh avlodni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish uchun quyidagi dasturdan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'quv kursi bo'lib, unda bolalar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari bilan, shuningdek, shaxsiy va kollektiv xavfsizlikni ta'minlash choralari bilan tanishtiriladi. Kurs 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'zida qonun va jinoyatchilik, yashash joyining xavfsizligi, maishiy o'g'irliklar, vandalizm va shaxsiy xavfsizlik mavzularini o'z ichiga olgan. Kurs oxirida o'tilgan mavzularning o'zlashtirilganligi tekshiriladi va barcha bolalarga maxsus guvohnoma va ko'krak nishonlari taqdim etiladi. O'quv kursi 45 daqiqadan davom etadigan 6 mashg'ulotdan iborat. Mashg'ulotlar 3 hafta davomida pedagogik mahoratga ega bo'lgan politsiya xodimlari tomonidan olib boriladi. Politsiya xodimlari dars mashg'ulotlarida albatta xizmat kiyimida bo'lishlari shart.

Bu, albatta ijobiy axloqiy-ruhiy ta'sir ko'rsatishga muhim sharoit yaratadi. Chunki, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida noodatiy ravishda ta'sirchanlikning yuqoriligi va mustaqil bo'lishga intilish kuzatiladi. O'quv materiali o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tuzilgan bo'lib, o'qitish jarayonida o'yinlardan va qisqa metrajli filmlardan keng foydalaniladi.

Dastur yaratuvchilarining fikricha, bolani yoshligidan boshlab ijtimoiy hodisalarni to'g'ri tushuntirish orqali tarbiyalash, politsiyaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish

hamda ehtimoliy va xavfli vaziyatlardan o'zini saqlashni o'rgatish zarur. Ta'kidlab o'tiladiki, kursni o'tagan bolada kelgusida jinoyatchi yoki jabrlanuvchi bo'lish imkoniyatlari kamayadi.

AQSHda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining uchta modeli tashkil qilingan:

- 1) jamoat tashkilotlarining modeli;
- 2) individ xavfsizligi modeli;
- 3) atrof-muhit orqali ta'sir ko'rsatish modeli.

Jinoyatlarning oldini olish dasturi federal va mahalliy darajada amalga oshiriladi. Ayrim shtatlarda huquqiy tartibotni mustahkamlashda fuqarolarning ishtiroki talonchilik jinoyati sonini 30 foizga kamayishiga yordam bergan. Tezkor-profilaktik ahamiyatdagi ma'lumotlarni yetkazganlik uchun mukofotlash usulidan foydalaniladi.

AQSH tajribasini tahlil qilgan holda, jinoyatlarning oldini olish faoliyatining yuqoridagi uch modelini mamlakatimizda qo'llash o'zini samarali natijalarini olib kelishi mumkinligini haqida fikr bildirishimiz mumkin.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada kriminal xavfsizlikning minimal standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, aholini politsiya bilan hamkorlikka jalb qilish usulidan keng foydalanilmoqda (patrullik qilish, jinoyat ko'proq bo'lgan tumanlarda navbatchilik va boshq.). Fransiyada "Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida"gi qonun (2007-y.) bilan bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari kuzatilganda tezkorlik bilan davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish lozim ekanligi belgilangan. Ushbu ma'lumotlarni bila turib huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermagan shaxslar 3-yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi yoki 45 ming yevro miqdorida jarimaga solinishi mumkin. Bundan tashqari, Fransiyada bir qator ayollar yoki voyaga yetmaganlar murojaat qilishi mumkin bo'lgan markazlar mavjud bo'lib, ularga murojaat qilish uchun "3919-ishonch telefoni"ga qo'ng'iroq qilish amaliyoti mavjud. Agarda, oiladagi holat shuni talab qilsa, zo'ravonlik qurboniga tashkil etilgan uylarga borib yashash taklif qilinadi. [6; 189 b.]

Yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning ushbu yo'nalishdagi amaliyotidan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatga oldini olishda jamoatchilik ko'magidan keng foydalanish hamda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqida alohida murojaat markazlari tashkil etish amaliyotini qo'llash o'z ijobiy samarasini beradi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, yoshlarga mo'ljallangan maxsus huquqiy va ijtimoiy dasturlar joriy etish.

Bunda:

- Voyaga yetmaganlarning jinoyatga moyilligini kamaytirish uchun alohida qonunchilik normalari va yoshlar uchun mo'ljallangan ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish;

- Masalan, AQSH va Britaniyadagi kabi, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularga psixologik yordam ko'rsatish tizimini joriy qilish;

Shuningdek, ijtimoiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

- Maktablar, sport maktablari va akademiyalari hamda madaniy markazlar orqali yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish, ularni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rish.

- Yoshlarning muammolarini erta aniqlash va ularga tezkor yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yishda mahalla yettiligiga aniq vazifalar belgilash.

Yana bir yo'nalish sifatida voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarni oldini olish borasida oila va jamoatni jalb etish.

- Oila va jamoada yoshlarga bo'lgan ta'sirni kuchaytirishda ota-onalar uchun mahallalarda tegishli mutaxassislar ishtirokida "sog'lom tarbiya va huquqiy ta'lim" kurslarini tashkil qilish.

- Mahalliy jamoatlar va nodavlat tashkilotlarni jinoyatlarni oldini olishda va profilaktik ishlarida faol ishtirokini inobatga olgan holda shaffof rag'batlantirish tizimini joriy etish lozim deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan, xalqaro tajribadan kelib chiqib, xulosa qilganda, yoshlar o'rtasida bezorilik jinoyatlarini oldini olishda maxsus huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, ta'lim muassasalari hamda oila, mahalla institutlari va keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va tizimli davom ettirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ham ushbu tajribalarni yo'lga qo'yish va ilmiy asoslangan metodlarni qo'llagan holda voyaga yetmaganlar o'rtasida bezorilik jinoyatlarini oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. <https://stat.uz>;
3. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. Darslik Rustambayev M.X. – yuridik fanlar doktori, professor – XIV bob 257-bet.
4. Кудрявцев В.Н. Правовое поведение: норма и патология. М., 1982. – С.3, С. 6-9
Преступное поведение (новые исследования). Сборник научных трудов. – М., 2002.
5. Д.Каракетова Безориликнинг жиноят-хуқуқий ва криминалогик жиҳатлари Тошкент – 2021 Монография 152-153 б.
6. Гусейнов А.Б. Профилактика право нарушений несовершеннолетних за рубежом // Теория и практика общественного развития, 2010. №3. – С.186;

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

INNOVATIVE APPROACHES TO THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE METHODOLOGY OF TRAINING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Anvarjon Sharipovich Rashidov

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor, Department of Mathematics and Informatics

E-mail: anvar.rashidov@bk.ru

Abstract. This article is devoted to highlighting the importance and effectiveness of digital technologies in the process of improving the methodological training of future primary school teachers. The study analyzed the impact of interactive educational platforms, digital learning resources, and innovative methods on teaching qualifications. The results of the experimental study showed that the effective use of digital tools is an important factor in developing the professional skills of future teachers, carefully planning lessons, and forming a methodological approach appropriate to students' needs. In addition, the article provides practical recommendations for integrating digital technologies into the methodological training system.

Keywords: primary education, methodological training, digital technologies, pedagogical innovations, teacher training, interactive learning, modern teaching tools.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARI METODIKASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI

Rashidov Anvarjon Sharipovich

Buxoro davlat pedagogika instituti

Matematika va informatika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini yuksaltirish jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati va samaradorligini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida interaktiv ta'lim platformalari, raqamli o'quv resurslari hamda innovatsion metodlarning o'qituvchilik malakasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etildi. Eksperimental tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'lajak pedagoqlarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, dars jarayonini puxta rejalashtirish va o'quvchilarga mos metodik yondashuvni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarni metodik tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, metodik tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, o'qituvchi tayyorlash, interaktiv ta'lim, zamonaviy ta'lim vositalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N35>

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish va uni ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimiga bag'ishlangan yig'ilishda (2022-yil) ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosi – bu zamonaviy bilim va raqamli texnologiyalarni mukammal egallagan, yuksak salohiyatli yosh

avloddir.” Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang’ich ta’lim sifatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o’quvchining bilimga bo’lgan dastlabki munosabati shakllanadi, o’qituvchining metodik tayyorgarligi esa mazkur jarayonning asosiy hal qiluvchi omillaridan biridir.

“Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ–4851-sonli qarori bu borada huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda[1]. Shu bois, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini raqamli vositalar asosida tayyorlash, ularning metodik bilimlarini amaliy ko’nikmalar bilan uyg’unlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Dars o’tish metodini to’g’ri tanlash ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot vositalari (kompyuter, proyektor va boshqa texnik jihozlar)dan foydalanish dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi, biroq bu vositalar mavjud bo’lishi har doim ham yuqori natijani kafolatlamaydi. Shu bilan birga, ularning yo’qligi dars samarali bo’lmasligini anglatmaydi. Agar boshlang’ich sinf o’qituvchisi dars o’tish metodikasini puxta tanlasa, minimal vositalar, hatto oddiy bo’yoq yoki bo’r yordamida ham samarali dars o’tishi mumkin. Demak, boshlang’ich sinf o’qituvchisi mavjud imkoniyat va vositalardan oqilona foydalanib, o’quv jarayonini yuqori saviyada tashkil eta oladigan malakaga ega bo’lishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko’rsatadiki, raqamli texnologiyalarni o’qituvchi tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish samaradorligi masalasida bir qator tadqiqotchilar o’z ilmiy fikr-mulohazalarini bildirgan. Jumladan, A. Qodirova (2021) o’z tadqiqotida boshlang’ich sinf o’qituvchilarining raqamli kompetensiyasini shakllantirishda Zoom, Google Classroom, Moodle kabi interaktiv platformalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [2]. X. Yo’ldosheva (2020) esa raqamli texnologiyalar yordamida metodik ko’nikmalarni rivojlantirish orqali dars jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etadi [3].

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, E. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu model raqamli texnologiyalarni pedagogik yondashuv va o’quv predmetining mazmuni bilan uyg’unlashtirish zarurligini ilmiy asoslaydi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, empirik kuzatuv, so’rovnoma hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanilib, ilmiy asoslangan xulosalarga erishildi. Avvalo, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining metodik tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalarni qo’llashga oid mavjud ilmiy-nazariy manbalar o’rganilib, ular qiyosiy tahlil qilindi.

Qiyosiy taqqoslash usuli orqali an’anaviy o’quv metodikasi bilan raqamli texnologiyalarga asoslangan o’quv metodikasi o’rtasidagi farqlar, afzalliklar va kamchiliklar aniqlab berildi. Shuningdek, universitetlarning pedagogika yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida so’rovnomalar o’tkazildi. Ushbu so’rovnomalar yordamida talabalar raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg’ulotlarning ularning bilim, ko’nikma va metodik tayyorgarlik darajasiga ta’sirini baholadilar.

Empirik kuzatuv metodi orqali esa eksperimental guruhdagi dars jarayonlari muntazam ravishda kuzatilib, o’qitish samaradorligi tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil asosida qayta ishlanib, metodik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o’rni aniqlashtirildi. Tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, raqamli

texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning metodik bilimlarini mustahkamlash, darslarni samarali rejalashtirish va tashkil etishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarni mustaqil izlab topish, amaliy mashqlarni bajarish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga intilishi lozim. Ushbu yondashuv, shubhasiz, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va zamonaviy talablarga mos o'quv jarayonini tashkil etishda samarali natija beradi.

Metodik tayyorgarlikni rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim o'rin tutadi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularga nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur[5]. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zarur kompetensiyalarni rivojlantirib, kelajakda bilimli va intellektual salohiyatli kadrlar yetishishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan metodik qo'llanmalarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli resurslardan samarali foydalanishga doir qator tavsiyalar berilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi – ta'lim strategiyasida boshlang'ich bosqichdagi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy-metodik ko'nikmalarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, individual yondashuv asosida o'quvchilar bilan ishlash, sinfda dars o'tkazish texnologiyasi va raqamli savodxonlikni rivojlantirish bugungi kunda o'qituvchilar uchun asosiy kompetensiyalardan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalarning metodik tayyorgarlikdagi o'rni keng ko'lamli. Xususan, ular yordamida bo'lajak o'qituvchilar interaktiv videodarslar va 3D-modullar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya vositalarida darslarni rejalashtirish hamda tahlil qilishni o'rganadilar. Shuningdek, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalarda dars tashkil etish bo'yicha amaliy tajriba hosil qiladilar.

Xorijiy tajribada, xususan E. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan **TPACK modeli** (Technological Pedagogical Content Knowledge) o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar asosida tayyorlashda keng qo'llaniladi. Mazkur model samarali o'qituvchi uch turdagi kompetensiyani uyg'unlashtira olishi zarurligini asoslaydi:

- **Pedagogik bilim** – dars metodikasi va o'quv jarayonini boshqarish;
- **Texnologik bilim** – zamonaviy IT vositalaridan foydalanish;
- **Predmet mazmuni** – fanning nazariy va amaliy asoslari.

Bu modelni o'zbek ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha 2021–2022-yillarda bir qator ilmiy loyihalar amalga oshirildi. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda Buxoro va Samarqand viloyatlarida bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalar bo'yicha treninglar tashkil etildi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- ijtimoiy va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish;
- o'quv resurslarini mustaqil izlab topish, loyihalash va moslashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- yaratuvchanlik (kreativlik)ni rag'batlantirish;
- muammolarni hal etish bo'yicha qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlash.

Shuningdek, o'qituvchilik kasbiga tayyorlanayotgan talabalar sun'iy intellekt vositalaridan (ChatGPT, Eduaide.ai, Diffit, SlidesAI va boshqalar) foydalangan holda dars kontenti yaratish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lib bormoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli metodik treninglar majburiy kurs sifatida o'quv dasturiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli vositalar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki pedagogik yondashuvni yangilash, o'quvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish va o'qituvchilik kasbining kreativ jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan eksperiment natijalari shuni tasdiqladiki:

- raqamli texnologiyalarni qo'llash talabalar metodik tayyorgarligida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi;
- o'qituvchi kasbiga tayyorlanayotgan yoshlar uchun raqamli kompetensiyalar zamonaviy professional mezonga aylangan;
- raqamli vositalar yordamida metodik rejalashtirish, baholash va dars tahlili ko'nikmalari shakllanadi;
- ta'limda sun'iy intellekt, interaktiv platformalar va raqamli loyihalar bilan ishlash pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bois oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga raqamli metodik tayyorgarlikka yo'naltirilgan amaliy kurslar, laboratoriyalar va malaka oshirish modullarini kiritish zarur. Davlat miqyosida esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlaydigan muassasalarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son qarori (2020-yil 6-oktabr). "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida."
2. Qodirova, A. M. (2021). "Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni". Ta'lim va innovatsiya, №2(17), 23–30.
3. Yo'ldosheva, X. T. (2020). "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining raqamli savodxonligini shakllantirish muammolari". Oliy ta'limda metodik yangilanishlar, №4, 12–19.
4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). "Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge". Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
5. Dehqonova, M. Sh. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.

6. Axmedova, S. A. (2021). Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalari. Toshkent: O'zbekiston pedagogikanashriyoti, 45–78.
7. Bobonazarov, I. R. (2020). Metodik tayyorgarlikda innovatsion yondashuvlar. Samarqand: "Ilm ziyo" nashriyoti, 90–114.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

INNOVATIVE METHODS OF FAMILY-SCHOOL COLLABORATION IN ENHANCING STUDENTS' INTEREST IN READING

Maydonova Sabohat Sadulloevna

Navoi State University

Teacher of the Psychology Department

Abstract. This article analyzes innovative methods of family-school collaboration to enhance students' interest in reading. Based on international and Uzbekistan-based research, it examines the significance of family-school cooperation in developing a reading culture. The study emphasizes the importance of strengthening family-school collaboration, leveraging modern technologies, and adapting international experiences to local contexts to increase students' motivation for reading.

Keywords: reading, family-school collaboration, innovative approaches, digital technologies, reading culture, education.

O'QUVCHILARNING KITOBXONLIKKA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISHDA OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING INNOVATSION USULLARI

Maydonova Saboxat Sadulloevna

Navoiy Davlat Universiteti

Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning innovatsion usullarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi tadqiqotlar asosida oila-maktab hamkorligining o'qish madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot oila va maktab hamkorligini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, oila-maktab hamkorligi, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, o'qish madaniyati, ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N36>

O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida eng muhim vazifalardan biri sifatida ko'riladi. Axborot texnologiyalari va raqamli media davrida yosh avlodning kitob mutolaasiga qiziqishi pasayib borayotgani nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb muammoga aylangan. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik nafaqat bilim olish vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Masalan, OECD tomonidan o'tkazilgan PISA 2018 tadqiqotlariga ko'ra kitobxonlik o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1, pp. 45-

47]. Shuningdek, UNESCO tadqiqotlari maktabda va oilada kitob o'qishning o'quvchilarning axloqiy-ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [3, pp. 23-25].

O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida e'tiborga olingan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini oshirish maqsadlari kitobxonlikni targ'ib qilishni muhim yo'nalish sifatida belgilaydi [4]. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan "Kitobsevar millat" loyihasi orqali maktablarda kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilmoqda [5]. Masalan, "Oila kutubxonasi" va "Kitob festivali" kabi tashabbuslar oilalarda kitobxonlik an'alarini shakllantirishga qaratilgan [6].

Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik kitobxonlikni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Oilada kitobxonlik an'alarini shakllantirish bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab o'qishga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi, maktab esa bu jarayonni tizimli ta'lim va innovatsion usullar orqali mustahkamlaydi [7]. Xalqaro tajribada, masalan, Finlyandiya va Janubiy Koreyada oila-maktab hamkorligi asosida kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan [2, 8]. Ushbu maqola oila va maktab hamkorligida kitobxonlikka qiziqishni oshirishning innovatsion usullarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada xalqaro tajribalar va O'zbekistonning mahalliy sharoitlari asosida taklif etilgan usullar o'quvchilarning o'qish madaniyatini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning innovatsion usullari so'nggi yillarda xalqaro va O'zbekiston miqyosida muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tiborga olingan. Xalqaro tadqiqotlar oila va maktab hamkorligining kitobxonlikni rivojlantirishdagi muhim o'rnini ta'kidlaydi. Masalan, OECD tomonidan o'tkazilgan PISA 2018 tadqiqotlari ota-onalar va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyati o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'rsatkichlarini oshirishini ko'rsatadi [1, pp. 50-52]. Finlyandiya "O'qish soatlari" loyihasi ota-onalarni maktabdagi adabiyot darslariga jalb qilish orqali bolalarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan [2, pp. 12-15]. Janubiy Koreyada "Kitob klublari" tashabbusi esa ota-onalar va o'quvchilarning birgalikda kitob muhokamalarida ishtirok etishi orqali o'qish madaniyatini rivojlantirmoqda [8, pp. 123-125].

O'zbekiston kontekstida kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar asosan davlat siyosati va ta'lim islohotlariga tayanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi kitobxonlikni davlat siyosati darajasiga ko'targan [4]. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Kitobsevar millat" loyihasi maktablarda kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan [5]. "Oila kutubxonasi" tashabbusi oilalarda kitobxonlik an'alarini shakllantirishga xizmat qiladi [6]. Biroq, mahalliy tadqiqotlarda raqamli platformalar va interaktiv o'qish dasturlari kabi innovatsion usullar yetarlicha o'rganilmagan [9, pp. 45-47].

Xalqaro tajribada raqamli texnologiyalarning kitobxonlikka ta'siri muhim e'tiborga olingan. Avstraliyada "Digital Reading Families" dasturi onlayn kitobxonlik platformalari orqali o'qish jarayonini qiziqarli qilmoqda [10, pp. 89-91]. Ushbu tajriba O'zbekistonda "Oila kutubxonasi" loyihasiga raqamli komponentlar qo'shish orqali samaradorlikni oshirish

imkonini beradi [6]. Biroq, O'zbekistonda infratuzilma cheklovlari raqamli platformalarni joriy etishda qiyinchiliklar tug'diradi [9, pp. 48-50].

Muhokama va Natijalar

Olib borilgan tahlillar oila va maktab hamkorligining kitobxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro tajribada Finlyandiyada "O'qish soatlari" loyihasi ota-onalarni adabiyot darslariga jalb qilish orqali o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirgan [2, pp. 12-15]. Janubiy Koreyada "Kitob klublari" tashabbusi tanqidiy fikrlash va o'qish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [8, pp. 123-125]. Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida mahalliy infratuzilma va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin.

O'zbekistonda "Oila kutubxonasi" va "Kitob festivali" tashabbuslari muayyan yutuqlarga erishgan [5, 6]. Biroq, qishloq hududlarida infratuzilma cheklovlari va ota-onalarning ta'lim darajasidagi farqlar loyihalarni sekinlashtirmoqda [9, pp. 48-50]. Raqamli platformalar, masalan, Avstraliyada qo'llanilgan "Digital Reading Families" dasturi, O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi [10, pp. 89-91]. Ammo internetga kirish cheklovlari va ekran vaqtining ko'payishi an'anaviy kitobxonlikka qiziqishni pasaytirishi mumkin [9, pp. 50-52].

Oila va maktab hamkorligining innovatsion usullari orasida interaktiv o'yinlar, kitob muhokamasi klublari va mahalliy mualliflar bilan uchrashuvlar alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda "Kitobsevar millat" loyihasi doirasida kitob festivallari tashkil etilmoqda [6]. Xalqaro tajribada Buyuk Britaniyada "Bookstart" dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka qiziqishni uyg'otmoqda [11, pp. 1-3].

Olib borgan tadqiqotimiz yuzasidan quyidagicha natijalarga erishdik:

1. Ota-onalarning faol ishtiroki: Ota-onalarni kitobxonlik tadbirlariga jalb qilish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.
2. Raqamli platformalardan foydalanish: Onlayn kutubxonalar va interaktiv dasturlar kitobxonlikni targ'ib qilish imkonini beradi, ammo infratuzilma cheklovlari mavjud.
3. Xalqaro tajribadan foydalanish: Finlyandiya, Janubiy Koreya va Avstraliya tajribalari O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilishi mumkin [2, 8, 10].
4. Muvozanatli yondashuv: Raqamli va an'anaviy kitobxonlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Xalqaro tajribada, masalan, Finlyandiyada amalga oshirilgan "O'qish soatlari" loyihasi ota-onalarni adabiyot darslariga jalb qilish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi va motivatsiyasini sezilarli darajada yaxshilagan. Janubiy Koreyada "Kitob klublari" tashabbusi oila va maktab o'rtasida muloqotni rivojlantirib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va o'qish madaniyatini mustahkamlashga xizmat qilgan. Avstraliyaning "Digital Reading Families" dasturi esa raqamli platformalar orqali kitobxonlikni zamonaviy usullar bilan targ'ib qilishning samarali namunasini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar oila-maktab hamkorligining tizimli va innovatsion yondashuvlar bilan birgalikda o'quvchilarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

O'zbekiston kontekstida "Oila kutubxonasi" va "Kitobsevar millat" kabi tashabbuslar oilalarda kitobxonlik an'analarini shakllantirish va o'quvchilarni o'qishga jalb qilishda muhim qadamlar bo'ldi. Biroq, qishloq hududlarida infratuzilma cheklovlari, internetga kirish imkoniyatlarining yetishmasligi va ota-onalarning ta'lim darajasidagi farqlar ushbu loyihalarning keng qamrovli amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masalan, mobil ilovalar va onlayn kutubxonalar orqali kitoblarga kirishni osonlashtirish, O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish, masalan, "Bookstart" dasturini maktabgacha ta'lim muassasalariga joriy etish, erta yoshdan kitobxonlikka qiziqishni shakllantirishda muhim hissa qo'shishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribadan oqilona foydalanish O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshiradi, balki ularning intellektual salohiyati, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar va kutubxonachilarning malakasini oshirish va mahalliy mualliflar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali kitobxonlikni yanada targ'ib qilish zarur.

Tadqiqotimiz yuzasidan takliflarimiz quyidagilardan iborat:

1. Ota-onalarni jalb qilish dasturlarini kengaytirish: Maktablarda "Kitob muhokamasi klublari" va "Oila o'qish soatlari" tashkil etish.
2. Raqamli platformalarni joriy etish: "Oila kutubxonasi" loyahasiga mobil ilovalar va onlayn kutubxonalar qo'shish.
3. Xalqaro tajribani moslashtirish: Finlandiya va Buyuk Britaniyada qo'llanilgan "Bookstart" va "O'qish soatlari" dasturlarini O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish.
4. O'qituvchilar va kutubxonachilar malakasini oshirish: Zamonaviy pedagogik usullar va raqamli vositalar bo'yicha treninglar tashkil etish.
5. Mahalliy mualliflar bilan hamkorlik: O'zbek mualliflarining kitoblarini targ'ib qilish va maktab uchrashuvlarini tashkil etish.
6. Qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish: Mobil kutubxonalar va raqamli resurslarga kirishni kengaytirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ahmedov A. O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Tashkent: Fan va Texnologiya, 2023. 120 p.
2. Bookstart. Promoting Early Literacy through Family Engagement [Electronic resource] // Available at: bookstart.org.uk, 2022. pp. 1-3.
3. Kim J. Family-School Collaboration in Promoting Reading Culture: South Korean Experience // Journal of Education and Culture. 2019. Vol. 45, No. 3. pp. 123-135.
4. Kutubxonada o'qishni yaxshilash bo'yicha tadbirlar. Xalq kutubxonasi kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muassasasi sifatida [Electronic resource] // Available at: bazar-dvd.ru, 2024.
5. OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing, 2018. 250 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Tavsiya etilgan o'quv adabiyotlar ro'yxati [Electronic resource] // Available at: abt.uz, 2024.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2023. No. 45.
8. PISA. Reading Literacy Framework. OECD Publishing, 2018. 80 p.
9. Smith L. Digital Reading Families: Innovations in Literacy Promotion // Australian Journal of Education. 2020. Vol. 64, No. 2. pp. 89-102.
10. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2017/8: Accountability in education – Meeting our commitments. Paris: UNESCO, 2017. 200 p.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

ORGANIZATION OF REST PERIODS AND PAUSES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Juraeva Zarifa Oltinboy kizi

Doctoral student at Bukhara State Pedagogical Institute

E-mail: jurayevazarifa85@gmail.com

Abstract. Physical education classes play a crucial role in shaping students' healthy lifestyle, enhancing their physical abilities, and improving work capacity. However, to ensure the effectiveness of lessons, properly organized rest periods and pauses are of particular importance. This article examines the rational distribution of rest time during physical education classes, its pedagogical justification, and alignment with students' age characteristics.

During lessons, short pauses are implemented to prevent students' physical and mental fatigue. These breaks may include breathing exercises, stretching, light walking, or other simple movements. Rest periods are planned based on the principle of alternating different types of activities, which helps students concentrate their attention and prepare for new exercises.

The article also highlights methodologies for proper distribution of rest time according to age groups. For instance, elementary school students require more frequent breaks as they tire faster. For older students, pauses can be shorter but more intensive.

Keywords: physical education, rest periods, pedagogical technologies, work capacity, age characteristics, healthy lifestyle, pauses, physical activity, attention, communication, psycho-emotional state.

JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA DAM OLISH DAQIQALARI VA PAUZALARI

Jo'rayeva Zarifa Oltinboy qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Jismoniy tarbiya darslari maktab o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy qobiliyatini oshirish va mehnat qobiliyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, darslarning samaradorligini ta'minlash uchun to'g'ri tashkil etilgan dam olish daqiqalari hamda pauzalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola jismoniy tarbiya darslarida dam olish vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, ularning pedagogik jihatdan asoslanganligi hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligini o'rganadi.

Dars jarayonida o'quvchilarning jismoniy va aqliy charchashini bartaraf etish maqsadida qisqa pauzalar tashkil etiladi. Bu vaqtda nafas olish mashqlari, stretching, oddiy yurish yoki boshqa yengil harakatlar bajarilishi mumkin. Dam olish daqiqalari faoliyatning turli shakllarini almashish prinsipi asosida rejalashtiriladi, bu esa o'quvchilarning diqqatini jamlashga va yangi mashqlarga tayyorlashga yordam beradi.

Maqolada, shuningdek, yosh guruhlariga qarab dam olish vaqtini to'g'ri taqsimlash metodikasi ham yoritiladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dam olish chastotasi yuqori bo'lishi kerak, chunki ularning charchashi tezroq sodir bo'ladi. Katta yoshdagi o'quvchilar uchun esa pauzalar qisqaroq, ammo intensivroq bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, dam olish daqiqalari, pedagogik texnologiyalar, mehnat qobiliyati, yosh xususiyatlari, sog'lom turmush tarzi, pauzalar, jismoniy faoliyat, diqqat, muloqot, ruhiy holat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N37>

Kirish. Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning jismoniy va hissiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu darslarda dam olish daqiqalari va pauzalarning o'zni alohida ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning samaradorligini oshirish, yoqimli muhit yaratish va jarohatlanish xavfini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi.

Dam olish daqiqalari dars davomida o'quvchilarga tiklanish va energiya to'plash imkoniyatini beradi. Umuman olganda, 40-45 daqiqalik darsda 5-10 daqiqa dam olish tavsiya etiladi. Bu vaqt ichida o'quvchilar suv ichish, nafas olish mashqlari bajarish yoki qisqa jismoniy faollik bilan shug'ullanishlari mumkin. Shu tarzda, ular diqqatini qayta tiklaydi va faoliyat davomida samaradorligi oshadi.

Pauzalar esa turli jismoniy mashqlar o'rtasida berilishi kerak. Qisqa pauzalar (1-2 daqiqa) o'quvchilarning stress darajasini kamaytirish, mushaklarni bo'shatish va jig'ildonlarini tiklashda yordam beradi. Bu, ayniqsa, intensiv mashqlar davomida muhimdir. O'quvchilarni harakatlar o'rtasida qisqa dam olishlar bilan rag'batlantirish, ularning sportga bo'lgan qiziqishini oshirishga ham yordam beradi.

Shu sababli, jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalari o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular nafaqat jismoniy salomatlikni saqlash, balki o'quvchilarning ruhiy salomatligi va samaradorligini oshirishda ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchilar bu jihatlarni hisobga olib, darslarni yanada samarali tashkil qilishlari lozim.

Adabiyotlar sharhi. Respublikamiz kontekstida jismoniy tarbiya darslarida samarali dam olish metodikalarini ishlab chiqilgan [2], bo'lib, bunda o'quvchining dam olishi va uning natijalari tahlili keltirib o'tilgan.

B.B.Nigmanov, F.Xo'jaev, K.D.Raximqulov "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kitobida mahalliy sharoitlarga mos dam olish metodlarini taklif qilgan [3; 5]. Jismoniy tarbiya darslarida dam olish vaqtlari samaradorligi darsning umumiy natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tashkil etilgan pauzalar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning sog'lig'ini saqlash va darsga qiziqishini uyg'otishga xizmat qiladi.

N.V. Karpovanning "Maktabda jismoniy tarbiya darslarida dam olish texnologiyalari" mavzusida tadqiqot olib borib, yosh psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda optimal dam olish rejimlarini ishlab chiqqan [4-7].

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalari muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning fizik va psixologik holatini yaxshilashda, shuningdek, samarali o'qitishni ta'minlashda yordam beradi.

1. Dam olish daqiqalarining ahamiyati:

- o'quvchilarga jismoniy yuklamalardan keyin tiklanish imkonini beradi.
- e'tiborni qaratish va energiyani tiklashga yordam beradi.
- stress darajasini kamaytiradi va ruhiy holatni yaxshilaydi.

2. Pauzalar:

- pauzalar vaqtida o'quvchilar kichik jismoniy mashqlar yoki nafas olish usullarini bajarishlari mumkin, bu esa ularning diqqatini oshiradi.
- pauzalar o'quvchilar o'rtasida muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Praktiki usullar:

- dars davomida 5-10 daqiqalik dam olish daqiqalarini kiritish.
- har bir mashqdan keyin qisqa faoliyatlar o'rnatish, masalan, cho'zilish yoki oddiy jismoniy harakatlar.

4. Samara va natijalar:

- yaxshi rejalashtirilgan dam olish va pauzalar orqali o'quvchilar darsdan ko'proq foydalanadilar.

- fizik va ruhiy sog'liqni yaxshilash, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

5. Tahrir va nazorat:

- o'qituvchilar dam olish daqiqalari va pauzalarni qanday qo'llashlarini kuzatib borishlari zarur.

- o'quvchilarning fikrlarini inobatga olib, dars jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalari o'qitish jarayonini mukammal qilish va o'quvchilarning samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Ularning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning qiziqishini va jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalarini to'g'ri olib borish o'quvchilarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida bu jarayonni qanday amalga oshirish kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan:

Rejalashtirish: Dars rejasida dam olish daqiqalari va pauzalarini oldindan belgilab qo'yish, ular darsning qaysi bosqichlarida amalga oshirilishi rejalashtirilishi kerak.

Muddati: Har bir 20-30 daqiqalik jismoniy faoliyatdan keyin 5-10 daqiqalik dam olish daqiqalarini kiritish tavsiya etiladi.

Faoliyat turlari: Dam olish vaqtida o'quvchilarga oddiy cho'zilish mashqlari, nafas olish texnikalari yoki o'z-o'zini yog'ochda tutish kabi yengil jismoniy faoliyatlarni taklif qilish nafaqat tiklanishga, balki diqqatni oshirishga ham yordam beradi.

Suv ichish: Dam olish paytida o'quvchilarga suv ichish imkoniyatini berish, ularning suvsizlanishini oldini olishga yordam beradi.

Muloqot: O'quvchilarni bir-biri bilan muloqot qilish, masalan, o'yinlarga bog'liq savollar berish yoki fikr almashishlari uchun dam olish daqiqalari foydalanish mumkin.

Qisqa nazorat: Dam olish paytida o'qituvchi o'tilgan materialni qisqacha nazorat qilib, o'quvchilarning qanchalik tushunganini aniqlashi mumkin.

Motivatsiya: O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, dam olish vaqtida kichik o'yinlar tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Psixologik holat: Dam olish daqiqalari davomida o'quvchilar uchun psixologik holatni ta'minlash muhimdir, shuning uchun ijobiy muhit yaratish kerak.

Adaptatsiya: Dars davomida har bir guruhning vaqt o'tishi bilan dam olish va pauzalarni qanday o'tkazishga moslashishini kuzatib borish, shuningdek, o'zgarishlar kiritish.

Tahlil va takomillashtirish: Dars oxirida o'quvchilarning fikrlarini tinglash, dam olish va pauzalar samaradorligini baholash, kerak bo'lsa, o'zgarishlar kiritish.

Ushbu tavsiyalar yordamida jismoniy tarbiya darslaridagi dam olish daqiqalari va pauzalari ko'proq faol va samarali bo'lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalari bir nechta muhim maqsadlarga xizmat qiladi:

Tiklanish: Jismoniy faoliyat davomida o'quvchilar energiyalarini yo'qotadi, dam olish daqiqalari esa ularning tiklanishiga yordam beradi.

Diqqatni oshirish: Davomiy jismoniy faoliyat e'tiborni kamaytirishi mumkin, dam olish esa diqqatni qayta tiklashga imkon beradi.

Stressni kamaytirish: Dam olish vaqtida o'quvchilar ruhiyatlarini yaxshilash va stress darajasini pasaytirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Muloqot o'rnatish: Pauzalar paytida o'quvchilar o'rtasida muloqotni rivojlantirish, jamoaviy ruhni oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Fizik holatni yaxshilash: Cho'zilish va nafas olish mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy holatini yaxshilash mumkin.

O'quv jarayonini takomillashtirish: Dam olish va pauzalar vaqtida o'qituvchi o'quvchilarning tushunishini tekshirib, zarur bo'lsa darsni yanada samarali rejalashtirishi mumkin.

O'z-o'zini baholash: Dam olish paytida o'quvchilar o'zlarini his qilib, o'z kuchlariga nisbatan yanada real baho bera olishadi.

Sog'liqni saqlash: O'quvchilarni ortopedik va boshqa jarohatlardan himoya qilish uchun vaqti-vaqti bilan dam olish zarur.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, dam olish va pauzalarni jismoniy tarbiya darslarida qo'llash o'quvchilarning umumiy rivojlanishi va darslardan maksimal foyda olishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalaridan foydalanishning maqsadi quyidagilardan iborat:

Energiyani tiklash: Jismoniy faoliyat davomida o'quvchilar energiyalarini yo'qotadi. Dam olish daqiqalari ularning tiklanishiga yordam beradi.

Diqqatni oshirish: Uzoq vaqt davomida bir xil faoliyatni amalga oshirish diqqatni pasaytirishi mumkin. Pauzalar diqqatni qayta tiklash uchun zarur.

Fizik holatni yaxshilash: Cho'zilish va yengil jismoniy harakatlar orqali o'quvchilarning muskullarini bo'shashtirish va mobil qismlarni yaxshilash mumkin.

Ruhiy holatni yaxshilash: Dam olish vaqtida o'quvchilar o'zlarini tinchlantirish va stressni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muloqotni rivojlantirish: Pauzalar o'quvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish va jamoa ruhini oshirish imkoniyatini yaratadi.

O'rganish jarayonini takomillashtirish: O'qituvchi dam olish vaqtida o'quvchilarning qanchalik tushunganini aniqlash va zarur bo'lsa, o'quv materialini takrorlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jarohatlardan himoya: Uzoq vaqt davomida faoliyat qilish murakkablik tug'dirishi mumkin. Dam olish vaqti jismoniy stressni kamaytiradi va jarohatlarning oldini oladi.

Motivatsiyani oshirish: Qisqa dam olish daqiqalari o'quvchilarda qiziqishni saqlab qolish va motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqsadlar jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalarini qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi va o'quvchilarning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ba'zi pedagogik innovatsiyalarni ko'rib chiqamiz:

Differensiallashgan ta'lim texnologiyasi: Bunda har bir o'quvchining jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos individual yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, 3 darajali (boshlang'ich, o'rta, yuqori) mashqlar tizimiga e'tibor qaratilgan holda shaxsiylashtirilgan mashg'ulot rejalari tuzib chiqiladi va bosqichma bosqich mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Flipped classroom (aylantirilgan darsxona): Bu usulda o'qituvchilar nazariy ma'lumotlarni uy vazifasi sifatida video darslar orqali o'zlashtirishadi va dars vaqtini amaliy mashqlarga ko'proq ajratishga e'tibor qaratiladi, darsdan keyin esa Moodle yoki boshqa LMS platformalardan foydalanish orqali mavzuning nazariy qismi mustahkamlanadi.

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish): Darslarni o'yin shaklida tashkil etish orqali o'quvchilarni qiziqtirish va motivatsiya qilish mumkin. Gamifikatsiya o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada interaktiv qiladi.

STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at va Matematika): STEAM ta'limi innovatsion yondashuv bo'lib, u o'quvchilarga fan va texnologiyalarni san'at va dizayn bilan birlashtirishga imkon beradi. Bu yondashuv o'quvchilarda analitik va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Innovatsion pedagogik usullarni qo'llash o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim olish jarayonini yangi metodlar yordamida yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

Tajriba almashish pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish nafaqat o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishda, balki o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ham foydalidir. O'qituvchilar tajriba almashish orqali yangi pedagogik metodlarni o'rganishlari, eng yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirishlari va o'z o'qitish usullarini takomillashtirishlari mumkin.

O'qituvchining shaxsiy taraqqiyotida yangi ta'lim usullari hamda innovatsion metodlarni o'zlashtirishning ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir pedagog o'z ishida zamonaviy va interaktiv usullardan foydalangan holda o'quvchilarga qiziqarli va samarali bilim berishi lozim. Masalan, differensial ta'lim, aralash ta'lim (blended learning), teskari dars (flipped classroom), o'yinlashtirish (gamifikatsiya) kabi yangi usullar o'qituvchilarning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Pedagoglarga yangi ta'lim texnologiyalari, onlayn platformalar, interaktiv resurslar va innovatsion o'qitish usullarini o'rgatish muhimdir. Bu vositalar yordamida o'qituvchilar ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishi, o'quvchilarni jalb qilishi va ularning qiziqishini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchilarning yangi bilim va tajribalarni egallashi, ularni amaliyotda qo'llashni o'rganishi ham juda zarur.

O'qituvchi taraqqiyotining muhim jihati – malakasini oshirish va doimiy o'qishga intilishdir. Zamonaviy ta'lim talablari pedagoglardan doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilashni talab qiladi. O'qituvchilarni turli kurslar, treninglar hamda seminarlarga jalb etish, ularning metodik mahoratini oshirib borish kerak. Ayniqsa, jismoniy tarbiya fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilar uchun dasturlash, individual-vizual va raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi lozim.

Pedagoglarga nafaqat o'qitish usullarini, balki bilimlarni samarali yetkazish uchun zarur bo'lgan muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham e'tibor berish kerak. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni yetkazishga yordam beradi.

Darsni samarali va to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining shaxsiy taraqqiyotida uning o'zini rag'batlantirishi hamda o'zini boshqarish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'z maqsadlariga erishish yo'llarini, kuchli va zaif tomonlarini qanday boshqarishni bilishi kerak. U vaqtni to'g'ri taqsimlash, stressni boshqarish va samarali ishlash uchun zarur bo'lgan psixologik va shaxsiy mahoratni egallashi lozim.

Rag'batlantirish va o'zini boshqarish qobiliyati pedagogni ishini yaxshi tashkil etishga, darslarda o'quvchilarni faollashtirishga va ularga ilg'or bilimlarni yetkazishga yordam beradi. O'qituvchining o'ziga ishonchi, ishga bo'lgan qiziqishi va ta'limga sadoqati nafaqat o'zini, balki o'quvchilarni ham rag'batlantiradi.

Pedagogning shaxsiy va kasbiy taraqqiyoti bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'zining shaxsiy o'sishini kasbiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishi kerak. Shu bilan birga, uning professional taraqqiyoti pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatiga, o'quvchilarga ta'siriga va ta'lim jarayonini yaxshi tashkil etishga ta'sir qiladi. Shaxsiy va kasbiy o'sishni uyg'unlashtirish orqali o'qituvchilar bilim va ko'nikmalarini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilaydilar.

Shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchining shaxsiy taraqqiyoti va o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishi ta'lim sifatini oshirish, yangi metodlarni qo'llash va o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni yetkazish uchun juda muhimdir. O'zini baholash, innovatsion usullarni o'rganish, malaka oshirish, o'zini rag'batlantirish va shaxsiy o'sish jarayonlari ta'lim sifatini yaxshilaydi. Bunday yondashuvlar pedagoglarning professional mahoratini oshirish va ta'limda yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada jismoniy tarbiya darslarida dam olish daqiqalari va pauzalarning ahamiyati ta'kidlangan. Dam olish vaqtlari o'quvchilarga tiklanish, diqqatni oshirish va energiya to'plash imkonini beradi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Qisqa pauzalar esa harakatlar o'rtasida mushaklarni bo'shatish va jarohatlanish xavfini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, jismoniy tarbiya darslarida dam olish va pauzalarning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi va sportga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'qituvchilarga bu jihatlarni e'tiborga olib, darslarni yanada samarali va ko'tarinki ruhiyatda o'tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шохлих, М. Круговая тренировка (Теоретические, методические и организационные основы одной из современных форм использования физических упражнений в школе и спортивной тренировке). 2-е изд., стер. Москва: Спорт, 2021, -217 с
2. Самадов С. С. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишининг ёш хусусиятлари ва жисмоний тарбия машғулотлари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1383-1388.
3. Nigmanov B.B., Xo'jaev F., Raximqulov K.D. "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. Ilm-Ziyo nashriyoti Toshkent 2011-yil.
4. Karpova N.V. Maktabda jismoniy tarbiya darslarida dam olish texnologiyalari. 2012 y, - 178 b
5. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. T.: 2005 y. - 235 b.
6. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. O'zDJTI, T.: 2005, 171 b.
7. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. O'zDJTI T.: 2005, -280 b.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

USING THE CAPABILITIES OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN ACADEMIC LYCEUMS (ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT "INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES")

Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi QDU

Academic Lyceum Informatics and IT teacher

Independent researcher Tashkent University of Applied Sciences

E-mail: kulidjanova@internet.ru

Abstract. The article discusses solutions aimed at preparing students for independent life by developing 21st century skills of modern education, developing creativity and teamwork, finding adequate solutions in non-standard conditions, appropriate to economic and environmental trends, educating young people who can show high results by participating in international assessment programs, and helping them to properly use the capabilities of modern digital technologies.

Keywords: digital technology, digitalization of education, multimedia technologies, modernization of education, information security of students, electronic textbook, electronic textbook, hypertext.

AKADEMIK LITSEYLARDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH ("INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANI MISOLIDA)

Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi

QDU akademik litsey Informatika va AT fani o'qituvchisi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarni zamonaviy ta'limning XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, ijodkorlikni shakllantirish va jamoa bo'lib ishlashni o'rgatish, nostandart sharoitlarda to'g'ri, iqtisodiy, ekologik trendlarga mos adekvat yechimini topish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib yuqori natijalarni ko'rsata oladigan yoshlarni tarbiyalash hamda ularni zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga qaratilgan yechimlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'limni raqamlashtirish, multimedia texnologiyalari, ta'limni modernizatsiya qilish, talabalarning axborot xavfsizligi, elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, gipermatn.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N38>

"Informatika va axborot texnologiyalari" fani akademik litseylarda ta'limning 1-2 bosqich o'qitiladi. Fanning umumiy hajmi 104 soatdan iborat bo'lib, bundan 72 soati ma'ruza, 32 soati mustaqil ta'lim mashg'ulotlaridan tashkil topadi. Akademik litseylarda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning asosiy maqsadi: O'zbekiston Respublikasining rivojlanishida raqamli savodxonlik va madaniyatni tanqidiy fikrlash hamda kreativ axborot-kommunikatsion kompetensiyalarni yosh avlodlarda shakllantirish uchun sharoit yaratish, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, ijodkorlikni shakllantirish va jamoa bo'lib ishlashni o'rgatish, nostandart

sharoitlarda to'g'ri, iqtisodiy, ekologik trendlarga mos adekvat yechimini topish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib yuqori natijalarni ko'rsata oladigan yoshlarni tarbiyalash.

Akademik litseylarda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

- akademik litseyning barcha bosqichlarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini uzluksiz ta'limda o'qitish tizimini yaratish;
- "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning zamonaviy shakl, usul va texnologiyalari, mazmuni, uning moddiy-texnik ta'minotini modernizatsiyalash va kadrlar salohiyatini oshirish;
- Intellektual salohiyat va raqamli madaniyatni shakllantirish;
- Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida hayotiy muammolarni yechish, loyihalashtirish, modellashtirish va boshqarish kabi universal faoliyatlarni o'zlashtirish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida Web texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, dars mashg'ulotlarining sifatini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli talabalarda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun Web texnologiyalardan foydalangan holda darslarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun elektron ta'lim resurslari yaratishga ehtiyoj sezilmoqda. Hozirgi davrda kompyuter kirib bormagan biror soha qolmadi hisob. Kompyuter bilan birinchi duch keladigan soha — bu ta'lim sohasidir. Chunki, har bir mutaxassis avvalambor maktab, kollej, universitet va institut kabi o'quv muassasalarida o'qib, kadr sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Biz o'quvchilarga bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bilimlarni mukammal darajada yetkazib berishimiz mumkin. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Multimedia texnologiyalari (multi – ko'p, media – muhit) – bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir nechta usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, tasvir, audio va video [1]. Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchi ta'sir o'tkaza olishga qodirligi xisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy maxsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqa. Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish muallifning mahorati, tajribasi va fantaziyasiga bog'liq. Zamonaviy o'qitish vositalariga hozirgi kunda elektron o'quv materiallarini kiritishimiz mumkin. Bularga elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, elektron nashrlar va h.k. kiritamiz. Elektron darslik bu mavjud o'quv qo'llanma, darslikning undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat. Elektron darslik tayyorlashda taqdim etilayotgan ma'lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo'lishligi ahamiyatlidir [3; 249-250 b.]. Turli xil manbalarda elektron o'quv resurslarga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Elektron o'quv qo'llanma — bu grafik, matnli, raqamli, tovushli, musiqiy, video, foto va boshqa turdagi axborotlar majmuasi. Elektron nashr ixtiyoriy ma'lumot tashuvchilarda — magnit va optik disklarda, shuningdek kompyuter tarmoqlarida amalga oshirilishi mumkin;

Elektron o'quv qo'llanma — mos ilmiy-amaliy bilimlar sohasiga oid tartiblangan materiallardan iborat bo'lishi kerak, ta'lim oluvchilar va talabalarning faol va ijodiy tarzda bu

sohaga oid bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak. Elektron o'quv nashri yuqori darajada ijro etilganligi va bezatilganligi, axborotlarning to'liqligi, metodik ko'rsatmalar sifati, texnik ijro sifati, ko'rgazmalilik, mantiqiylik va ketma — ket ifoda uslubi bilan ajralib turishi kerak.

Elektron o'quv qo'llanma — bu elektron shaklda taqdim etilgan va uning bir qismidan boshqa qismiga bir zumda o'tish imkonini beradigan tarmoqlanuvchi aloqa tizimi bilan ta'minlangan matn[4;56-57b]

Elektron o'quv qo'llanmani foydalanish uchun tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Testdan o'tkazish;
- Foydalanish uchun ko'rsatmalar yozish;
- Metodik ta'minotni ishlab chiqish;
- Ro'yxatdan o'tkazish uchun materiallarni tayyorlash;
- Elektron o'quv qo'llanmani ro'yxatdan o'tkazish va grif olish;
- Elektron o'quv qo'llanmani himoyalash va tarqatish.

Elektron o'quv qo'llanma – ma'lum yo'nalish va mutaxassislikning davlat ta'lim standartlariga to'liq mos tuzilgan yuqori ilmiy uslubiy darajada yaratilgan o'quv nashridir. Elektron o'quv qo'llanma – bu o'quv qo'llanmani qisman yoki to'liq o'rnini bosuvchi va mazkur turdagi nashr sifatida rasmiy tasdiqlangan elektron nashrdir .

Elektron o'quv qo'llanma oddiy o'quv qo'llanmani to'ldiradi va quyidagi hollarda yanada samaralidir:

- bir lahzada qayta bog'lanishni ta'minlaydi;
- oddiy o'quv qo'llanmalarda izlash qiyin bo'lgan ma'lumotlarni tez topish imkonini beradi;
- gipermatnli izohlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqtni sezilarli darajada tejaydi;
- qisqa matn bilan birga namoyish qiladi, aytib beradi, modellashtiradi va hokazo;
- muayyan bo'lim bo'yicha bilimlarni tez tekshirish imkonini beradi.

Oxirgi 20 yil mobaynida elektron o'quv qo'llanma bilan bog'liq tushunchalar va unga bo'lgan talablar ahamiyatli tarzda o'zgardi. Elektron o'quv qo'llanmalarni mualliflari ko'plab bahs munozaralar va eskicha qarashlarga qarshi chiqishlari natijasida elektron o'quv qo'llanma tushunchasining ma'lum shakl-shamoili, talablari yuzaga keldi.

Quyida elektron o'quv qo'llanmaga bog'liq asosiy tushunchalarni keltirib o'tamiz:

Elektron nashr (EN) - bu grafikli, matnli, raqamli, nutqiy, musiqiy, video, foto va boshqa ma'lumotlar, shuningdek foydalanuvchining bosma xujjatlari majmuasidir. Elektron nashr istalgan elektron ma'lumot tashish qurilmalarida tarqatilishi mumkin — magnitli (magnitli lentalar, magnitli disk), optik (CD — ROM, DVD, CD — R, CD — I, CD+), shuningdek, kompyuter tarmoqlari orqali tarqatish mumkin .

O'quv elektron nashr (O'EN) — ilmiy-amaliy bilimlar sohasiga mos keladigan tartiblashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, talabalar va o'quvchilar tomonidan bu sohaga oid bilim, ko'nikmalarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlashi kerak.

Elektron darslik (ED) - ma'lum yo'nalish va mutaxassislikning Davlat ta'lim standartlariga to'liq mos tuzilgan yuqori ilmiy-uslubiy darajada yaratilgan asosiy o'quv elektron nashrdir. Gipermatn - bu elektron shaklda berilgan va tarmoqlangan, tizimli


bogʻlanishli, bir fragmentdan ikkinchisiga bir lahzada oʻtishni taʼminlaydigan matndir. Shuningdek, oʻquv qoʻllanma tayyorlashda videodarslarning ahamiyat juda katta. Videodars — qisqa, maʼlum bir formula yoki jarayonni talqin qilish uchun yaratilgan rolik. Bichimi (formati) TV — koʻrsatuvda oʻxshash. Odatda bunday videodarslar uchun oldindan “ mukammal ” senariy tuziladi. Har bir aytiladigan jumla va kadrda koʻrsatiladigan elementlar oldindan rejalashtiriladi.

Videodarsdan foydalanishning 10 ta afzalligi:

1. Oʻtilgan darsni qayta qayta koʻrish mumkin;
2. Koʻp oʻquvchilarni bitta monitoring oldiga toʻplab olmaydi;
3. Har bir darsni, oʻquvchining qabul qilish tezligiga moslashtirish mumkin boʻladi;
4. Uyga vazifalarni mustaqil shugʻullanish uchun yoʻnaltirish imkoniyati yuzaga keladi;
5. Oddiy qogʻoz tashuvchida koʻrsatish imkoni chegaralangan mikro va makro jarayonlarni koʻrsatish imkoniyatining mavjudligi;
6. Darsning koʻrgazmalilik darajasini oshishi;
7. Oʻqituvchi va oʻquvchini oʻquv yuklamasini yengillashtirish imkonini berishi;
8. Videodars yordamida loyiha uslub (metod) larini qoʻllash imkoniyatining mavjudligi;
9. Oʻquvchilar qoʻlidagi gadjetlar yordamida BYOD texnologiyasini ishga tushirish imkonining paydo boʻlishi;
10. BYOD ishga tushirilsa, oʻquvchilarda gadjetlardan foydalanish madaniyati oshirishga erishish mumkin.

Web texnologiyalar yordamida elektron taʼlim oʻquv resursini yaratish texnologiyalari

Oʻqitish jarayonlarini vertuallashtirish masalasining yechimini olishda web-texnologiyalarga asoslangan avtomatlashtirilgan tizim ishlab chiqildi. Bu tizimdan foydalanuvchilarni ikki guruhga ajratilgan boʻlib, ular oddiy foydalanuvchi (talaba, mustaqil taʼlim oluvchi)lar va tizim administratori (server administratori, oʻqituvchi) (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Avtomatlashtirilgan tizimning foydalanuvchi interfeysi.

Yuqorida tasvirlangan funksional sxema asosida ishlovchi tizimni ishlab chiqishda tizimga qo'yilgan talablar va uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda quyidagi texnologiyalardan foydalanildi:

1. Tizimning masala yechimini tekshiruvchi qismni yaratishda Borland Delphi dasturlash muhiti tanlab olindi. Bizga ma'lumki, Delphi tili rivojlanayotgan dasturlash tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, uning boy komponentlar bibliotekasi (VCL) yordamida qisqa muddat ichida dasturiy vositalar ishlab chiqish mumkin.

2. Ma'lumotlar bazasini loyihalash va ishlab chiqishda MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tanlab olindi, chunki bu ma'lumotlar bazasi juda katta samaradorlikka ega bo'lib, yirik loyihalar uchun ham qo'llanilgan yaxshi natijalarga erishish mumkin.

3. Delphi da ishlab chiqilgan dasturiy vosita va MySQL ma'lumotlar bazasini bog'lash uchun Delphi ning standart dbExpress bibliotekasi o'rniga tezkor va ixcham Zeos-Lib bibliotekasi qo'llanildi. Chunki bu biblioteka MySQL dan boshqa ma'lumotlar bazasi bilan ham (masalan, Oracle, MS SQL) bog'lanish imkonini beradi.

4. Web-interfeysni ishlab chiqishda PHP ssenariylar tili tanlab olindi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, Web-interfeys to'liq ob'ektga mo'ljallangan dasturlash prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Bu tizimni kengaytirish va takomillashtirishda ancha qulayliklar beradi. SHu bilan birgalikda tizim interfeysida HTML, CSS va JavaScript elementlaridan to'liq foydalanilgan.

Bu o'z navbatida foydalanuvchi qo'shimcha dasturiy vositalarni o'rnatishdan xalos etadi, ya'ni tizimdan foydalanish uchun faqat Web-brouzerning bo'lishi etarli bo'ladi.

5. Web-interfeysning foydalanuvchi uchun qulayligi va interaktivligini oshirish maqsadida MooTools Fremwork qo'llanilgan. Freymvorkning qulayligi shundaki, unda AJAX texnologiyasini qo'llash va DOM manipulyasiyasi uchun tayyor instrumentlar paketi mavjud [5].



2.2.2-rasm. Tizim Web-interfeysi

Ishlab chiqilgan tizim ikkita rejimda ishlay oladi:

1) Ta'lim muassasasi lokal tarmog'ida fanlarni o'qitishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida foydalanish rejimi;

2) Internet tarmog'ida on-layn rejimida bilimlarni mustaqil tekshirish uchun qo'llaniladigan rejimi.

Bu ikkala rejimda ham tizim klient-server texnologiyasi prinsiplari asosida ishlaydi (2.2.2-rasm).

Tadqiqot davomida pedagogika Oliy ta'lim muassasalari Matematika-informatika ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Tarmoq texnologiyalari" fanini bo'yicha elektron axborot-ta'lim resursi yaratildi.

Ushbu elektron axborot- ta'lim resursi *talabalar uchun*:

- fanni ixtiyoriy vaqtda kompyuter yordamida o'rganish;
- tezda o'rgana olmagan bilimlarni qayta-qayta video, matn, taqdimot, iboralarning izohli lug'ati ko'rinishida o'rganish;
- mustaqil ta'lim mavzularini erkin tanlash;
- fanning modullari bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'rganib borish

- amaliy va laboratoriya topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish;
- mutaxassislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid videodarslarga murojaat qilish, ulardan foydalanish;
- test savollariga javob berib o'zini o'zi baholash;
- mutaxassislikka oid davlat interaktiv xizmatlarni o'rganib, o'z xulosalariga ega bo'lish kabi imkoniyatlarni beradi.

Fan o'qituvchisi uchun esa:

- fan mavzularini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni olish;
- mavzulardagi nazariy ma'lumotlarni ko'zdan kechirish va kerakli vaqtda undan foydalanish;
- talabalarning o'zlashtirish darajalarini test orqali aniqlash;
- fanni o'qitishda taqdimot slaydlaridan foydalanish;
- talabalarga amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlari va mustaqil ta'lim mavzularini taqdim qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Yaratilgan elektron axborot-ta'lim resursidan foydalanish metodikasi quyidagilardan iborat:

"Ma'ruza mashg'ulotlari" bo'limi yordamida talabalar Tarmoq texnologiyalari faniga oid ma'ruza mashg'ulotlari bilan tanishib chiqadilar.

"Amaliy mashg'ulotlar" bo'limida Tarmoq texnologiyalari faniga oid amaliy mashg'ulotlari joylashtirilgan.

"Laboratoriya mashg'ulotlari" bo'limida Tarmoq texnologiyalari faniga oid laboratoriya mashg'ulotlari o'rin olgan.

"Mustaqil ta'lim topshiriqlari" tugmasidan talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini ko'rishlari va ularni namunaviy topshiriq baholariga moslab tayyorlashadi.

"Video yo'riqnomalar" tugmasida fanning o'quv dasturida berilgan mavzular bo'yicha video darslar takomillashtirilgan ko'rinishda joylashtirilgan.

"Test savollari" tugmasidan talabalar fanga oid test topshiriqlarini ishga tushirishlari, o'z bilimlarini sinab ko'rishi va o'zini-o'zi baholaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy Web-texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan elektron ta'lim resursi talaba (foydalanuvchi)ning bilim, ko'nikmalarini baholashda obyektiv yondashish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari, ushbu tizim hozirgi davrning dolzarb talablaridan biri bo'lgan, talabaning mustaqil ishlashi uchun etarli darajada ko'nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.researchgate.net/publication/349102060> Elektron resurlarni yaratish texnologiyasi.
2. <https://www.researchgate.net/publication/349102060> Elektron resurlarni yaratish texnologiyasi.
3. Begimqulov U.SH. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-metodik asoslari: Ped.fan. dok. ... dis. –Toshkent: TDPU, 2007. -250 b.
4. Zakirova F., U.Muxamedxanov, Sh.Sharipov, R.G.Isyanov, F.Esonboboev, S.Dottoev. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: OO'MTV, 2010. – 57 b.

5. <https://www.researchgate.net/publication/349102060> Elektron resurlarni yaratish texnologiyasi.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

PEDAGOGICAL READINESS FOR THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: ANALYSIS OF COMPETENCES OF COMPUTER SCIENCE TEACHERS AND PROSPECTS FOR THEIR DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Nazhmetdinova Nargiza Sayfedinovna

Tutor of the Bukhara State Medical Institute,
Independent applicant of BSU

Abstract. This paper addresses the critical issue of assessing the competence of computer science teachers in artificial intelligence (AI). With the rapid introduction of AI into the educational process around the world, including Uzbekistan, there is an increasing need for qualified teachers who can effectively integrate these technologies. The paper analyzes the leading international AI competency frameworks for teachers, examines in detail the existing assessment methodologies, identifies the main challenges and factors influencing the development of teacher competence. Particular attention is paid to the national strategy of Uzbekistan in the field of AI and current teacher training initiatives. It concludes with recommendations for improving the assessment and development of computer science teachers' competence in Uzbekistan, which will allow the country to achieve its ambitious goals in the field of digital transformation and prepare future generations for life in an AI-driven world.

Keywords: artificial intelligence, computer science teacher, digital competencies, pedagogical competence, competence assessment, teaching methods, professional development.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ К ЭПОХЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: АНАЛИЗ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Нажметдинова Наргиза Сайфетдиновна

Тьютор Бухарского государственного медицинского института,
Самостоятельный соискатель БГУ
e-mail: nargizasayfedinovna@gmail.com

Аннотация. Настоящий доклад посвящен критической задаче оценки компетентности учителей информатики в области искусственного интеллекта (ИИ). В условиях быстрого внедрения ИИ в образовательный процесс по всему миру, включая Узбекистан, возрастает потребность в квалифицированных педагогах, способных эффективно интегрировать эти технологии. В докладе анализируются ведущие международные рамки компетенций в области ИИ для учителей, подробно рассматриваются существующие методологии оценки, выявляются основные вызовы и факторы, влияющие на развитие компетентности учителей. Особое внимание уделяется национальной стратегии Узбекистана в области ИИ и текущим инициативам по подготовке учителей. В заключении представлены рекомендации по совершенствованию оценки и развитию компетентности учителей информатики в Узбекистане, что позволит стране достичь своих амбициозных целей в области цифровой трансформации и подготовки будущих поколений к жизни в мире, управляемом ИИ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, учитель информатики, цифровые компетенции, педагогическая компетентность, оценка компетентности, методы обучения, профессиональное развитие.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N39>

ВВЕДЕНИЕ

Искусственный интеллект (ИИ) стремительно преобразует различные секторы экономики и общества, и образование не является исключением. В современном мире, где технологии проникают во все сферы жизни, цифровая грамотность и, в частности, грамотность в области ИИ, становятся неотъемлемыми навыками для учащихся, чтобы они могли успешно развиваться в будущих карьерах и ориентироваться в мире, управляемом ИИ.¹ Технологии ИИ предлагают значительные преимущества для образовательного процесса, включая улучшенное персонализированное обучение, автоматизацию административных задач, повышение доступности образовательных ресурсов и предоставление ценных аналитических данных для педагогов. Это позволяет оптимизировать подходы к преподаванию и значительно повысить вовлеченность учащихся. Интеграция ИИ в образование выходит за рамки простой эффективности; она направлена на развитие критического мышления, креативности и ответственного взаимодействия с технологиями ИИ.

Эффективность интеграции ИИ в образование напрямую зависит от компетентности учителей в этой области. Педагоги не просто пользователи инструментов ИИ; они выступают в роли критически важных посредников, формирующих понимание учащимися, их этические соображения и практическое применение ИИ. Недостаточная компетентность учителей может стать узким местом, ограничивающим глубину и широту развития грамотности учащихся в области ИИ, что, в свою очередь, подрывает более широкую национальную цель по подготовке будущих кадров для экономики, управляемой ИИ. Следовательно, оценка компетентности учителей является необходимым условием для достижения успешных результатов обучения учащихся.

Узбекистан признал стратегическую важность ИИ, и Президент Шавкат Мирзиёев объявил о национальной стратегии в области ИИ, направленной на то, чтобы к 2030 году страна стала мировым лидером в этой сфере. Эта национальная стратегия включает значительные образовательные реформы, такие как программа «Один миллион ИИ-лидеров», разработка новых учебных программ по ИИ для школ (вдохновленных программами Массачусетского технологического института) и предложение курсов повышения квалификации для учителей информатики.

Несмотря на проактивные национальные стратегии, существует критический пробел в оценке конкретных компетенций учителей информатики в области ИИ, что является важным для разработки эффективного обучения и обеспечения успешной интеграции ИИ. Без достаточных знаний и подготовки преподаватели часто не могут распознать или в полной мере использовать образовательные возможности ИИ. Настоящий доклад направлен на систематическую оценку компетентности учителей в области ИИ для информирования политики, разработки учебных программ и инициатив по профессиональному росту в контексте Узбекистана.

МАТЕРИАЛЫ

Существует несколько международных рамок, которые определяют необходимые компетенции для учителей в эпоху ИИ. Эти рамки служат ориентиром для разработки учебных программ и программ профессионального развития.

Рамочная программа ЮНЕСКО по компетенциям в области ИИ для учителей (AI CFT) представляет собой глобальное видение для эффективной интеграции ИИ учителями [1]. Она основана на человекоцентрированном подходе, отдавая приоритет таким ценностям, как инклюзивность, человеческий фактор и уважение к разнообразию. Рамка организована вокруг пяти ключевых областей: (1) мышление учителей, (2) этика ИИ, (3) основы ИИ, (4) педагогика ИИ и (5) ИИ для профессионального развития. Она также описывает путь развития компетенций для учителей, от базового понимания до продвинутого применения.

Рамочная программа ОЭСР-ЕК по грамотности в области ИИ для начального и среднего образования, разработанная совместно ОЭСР и Европейской комиссией, определяет глобальные стандарты грамотности в области ИИ для школьников [2]. Она направлена на то, чтобы вооружить учащихся навыками использования, понимания, создания и критического взаимодействия с ИИ. Рамка описывает основные знания, умения и отношения, структурированные вокруг четырех основных областей: (1) Взаимодействие с ИИ, (2) Создание с ИИ, (3) Управление ИИ и (4) Проектирование ИИ, разбитых на 22 конкретные компетенции. Хотя эта рамка в первую очередь предназначена для учащихся, ее акцент на технических концепциях, критическом мышлении, этике и человекоцентрированных перспективах крайне актуален для учителей, которые должны способствовать развитию этих компетенций.

Руководство AI for K-12 (AAAI и CSTA) сосредоточено вокруг «Пяти больших идей в ИИ»: Восприятие, Представление и Рассуждение, Обучение, Естественное Взаимодействие и Социальное Воздействие. Эти фундаментальные концепции имеют решающее значение для разработки учебных программ и понимания учителями [3,9].

Систематический обзор выявил четыре категории компетенций учителей в области ИИ: грамотность в области ИИ, ИИ-ТРАСК, готовность к ИИ и профессиональная компетентность.

Для учителей информатики способность критически оценивать эффективность, предвзятости и ограничения инструментов ИИ так же важна, как и понимание того, как их использовать. Более того, учитывая быстрое развитие ИИ, непрерывное профессиональное развитие является не просто желательным, а абсолютно необходимым условием для того, чтобы учителя оставались компетентными и адаптировали свою педагогику [4]. Этот пробел указывает на то, что существующие рамки могут не полностью подготавливать учителей к динамичным и сложным реалиям интеграции ИИ, что потенциально приводит к поверхностному или некритическому внедрению инструментов ИИ [11].

Интеллектуальная рамка Технологических Педагогических Знаний Содержания (ТРАСК) имеет решающее значение для ответственного, этичного и эффективного внедрения ИИ в разработку и реализацию курсов. Она объединяет учащихся, контексты обучения, содержание предмета, методы преподавания, интеграцию технологий и этические вопросы. Рамки ИИ-ТРАСК адаптируют традиционную модель ТРАСК для конкретной интеграции ИИ, фокусируясь на слиянии технологических и педагогических знаний в области ИИ. Это предполагает, что ИИ должен переформатировать базовые педагогические концепции, а не просто быть дополнительным инструментом.

МЕТОДЫ

Оценка компетентности учителей в области ИИ требует многогранного подхода, использующего различные инструменты и методологии.

Опросы и анкеты являются распространенными инструментами для оценки самооценки компетенций, отношения и готовности. Они могут включать вопросы о понимании грамотности в области ИИ, осведомленности об инструментах ИИ, комфорте/готовности использовать ИИ, уверенности в преподавании с использованием ИИ и этических опасениях. Эти инструменты способны измерять когнитивную, компетентностную и эмоциональную готовность учителей. Примеры вопросов: «Как часто вы используете инструменты ИИ для обучения/преподавания?», «Я чувствую себя уверенно, используя инструменты ИИ в своем преподавании», «Что такое генеративный ИИ (GenAI)?». Компоненты для самооценки включают понимание основ ИИ, критическую оценку ИИ, этику, использование, осведомленность о социальных последствиях и коммуникацию об ИИ [10].

Рубрики, хотя многие из них предназначены для оценки *инструментов ИИ*, их критерии могут быть адаптированы для оценки способности учителей критически отбирать и интегрировать инструменты ИИ в свою педагогику. Критерии оценки инструментов включают релевантность учебной программе, конфиденциальность данных учащихся, простоту изучения/использования, поддержку, этические соображения (смягчение предвзятости, прозрачность), соответствие учебным целям, справедливость/дифференциацию и пригодность для внедрения, а также техническую надежность. Это подразумевает, что компетентность учителей может быть оценена по их способности применять эти критерии при выборе и использовании инструментов ИИ.

Практические задания и тематические исследования позволяют оценить способность учителей применять знания ИИ в реальных педагогических сценариях. Примеры для учащихся (которые можно адаптировать для учителей) включают использование ИИ для генерации вопросов для обсуждения, совместную работу с ИИ над черновиками эссе, разработку контента для подкастов/видео с ИИ, использование ИИ для исследований. Для учителей это может включать разработку плана урока с интеграцией инструмента ИИ, демонстрацию использования ИИ для персонализированной обратной связи или проведение дискуссии по этике ИИ в классе.

Наблюдательные метрики, хотя и упоминаются для оценки ИИ-помощников, концепция наблюдения за тем, «насколько хорошо ИИ-помощник проводит нарративные интервью», может быть адаптирована для наблюдения за тем, как учителя взаимодействуют с ИИ и интегрируют его в свое живое преподавание.

При выборе и внедрении инструментов ИИ в образовательный процесс крайне важно учитывать ряд критериев, которые также могут служить основой для оценки компетентности учителей в области ИИ.

Таблица 1.

Методы и критерии оценки компетентности учителей в области ИИ

Метод Оценки	Описание Метода	Ключевые Критерии/Индикаторы Оценки	Сильные Стороны и Ограничения
Опросы и Анкеты	Самооценка знаний, отношения и готовности к ИИ через структурированные вопросы.	Понимание основ ИИ, осведомленность об инструментах, уверенность в использовании.	Сильные стороны: Широкий охват, простота администрирования, сбор субъективных данных. Ограничения: Зависимость от самооценки, может не отражать фактические навыки.
Рубрики для Оценки Инструментов ИИ	Оценка способности учителя критически выбирать и интегрировать ИИ-инструменты на основе установленных критериев.	Релевантность учебной программе, конфиденциальность данных, простота использования, поддержка, этика/предвзятость, соответствие учебным целям, справедливость.	Сильные стороны: Структурированная оценка критического мышления, применимость к реальной практике. Ограничения: Требуется четких критериев, может быть субъективной без стандартизации.
Практические Задания и Кейс-стади	Оценка способности применять знания ИИ в имитируемых или реальных педагогических сценариях.	Разработка уроков с ИИ, использование ИИ для персонализированной обратной связи, проведение дискуссий по этике ИИ, создание контента с ИИ.	Сильные стороны: Оценка реальных навыков и применения, демонстрация педагогической компетентности. Ограничения: Требуется значительных ресурсов для разработки и оценки, масштабируемость.
Наблюдательные Метрики	Наблюдение за интеграцией ИИ в живом преподавании и взаимодействии с ИИ-инструментами.	Взаимодействие с ИИ, интеграция в учебный процесс, демонстрация этических соображений в реальном времени.	Сильные стороны: Прямая оценка поведения и практики. Ограничения: Трудоемкость, потенциальная субъективность наблюдателя.

Глобальные методологии оценки и критерии оценки инструментов должны быть адаптированы к специфическому социотехническому контексту Узбекистана. Это означает, что инструменты оценки должны не только измерять общую компетентность в области ИИ, но и осведомленность учителей и их соблюдение местных законов о

конфиденциальности данных и этических норм. Более того, практические оценочные задания должны учитывать доступность технологий и возможные языковые барьеры. Глобально стандартизированная оценка может неточно отражать компетентность, если она не учитывает местную инфраструктуру, культурные ценности и политические нюансы, что потенциально может привести к неточным оценкам или неверно направленным усилиям по обучению.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Интеграция ИИ в образование сталкивается с рядом существенных барьеров, которые необходимо учитывать при разработке программ развития компетентности учителей.

Недостаток цифровой грамотности и базового понимания является одним из основных препятствий. Многие учителя не обладают достаточными техническими знаниями о системах ИИ и принципах их работы, что приводит к нежеланию или поверхностному использованию технологий. Исследования показывают значительный разрыв: только 17% преподавателей считают себя продвинутыми в области ИИ, а 40% относят себя к новичкам.

Разрыв в доступе к технологиям представляет собой серьезное препятствие, особенно в отдаленных районах, где наблюдается неравный доступ к аппаратному обеспечению (компьютеры, планшеты) и адекватному интернет-соединению. Это усугубляет образовательное неравенство.

Отсутствие институциональных структур поддержки также является проблемой. Многие учреждения не предоставляют достаточных ресурсов, четких руководств или поддержки для развития грамотности в области ИИ среди педагогов. Это приводит к фрагментарному и изолированному внедрению [5].

Сопrotивление изменениям со стороны педагогов, привыкших к традиционным методам, может стать дополнительным барьером для внедрения новых технологий ИИ.

Высокая стоимость внедрения и обслуживания систем ИИ также может быть значительным препятствием.

Недостаток педагогической подготовки означает, что преподавателям часто не хватает педагогических рамок для осмысленного применения ИИ, что приводит к избеганию или поверхностному использованию.

Распространенные этические опасения среди учителей являются не просто препятствиями для внедрения, но и выявляют фундаментальный пробел в их этической компетентности в области ИИ. Это означает, что простое предоставление технического обучения будет недостаточным; надежное этическое образование должно быть глубоко интегрировано во все программы профессионального развития в области ИИ. Более того, оценка компетентности учителей в области ИИ должна строго оценивать их понимание и применение этических принципов, включая их способность выявлять и смягчать предвзятость, обеспечивать конфиденциальность данных и способствовать критическому мышлению о социальном воздействии ИИ у своих учащихся. Это превращает барьер в важнейшую цель обучения, обеспечивая ответственное и эффективное внедрение ИИ.

АНАЛИЗЫ

Узбекистан демонстрирует сильную приверженность развитию ИИ и его интеграции в образование. «Стратегия цифрового Узбекистана 2030» и Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4996 от 17 февраля 2021 года направлены на создание благоприятной среды для развития ИИ и ускорение цифровой трансформации, с целью стать ведущей страной в области ИИ к 2030 году.

Ключевым направлением является создание национальной модели ИИ, отражающей культуру и основные ценности страны, стимулирующей вовлечение молодежи в творческое мышление и технологическое развитие. Программа «Один миллион ИИ-лидеров» нацелена на обучение не менее 100 000 молодых людей технологиям ИИ к 2025 году, в сотрудничестве с ОАЭ. Стратегия подчеркивает развитие кадрового потенциала, укрепление образовательной инфраструктуры и открытие новых кафедр по ИИ и науке о данных в университетах. Разрабатываются новые учебные программы по ИИ для школ, вдохновленные программами Массачусетского технологического института, наряду с двухгодичными курсами повышения квалификации для учителей. Считается необходимым создание правовых рамок, регулирующих использование ИИ в образовании, с акцентом на этические аспекты и защиту персональных данных (нормы GDPR, адаптированные к местному законодательству).

Таблица 2.

Национальные инициативы Узбекистана в области образования в сфере ИИ

Название Инициативы	Ключевые Цели	Целевая Группа	Ключевые Мероприятия/Результаты
«Стратегия цифрового Узбекистана 2030» [8]	Ускорение цифровой трансформации, создание национальной модели ИИ, становление мировым лидером в ИИ к 2030 году.	Страна в целом, молодежь, образовательная система.	Разработка новых учебных программ, создание правовых рамок, инвестиции в инфраструктуру.
Программа «Один миллион ИИ-лидеров»	Обучение 100 000 молодых людей технологиям ИИ к 2025 году.	Молодые люди.	Сотрудничество с ОАЭ, развитие кадрового потенциала.
Программа Beeline Academy	Повышение цифровых навыков учителей, интеграция ИИ-инструментов в образование.	1000 учителей информатики (государственные и частные школы, лицеи, колледжи, университеты).	Бесплатные онлайн-курсы, интерактивные сессии, обучение нейронным сетям, кибербезопасности, Python. Более 210 учителей прошли обучение в 2023-2024 гг.
Пилотный проект платформы Eduten [7]	Оценка эффективности ИИ-платформы для	Учащиеся 5-х классов, учителя математики.	12-недельный пилот, использование ИИ-

	улучшения навыков счета, снижения нагрузки на учителей.		аналитики обучения, положительные отзывы учителей о снижении нагрузки.
Реформы учебных программ МДО	Интеграция технологических подходов, пересмотр учебных программ с акцентом на ИИ и практико-ориентированное обучение.	Учителя, учащиеся.	Разработка новых учебных программ по ИИ (вдохновленных MIT), 2-летние курсы повышения квалификации для учителей, пилотные проекты в 100 школах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Национальная стратегия Узбекистана хорошо согласуется с глобальными рамками, такими как ЮНЕСКО AI CFT и ОЭСР-ЕК AI Literacy, особенно в части акцента на фундаментальных знаниях ИИ, его применении и этических соображениях. Пять основных конструкторов компетентности учителей в области ИИ (ИИ-когниция, применение, этика, оценка, профессиональное развитие) обеспечивают надежную основу для оценки и развития учителей информатики в Узбекистане. Ориентация Узбекистана на «человекоцентрированный подход» и интеграцию своей «культуры и основных ценностей» в национальную модель ИИ сильно перекликается с человекоцентрированным подходом и этическим акцентом ЮНЕСКО. Выявленные пробелы в глобальных рамках в отношении оценки ИИ и профессионального развития предоставляют Узбекистану уникальную возможность стать лидером, более активно интегрируя эти аспекты в свои программы развития учителей и стратегии оценки [6].

Проактивная политика Узбекистана в области ИИ предоставляет стратегическое преимущество. В отличие от многих стран, где интеграция ИИ в образование носит реактивный или фрагментированный характер, сильная, централизованная национальная стратегия Узбекистана обеспечивает уникальную возможность для скоординированного и эффективного развития компетентности учителей. Такой проактивный подход позволяет заблаговременно создать правовые рамки, этические руководства и пересмотреть учебные программы, потенциально смягчая будущие проблемы, связанные с нерегулируемым использованием ИИ или разрозненными усилиями по обучению. Это означает, что Узбекистан имеет потенциал стать образцом для других развивающихся стран в стратегическом наращивании компетентности в области ИИ среди своего преподавательского состава.

Акцент на «человекоцентрированном ИИ» и интеграции национальной культуры и ценностей является не просто политическим заявлением, но и критически важным педагогическим и этическим императивом для Узбекистана. Это означает, что оценка и развитие компетентности учителей в области ИИ должны выходить за рамки технических навыков и глубоко интегрировать культурные и этические соображения. Учителя должны быть оснащены не только для использования ИИ, но и для критической оценки его соответствия местным ценностям, предотвращения культурных предвзятостей и воспитания поколения студентов, способных ответственно

разрабатывать и использовать ИИ в своем социальном контексте. Это делает компетентность в области «Этики ИИ» особенно тонкой и жизненно важной для Узбекистана.

Для дальнейшего развития и оптимизации интеграции ИИ в образование Узбекистана необходимы дополнительные исследования:

- Лонгитюдные исследования влияния конкретных программ профессионального развития в области ИИ на компетентность учителей и результаты обучения учащихся в Узбекистане.
- Исследования наиболее эффективных методов смягчения алгоритмической предвзятости и обеспечения конфиденциальности данных в образовательном контексте Узбекистана.
- Исследования психологических факторов (например, воспринимаемой угрозы, самооэффективности), влияющих на внедрение ИИ среди учителей старшего возраста в Узбекистане.
- Разработка и валидация стандартизированного инструмента оценки компетентности в области ИИ, специально адаптированного для учителей информатики в Узбекистане.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Оценка компетентности учителей информатики в области искусственного интеллекта (ИИ) представляет собой стратегически важную задачу для эффективной интеграции ИИ в систему образования, особенно в таких странах, как Узбекистан, где реализуются амбициозные национальные программы по цифровизации и развитию ИИ. В условиях стремительно меняющейся образовательной среды формирование ИИ-компетентностей педагогов требует не только технической подготовки, но и развития критического мышления, этической ответственности и адаптивности к инновационным технологиям.

Синтез международных рамочных моделей (например, DigCompEdu, UNESCO ICT-CFT) с учетом местных образовательных реалий позволяет выработать целостный и контекстуально релевантный подход к оценке и формированию профессиональных ИИ-компетенций [12]. Узбекистан демонстрирует проактивный подход в этом направлении, предлагая стратегические рекомендации, направленные на внедрение практико-ориентированных методик обучения, развитие цифровой грамотности, а также обеспечение непрерывного профессионального роста преподавателей.

В перспективе дальнейшие эмпирические исследования и гибкие стратегии реализации ИИ в педагогической практике будут играть ключевую роль в обеспечении устойчивого прогресса и в достижении целей инклюзивного, справедливого и качественного образования в эпоху цифровой трансформации.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. UNESCO. (2021). AI Competency Framework for Teachers. CEDEFOP. <https://www.cedefop.europa.eu/en/tools/vet-toolkit-tackling-early-leaving/resources/unesco-ai-competency-framework-teachers>
2. OECD. (2023). AI Literacy Framework for Primary & Secondary Education. <https://learnworkecosystemlibrary.com/initiatives/ai-literacy-framework-for-primary-secondary-education-oecd-ec/>

3. Touretzky, D. S., Gardner-McCune, C., Martin, F., & Seehorn, D. (2019). AI for K–12: Five Big Ideas in AI. <https://ai4k12.org/>
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
5. van Laar, E., van Deursen, A. J., van Dijk, J. A., & de Haan, J. (2020). Determinants of 21st-century digital skills and 21st-century digital skills in the workplace: A systematic literature review. *Computers in Human Behavior*, 107, 106273. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2020.106273>
6. Beeline Uzbekistan. (2024). Beeline Academy launches free AI courses for 1,000 computer science teachers. <https://beeline.uz/en/events/news/beeline-academy-otkryvaet-nabor-na-besplatnye-kursy-ii-dlya-1000-prepodavateley-informatiki>
7. UNICEF. (2025). Educational Technology Use in Uzbek Schools: Eduten Pilot Report. <https://www.unicef.org/innovation/media/24166/file>
8. Center for Strategic Development. (2025). Artificial Intelligence: A Tool for Improving the Quality of Education. <https://strategy.uz/index.php?lang=en&news=2096>
9. AI | University of Florida. (2025). K–12 AI Education Program. <https://ai.ufl.edu/teaching-with-ai/k-12-ai-education-program/>
10. Son, J. B. (2023). AI Literacy Questionnaire – Language Teachers. <https://drjbson.com/projects/ail/ailq/AILQ-LT.pdf>
11. Wang, Q., & Woo, H. L. (2021). Teachers’ Use of Artificial Intelligence in Education: A Systematic Review. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 2, 100009. <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2021.100009>
12. Cavanagh, S. (2023). AI Literacy is Imperative for Classroom Success. Teachers College, Columbia University. <https://www.tc.columbia.edu/articles/2025/july/ai-literacy-is-imperative-for-classroom-success/>

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

THE PSYCHOLOGY OF COLOR IN INTERIOR DESIGN

Haqberdiyev Bakhtiyar Rustamovich

Alfraganus University Comprehensive
Associate Professor, Department of Sciences (PhD)

Ismog'ilova Madinabonu Shovkat qizi

Ro'ziqulova E'zoza Tuychi qizi

Alfraganus University Faculty of Tourism
Des23/1, Des24 / 1 group of students

Abstract. Modern interior design directly affects not only aesthetic beauty, but also human psychology. Colors not only create aesthetic beauty, but also directly affect a person's mood, emotional state, and behavior. The psychological features of cold, warm and neutral colors, how they affect the indoor environment, as well as practical design recommendations are described. Motivation: modern interior design has a direct impact not only on aesthetic beauty, but also on human psychology. Colors not only create aesthetic beauty, but also directly.

Keywords: interior design, psychology of color, cold colors, warm colors, neutral colors, human psychology, color choice in design, influence on the room environment, aesthetic appearance, emotional harmony.

INTERYER DIZAYNIDA RANGLAR PSIXOLOGIYASI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti umumkasbiy
fanlar kafedrasi (PhD) dotsenti
E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz

Ismog'ilova Madinabonu Shovkat qizi

Ro'ziqulova E'zoza Tuychi qizi

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti
Diz23/1, Diz24/1 guruh talabalari

Annotatsiya. Zamonaviy interyer dizayni nafaqat estetik go'zallikka, balki inson psixologiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ranglar nafaqat estetik go'zallik yaratadi, balki insonning kayfiyati, hissiy holati va xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sovuq, issiq va neytral ranglarning psixologik xususiyatlari, ularning xonadagi muhitga qanday ta'sir qilishi, shuningdek, amaliy dizayn tavsiyalari bayon etilgan. Natijada ranglar psixologiyasidan xabardorlik interyer dezaynini yanada funksional va hissiy jihatdan uyg'un qilishdamuhim vosita ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Interyer dizayni, ranglar psixologiyasi, sovuq ranglar, issiq ranglar, neytral ranglar, inson psixologiyasi dizaynda rang tanlovi, xona muhitiga ta'sir, estetik ko'rinishi, hissiy uyg'unlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N40>

KIRISH. Zamonaviy interyer dizayni nafaqat estetik go'zallikka, balki inson psixologiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ranglar esa bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi. Har bir rang insonning hissiyotlariga, kashfiyotiga va hatto kundalik faoliyatiga ham ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, interyer dizaynerlari ranglarni tanlashda ularning psixologik ta'sirini

chuqur o'rganadilar [1.98-99-b]. Ranglar yordamida xonani iliq, keng, tinch yoki, aksincha, faol va energiyali qilishi mumkin. Interyer dizayn psixologiyasi-bu inson va muhit o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganadi. Xonadagi tashkiliy va dizayn elementlari odamlarning xatti-harakatlariga, hissiyotlariga va kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rang va yorug'lik muhitni shifobaxsh va stressni kamaytiruvchi holatga aylantirishda samarali bo'lishi mumkin. Masalan, tibbiy yorug'likni oshirish,bezovtalikni pasaytiradi va umumiy ruhiy salomatlikni yaxshilaydi. Ranglar psixologiyasini tadqiq qilishga oid izlanishlar zamonaviy psixologiya sohasida ko'plab o'tkazilmoqda [2. 103-104-b]. Ularda asosan ranglarning inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga, kognitiv imkoniyatlariga va psixik jarayonlariga ta'sir qilish mexanizmlari ochib berishga urinishlarni ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI. Ranglar psixologiyasi – bu ranglarning inson hissiyotlari, qaror qabul qilishi va xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganuvchi sohadir. Har bir rang o'ziga xos energiyaga ega bo'lib, odam ongida ma'lum bir tasavvurlar va his – tuyg'ularni uyg'otadi [3. 2-b]. Masalan, ko'k rang – tinchlik va ishonch, qizil esa – energiya va ehtiros ramzi sifatida qabul qilinadi. Ranglarning inson psixologiyasiga ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan va interyer dizaynerlari uchun foydali ma'lumotlarni J.Morton o'zining “Color Matters” nomli kitobida to'liq ochib beradi [4.65-b]. Undan tashqari ranglarni ma'nolari va uni insonlarga psixologik ta'siri, ularni tanlab olish va ranglar uyg'unligini aniqlash, kontrastlar haqida bilish, ranglardan qay holatda foydalanish, interyer dizaynda ularni qay holda ishlatilishi, xar bir xonaga mosligini aniqlash, mijozni xonalariga uning kayfiyatiga qarab belgilab berish haqida ranglar bo'yicha xalqaro miqyosdagi taniqli mutaxassis, maslahatchi va yozuvchi. U “Pantone Color Institute” ijrochi direktori, shuningdek, “Eiseman Center for Color Information and Training” asoschisi L. Elseman juda ham aniq qilib o'zining “Pantone Guide to Communicating with color” kitobida yozgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Ranglar yordamida xona muhitini iliq, sokin, energiyali yoki dramatik ko'rinishda yaratish mumkin. Sovuq ranglar (xotirjamlik, tozalik, kenglik)

Ko'k — tinchlik, osoyishtalik va ishonch hissini uyg'otadi. Yotoqxona va ish xonalarida ishlatiladi. Issiq iqlimli hududlar uchun mos, xona haroratini vizual ravishda “sovitadi”.

Yashil — tabiiylik va muvozanat ramzi. Ko'zlar uchun tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Mehmonxona, hammom yoki ish xonasida qulay.

Binafsha — (och rangda — lavanda, pastel). Ruhiy osoyishtalik, ijodkorlik, sirli muhit yaratadi. San'at yoki dam olish uchun mo'ljallangan xonalarda ishlatiladi. Sovuq ranglar(energiya, harorat, quvvat)

Qizil — Energiya, ishtaha va ehtirosni kuchaytiradi. Oshxona yoki ovqatlanish xonasida ishlatilishi mumkin. Ko'p ishlatilsa – stress, charchoq yoki agressiyaga olib kelishi mumkin.

To'q sariq — quvnoqlik, iliqlik va ijtimoiylik hissini beradi. Bolalar xonasi yoki jismoniy faollik bo'lgan joylarga mos.

Sariq — baxt, quvonch va diqqatni jalb qiladi. Xona yorqin va ochiq ko'rinadi. Juda kuchli bo'lsa, asabiylikka olib kelishi mumkin. Neytral ranglar (moslashuvchanlik, balans).

Oq — tozalik, ochiqlik va minimalizm ramzi. Har qanday interyerda asosiy fon sifatida ishlatiladi. Ko'p ishlatilsa — sovuq va sterillik hissi tug'dirishi mumkin. Ammo uni boshqa ranglar bilan muvozanatlash muhim.

Kulrang — professional, zamonaviy va tinchlantiruvchi muhit yaratadi. Boshqa ranglar bilan uyg'unlashganida juda zamonaviy ko'rinadi.

Bej rang — iliqlik, tabiiylik va sokinlik. Yotoqxona va yashash xonalarida keng qo'llaniladi.

Qora — kuch va jiddiylik, zamonaviylik ramzi. Detallarda yoki aksent sifatida ishlatiladi.

Qora va quyuuq ranglar — dramatik effektlar. Odatda u kichik detal yoki aksent sifatida ishlatiladi, chunki ko'p miqdorda u xonani vizual ravishda toraytiradi. Shuningdek, u boshqa yorqin ranglar bilan kontrast yaratishda foydalidir. Rang tanlashdagi amaliy maslahatlar:

1) Dam olish uchun — sokin va sovuq ranglar, faoliyat uchun esa — energiyali va issiq ranglar tavsiya etiladi. Bunda yorug'likni ham inobatga olish zarur.

2) Yorqin xonada sovuq, qorong'i xonada esa iliq ranglar qulayroq.

3) Dominant, yordamchi va aksent ranglar uyg'unlikda bo'lishi kerak.

Ranglar va kayfiyat:

1) Yorqin iliq ranglar (qizil, sariq, to'q sariq) xonaga energiya keltiradi, ayniqsa oshxona yoki ijtimoiy zonalarda foydali.

2) Sovuq ranglar (ko'k, yashil) dam olish va tinchlikni yaratadi — yotoqxona va hammom uchun ideal.

Rang garmoniyasi va kombinatsiya tizimi:

1) Qoramtir pushti va ko'k suv ranglari — tinch lekin tetik muhit yaratadi.

2) Yoki to'q qizil va kulrang kombinatsiyasi ijtimoiy xonalarda e'tiborni va muloqotni kuchaytiradi.

3) Shuningdek, rang garmoniyasini yaratishda qo'llaniladigan asosiy sxemalar:

Monoxromatik

Analog

Komplementlar

Triadik kabi usullar muvozanatni ta'minlaydi.



1-rasm

Ranglar uyg'unligi, san'atda yoki dizaynda ranglarni moslashtirish muhim o'rin tutadi 1-rasm.

Monoxrom — bitta rangning turli ohanglari.

Analog - yonma- yon turgan ranglar (masalan: sariq, to'q sariq, qizil)

Komplementar — qarama –qarshi ranglar (masalan: ko'k.)

Rang aslida yorug'likning inson ko'zi va miyasi tomonidan idrok etilishidagi xususiyati bo'lib, narsalarning tashqi ko'rinishidagi eng muhim belgilaridan biridir.

Rang yorug'lik orqali kelib chiqadi. Quyosh nuri yoki boshqa manba nuri prizma orqali o'tkazilganda u spektr ranglariga ajraladi: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, ko'k, ko'kimtir, binafsha.

Asosiy ranglar: qizil, yashil, ko'k. Bu uchta rangni asosiy (primary) ranglar deyiladi, chunki ulardan qolgan barcha ranglarni aralashtirish orqali hosil qilish mumkin [5. 107-b].

Hosila (ikkinchi darajali) ranglar. Asosiy ranglarni aralashtirish orqali olinadi:

Qizil+yashil=sariq

Qizil+ko'k=magenta (to'q pushti)

Yashil+ko'k=siyan(ko'k-yashil)

Rang xususiyatlari: Tusi (Hue)-rangning o'zi (qizil, yashil, ko'k kabi). To'yinganligi (Saturation) — rangning "tozaligi" yoki "yog'du" darajasi. Yorqinligi (Brightness)- rangning yorug' yoki to'q bo'lish darajasi. Har bir rang inson kayfiyatiga va idrokiga turlicha ta'sir qiladi.

Ranglar va madaniyat. Ranglarning ma'nosi turli madaniyatlarda farqlanadi [6. 544-b].

Oq rang G'arbda poklik ramzi, ba'zi Sharq mamlakatlarida esa motam rangi.

Qizil Xitoyda omad va boylik ramzi, G'arbda esa ko'proq ehtiros va xavf belgisi.

XULOSA. Interyer dizaynida ranglar nafaqat estetik element, balki inson kayfiyatini belgilovchi kuchli vositadir. To'g'ri tanlangan ranglar xonani yanada qulay, samarali va hissiy jihatdan uyg'un holatga keltiradi. Shu sababli, ranglar psixologiyasini bilish va uni amaliyotda

qo'llash zamonaviy dizaynerlar uchun muhim komponentlardan biridir. Har bir xona o'z energiyasiga ega bo'lishi kerak — bu esa ranglar orqali yaratiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rustamovich, H. B., & Qabiljanovich, R. U. (2024). The educational direction "fine arts and engineering graphics" in the formation of the scientific worldview of students the role of computer graphics engineering science. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(03), 97-100.
2. Rustamovich, H. B., & Abdurafikjonovna, A. H. (2024). Theoretical solutions for integrative teaching of fine arts and engineering graphics with various disciplines of still life, consisting of geometric shapes in pencil painting. *International Journal of Advance Scientific Research*, 4(03), 102-106.
3. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
4. Haqberdiyev, B. R., Ismag'lova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). Raqamli texnologiyalarda arxitektura va dizayn. *Academic research in educational sciences*, (Conference 1), 65-66.
5. Haqberdiyev, B., & Ismag'lova, M. (2025, June). Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarining grafik va ijodiy kompetentligini shakllantirish. In "O'ZBEKISTON—2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (Vol. 1, No. 2, pp. 106-108). Scienceproblems Team LLC.
6. Haqberdiyev, B., Sotiboldiyev, A., & Abdumutalibov, O. (2025). Muhandislik grafikasi va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn (texnik va san'at) fanlarini o'zaro integratsiyalash. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(6), 543-546.

Received: 4 August 2025
Accepted: 10 August 2025
Published: 30 August 2025

Article / Original Paper

ANALYSIS OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN IMPROVING THE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Kutliyeva Feruzakhon Yusupovna,

Teacher of the Department of “Pedagogy and Primary Education Methodology” of Urgench Innovation University,
Independent Researcher of UrSU

Abstract. This article analyzes the best practices of foreign countries in developing and improving the professional competence of primary school teachers. The article examines modern approaches to improving the quality of education, teachers' professional development systems, methodological guides, and the processes of forming competence through innovative educational technologies. The article contains scientific and practical recommendations aimed at improving the processes of teacher professional development.

Keywords: future primary school teacher, professional competence, advanced foreign experience, professional development systems, innovation, coaching project, pedagogical technologies.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna,

Urganch innovatsion universiteti,
“Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: feruzahonkutlieva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish borasida xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, o'qituvchilarning malaka oshirish tizimlari, metodik qo'llanmalar hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali kompetentlikni shakllantirish jarayonlari o'rganilgan. Maqola o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy kompetentlik, ilg'or xorijiy tajriba, malaka oshirish tizimlari, innovatsiya, murabbiylik loyihasi, pedagogik texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI7Y2025N41>

Kirish. Zamonaviy dunyo boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga o'quvchilarda asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash bilan bog'liq yangi talablarni qo'yimoqda. Ushbu talablarni amalga oshirishga qodir malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har tomonlama va samarali ta'limi o'quvchilarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba ushbu yo'nalishda o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha qimmatli g'oyalarni taqdim etadi. Innovatsion yondashuvlar, universitet va maktab hamkorligi va shaxsiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabda va hayotda muvaffaqiyatga tayyorlay oladigan har tomonlama rivojlangan, yuqori samarali o'qituvchilarni rivojlantirishga yordam beradi. Universitetlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yuqori sifatli tayyorgarligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular: nazariy ma'lumot va pedagogik bilimlarni beradi. Innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlaydi. Amaliy imkoniyatlarni taqdim etish uchun maktablar va jamoalar bilan hamkorlik qilish. O'qituvchilar malakasini oshirish sifatini baholaydilar va ta'minlaydilar. Ilg'or xorijiy tajriba boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha mahalliy dasturlarni takomillashtirish bo'yicha qimmatli saboqlarni taqdim etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda maktablar ham muhim o'rin tutadi. Ular: yo'naltirilgan amaliyot uchun imkoniyatlar yaratadi. Talabalarga maslahat va yordam beradilar. Ta'lim samaradorligini baholab fikr-mulohazalarni taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan [1]. Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida chet elda o'qituvchilar malakasini oshirishning ijobiy tajribasini o'rganish va hisobga olish katta istiqbolga ega. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi NIZOMning "Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish shakllari va bosqichlari" to'g'risidagi 3-bobning 9-bandida: "Xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish – ishdan ajralgan holda, to'g'ridan-to'g'ri shaklda xorijiy mamlakatlarda kasbiy va pedagogik mahoratini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-metodik darajada amalga oshirish, axborot texnologiyalari va o'qitishning interaktiv metodlari bo'yicha kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni oshirish. Xorijiy mamlakatlarda stajirovka o'tash – malaka oshirish shakllaridan biri bo'lib, ishdan ajralgan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy mamlakatlarda ish tajribasi, amaliy ko'nikmalari va kasbiy bilim darajasiga ega bo'lish maqsadida ma'lum vaqt davomida bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish [3] keltirilgan". Xorijiy maktablar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda subyekt-obyektdan subyekt-subyektga, dialogik munosabatlarga aniq belgilangan o'tish bilan tavsiflanadi, har bir talaba o'z salohiyatini to'liq amalga oshirishni

nazarda tutadi, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilishga, bo'lajak o'qituvchilarni o'qitishning tashkiliy shakllari va usullarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlardagi pedagogik ta'lim o'qituvchilarga tanlashda ko'proq erkinlik beruvchi, o'quv jarayonini tashkil etishni osonlashtiradigan, o'qitishni individuallashtirishga erishishga imkon beruvchi yangi ish uslublari va turlarini egallashga qaratilgan [4]. O'qituvchilarning ishi muntazam ravishda malaka oshirish bilan bog'liq. Bolalar mamlakat kelajagi. Shuning uchun o'qituvchi o'tmishda qolib ketmasligi kerak. Bundan shunday aksioma kelib chiqadi: boshqalarga o'rgatish uchun chaqirilgan kishi o'zi o'rganishi kerak.

Mamlakatimizda maktab ta'limi quyidagi yo'nalishlarda isloh qilinmoqda:




Asosiy Qonunning 52-moddasiga [5] muvofiq, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlat taraqqiyotining, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini asrab-avaylash va yuksaltirishning asosi sifatida e'tirof etilgan. Davlat pedagoglarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy o'sishi haqida g'amxo'rlik qiladi. Umuman olganda, barchamiz o'qituvchilar mehnatini hurmat qilishimiz, ularning kasbiy va ma'naviy salohiyatini qadrlashimiz kerak.

Xorijiy ilmiy manbalarni tahlil qilib, turli mamlakatlarda yosh bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik, metodik va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga savodli ko'maklashishga o'rgatiladigan o'qituvchi-murabbiylarni tayyorlash bo'yicha maxsus kurslar (seminarlar) ishlab chiqilganligini aniqladik. Ushbu kurslar, qoida tariqasida, qisqa muddatli bo'lib, yosh o'qituvchilar bilan kasbiy shakllanishining turli bosqichlarida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan murabbiyning shaxsiy fazilatlarini (bag'rikenglik, xushmuomalalik, hamdardlik, o'z fikrini o'tkazmasdan yordam berish va boshqalar) rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Kurslar (seminarlar) murabbiyning o'z kasbiy faoliyati to'g'risida refleksiya qilish ko'nikmasini rivojlantirishga va natijada yosh o'qituvchining kasbiy faoliyatini yaxshilash uchun o'z kasbiy faoliyati to'g'risida refleksiya qilish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. 2005-yilda AQShda virtual murabbiylik loyihasi ishga tushirildi, unda pedagogik mutaxassislik bo'yicha tahsil olayotgan va kelajakda maktabda ishlashni rejalashtirgan universitetlarning yuqori kurs talabalari va tajribali o'qituvchilar murabbiy sifatida ishtirok etishdi. Murabbiylar talabaning ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlaydigan

(bir xil fanni olib boradigan va bo'lajak o'qituvchi ishlashni rejalashtirgan bir xil yosh guruhida ishlaydigan), amaldagi sertifikatga va kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar edi. Loyiha boshida talabalarga bo'lajak ustoz bilan tanishish uchun so'rovnom (refleksiv) va xat varianti taklif etildi. Ustozlar bilan muhokama qilish mumkin bo'lgan savollar taklif etildi: ijtimoiylashuv masalalari, bilimlarni baholash, sinfni boshqarish, o'quv rejalari va resurs materiallarini tuzish, konferensiyalarda ishtirok etish, o'qitish strategiyasi, sertifikatlash. Loyihani amalga oshirish muddati olti hafta bilan cheklanganligi sababli, talabalar o'zlarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha savollar berishdi. Murabbiylardan javob olgandan so'ng, ishtirokchi talabalar refleksiv jurnalni to'ldirishlari kerak edi. Loyihaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan elektron murabbiylik uni o'tkazish vaqti va joyidan qat'i nazar, murabbiy va uning tarbiyalanuvchisi o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini berishini ta'kidladilar. Fikrimizcha, elektron murabbiylik dasturlarining ishlab chiqilishi boshlovchi o'qituvchilarning ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olishini uzluksiz ta'minlaydi. U yangi o'qituvchining ta'limini uyga yaqinlashtirishga yordam beradi va har bir kishiga istalgan vaqtda malakali mutaxassisdan maslahat olish, yuzaga kelgan muammoning to'g'ri yechimini o'z vaqtida topish, natijada kasbiy kompetentlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Mentorlik kouching, fasilitatsiya, maslahat berish va aloqalar tarmog'ini yaratishni o'z ichiga oladi. "O'z shogirdingizni bilim va tajriba bilan hayratda qoldirishingiz shart emas. Faqat ustoz shogirdning ruhini ko'tarib, uni rag'batlantirib, o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqini u bilan baham ko'rishi kerak" [6].

Murabbiy yosh o'qituvchi bilan maslahatchi, xodim yoki murabbiy sifatida ishlayotganda maktabda quyidagi ish shakllarini qo'llashi mumkin:



Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim siyosati murabbiylik orqali yangi o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mamlakatlar ta'lim tizimini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan.

Xorijda boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari odatda quyidagi asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan:



O'qituvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish uchun turli xil innovatsion yondashuvlar qabul qilinadi, masalan:

Loyihaga yo'naltirilgan ta'lim: talabalar nazariyani o'qitishning haqiqiy amaliyoti bilan bog'laydigan amaliy loyihalarda qatnashadilar.

Texnologiyadan foydalanish: texnologiya ta'limni qo'llab-quvvatlash, tabaqalashtirilgan o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish va fikr-mulohazalarni yaxshilash uchun ishlatiladi.

Maktablar bilan hamkorlik: talabalar tajriba va fikr-mulohazalarga ega bo'lgan tajribali o'qituvchilar rahbarligida maktablarda amaliyot o'tashadi.

Individual yondashuv: o'quv dasturlari talabalarning kuchli tomonlari, qiziqishlari va martaba maqsadlarini hisobga olgan holda individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba ijtimoiy ahamiyatga ega kasblar tizimida o'qituvchilik kasbining mavqeyini oshirish kabi muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi; pedagogika universiteti tarmog'ini optimallashtirish; oliy ta'limning ta'lim muhiti subyektlarining akademik harakatchanligini rivojlantirish; pedagogik kadrlar malakasini oshirishning birlashgan tizimi. Modernizatsiyaga misol sifatida Buyuk Britaniyadagi malaka oshirish dasturlari bo'lishi mumkin: maktabga asoslangan o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari (School Centered Initial Teacher Training), tez marshrut deb ataladigan dasturlar (Fast Track Programs) [7]. Dunyoning turli mintaqalarida: Singapur, Kanada va Finlyandiyada o'qituvchilarni tayyorlashning eng samarali ta'lim modellari mavjud. O'rganilayotgan hodisaning analogi va uni idrok etishning soddalashtirilgan formati bo'lgan modelni tavsiflash uchun quyidagi tizim xususiyatlari olingan: mamlakatda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining asosiy tamoyillari va yondashuvlari; o'qituvchilik mutaxassisliklariga abituriyentlarni tanlash tizimi; pedagogik kadrlar tayyorlash mazmunining umumiy tavsifi; ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablar (malakaviy komponent); malaka oshirish shakllari (pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish).

Oliy o'quv yurtida o'qituvchilarni tayyorlashga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda o'quv jarayoniga boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi darajasini oshirishga qaratilgan interfaol o'qitish usullarini joriy etish zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash jarayonida quyidagi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim usullaridan biri bu maktabda ijodiy, individual uslubni shakllantirishni nazarda tutuvchi innovatsion faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini oshirishdir. Shu munosabat bilan universitetning o'quv jarayonida talabalarning tadqiqot va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Aynan shu ish bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy maktab nazariyasi va amaliyotidagi yangiliklarni ko'ra bilish, maktab oldida turgan muammolarning nostandart yechimlarini izlash va ularni amalga oshirish bosqichiga olib chiqish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Bunday ishlarni tashkil etish tizimi bosqichma-bosqich yondashuvni (tadqiqot ko'nikmalarining murakkabligi sababli), shuningdek, o'quv rejasining barcha fanlarini o'rganish, ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni amalga oshirish, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni yozishda tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishdan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etishiga o'tishni talab qiladi. Bunday ishlarni tashkil etish shartlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olish imkoniyatlarini o'rganish muammosidir. Tabiiyki, bunday tizimni boshqarish maxsus dastur ishlab chiqish, shuningdek, iqtidorli talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun individual dasturlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Xulosa. Ilg'or xorijiy tajriba bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga yondashuvni o'zgartirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ularda doimiy ravishda kasbiy mahoratni oshirish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini rivojlantirish muhimdir. Kelgusida raqobatbardosh va samarali ta'lim tizimini yaratish uchun ilg'or tajribalarni mamlakatimiz pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga integratsiyalashga e'tibor qaratish hamda seminarlar, konferensiyalar va boshqa ta'lim tadbirlarida ishtirok etish orqali o'qituvchilik amaliyotini takomillashtirishga ko'maklashish zarur. Shuningdek, yana bir muhim jihat – bo'lajak o'qituvchilarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirishdir. Bu ularga maktabda ishni samarali muvofiqlashtirish, ota-onalar va o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlik qilish, o'quvchilarning iste'dodlarini rivojlantirish va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish imkonini beradi. Ushbu tajribalarni o'z ta'lim tizimimizda qo'llash, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentligini

oshirishga katta yordam beradi. Har bir mamlakatning yondashuvlari o'zining xususiyatlariga ega bo'lib, ularni o'z sharoitlarimizga moslashtirish va joriy qilish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://lex.uz/docs/-4749364>
2. 12-b. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Darslik. - T.: Sano-standart, 2017.
3. <https://lex.uz/ru/docs/-4526545?ONDATE=12.07.2024>
4. Богомолова, Е.В. Зарубежный опыт подготовки преподавателей.- Рязань: Рязанский государственный университет, 2006. - С.220.
5. Конституция Республики Узбекистан <https://constitution.uz/ru/site/search?q=%D0%BE%D0%B1&page=5>
6. Коучинг в обучении: практические методы и техники / Э. Парслоу, М. Рэй. - СПб.: Изд-во Питер, 2003, 91-с.
7. Петрова В.И. Компаративный анализ систем подготовки педагогических кадров в современном мировом образовательном пространстве // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1-1. [Электронный ресурс]. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=17209>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/7 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).